


**G'.N.UZOQOV, K.S.SHAMSIEV,
I.N.QODIROV, E.S.ABBASOV,
T.YA.HAMRAYEV**

**YUQORI HARORATLI JARAYONLARI
VAQURILMALAR**

DARSLIK



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

G'.N.UZOQOV, K.S.SHAMSIEV,

I.N.QODIROV,E.S.ABBASOV,

T.YA.HAMRAYEV

**YUQORI HARORATLI JARAYONLARI
VAQURILMALAR**

DARSLIK

**5310100 - Energetika (issiqlik energetikasi) bakalavr yo'nalishi
talabalari uchun**

UO'K:621.1.620.9

KBK 84(50') 6267

Taqrizchilar

QarDU «Kasb ta'lim» kafedrasining mudiri
dots. Af.A.Vardiyashvili
QarMII «Issiqlik energetikasi» kafedrasining
dotsenti I.Muradov

Ushbu darslik Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti ilmiy Kengashining

№ 7 "25" 02.2020 yilgi qarori bilan ma'qullangan va o'quv jarayonida
foydalanishga tavsiya etilgan.

Annotasiya

Darslikdayuqoriharoratliqurilmalarningguruuhlanishi, tuzilishivaishlash prinsipini, ularningtarkibiyqismlarivayordamchiququrilmalari, sanoatpechlarining konstruksiyasi, energetikxarakteristikalar, issiqlik almashuvi va issiqlik hisobi keltirilgan. Yuqori haroratlari jarayonlarni matematik modellash, shu jarayonlar amalga oshiriladigan qurilmalarni avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari to‘g‘risida ham ma’lumotlar bayon qilingan.

Аннотация

В учебнике приведены и рассмотрены конструкции высокотемпературных установок, принцип работы установок, их конструктивные и вспомогательные элементы, энергетические характеристики, а также тепломассообменный и тепловой расчеты. В учебнике освещены методы математического моделирования процессов в высокотемпературных установках, практикуемые системы автоматизации установок.

**Kitobxonlikni keng yoyish va yoshlаримизнин
kitobga bo'lgan muhabbatini, ularning ma'naviy
immunitetini yanada oshirish zarur.**

SHAVKAT MIRZIYOYEV

K I R I S H

Mamlakatimizda 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida barcha soha va tarmoqlarda ulkan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob maxsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora – tadbirlar dasturi" to'g'risidagi 2017 yil 13-sentyabrdagi qarorida quyidagilar keltirilgan:

-lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosidagi ilmiy-texnik, adabiy-badiy va ensiklopedik adabiyotlarni yanada ko'paytirish bo'yicha aniq chora tadbirlar ishlab chiqish;

- oliv o'quv yurtlari uchun darsliklar, o'quv qo'llanmalari, o'quv – uslubiy, ilmiy nazariy manbalarni joylashtirish, bunday maxsulotlarni arzon narxlarda sotib olish mexanizmlarini yo'lga qo'yish bo'yicha takliflar tayyorlash kabi bir qancha muhim topshiriqlar belgilab berilgandir.

Demak, zamонавијетук билимли, юқори малақали кадрларни тайyorlash, яни комил инсонни шакллантришда юратиляётган о'кув адабиётиларни о'рни беқиёсадир. Шунингдек, «Юқори гароратли жаронлар ва қурилмалар» фанини **o'qitishdan maqsad** - талабалар изхлаб чиқаришдаги texnologiyani, юқори гароратли жаронлар 31 ва қурилмаларнинг гурӯхланishi ва қандай номланishini, ularning tuzilishi va ishslash prinsipini, ularning тарқибија qismlari va yordamchi қурилмаларини, юқори гароратли жаронлар ва қурилмалarda energiyaning bir turdan boshqa turga аylanish жаронларини ва саноат pechlaridagi FIK va quvvati, ularning ish rejimlari va

energetik xarakteristikalari, yuqori haroratli qurilmalarning issiqlik xisobi, izolyatsiya materiallarini tanlash uchun ko‘rsatma, pechlarning konstruksiyasi, havo so‘rvuchi qurilmalar, pech qurilmalari yonish kameralari kabi ma’lumotlarni to‘liq o‘zlashtirishi lozimdir.

O‘quv fanini o‘rganishning asosiy vazifalari: talabalar sanoatdagi yuqori haroratli qurilmalar haqida kompleks bilim olib, olgan bilimlaridan foydalangan holda qo‘yilgan talablarga javob bera oladigan sifatda pech detallarini yig‘a bilishi, ularning ichida kechadigan issiqlik jarayonlarni, marten pechlari, domna pechlari, qoplama devorlar orqali yo‘qotishlar to‘g‘risidagi bilimlarni to‘la o‘zlashtira olishlari lozim.

Ushbu darslikda berilayotgan ma’lumotlar Respublikamizda ta’lim olayotgan talabalarning yetuk va malakali kadrlar bo‘lib yetishishlariga hizmat qilib, ularda fan bo‘yicha amaliy va nazariy ko’nikma larni hosil qilishda yordam beradi, hamda ulardan kelajakda unumli foydalanishlarida asos bo‘lib xizmat qilishiga munosib hissa qo‘shishi sho‘bhasizdir.

Ushbu kitob hurmatli ustozimiz
dots. A.U. ALIMBOEVning yorqin
xotirasiga bag'ishlanadi

I-BOB. YUQORI HARORATLI JARAYON HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHА

1.1.Sanoat pechlari haqida tushunchalar

Tayanch iboralar: *sanoat pechlari, elektrik pechlar ,buyumlarga issiqlik bilan ishlov berish, materialni qizdirish va eritish, g'isht va chinnini buyumlarni pishirish, bog'lovchi materiallar.*

Yuqori haroratli jarayonlar: metall, mashinaqismlari, kimyomahsulotlari, qurilish va boshqa materiallar korxonasining asosi hisoblanadi. Bu jarayonlar **sanoat pechlarida** oxirigi mahsulot olish yoki kerakligicha ishlov berish amalga oshiriladi.

Bu jarayon yuqori haroratlarda: masalan, marten pechida po'latni yoritish uchun 1800-2000⁰C, temirchilik pechlarida po'latniqizdirish uchun 1300-1500⁰C; o'tga chidamli materialarni pishirish uchun esa 1500-1800⁰Cva yana yuqori harorat hosil qilish uchun **elektrik pechlar** ishlatiladi.

Ma'lum texnologik jarayonni bajarish uchun, pechlar murakkab issiqlik energetika agregatlaridan tashkil topib, ulardako'p miqdorda yoqilg'i iste'mol qilinadi.

Yoqilg'i iste'mol qilinishi umumiyoqilg'inining 60% tashkil qiladi, shuning uchun pechlarda yoqilg'idan to'g'ri foydalanish xalq ho'jaligi uchun asosiy masala hisoblanadi.

Ma'lumki, bir necha zavodlar eritish jarayonini intensivlash, korxonani yaxshi tashkil etish va issiqlik yo'qolishidan foydalanish hisobiga foydali ish koeffitsentini 40-50% oshiradi. Sanoat pechlaridan chiqayotgan gazlardan yuqori haroratli issiq havo olish, kombinatsiyalashgan energotexnologiyani qo'llash, yoqilg'idan to'g'ri foydalanish hisobiga nisbiy yoqilg'ini sarfini pasaytirish, yuqori

foyDALi ish koeffitsenti beradigan pechlar kurish imkoniyatiga ega.

Yuqori haroratlI texnologik jarayonlar asosida metallarni va jismlarni issiqlik bilan ishlov berish yotadi.

Metallarni qizdirish va eritish, qurilish va o'tga chidamli g'ishtlarni pishirish, farfor va keramik jismlarni pishirish, farfor va keramik jismlarni pishirish, oyna olish, yoqilg'ini termik ishlov berish va boshqalar. Bu jarayonlar sanoat pechlarida amalga oshirilib, ularda material va buyumlarga yuqori haroratlI sharoitda keying ishlovlar berish yoki tayyor mahsulot sifatida chiqarish uchun zarur bo'lgan xossalalar beriladi. Masalan, qizdirish pechlarida ishlov berilgandan keyin yarim mahsulotlar chig'irib yoyish va bolg'alash uchun zarur bo'lgan cho'zuvchanlik va oquvchanlikka ega bo'ladi. Chuyan quyish va grankalarida chuyan qattiq holatdan suyuq holatga o'tadi va bu holatdau quymaqolip bo'shlqlarini yaxshi to'ldiradi. Ba'zi termik pechlarda po'lat buyumlar qizdiriladi, undan keyin esa, oldindan belgilangan tartibda sovitiladi, buning natijasida ma'lum mexanik xossalarga ega bo'lishga erishiladi (yumshatish, bo'shatish, normallash, toplash). Po'lat buyumlarga kimyoviy-termik ishlov beriladigan pechlarda metal yuzasini karbon yoki azot bilan to'yinishi (tegishlicha: sementlash va azotlash)ni osonlashtirish uchun ular qizdiriladi va hokazo. Pechlarda qator murakkab jarayonlar sodir bo'ladi—gazga aylanish va yoqilg'ining yonishi, ishchi bo'shlqdA tutun gazlarining harakatlanishi, ishlov berilayotgan materialga alanga va tutun gazlaridan issiqlikning uzatilishi, issiqlikning buyum yuzasidan ichkari qatlamlariga o'tishi va hokazo. Bu jarayonlarning barchasi o'zaro bog'langan. Ular ichida **eng muhimlari issiqlik uzatish jarayonlari** hisoblanadi.

1822 yili Fransuz olimi Fure qattiq jismlar ichida issiqlikning tarqalish nazariyasini bayon qildi va "Issiqlikning analitik nazariysi" nomli asarida jismlar qizdirilishining xususiy hollarini echishni³¹ ko'rsatib berdi.

1905-1909 yillarda V.E. Grum-Grjimaylo "Pechlarning gidravlik nazariyasi" ni e'lon qildi, unda gazlarning tabiiy harakatlanishiga asoslagan pechlarni qurishning asosiy tamoyillari ishlab chiqilgan edi. I. G. Esman (1910y.) gidravlik nazariyaning matematik asosini yaratdi. Pechlarning keng ko'lamli issiqlik

hisobi birinchi marta N.E. Skaredov tomonidan bajarildi. (1912-1915 y.). Akademik M.V. Kirpichev va uning safdoshlari (A. A. Guxman, M. A. Mixeev, G. P. Ivansov va boshqalar) tomonidan fizik jarayonlarning o‘xshashlik nazariyasi bo‘yicha bajarilgan ishlari issiqlik texnikasi fanining rivojlanishiga bebaho hissa bo‘lib qo‘sildi. Shundan keyin pechlardagi issiqlik almashinuviga oid murakkab masalalarni laboratoriya sharoitida urganish imkoniyati tug‘ildi.

Hozirgi paytda issiqlik almashinuvi, issiqlik muvozanati, gaz mexanikasi va yoqilg‘i yonishining qonun-qoidalariga asoslangan pechlar nazariyasi xalq xo‘jaligining turli sohalari uchun yuqori unumli va yuqori samarali pechlarni qurish imkonini beradi.

1.2. Sanoat pechlarining tasnifi

Tayanch iboralar: *metallurgiya pechlari, mashinasozlik korxonasining pechlar, aylanma barabanli texnologik q’urilmalar, elektr energiyasida ishlovchi energetik qurilmalar, sement tayyorlash pechlari, metallurgiyada ishlatiluvchi erituvchi pechlar.*

Pechlarning turlari juda ko‘p bo‘lishiga qaramay, ularni birlashtiruvchi umumiyligi tomonlari mavjud. Bu umumiyligini tasniflash uchun asos qilib olinadi. Masalan, pechlarni quyidagi xususiyatlar asosida sinflarga bo‘lish mumkin:

1. Ishlab chiqarish turi va texnologik vazifasi bo‘yicha pechlar quyidagi turlarga bo‘linadi:

- a) Metallurgiya pechlari - domna pechlari (*cho‘yan eritish*), marten pechlari (*po‘lat eritish*), qizdirish pechlari, termik pechlari;
- b) Mashinasozlik korxonasining pechlari - *quyish vagrankalari*;
- v) Sement tayyorlash pechlari;
- g) Silikat buyumlarni toplash (*pishirish*) pechlari.

2. Issiqlik sxemasi, konstruktiv va ish holatlarining belgilari bo‘yicha pechlar quyidagi turlarga bo‘linadi:

- a) *Ishchi bo 'shliqning shakli bo 'yicha-kamerali, tunelli, shaxtali, aylanuvchi barabanli va hokazo.*
- b) *Ishlash holatlari bo 'yicha - uzluksiz ishlaydigan pechlar, davriy ishlaydigan pechlar;*
- v) *Mexanizatsiya darjasи bo 'yicha - mexanizatsiyalanmagan va mexanizatsiyalangan pechlar.*


3.Energetik va aerodinamik belgilari bo'yicha quyidagi turlarga bo'linadi:

- a) *Issiqlik almashuvi usuli bo 'yicha - yuqori haroratli radiatsion pechlar, past haroratli konvektiv pechlar, harakatsiz qatlamlı, mavhum qaynovchi qatlamlı, muallaq qatlamlı pechlar;*
- b) *Siklonli pechlar;*
- v) *Issiqlikni regeneratsiyalash usuli bo 'yicha - regenerativ va rekuperativ pechlar;*
- g) *Energiya manbai bo 'yicha - alangali (yoqilg'ili) va elektr pechlari;*
- d) *Yoqilg'i turi va uni yoqish usuli bo 'yicha - mazut pechlari, gaz pechlari va hokazo;*
- e) *Qizdirish usuli bo 'yicha - **bevosita** qizdirish pechlari (tutun gazlari buyumlar bilan to'qnashadi) va **bilvosita** qizdirish pechlari (tutun gazlari buyumlardan devor bilan ajralgan).*

Pechlarda bir vaqtning o'zida turli yonish, issiqlik almashuvi, diffuziya va gaz dinamikasi jarayonlari yuz beradi, ammo bularning ichida eng ahamiyatlisi issiqlik almashuvi bo'yicha to'g'ri tasniflash juda muhimdir.

1.3. Sanoat pechlarining prinsipial sxemalari

Sanoat pechlarining umumiyligi sxemasi 1.1-rasmida ko'rsatilgan.



1.1- rasm. Pechning umumiyligi sxemasi.

1- yoqish qurilmasi; 2 - ishchi bo'shlig; 3 - regenerativ qurilma; 4 - qozon utilizator;
5- tutun so'rg'ich; 6-havo haydagich.

Yoqish qurilmasida yoqilg'ining kimyoviy energiyasi fizik issiq gazga aylanadi, uning bir qismi metalga ishlov berish uchun beriladi. O'txonada har xil yoqilg'i yoqilishi mumkin: gazsimon (tabiiy gaz, koksli, generatorli va boshqalar), suyuq (mazut) va qattiq (tosh ko'mir, koks, antratsit, yog'och va torf).

Pechning ishchi bo'shlig'ida kerakli texnologik jarayon amalga oshiriladi: (eritish, har xil jismlarni qizdirish va boshqalar). Ishchi bo'shlig'ining ko'rinishi har-xil bo'ladi: kamerali, shaxtali, tunelli va boshqalar: Ishchi bo'shlig'ida tutun gazi to'xtovsiz harakatda bo'ladi. Gazning harakati issiqlik almashuv jarayonida katta rol o'ynaydi. Ishchi bo'shlig'ining razmeri pechning unumdorligiga va uning ishlarida issiqlik rejimiga bog'liq. Ishchi bo'shlig'ida yuqori haroratli tutun gazini saqlash uchun pechning devorlari o'tga chidamli va issiqlik izolyasiyasi materiallardan

koplanadi.

Regenerativ qurilmada pechdan ishchi bo'shlig'idan chiqayotgan tutun gazining fizik issiqligi issiqlik tashuvchiga aylanadi va yana pechning ishchi bo'shlig'iga jo'nataladi.

Pechdan chiqayotgan tutun gazini issiqligi havoni va gazsimon yoqilg'ini yoki havoni isitish yordamida regeneratsiya hosil bo'ladi.

Havo va gazsimon yoqilg'ini qizdirib berilishi yonilg'ini yonish haroratini oshiradi, bu esa pechning ishchi bo'shlig'idan haroratining oshishiga olib keladi. Masalan: marten pechida po'latni o'ritish uchun, shu pechning ishchi bo'shlig'ida alanga 1800-2000 °C haroratda bo'lish kerak, uning uchun havoni va gazni 1000-1200°C qizdirish kerak.

Havo va gazni qizdirib berish, pechning ishlash tejamligini oshiradi, ya'ni yonilg'ini nisbiy sarfini kamaytiradi va foydali ish koeffitsentini oshiradi.

Sanoat pechlarning umumiy sxemasida havoni va gazsimon yonilg'ini qizdirib beradigan qurilmaga **regenerator** va **rekuperator** deyiladi.

Sanoat pechlarningprinsipial sxemalari va ularning tuzilishi quyidagilarga bog'liq:

1) Texnologik jarayonning turiga;

2) Materialga qizdirib ishlov berishning sifatiga qo'yiladigan talablarga;

3) Ishlab chiqarish ko'lamiga; foydalaniladigan energiyaning turiga va hokazo.

Umuman olganda, yoqilg'inining (energiyaning) kichik solishtirma sarflarida yuqori solishtirma unumdarlikni ta'minlaydigan sxema shu pechning eng yaxshi texnologik sxemasi sanaladi.

Yuqori unumdarlik, birinchidan, texnologik jarayonning uzluksizligi bilan va ikkinchidan, issiqlik hamda massa almashuvining jadalligi bilan belgilanadi;

Bularga quyidagi yo'llar bilan³¹ erishiladi:

1) yoqilg'ini yoqish uchun beriladigan havoni oldindan qizdirish yo'li bilan pechdagи umumiy haroratni oshirish. Bu asosan eritish pechlarida amalga oshiriladi. Masalan, po'lat, shisha va boshqa materiallar eritiladigan regenerativ pechlarda yonish uchun beriladigan havo 1000-1200°S gacha qizdiriladi, buning

natijasida mazut yoki tabiiy gaz yonish alangasining harorati keskin ortadi. Agar past kaloriyalı domna va generator gazlaridan foydalanilsa, faqat havo emas, balki gaz ham qizdiriladi.

2) yoqilg‘ining yuqori uyurmali oqim sharoitida yoqish (mavhum qaynovchi qatlamlı pechlarda).

3) markazdan qochma kuch ta’siridan foydalanib havo va gaz oqimini uyurmalash natijasida issiqlik va massa almashuvi jarayonlarini keskin jadallashtirish.

4) qizigan gazlar oqimining yuqori tezligidan foydalanish (yuqori tezlikli qizdirish pechlarida)

5) o’txona devorining haroratini maxsus yassi alangali yoqgichlar yordamida jadal qizdirish hisobiga oshirib, ular orqali issiqlikni buyumlarga uzatish.

6) domna pechlarining ishchi bo‘shlig‘idan bosimni oshirish.

Yuqorida keltirilganlardan tashqari pech qurilmasi yaxshi ishlashining asosiy shartlaridan biri qizdirish jarayonining uzlusizligidir. Bunga pechning ishchi bo‘shlig‘ida materialning uzlusiz harakatlanishini ta’minlash natijasida erishiladi: shaxtali pechlarda gravitatsion kuchlar hisobiga; tunelli pechlarda yuklangan aravachalarni maxsus itarish moslamalari yordamida harakatlantirish; turli konveyrlarni qo‘llash va hokazo.

Issiqlikni ishlatish qurilmasi

Issiqlikni ishlatish qurilmasi pechdan chiqayotgan gaz issiqligini ishlatish uchun xizmat qiladi. Ko‘p hollarda pechning ishchi bo‘shlig‘idan chiqayotgan gazning harorati, gazsimon yonilg‘ini va havoni keraklicha isitish haroratdan katta bo‘ladi. Bu hollarda issiq suv va bug‘ olish uchun qozon-utilizator o‘rnataladi, bu korxonaning texnologik maqsadi, isitish qurilmalari va ventilyasiya uchun ishlatiladi. **Qozon-utilizatorning ishlaishi pechning umumiyligi issiqlik tejamligini bir muncha oshiradi.**³¹


So‘rish qurilmasi pechdan materialga ishlov berish natijasida hosil bo‘ladigan gazsimon mahsulotlarni va tutun gazini havo chiqarish uchun xizmat qiladi. Ko‘p hollarda pechning ishchi bo‘shlig‘idagi tutun gazi bir muncha nisbiy

bosim ostida bo‘ladi va uning shu bo‘shliqdagi harakati so‘rish qurilmasining ta’sirsiz amalga oshadi. So‘rish sun’iy yoki so‘rish qurilmasi yordamida amalga oshiriladi. Haydash qurilmasi haydash ventilyatoridan tashkil topgan bo‘lib, yonilg‘ini yonish uchun kerak bo‘ladigan havoni etkazib beradi. Mexanik jihozlar, pechning ishchi bo‘shlig‘idagi qizdirilayotgan jismlarni xarakatlantirishni jihatni tushirishni mexanizatsiyalash uchun xizmat qiladi. Pechni mexanizatsiyalanishi pechning unumdorligini oshishiga, ishchilarning ish kuchining minumumigacha kamayishiga va ishchilarni ish sharoitini yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Pechda bo‘ladigan jarayonlar juda murakkab bo‘lganligi sababli, uning to‘g‘ri ishlashini amalga oshirish uchun issiqlik harorati asbobi bilan ta’milanadi. Bundan tashqari pechda bo‘ladigan jarayonlarni boshqarish uchun pech avtomatik rostlash asbobi bilan jihozlanadi.

“Yuqori haroratli jarayonlar va qurilmalar” faninidantuzilgan

klaster



Nazorat savollar

1. Sanoatpechlarihaqidatushunchabering.
2. Yuqoriharoratljarayonlarqandayguruuhlanadi?
3. Pechlarprinsipigako ‘raqandayguruuhlanadi?
4. Issiqlikjarayonixarakterigako ‘rapechlarqandayguruuhlanadi?
5. Sanoatpechlaringprinsipialsxemasinitushuntiribbing.


II - BOB. YOQILG'I BILAN ISHLAYDIGAN PECHLAR

2.1.Tunelli va shaxtali pechlar

Tayanch iboralar: *Tunnelli pech ,Shaxtali pech, dolomitli g'isht, Material va yoqilg'i, Konveksiya usulida issiqlik almashinuvi, jiltdan (kojuk), vaterjaketlar, Tashqi va ichki issiqlik almashinuvi.*

Turli qurilish materiallari; sement, ohak, g‘isht, utga chidamli materiallar (shamot, magnezit), sopol, chinni va boshqa buyumlarni toplash (pishirish) jarayonlarida material yuqori haroratlargacha qizdiriladi, undan keyin havo bilan sovitiladi. Qizdirish va sovitish ishlari materialning turiga qarab ma'lum tartibida olib boriladi.

Tunnelli pech uzlucksiz ishlaydigan qurilma bo‘lib, uning uchun regenerator yoki rekuperator ko'rinishidagi alohida regenerativ moslama talab qilinmaydi. Tunnelli pechning sxemasi 2.1- rasmdakeltirilgan.



2.1- rasm. Tunnelli pechning sxemasi.

1 - yonish mahsulotlari; 2 - yuklash; 3 - yoqilg'i; 4 - ortiqcha havo; 5 - sovitish uchun beriladigan havo.

Bu pechning asosini uzun (80-120m) tunnel (yo‘lak) tashkil qiladi, uning ichida ishlov beriladigan material ortilgan aravachalar harakat qiladi. Ular turtgich yordamida davriy ravishda ma'lum masofaga siljitib turiladi. Pech uzunligi

bo‘yicha uch bo‘limdan iborat: isitish bo‘limi, yuqori haroratlar bo‘limi va sovitish bo‘limi.

Yoqilg‘i o‘txonada yoqiladi; bu erga havo sovitish bo‘limidan keladi, u sovitilayotgan buyumlar issiqligi hisobiga qisman isitiladi.

Yonish mahsulotlari o‘txonadan chiqib, tunnelning ishchi bo‘shlig‘iga o‘tadi va sekin siljiyotgan buyumlar tomon harakatlanib, ularga o‘z issiqligini beradi. Tutun gazlarining issiqligidan foydalanish darajasi isitish bo‘limining uzunligiga va gazlardan buyumlarga issiqlik berilishining jadalligiga bog‘liq.

Pechdan chiqib ketuvchi gazlarning harorati nisbatan past bo‘lib, 150-250°C ga teng. Qizigan buyumlarning fizik issiqligi yonishga beriladigan havoni isitish uchun foydalaniadi. Pechning sovitish bo‘limidan chiqqan havo uning o‘txonasiga o‘tadi va yoqilg‘ini yoqish uchun ishlataladi. Havoning qolgan qismi esa, tunnel bo‘ylab harakatlanishda davom etib, yonmay qolgan tutun gazlarining to‘la yonishi uchun foydalaniadi.



Tunnelli pechning umumiyo ko'rinishi

Tunnelli pechlarning prinsipial sxemasi eng yaxshi issiqlik sxemalariga qo‘yiladigan talablarning ko‘pchiligiga javob beradi (toblangan buyumlarning issiqligini yuqori darajada regeneratsiya qilish, tutun gazlarini nisbatan past

haroratlarga sovitish) va ularda davriy ishlaydigan kamerali pechlarga nisbatan yoqilg'i sarfi 1,5-2,0 marta kam bo'ladi. Silikat sanoatida qo'llaniladigan halqasimon va ko'p kamerali pechlar shu tunnelli pechlar kabi prinsipda ishlaydi.

Shaxtali pechlar

Tayanch iboralar: *shaxtali pech, dolomitli g'isht, material va yoqilg'i, Konveksiya usulida issiqlik almashinuvi, vaterjaketlar.*

Shaxtali pechning ishchi bo'shlig'i to'g'ri burchakli, dumaloq, chuziq doira shaklidagi kesimga ega bo'lgan shaxtadan iborat. Temir rudasidan cho'yan erituvchi vagrankalar va boshqalar **shaxtali pechlar** turkumiga kiradi.

Isitish (issiqlikni hosil qilish) bo'yicha shaxtali pechlar quyidagi turlarga bo'linadi:

1).ag'darma pechlar;

2) tashqi o'txonali pechlar.


Domna pechi ag'darma pechlarga yorqin misoli bo'la oladi. Ag'darma pechlarda yoqilg'i sifatida koks (domna pechlari) yoki antratsit-boshqa shaxtali pechlarda ishlatiladi. Xom-ashyo va yoqilg'i qatlam ko'rinishida navbatma-navbat yuklanadi. Pechning kesimi bo'yicha yoqilg'i va xom-ashyoning bir tekisda taqsimlangan bo'lishi juda muhimdir.

Material va yoqilg'ini pechga yuklash uchun yagona mexanizmdan foydalaniladi. Ag'darma turdag'i pechlarning ishchi bo'shlig'ida materialni isitish bilan birga yoqilg'ini gazlashtirish jarayoni ham yuz beradi. Oksidlardan birlamchi moddalarni tiklash ishlari amalga oshiriladigan pechlarda (masalan, rudadan temir tiklanadigan domna pechlarida) bu jarayon zarurdir. Domna gazi changlardan tozalangandan so'ng, qozon va pechlar uchun yoqilg'i sifatida foydalaniladi. Cho'yan eritish vagrankalari va boshqa ag'darma pechlarining gazlari juda past yonish issiqligiga ega bulib, ulardan foydalanish ancha murakkabdir.

Odatda bog'lovchi va o'tga chidamli materiallarni toplash (pishirish) uchun qo'llaniladigan pechlar **tashqi o'txonalar** bilan jihozlanadi; bunday o'txonalarda

uchuvchan moddalarni ko‘p miqdorda hosil qiluvchi yoqilg‘ilar (torf, qo‘ng‘ir ko‘mir va boshqalar) yoqiladi. 2.2-rasmda dolomitni toblastash (pishirish) uchun ishlatiladigan shaxtali pech ko‘rsatilgan. U ag‘darma turdag‘i pech bo‘lib, unda koks bilan antratsitning aralashmasi yoqiladi. Shaxta qalin temir qobig‘iga ega, u ichki tomondan o‘tga chidamli shamot va magnezit g‘ishtlari bilan futerovka qilingan. Material bilan yoqilg‘i maxsus yuk ko‘tarish mexanizmi yordamida yuklash apparatiga va undan keyin pechning ishchi bo‘shlig‘iga uzatiladi.

Gazlar shaxtadan atmosferaga chiqariladi. Bo‘lakli xom dolomite va yoqilg‘i bir tekis qatlamlar holida yuklanadi, bunda uch hajm xomashyo va bir hajm yoqilg‘i sarflanadi Dolomitni toblastash (pishirish) harorati $1600-1700^{\circ}\text{C}$ ga va chiqib ketuvchi gazlarning harorati $250-300^{\circ}\text{C}$ ga teng. Yoqilg‘ining yonishi uchun zarur bo‘lgan havo ventilator yordamida pechning pastki qismida joylashgan panjara ostiga beriladi, bu erda u soviyotgan materialning issiqligi hisobiga $350-400^{\circ}\text{C}$ gacha isiydi va undan keyin yuqori haroratli bo‘limiga o‘tadi.



2.2- rasm. Dolamitni pishirishga mo‘ljallangan shaxtali pech.

1- ishchi bo‘shlig‘i; 2-yuklash moslamasi; 3-mahsulotni chiqarish; 4-yuritgich; 5-transporter; 6-havoni haydash qurilmasi; 7-tutun quvuri (mo‘ri).


Yuqoriga yo‘nalgan tutun gazlari pastga tushayotgan materialga uzining fizik issiqligini beradi. Pechning kamchiligi yoqilg‘ining qisman gazga aylanishi (gazifikasiya) natijasida hosil bo‘ladigan va yonib ulgurmaydigan gazlar (asosan, karbon oksidi) bilan issiqlikning yo‘qotilishidan iborat.

2.2.Mavhum qaynovchi qatlamlili pechlar.Aylanuvchi barabanli pechlar

Mavhum qaynovchi qatlamlili pechlar

Tayanch iboralar:*mayda donador (sochiluvchan) materiallarni, kolchedan, superfosfat , dolomitli g‘isht,tushirish shneki, siklon, tayyorlash zonasini.*

Mayda donador (sochiluvchan) materiallarni toblastash (pishirish) uchun foydalananiladigan pechlar metallurgiyada (konsentratlarni toblastash uchun),: kimyo sanoatida (kolchedan, superfosfat va boshqalarni toblastash uchun) qullaniladi. 2.3-rasmida maydalangan ohaktoshdan mavhum qaynovchi qatlamda $\text{SaSo}^3 \rightarrow \text{SaO} + \text{SO}^2$ reaksiya asosida ohak olish uchun ishlatiladigan pech kursatilgan. U balandligi bo‘yicha besh qismga qubbasimon panjaralar bilan bulingan. Sovitish bulimiga berilgan havo ta’siridan va undan keyingi qismda mazutning yonishi natijasida hosil bo‘lgan tutun gazlarining



2.3 - rasm. Qaynovchi qatlamda ohakni pishirish uchun mo‘ljallangan pech.

1- bunker (hampa); 2,4-shnek; 3-elevator; 5-pech; 6-mazut nasosi; 7-ventilyator; 8-tushirish shneki; 9-siklon; I-III-tayyorlash zonasi; IV-kalsiyglashtirish zonasi; V-sovitish zonasi.

Yuqoriga harakati ta’siridan har bir qubbasimon panjara ustida mavhum qaynovchi qatlam hosil bo‘ladi. Bu holatga keltirilgan donador material yuqorigi qismdan pastkisiga maxsus quvurlar orqali oqib o‘tadi. Jadal aralashish va oqimning yuqori darajada uyurmalanishi natijasida issiqlik almashuvi tezlashadi. Bu pechning kamchiligi material zarrachalarining ishqalanib maydalanishidan va gazlarning changlanishidan iborat. Shu sababli gazlarni tozalash uchun qushimcha mablag‘ talab qilinadi.

Aylanuvchi barabanli pechlar

Tayanch iboralar: *tayanch stansiya, tayanch bandaj, dvigatel, reduktor, sement klinkeri, aylanuvchi baraban.*


Sement klinkeri (toshqoli)ni toblab pishirish uchun mo‘ljallangan aylanuvchi pechning tuzilishi 2.4-rasmda keltirilgan. U ichki tomondan o‘tga chidamli material bilan futerovka qilingan (qoplangan, himoya qilingan) va gorizontga nisbatan biroz qiya (taxminan 4%) joylashgan po‘lat silindr dan iborat. Xom-ashyo pechning balandroq joylashgan tomonidan beriladi va u past tomonga, ya’ni tutun gazlari bilan uchrashadigan tomonga siljib boradi. Silindrning pastki uchida uzun yoqgich o‘rnatilgan, unga klinkerni sovitish bo‘limidan isib chiqqan havo beriladi. Sovitish bo‘limi sovuq havo beriladigan qator barabanlardan iborat bo‘lib, ularga pech aylanganda qizigan kliner kelib tushadi.³¹

Pechga berilgan material o‘z harakatining boshida quritish bo‘limidan o‘tadi. Bu bo‘limda material 200°C gacha qizdiriladi, tutun gazlar esa 200°C dan 300°C gacha soviydi. Keyin material isitish bulimiga utadi, bu erda materialda kimyoviy o‘zgarishlar yuz bermaydi. Yuqori haroratlar ($t_g = 1500 \div 1200^{\circ}\text{C}$) bo‘limida material

1000⁰C gacha qiziydi va unda silikatlarning yuqori darajada qurishi, karbonatlar dissotsiatsiyasi va boshqa kimyoviy reaksiyalar sodir buladi. Keyin $t_g = 1600 \div 1700^0\text{C}$ bo‘lgan sharoitda qisman erib yopishish (yaxlitlanish) yuz beradi va nihoyat, sovitish bo‘limida material sovitiladi. Ishlab chiqarilgan mahsulotning yuqori sifatli va qurilmaning katta quvvatga ega bo‘lishi aylanuvchi pechlarning keng qo‘llanilishiga sabab bo‘lgan.

Kichik o‘lchamli va unumdorligi unchalik katta bo‘lmagan aylanuvchi pechlar keramzit, gips, ohak va boshqa materiallarni pishirish uchun qo‘llaniladi.


AYLANUVCHI PECHNING TUZULISHI



2.4- rasm. Aylanuvchi barabanli pechning tuzilishi.

1-korpus; 2-tayanch stansiya; 3-tayanch bandaj; 4-dvigatel; 5-reduktor; 6-tishli ulama(shestrna); 7-tishli tayanch; 8-yoqish qurilmasi.

Aylanuvchi barabanli pechning ichki qismi qoplamasasi o’tga chidamli g’ishtlardan tayyorlanadi va uning ko’rinishi 2.5-rasmida keltirilgan.



2.5-rasm. Ichki qismi qoplamasni o'tga chidamli g'ishtlardan tayyorlangan aylanuvchi barabanli pechning ko'rinishi.

2.3.Rejali (metodik) va kamerali qizdirish eritish pechlari


Rejali (metodik)qizdirish eritish pechlari

Tayanch iboralar: metodik qizdirish, buyumlar yo'naltiruvchi tayanchlar,dolomitli g'isht, metall buyumlarni yuklash, qizdirilgan buyumlarni chiqarish.

Metodik qizdirish pechlari qora metallurgiya zavodlarida, mashinasozlik va boshqa zavodlarda metall quymalarni va yarim mahsulotlarni chig'irlash (prokatka) hamda bolg'alash (kovka) dan oldin qizdirish uchun keng qo'llaniladi. Bunday pechlar standart buyumlarni qizdirish uchun mo'ljallangan va shuning uchun ularni uzluksiz va ko'p miqdorda mahsulot ishlab chiqarishda qo'llash qulay. 2.6- rasmida metall quymalarni chig'irlab yoyishdan oldin qizdirish uchun mo'ljallangan metodik pech ko'rsatilgan. U ikki bo'limidan - yuqori haroratlar bo'limi va isitish bo'limidan iborat. Isitish bo'limida yarim mahsulot yuqori haroratlar bo'limidan chiqadigan

tutun gazlarining issiqligi hisobiga isitiladi. Yonish kamerasida forsunka yoki yoqgichlar o‘rnatiladi; isitish bo‘limi yoqish moslamalariga ega emas.

Qizdiriladigan buyumlar pechning tubi bo‘yicha o‘rnatiladigan maxsus yo‘naltiruvchi tayanchlarda harakatlanadi. Tutun gazlari qarama-qarshi yo‘nalgan bo‘lib, buyumlarni bir tomonidan qizdiradi.




2.6- rasm. Yupqa metall buyumlarni bir tomonlama qizdirish uchun mo‘ljallangan metodik pechning sxemasi.

1-metall yuqori yuzasining harorati; 2-metall pastki yuzasining harorati.

Buyumlar yo‘naltiruvchi tayanchlar ustida tutgichlar yordamida harakatlanib, pechning qarama-qarshi tomonidan $1200-1250^{\circ}\text{C}$ gacha qizdirilgan holda chiqadi. Yirik yarim mahsulotlar (kesimi 200 mmdan ortiq) ikki tomonidan qizdirilishi lozim, buning uchun tutun gazlarini buyumning ham ustidan, ham tagidan yo‘naltiriladi.(2.6-rasm). Bu holda pastki forsunkalar ham o‘rnatiladi. Ikki yoqlama qizdirish usulini qo‘llash metallni qizdirish jarayonini keskin tezlashtiradi va xizmatchilarni buyumni ag‘darib turish vazifasidan ozod qiladi. 8- rasmda ko‘rsatilgan pech yuqori haroratlari va isitish bo‘limlaridan tashqari buyumlarni ma’lum holatda tutib turish bo‘limiga ega. Bu bo‘limda buyumlar metal yuzasining o‘zgarmas haroratida qo‘srimcha qizdiriladi, natijada buyum ichidagi va yuzasidagi haroratlar tenglashadi. Ikki yoqlama qizdirish paytida yarim mahsulot glissaj (sirg‘anish) quvurlari deb ataluvchi va suv bilan sovitiluvchi shinalar ustida harakatlanadi; shinalar o‘z navbatida ko‘ndalang joylashgan quvurli

konstruksiyalarga tayanadi. Hozirgi paytda bunday pechlarning metall qismlari uchun bug‘lanishli sovitish usuli ham qo‘llaniladi.


Shunday qilib, metodik pech yonish kamerasidan chiquvchi tutun gazlarining issiqligi yarim mahsulotlarni oldindan isitish uchun qo'llaniladigan pechlarga misol bo'la oladi. Pechdagi gazlar entalpiyasining farqi katta qiymatga ega. Rekuperatorda havoni yoki gazsimon yoqilg'ini qizdirish yuli bilan tutun gazlarining boshlang'ich entalpiyasini sezilarli darajada kutarish mumkin. Pechning texnologik foydaliish koeffitsenti 60-65% gacha etishim umumki.



2.6-rasm. Metall buyumlarni ikki tomondan qizdirish uchun mo‘ljallangan metodik pechning sxemasi.

1,2,3- yoqilg‘ini yoqish moslamalari; 4-suv bilan sovitiladigan glissaj (sirpanish) quvurlari; 5- issiqlikdan foydalanuvchi qurilmalarga gazlarni berish; I-metall buyumlarni yuklash; II-qizdirilgan buyumlarni chiqarish; III-birlamchi qizdirish zonasi; IV-payvandlash zonasi; V-mahsulot sifatini me’yoriga etkazish zonasi.

Yonish kamerasidagi harorat odatda $1400-1500^{\circ}\text{C}$ ga teng bo‘ladi, isitish bo‘limida esa $1300-1450^{\circ}\text{C}$ dan to $1000-800^{\circ}\text{C}$ gacha pasayadi. Shuningdek, materiallarni uch bo‘limli (zonali) ikki³⁴ tomonlama qizdirish rejali pechinining qurilmasi mayjud bo‘lib, uning cxemasi 2.7-rasmda keltirilgan.




2.7-rasm .Materiallarni uch bo'limli (zonali) ikki tomonlama qizdirish rejali pechining sxemasi.

1-mahsulot; 2-surgich;3-pechning tag qismi;4-gorelkalar;5-qizdirilgan mahsulotlarni chiqarish oynasi.

Kameraliqizdirishvaeritishpechlari

Tayanch iboralar: kamerali qizdirish, ishchi kamera, qopqoq, yuk krani, gazni yoqish moslama, tutun yo'llari, sopol (keramik) rekuperatorlar.

Material yoki yarim mahsulot pech orqali uzlucksiz oqim ko'rinishida o'tishi mumkin bo'limgan hollarda kamerali pechlar qo'llaniladi. Nazariy jihatdan kamerali pechlar o'z hajmi bo'yicha haroratning bir tekisda taqsimlanishi bilan harakatlanadi, shuning uchun bu pechla³¹tyirik quymalarni qizdirish va shuningdek, eritish uchun qo'llaniladi. Bunga rekuperativ quduqsimon pechlar misol bo'la oladi (2.8- rasm).



**2.8- rasm. Yoqilg‘ini yoqish moslamasi markaziy qismida joylashgan
rekuperativ quduqsimon pechning tuzilishi.**

1-ishchi kamera; 2- qopqoq; 3- yuk krani; 4-gazni yoqish moslamasi; 5-tutun yo'llari; 6- sopol (keramik) rekuperatorlar.

Bunday pechlar og‘ir po‘lat quymalarni chig‘irlashdan oldin qizdirishga mo‘ljallangan. Quymalar qisqich kranlar yordamida kameraning tubida joylashtiriladi va har tomonlama qizdiriladi. Quduqsimon pechning ishchi kamerasi 1 utga chidamli qopqoq 2 ga ega, u maxsus kran 3 yordamida ko‘tarilib, chetga olinishi mumkin. Pech ishlagan paytda qopqoq qumli tusqich bilan zichlanadi. Pechning yon tomonlarida joylashgan 6-sopol rekuperatorlari 1-8 rasmda ko‘rsatilgan tuzilishga ega. Yoqgich 4 ga gaz isitilmasdan beriladi, havo esa 600-800°C gacha qizdirib beriladi.

Yoqgichdan chiqadigan gaz-havo oqimi₁ ishchi bo‘shliqning butun hajmi bo‘yicha gazlarning sirkulyasiyasini keltirib chiqaradi, bu esa quymalarning bir tekisda qizdirilishiga yordam beradi. Qarsilikli kamerali elektr pechlar ham mavjid bo‘lib, uning umumiyo ko‘rinishi 2.9-rasmda keltirilgan.




2.9-rasm.Qarsilikli kamerali elektr pechning uning umumiyo ko'rinishi.

2.4. Metall erituvch marten pechi. Yallig' pechlar

Po'lat eritish uchun muljallangan marten pechi (2.10-rasm) kamerali eritish pechlariga misol bo'ladi . Eritiladigan shixta pechga ag'darish mashinalari yordamida yuklanadi. Eritish bo'shlig'ining shipi yuqori darajada utga chidamli: xromomagnezitli yoki dinasli g'ishtlar bilan qoplangan.

Pechning oldingi va orqa devorlari alohida shaklga ega bo'lib, u yuqori mustahkamlikni va erigan metall hamda toshqol (shlak) ni vannaga oqib tushishini ta'minlaydi.



2.10- rasm. Koks va domna gazlarining aralashmasida ishlaydigan po'lat eritish marten pechining sxemasi.

I-eritish bo'shlig'i; II- havo regeneratorlari (bir juft); III-gaz rege-neratorlari (bir juft) ; IV - pechning kallagi (2ta) ; 1-sovuq gazni regeneratorda isitish uchun berish; 2- regeneratordan isitilgan gazni pechning kallagiga berish; 3- gazlarning eritish bo'shlig'iga kiritilishi; 4-regeneratorga sovuq havoni berish; 5- kallakka issiq havoni berish; 6-eritish bo'shlig'iga issiq havoning kiritilishi; 7- havo regeneratoriga qizigan gazlarni uzatish; 8- gaz regeneratoriga qizigan tutun gazlarni uzatish; 9 - havo regeneratorida sovitilgan tutun gazlarini chiqarish ; 10 - gaz regeneratorida sovutilgan tutun gazlarini chiqarish; 11 va 12 - gazlarning yo'nalishini o'zgartiruvchi moslama; 13-qozon -utelizatorga tutun gazlarini uzatish.

Bu pechlarning tag qismi vanna ko'rinishida yasalgan, uning eng quyi nuqtasida chiqish teshigi bo'lib, u orqali eritilgan pulat futerlangan cho'michlarga quyiladi. Quyiladigan po'latning harorati juda yuqori buladi ($t_m = 1550-1650^{\circ}\text{C}$) va shixtaga issiqlikning jadal berilishini ta'minlash uchun alanganing harorati undan ham yuqori ($t_a = 1850-1900^{\circ}\text{C}$) bo'lishi zarur. Uglerod va boshqa aralashmalarning oksidlanishini tezlashtirish uchun vannadagi eritmaga bosim ostida kislorod beriladi, buning natijasida eritilgan mahsulotni tayyorlash vaqtı kamayadi. Pechning shipi

issiqlik nurini taratadi, u uz navbatida yonish mahsulotlari hisobiga qiziydi va nur qaytargich (reflektor) kabi eritish vannasiga issiqlik nurlarini yuboradi. Bunday paytlarda ship yuzasining harorati $1650-1680^{\circ}\text{C}$ gacha etadi. Eritish bushlig‘idan chiqib ketayotgan tutun gazlarining harorati $1750-1850^{\circ}\text{C}$ ga teng buladi. Pech ichidagi yuqori haroratga yonish uchun beriladigan havoni va gazsimon yoqilg‘ini faqat yuqori darajagacha qizdirish yuli bilan erishish mumkin. Odatda havo $1000-1200^{\circ}\text{C}$ gacha, gaz esa $900 - 1000^{\circ}\text{C}$ gacha qizdiriladi Agar pech yuqori sifatlari yoqilg‘i -mazut yoki tabiiy gazda ishlaydigan bulsa, u holda faqat havo qizdiriladi.

Havo va gaz regeneratorlarda qizdiriladi;; faqat havo qizdirilganda bir juft regenerator va havo bilan gaz qizdirilganda esa ikki juft regenerator urnatiladi. Regenerator pech ostida joylashtiriladi va eritish bushlig‘i bilan vertikal kanallar va qiya kallaklar yordamida ulanadi. Pechda gaz yoqilganda kallaklar yoqgich (gorelka) vazifasini bajaradi - ularda gaz regeneratorlaridan kelayotgan qizigan gazsimon yoqilg‘i havo regeneratorida isitilgan havo bilan aralashadi. Kallaklar yordamida alangaga ma’lum yunalish beriladi, buning natijasida alanganing yuza bag‘irlab , ya’ni bevosita vannada erigan shixtaning ustidan harakatlanishi ta’milanadi. Ma’lumki, alanganing qoralik darjasini yuqori bulsa, uning nurlanish darjasini ham yuqori buladi. Hozirgi paytda marten pechlarida tabiiy gaz ishlatiladi, u yoqilganda alanga tarkibida qurumsimon uglerod hosil bo‘lmaydi; maxsus choralar kurilmasa, alanga shaffof bo‘uladi va o‘z nurlanish zinchligining etarli qiyomatini ta’minlay olmasligi mumkin:

$$E_a = C_0 \cdot 10^{-8} \cdot \varepsilon_a \cdot T_a^4 ;$$

bunda ε_a - alanganing qoralik darjasini ;


T_a - alanganing mutlaq harorati .

Alanga haroratining yanada ko‘tarilishi regeneratorlarning ishlashi va o‘tga chidamlili qoplamlarning mustahkamligi bilan chegaralangan bo‘lgani uchun qurum yoki mazut qo‘sish yo‘li bilan alanganing qoralik darajasini oshirishga harakat qilinadi, chunki bunday aralashmalar yonganda qurumsimon uglerod hosil bo‘ladi. Mazutning sarfi issiqlik sarfiga nisbatan 20-30 % ni tashkil qiladi va ko‘mir-mazutli alangadagi qurumning miqdori esa mazut massasining 3-5 % iga teng. Bunga

erishishning boshqa yo‘li-tabiyy gazning o‘z-o‘zidan karbyuratsiyalanishi (aralashishi) dan iborat. Bu paytda vertikal kanallarda uglevodorodli gazlarning bir qismi termik parchalanishi natijasida qurum hosil buladi. Qurum hosil bo‘lishi jarayonini maxsus apparatlarda-reformatorlarda amalga oshirish qulay buladi; ularda tabiiy gazning bir qismi havo etishmasligi sharoitida yondiriladi.

Regenerativ isitgichlardan chiqib ketuvchi gazlarning harakati ancha yuqori ($500-700^{\circ}\text{C}$) buladi, shuning uchun ularning issiqligidan to‘larq foydalanish maqsadida bug‘ qozon - utilizatorlari urnatiladi. Hozirgi paytda pechning metall elementlarini suv bilan sovitish o‘niga bug‘lanishli sovitish usuli qo‘llaniladi. Har bir sovitiladigan element tabiiy yoki majburiy sirkulyasiyalı bug‘lanish yuzasidan iborat; hosil bo‘lgan bug‘ isitish yoki energetik maqsadlar uchun foydalaniladi. Zamonaviy marten pechlarining foydali ish koeffitsienti avvalgi 15-20% urniga 50-60% ga teng bo‘lishi mumkin.

Hozirgi paytda marten pechlaridagi asosiy jarayonlarni jadallashtirish uchun vannaga kislorod beriladi, buning natijasida eritish davomiyligi keskin qisqaradi (20-30 % ga). 2.11-rasmida Qora va rangli metallar ishlab chiqaruvchi marten pechining sxemasi keltirilgan.




2.11-rasm.Qora va rangli metallar ishlab chiqaruvchi marten pechining sxemasi.

Yallig‘ pechlari (nur qaytarguvchi pechlar)

Tayanch iboralar:*shteyn, yallig‘ pechlari, yoqilg‘ining yoqish moslamasi, shteynni chiqarish, toshqol (shlak)ni chiqarish, eritish zonasining uzunligi.*

Rangli metallurgiya korxonalarida boyitilgan mis rudasidan **shteyn** deb ataluvchi oraliq mahsulot olish uchun **yallig‘ pechlari** qo‘llaniladi. Shuningdek, chuyan, bronza, alyuminiy kabi turli metallarni qayta eritish va tozalash uchun ham yallig‘ pechlari qullaniladi.

Mis eritiladigan yallig‘ pechlari (2.12- rasm)ni eritish vannasining uzunligi 30-50 m.ga teng. Eritish bo‘shlig‘ining ship qismi alangadan vannaga issiqlik uzatilishida juda muhim rol uynaydi. Mis eritish pechlarida yuqori sifatli yoqilg‘i - tabiiy gaz, mazut va kukunsimon ko‘mir ishlatiladi. Forsunka yoki yoqgichlar pechning bosh tomonia joylashadi, tutun gazlari eritish bushlig‘i bo‘ylab harakatlanib, uning qarama-qarshi tomonidan tashqariga chiqib ketadi. SHixta pechga yuqori tomondan qator voronkalar yordamida yuklanadi; voronkalar avtomatik ishlaydigan qopqoq (zaslonka) lar bilan yopilishi mumkin.



2.12- rasm. Mis eritish uchun mo‘ljallangan yallig‘ (nurqaytarish) Pechning sxemasi.

1-yoqilg‘ining yoqish moslamasi; 2- shteynni chiqarish; 3- toshqol (shlak)ni chiqarish; L –eritish zonasining uzunligi; L' –vannanining umumiy uzunligi.

Pechning vannasi butun ish davomida suyuq shteyn va toshqol bilan to‘lib turadi; shteyn va toshqol davriy ravishda pechdan chiqariladi. Suyuq shteyn katta cho‘michlarga quyilib, konverter sexiga yuboriladi, u erda shteyn qayta ishlanadi, undan xomaki mis olinadi. Kamerali pechlardan farq qilgan holda, yallig‘ pechlarida harorat eritish bo‘shlig‘ining uzunligi bo‘yicha $\frac{3}{3}$ o‘zgaradi: boshida $1400-1500^{\circ}\text{C}$ bo‘lib, oxirida $1300-1250^{\circ}\text{C}$ gacha pasayadi. Vanna ichidagi eritmaning harorati uning uzunligi bo‘yicha taxminan bir xil bo‘ladi. Eritish jarayoni normal o‘tishi uchun pechning oxiridagi harorat 1150°C dan past bo‘lmasligi kerak. Yallig‘

pechlarda texnologik maqsadlar uchun tutun gazlari entalpiyalarining katta farqidan foydalniladi.

Bu farqni oshirish uchun alanganing boshlang‘ich haroratini yonishga beriladigan havoni isitish yo‘li bilan oshirish lozim; bu paytda yonish bo‘shlig‘iga tashqaridan havo surilmasligi kerak.


Pechdan taxminan 1100-1200°C harorat bilan chiqib ketayotgan gazlar texnologik chang bilan ifloslangan bo‘ladi ulardagagi changning miqdori 100-120 g/m³ ga etadi. Changning bir qismi chala eritma holatida bo‘ladi, ular issiqlik qurilmalarining qizish yuzalarini toshqol ko‘rinishida qoplab, ifloslantirishi mumkin. Shuning uchun pechdan keyin ekran-granulyatori (donador holatga keltiruvchi moslamasi) bo‘lgan qozon-utilezator o‘rnataladi. Bunday qozon o‘rnatalishi natijasida tutun gazlarining harorati keskin kamayadi va toshqol zarrachalari qotadi (donador holatga keladi). Hozirgi paytda yallig‘ pechning quyidagi issiqlik sxemasi qo‘llaniladi. Pechdan keyin bug‘ qozon-utilizatori o‘rnataladi, u gazlar haroratining 125°C dan to 500°C gacha o‘zgarishiga muljallangan.

Undan keyin qarshi oqimli rekuperator o‘rnataladi, bu erda pechga beriladigan havo 350-450°C gacha isitiladi. Rekuperatordan keyin tutun gazlarining harorati 170-200°C ga tushishi mumkin. Ammo bundan afzalroq boshqa sxema-yuqori haroratlari avtonom havo isitgichi bo‘lgan sxema mavjud. Mis eritiladigan yallig‘ pechning texnologik FIKi odatda 15-20% ga va qozon-utilizatori hamda rekuperatori bo‘lgan pechning energetik FIKi esa 65-75% ga teng. Afsuski, rangli metallurgiya korxonalarida chiqib ketuvchi gazlarning issiqligidan qayta foydalanilmaydigan pechlar hozirgi paytda ham uchrab turadi.

2.5. Siklonli pishirish va eritishpechi

Tayanch iboralar: siklonli pechlar, bo'g'doysimon jismlarni pishirish, rudalarni eritish, siklonli kamera, markaziy quvur, yoqilg'i va havoni tangensial kiritishi, eritma qumoqlashtirgich.

Yuqori quvvatli qozon qurilmalarining siklonli old o'txonalarida yoqilg'ining jadal yonishi bu usulning afzalliklaridan turli texnologik jarayonlarda mayda donador xom materiallarni qizdirib pishirish va shuningdek, rudalarni eritish uchun foydalanish imkoniyatini yaratadi. Siklonli pechning prinsipial sxemasi 2.13-rasmda keltirilgan. Mayda donador material yuqorida beriladi, yoqilg'i bilan havo esa siklonga tangensial yo'nalishda keltiriladi, buning natijasida oqimning buramali harakatlanishiga erishiladi. Markazdan qochma kuchning yuzaga kelishi va qattiq hamda suyuq zarrachalarning ajralishi asosan 120-180 m/sek tezlik bilan siklonga kirib kelayotgan havo oqimi yordamida amalga oshiriladi. Gaz oqimidagi material zarrachalari markazdan qochma kuch ta'sirida chetga chiqarib tashlanadi.




1.13-rasm.Siklonli pechning prinsipial sxemasi.

1- siklonli kamera; 2- markaziy quvur; 3- yoqilg‘i va havoni tangensial kiritish; 4- eritma qumoqlashtirgichi; 5- radiatsion rekuperator; 6- konvektiv rekuperator; 7- tutun tortgich; 8- ventilyator.

Siklonning pastki qismida gaz oqimi 180^0 ga burilib, markaziy quvur orqali yuqori tomonga harakatlanadi, oqimning bunday burilishi qattiq va suyuq zarrachalarning ajralib chiqishini osonlashtiradi. Ammo zarrachalarning bir qismini gaz oqimi ilashtirib, tashqariga olib chiqadi, ularning miqdori 5-10% dan oshmaydi. Siklondan chiqqan gazlar radiatsion-konvektiv rekuperatorga yunaltiriladi, u erda gazlarning issiqlik hisobiga havo $600-800^0\text{C}$ gacha qizdiriladi. va yoqilg‘ini yoqish uchun beriladi.

Siklonli pechlarning kamchiligi quyidagilardan iborat:

1. atrof-muhitga ko‘p miqdorda texnologik chang chiqariladi;
2. gaz oqimi tarkibidagi qattiq zarrachalar siklonning o‘tga chidamli qoplamasi tez emirilishiga sabab bo‘ladi.



1.14-rasm.Maydadonadormateriallarniolishuchunishlatiladigansiklonpechi:

- 1-forsunka; 2-korpus; 3-yonish kamerasi; 4-reaksiya kamerasi; 5-suvali forsunka uchun kanallar; 6-stok; 7,8,9-futerovka; 10-gorelka.

MASALA YECHISH NAMUNALARI

1-masala. Marten pechidan chiqib ketuvchi yonish mahsulotlarining fizik issiqligidan foydalanish natijasida yoqilg‘ining tejalishi aniqlansin. Pechning

unumdorligi $G=40$ t/soat; yil davomida ishlash soatlarining soni ($= 8200$ soat; yoqilg'i - tabiiy gaz, uning hajmiy tarkibi quyidagicha: $CH_4= 95,7\%$; $C_2H_4= 2,85\%$; $CO_2=0,1\%$; $N_2= 1,85\%$; gazning solishtirma sarfi $V=115$ m³/t po'lat; yonish mahsulotlarining regeneratorlardan keyingi harorati $t_p=1073^{\circ}C$; utilizator (bug' generatori) dan keyingi harorati - $t_y=473^{\circ}C$; kislороднинг sarfi $Vo_2=40M^3/T$.

Yonish mahsulotlarining regeneratordan keyingi va $\alpha=1,6$ sharoitidagi tarkibi: $V_{Ro_2} = 172,8$; $V_{H_2O}=264,8$; $Vo_2=173$; $V_{N_2}=1252$.

Yonish mahsulotlarining bug' generatoridan keyingi va $\alpha=1,8$ sharoitidagi tarkibi: $V_{Ro_2} = 172,8$; $V_{H_2O}=266,0$; $Vo_2=183$; $V_{N_2}=1840$.

Yechish. Yonish mahsulotlarining entalpiyasini aniqlaymiz:

$$H = (V_{Ro_2} \cdot C_{Ro_2} + V_{H_2O} \cdot C_{H_2O} + Vo_2 \cdot C_{O_2} + V_{N_2} \cdot C_{N_2}) \cdot (T-273);$$

Yonish mahsulotlarining regeneratordan keyingi entalpiyasi:

$$H_{rg} = (172,8 \cdot 2,13 + 264,8 \cdot 1,67 + 1,73 \cdot 1,45 + 1252 \cdot 1,37) \\ \cdot (1073 - 273) = 2,22 \text{ GJoul/t. po'lat.}$$

Yonish mahsulotlarining bug' generatori (utilizator)dan keyingi entalpiyasi:

$$H_{oy} = (172,8 \cdot 1,78 + 266,9 \cdot 1,52 + 183 \cdot 1,33 + 1840 \cdot 1,3) \\ \cdot (473 - 273) \cdot 10^{-6} = 0,675 \text{ GJoul/t. po'lat.}$$

Chiqib ketuvchi yonish mahsulotlarining yillik issiqligi:

$$G \cdot \tau \cdot H_{rg} = 40 \cdot 8200 \cdot 2,22 = 728 \cdot 10^3 \text{ GJoul/yil.}$$

Bug' generatori (utilizatori)da yonish mahsulotlari hisobiga ishlab chiqarilishi mumkin bo'lgan issiqlik miqdori:

$$Q_i = G \cdot \tau \cdot H_{rg} (h_1 - h_2) \beta (1 - \xi) \cdot 10^3, \text{ GJoul/yil.}$$

bunda : β - issiqlik manbai va utilizator ish holatlari va ish soatlarining o'zaro mos kelmasligini hisobga oluvchi koeffitsient, $\beta=0,7$;

ξ - atrof-muhitga yo'qotilayotgan issiqlikni hisobga oluvchi koeffitsient, $\xi=0,15$.

$$Q_i = 728 \cdot 10^3 (2,22 - 0,675) \cdot 0,7 \cdot 0,85 = 672,5 \cdot 10^3 \text{ Gjoul/yil.}$$

Tejalgan shartli yoqilg'i:

$$B_{TEJ} = \frac{0,0342}{\eta_{ob}} \cdot Q_i$$

bunda: $\eta_{o.b}$ - o'rni bosiladigan energetik qurilmaning yoqilg'i issiqligidan foydalanish koeffitsienti, $\eta_{o.b} = 0,8$

$$B_{TEJ} = \frac{0,0342}{0,8} \cdot 672,5 \cdot 10^3 = 28748t.$$

2-masala. Pechdan chiqib ketuvchi gazlar issiqligidan foydalanib, qozon qurilmasida bug' ko'rinishida ishlab chiqarilgan issiqlik hisobilga tejalgan yoqilg'i miqdori aniqlansin. Pechdan chiqayotgan gazlar harorati $t=700^{\circ}\text{C}$, qozon qurilmasidan chiquvchi gazlarniki $t'=200^{\circ}\text{C}$. Havoning ortiqlik koeffitsienti $\alpha=1,35$, yoqilg'i sarfi $B=0,036 \text{ m}^3/\text{c}$, ish holatlarining mos kelmaslik koeffitsienti $\zeta=0,12$ va qozon qurilmasining foydali ish koeffitsienti $\eta_{h.h.}=0,86$. Pechda yoqilayotgan tabiiy gaz tarkibi:

Yechish: Havoning hisobiy kerakli hajmi:

$$V^0 = 0,0478(0,5(\text{CO} + \text{H}_2) + 1,5\text{H}_2\text{S} + 2\text{CH}_4 +$$

$$\sum \left(m + \frac{n}{4} \right) C_m H_n - O_2) = 0,0478(2 \cdot$$

$$94,1 + 3,5 \cdot 3,1 + 0,6 + 6,5 \cdot 0,2 + 8 \cdot 0,8) = 9,98 \text{ m}^3/\text{m}^3$$

Uch atomli gazlarning hajmi:

$$V_{H_2O} = 0,01(\text{CO}_2 + \text{CO} + \text{H}_2\text{S} + \sum m C_m H_n) = 0,01(94,1 + 2 \cdot 3,1 + 3 \cdot 0,6 +$$

$$+ 4 \cdot 0,2 + 5 \cdot 0,8) = 1,07 \text{ m}^3/\text{m}^3.$$

Azotning hisobiy hajmi:

$$V_{N_2}^o = 0,79V^0 + N_2 / 100 = 0,79 \cdot 9,98 + 1,2 / 100 = 7,9 \text{ m}^3 / \text{m}^3$$

Suv bug'larining hisobiy hajmi:³¹

$$V_{H_2O}^o = 0,01(H_2S + H_2 + \sum \frac{n}{2} C_m H_n + 0,124\alpha_e) + 0,0161V^0 = \\ = 0,01(2 \cdot 94,1 + 3 \cdot 3,1 + 4 \cdot 0,6 + 5 \cdot 0,2 + 6 \cdot 0,8) + 0,0161 \cdot 9,98 = 2,22 \text{ m}^3 / \text{m}^3$$

Pechdan chiquvchi gazlar entalpiyasi:

$$I_e = I_e^0 + (\alpha - 1)I_e^0 = V_{NO_2}(Ct)_{CO_2} + V_{N_2}^0(Ct)_{N_2} + V_{H_2O}(Ct)_{H_2O} + (\alpha - 1)V^0(Ct)_r = \\ = 1,07 \cdot 357 + 7,9 \cdot 260 + 2,22 \cdot 304 + (1,35 - 1) \cdot 9,98 \cdot 979 = 6130 \text{ кЖ/м}^3.$$

$(Ct)_{CO_2}$ va boshqalar birinchi ilovadan olindi.

Qozon qurilmasidan chiquvchi gazlar entalpiyasi:

$$I'_e = I_e^0 + (\alpha - 1)I_e^0 = V_{H_2O}(Ct')_{CO_2} + V_{N_2}^o(Ct')_{N_2} + \\ + V_{H_2O}^o(Ct')_{H_2O} + (\alpha - 1)V^0(Ct')_e = \\ = 1,07 \cdot 357 + 7,9 \cdot 260 + 2,22 \cdot 304 + (1,35 - 1)9,98 \cdot 266 = 6130 \text{ кЖ/м}^3$$

Pechdan chiqib ketuvchi qizigan gazlardan foydlanib, qozon qurilmasida bug' ko'rinishida ishlab chiqarilgan issiqlik miqdori:

$$Q = B(I_r - I'_e)\beta(1 - \zeta) = 0,036 \cdot (15017 - 6130) \cdot 1(1 - 0,12) = 282 \text{ кЖ/с.}$$

Tejalgan yoqilg'i miqdori:

$$B_{tej} = \frac{Q}{29300 \cdot \eta_{x,x}} = \frac{282}{29300 \cdot 0,86} = 0,011 \text{ kg/s}$$

MUSTAQIL YECHISH UCHUN MASALALAR

1- masala. Pechning ustidagi qoplama shahot g'ishtidan tayyorlangan. Uning issiqlik o'tkazuvchanligi $\lambda = 0,84 (1 + 0,695 \cdot 10^{-3}t)$ $\text{Вт} / (\text{м} \cdot {}^\circ\text{C})$, qoplaning qalinligi $\delta = 250 \text{ mm}$ 1m^2 yuzadagi issiqlik yo'qolishini $q \cdot \text{Вт}/\text{м}^2$ va ichki yuzadagi devor haroratini aniqlang.

Pechdagi gazning harorati $t_{j1} = 1200^{\circ}\text{C}$. Muhitdagi havoning harorati $t_{j2} = 30^{\circ}\text{C}$. Gazdan devorga berilayotgan issiqlik koeffitsienti $\alpha_1 = 30 \text{ Vt} / (\text{m}^2 \cdot {}^{\circ}\text{C})$; qatlamdan havo muhitiga berilayotgan issiqlik koeffitsienti $\alpha_2 = 10 \text{ Vt} / (\text{m}^2 \cdot {}^{\circ}\text{C})$.

Javob: $q = 3530 \text{ Vt/m}^2$.

2-masala. Marten pechidan chiqib ketuvchi yonish mahsulotlarining fizik issiqligidan foydalanish natijasida yoqilg'ining tejalishi aniqlansin. Pechning unumdarligi $G=80 \text{ t/soat}$; yil davomida ishlash soatlarining soni 16400 soat; yoqilg'i - tabiiy gaz, uning hajmiy tarkibi quyidagicha: $\text{CH}_4= 191,4\%$; $\text{C}_2\text{H}_4= 5,7\%$; $\text{CO}_2=0,2\%$; $\text{N}_2= 3,7\%$; gazning solishtirma sarfi $V=230 \text{ m}^3/\text{t}$ po'lat; yonish mahsulotlarining regeneratorlardan keyingi harorati $t_p=2146^{\circ}\text{C}$; utilizator (bug' generatori) dan keyingi harorati - $t_y=946^{\circ}\text{C}$; kislороднинг sarfi $V_{O_2}=80 \text{ M}^3/\text{T}$.

Yonish mahsulotlarining regeneratordan keyingi va $\alpha=3,2$ sharoitidagi tarkibi: $V_{O_2} = 345,6$; $V_{H_2O}=529,6$; $V_{O_2}=346$; $V_{N_2}=2504$.

Yonish mahsulotlarining bug' generatoridan keyingi va $\alpha=1,8$ sharoitidagi tarkibi: $V_{O_2} = 345,6$; $V_{H_2O}=532,0$; $V_{O_2}=366$; $V_{N_2}=3680$.

Javob: $B_{tej} = 57496\text{t}$.

3- masala. Diametri $d = 400 \text{ mm}$ bo'lgan uzun po'lat valni pechga qo'ygandan keyin $\tau = 2,5$ soat o'tganda haroratlar taqsimlanishini aniqlang.

Po'lat uchun issiqlik o'tkazuvchanlik va harorat o'tkazuvchanlik koeffitsienti quyidagicha: $\lambda = 42 \text{ Vt}/(\text{m} \cdot {}^{\circ}\text{C})$, $a = 1,18 \cdot 10^{-5} \text{ m}^2/\text{s}$. valdan pechga issiqlik berish koeffitsienti $\alpha = 116 \text{ Vt} / \text{m}^2 / {}^{\circ}\text{C}$.

Tadqiqotni katta bo'limgan pechda po'latdan yasalgan geometrik valda olib boriladi. Model uchun $\lambda = 16 \text{ Vt}/(\text{m} \cdot {}^{\circ}\text{C})$, $a_h = 0,53 \cdot 10^{-5} \text{ m}^2/\text{s}$; $\alpha_m = 150 \text{ Vt}/(\text{m}^2 \cdot {}^{\circ}\text{C})$ D_m – val modelini, oraliq vaqtini aniqlang.

Javob: $d_m = 117,5 \text{ mm}$, $\tau_m = 1735 {}^{\circ}\text{C}$.

4- masala. Pechning ustidagi qoplama shamot g'ishtidan tayyorlangan. Uning issqlik o'tkazuvchanligi $\lambda = 1,68 (2+1,39 \cdot 10^{-3}t) \text{ Vt} / (\text{m} \cdot {}^{\circ}\text{C})$, qoplaning qalinligi $\delta = 500$

mm 1m^2 yuzadagi issiqlik yo'qolishini $q \cdot \text{Vt}/\text{m}^2$ va ichki yuzadagi devor haroratini aniqlang.

Pechdagi gazning harorati $t_{j1} = 2400^\circ\text{C}$. Muhitdagi havoning harorati $t_{j2} = 60^\circ\text{C}$. Gazdan devorga berilayotgan issiqlik koeffitsienti $\alpha_1 = 60 \text{ Vt} / (\text{m}^2 \cdot {}^\circ\text{C})$; qatlamdan havo muhitiga berilayotgan issiqlik koeffitsienti $\alpha_2 = 20 \text{ Vt} / (\text{m}^2 \cdot {}^\circ\text{C})$.

Javob: $q = 7060 \text{ Vt}/\text{m}^2$.

Nazorat savollar

- 1.Tunelli va shaxtali pechlar deb nimaga aytildi?
- 2.Mavhum qaynovchi qatlamli pechlar to'g'risida ma'lumot bering.
- 3.Aylanuvchi barabanli pechlar debnimaga aytildi?
- 4.Rejali (metodik) qizdirish va eritish pechlarini ishlashi haqida gapiring.
- 5.Kamerali qizdirish va eritish pechlari nimaga kerak?
- 6.Metall erituvchi Marten pechi qayerlarda ishlatiladi?
- 7.Yallig‘ pechlar to'g'risida ma'lumot bering.
- 8.Siklonli qizdirish va eritish pechlari boshqa pechlardan nimasi bilan farqlanadi?

III-BOB.YOQILG'IDAN FOYDALANISH USULLARI

3.1.Yuqori haroratli qurilmarda yoqilg'idan foydalanish va ularni tejash

Tayanch iboralar: *yoqilg'i, rektifikasiya, distsillyasiya, sublimasiya, bug'latish, tiklanmas manbalar, tiklanuvchi manbalar, organik yoqilg'i, energetik yoqilg'i, issiqlik va elektr energiyasi, sanoat yoqilg'isi.*

Materiallarning issiqlik holatlarini o'zgartirishga asoslangan texnologik jarayonlar sanoat ishlab chiqarishlarida muhim ahamiyatga ega. Bular qatoriga turli

qattiq, suyuq, gazsimon materiallarni isitish, eritish, qaynatish va sovitish uchun qo'llaniladigan ko'p texnologik jarayonlar kiradi. Bunday jarayonlarga quyidagilar misol bo'la oladi: bug' va issiq suvni hosil qilish, quritish va bug'latish jarayonlari, po'lat buyumlarni mexanik ishlov berishdan oldin qizdirish, cho'yan, po'lat, sement, shisha va sopol buyumlarni ishlab chiqarish.

Texnologik jarayonlarni haroratlar darajasi va foydalanilgan energiya manbai bo'yicha ikki guruhga bo'lish mumkin:

- *yuqori haroratli jarayonlar;*
- *past haroratli jarayonlar.*

Yuqori haroratli jarayonlar organik yoqilg'i ishlaydigan turli qozon agregatlarida, sanoat pechlari va konverterlarida amalga oshiriladi. Yuqori haroratli texnologik qurilma va tizimlarning boshqalardan farq qiluvchi belgisi shundan iboratki, ularda energiya manbai sifatida organik yoqilg'i, elektr energiyasi va past haroratli plazmadan foydalaniladi.

Past haroratli jarayonlar quritish, rektifikasion, distsillyasion, sublimasion qurilmalarda, bug'latish va chuchuk suv olish stansiyalarida amalga oshiriladi.

Bu qurilmalarning xususiyatlardan biri shuki, ularda issiqlik manbai sifatida suv bug'i, qizitilgan gaz, issiq suv va shunga o'xshash oraliq issiqlik tashuvchilaridan foydalaniladi.

Yoqilg'i - energetik manbalarning asosiy iste'molchilaridan biri sanoat hisoblanadi. Masalan, MDH mamlakatlarining sanoati tomonidan ishlab chiqarilgan elektr energiyasining 60 % i va organik yoqilg'inining 30 % i iste'mol qilinadi. Sanoatdagi yoqilg'i - energetik manbalarning eng yirik iste'molchilari qora va rangli metallurgiya, kimyo va neftni qayta ishlash va boshqa sohalar hisoblanadi. 3.1-jadvalda ba'zi texnologik ishlab chiqarishlardagi energiyaning solishtirma iste'moli keltirilgan.

31

Yuqori haroratli texnologik qurilmalar tomonidan organik yoqilg'inining iste'mol qilinishini issiqlik elektr stansiyalari (IES) ning iste'moli bilan tenglashtirish mumkin. Ammo 3.2-jadvaldan ko'rindaniki, yuqori haroratli tizimlarning asosiy

texnologik bo'g'ini bo'lgan sanoat pechlarining yoqilg'i bo'yicha FIK i IES qozon qurilmalarining FIK idan 2,5-6,0 barobar kamdir.

Texnologik qurilmalarning FIK ini oshirish yoqilg'i - energetik manbalardan foydalanish samaradorligini oshirish muammosini hal qilishning asosiy yo'llaridan biri hisoblanadi.

Ba'zi turdag'i mahsulotni ishlab chiqarish uchun yoqilg'inining solishtirma sarfi

3.1 - jadval

Mahsulot turi	Shartli yoqilg'inining solishtirma sarfi kg/t
Ammiak ishlab chiqarish	1420
Cho'yan	623
Sement klinkeri (toshqol)ni pishirish	219
Yassi shisha	513
Metallarga issiqlik bilan ishlov berish	111
Neftni qayta ishlash	55

Energiyani tejash uchun amalga oshirilgan chora-tadbirlarga ketadigan xarajatlar ekvivalent miqdordagi energiyani olish uchun yoqilg'i - energetik bazasini rivojlantirishga ketadigan xarajatlardan 2-3 marta kam bo'ladi.

Issiqlik iste'mol qiluvchi moslamalarning energetik ko'rsatkichlari

3.2 - jadval

Issiqlik moslamalari	FIK, %
Yuqori haroratli bug' ishlab chiqaradigan energetik qozonlar ³¹	90
Qizdirish pechlari	20-25
Kulolchilik buyumlarini ishlab chiqarishga mo'ljallangan eritish pechlari	10-15

Domna pechlari	45-55
Marten pechlari	38-40
Sopol va o'tga chidamli materiallarni pishirishga mo'ljallangan pechlar	35-40
Shisha eritish pechlari	35-40

Energetik xarajatlarning kamayishi ishlab chiqaradigan mahsuloti tannarxidagi energiyaning ulushi katta bo'lgan texnologik jarayonlarning rentabelligini oshiradi.

Issiqlik texnologiyalarida yoqilg'i xarajatlarining tejalishi o'z navbatida atrof-muhitga chiqarib tashlanayotgan yonish mahsulotlarining kamayishiga olib keladi.

Zamonaviy texnologik qurilmalarga qo'yiladigan asosiy talablardan biri ulardan chiqadigan yonish mahsulotlari va sanoat chiqindilari tarkibidagi zararli moddalar bilan atrof-muhitni ifloslantirishni kamaytirishdan iborat.

Texnologik jarayonlarning energiya manbalarini har tomonlama taxlil qilish issiqlik texnologiyalari energetikasining muammolariga kompleks ravishda yondoshishning eng muhim elementlardan biri hisoblanadi. Bu tahlil energiya manbalarning tasnifini, ularning texnologik, texnik, iqtisodiy va ekologik jihatidan baholanishini, ayrim energiya manbalardan berilgan texnologik jarayonda samarali foydalananishning chegara va shartlarini aniqlashni o'z ichiga oladi.

3.2. Energiya manbalarining umumiy tasnifi

Tayanch iboralar: tiklanmas energiya manbalari, termoyadro yoqilg'isi, yadroviy yoqilg'i, organik yoqilg'i, yonuvchi gazlar, domna gazi, koks gazi

Hosil bo'lish belgisi bo'yicha energiya manbalari tiklanmas va tiklanuvchan turlarga bo'linadi. Energiyaning tiklanmas manbalari hosil qilinishi bo'yicha o'z navbatida birlamchi va ikkilamchi turlarga bo'linadi.³¹

Energiyaning tiklanmas birlamchi manbalarining zahiralarilari qator yirik xalqaro tashkilotlar tomonidan baholanadi.

Energetik manbalarning dunyo miq'yosida ishlab chiqarilishining umumiyligi 2020 yili DEK (Dunyo energetiklari konferensiyasi) ma'lumotiga ko'ra 20-27 mlrd.t. shartli yoqilg'ini yoki 163-204 mlrd. MVt soatni tashkil qiladi.

Hozirgi paytda organik yoqilg'ining dunyoda ishlab chiqarilayotgan umumiyligi energiyaning tarkibidagi ulushi 87 % dan omaydi. Dunyoda energiya ishlab chiqarilishining umumiyligi o'sishi organik yoqilg'i ulushining 70% gacha kamayishi bilan sodir bo'ladi. Shu bilan birga organik yoqilg'ilarning absolyut birliklardagi hissasi 1,6-2,0 marta ortadi va 2022 yili 18-20 mlrd. t ni tashkil qiladi (1980 yili-9 mlrd. t. bo'lgan).

Energiya manbalarining umumiyligi tasnifi.

3.3 – jadval

Tiklanmas manbalar		Tiklanuvchi manbalar
Birlamchi	Ikkilamchi	
Organik yoqilg'i: - ko'mir - neft - tabiiy gaz - yonuvchan slanes Yadro yoqilg'isi: - uran-235 - toriy Termoyadro yoqilg'isi: - deyteriy	Organik yoqilg'ini qayta ishlash mahsulotlari: - koks, yarimkoks - suyuq yoqilg'i - generator gazi - sun'iy suyuq yoqilg'i Yonuvchi gazlar: - domna gazi - koks gazi -neftni qayta ishlash gazlari Yadroviy yoqilg'i: - plutoniyl-239 - elektr energiyasi	Biomassa: - o'tin - torf Quyosh energiyasi. Mexanik energiya: - daryo oqimi - dengiz to'lqinlari - shamol Issiqlik energiyasi: - er osti suvlari - okeanning issiqlik energiyasi

3.3.-jadvaldan ko'rindaniki, termoyadro energiyasi amalda energiya ta'mnotining bitmas-tuganmas manbai bo'lib qolishi mumkin. Hulosalar shuni

ko'rsatadiki, XXI asrning birinchi o'n yilliklarida yangi texnologiyalar endigina qo'llanila boshlaydi va ishlab chiqarish tuzilishida tubdan texnologik qayta qurish yuz bermaydi.

XXI asrning boshlarida Quyoshning nurlanish energiyasi faqat isitish va issiq suv ta'minoti maqsadlari uchun keng qo'llaniladi. Quyosh energiyasining to'plagichlarini bug' turbinali sikl bilan birgalikda qo'llashga yoki quyoshning nurlanish energiyasini to'g'ridan-to'g'ri elektrga aylantiruvchi texnologiyalardan foydalanishga asoslangan ishlar keng ko'lamda olib borilmoqda.

Yer yuzidagi energiya manbalarini baholash.

3.4 – jadval

Manbalarning nomi	Energiya miqdori, Mvt.suat
Tiklanmas energiya manbalari:	$100000 \cdot 10^{12}$
- Termoyadro yoqilg'isi	$547 \cdot 10^{12}$
- Yadroviy yoqilg'i	$55 \cdot 10^{12}$
- Organik yoqilg'i	
Tiklanuvchan yoqilg'i manbalari: tiklanish davrining 1 yili uchun:	
-Yer yuziga tushayotgan quyosh nurlarining energiyasi	$580 \cdot 10^{12}$
- dengiz to'lqinlarining ko'tarilish va qaytish energiyasi	$70 \cdot 10^{12}$
- shamol energiyasi	$1,7 \cdot 10^{12}$
- daryolar oqimining energiyasi	$0,018 \cdot 10^{12}$

Shamol energiyasining potensial manbalaridan cheklangan energiya ta'minotili tumanlarda samarali foydalanish mumkin.³¹

Yer yuzasidan 10 km.gacha bo'lgan chuqurliklarda joylashgan geotermal energiyaning umumiy miqdori barcha turdag'i organik yoqilg'i zahiralaridan taxminan o'n barobar ko'pdir. Fan va texnika rivojining hozirgi paydag'i darajasida

er ostidagi issiq suv va bug'da mujassamlangan energiya manbalarining juda oz qismidan amalda foydalanish mumkin. Bu manbalarning asosiy qismi past potensialga ega bo'lib, ular faqat issiqlik ta'minoti ehtiyojlarini qoplash uchun yaroqli hisoblanadi. Yuqorida keltirilganlar asosida xulosa qilish mumkinki, organik yoqilg'i XXI asrning birinchi choragi davomida ham issiqlik texnologik jarayonlarda eng keng qo'llaniladigan energiyaning birlamchi manbai bo'lib qolaveradi.

3.3. Organik yoqilg'i va uning tasnifi

Yoqilg'i tushunchasi o'zida u yoki bu o'zgarishlar natijasida energiyani ajratib chiqaruvchi moddalarni biriktiradi. Hozirgi paytda energiyani chiqarish tamoyili bo'yicha yoqilg'ilarning ikkita yirik guruhi ma'lum: yadroviy o'zgarishlar natijasida energiya chiqaruvchi va tarkibidagi yonuvchi elementlarning oksidlanishinatijasida energiya chiqaruvchi organik yoqilg'i. Organik yoqilg'i energiyasining issiqlikga aylanishi yonish natijasida amalga oshadi. Yonish- nurlanishli va issiqlik energiyalari jadal ajralib chiqishi va yoqilg'inинг oksidlovchilar bilan o'zaro ta'sirlanishi natijasida kuzatiladigan murakkab fizik-kimyoviy jarayondir.

Issiqlik texnologik jarayonlarda oksidlovchi sifatida havodan foydalaniladi, ayrim hollarda u kislorod bilan boyitiladi.

Har-xil turdag'i organik yoqilg'ilarning o'ziga xos tomoni ularning tasnifida aks ettiriladi. Umumiyoqilg'ini agregat holati, qazib chiqarish va hosil qilish usuli bilan farqlaydi.

Yoqilg'inинг barcha turlari (o'tindan boshqa) amalda tiklanmas qazilma yoqilg'ilar hisoblanadi. Ular bir-biridan asosan hosil bo'lish sharoitlar va geologik yoshi bilan farq qiladi.

Qattiq qazilma yoqilg'ilarning genetik asosi turli o'simliklar va million yillar avval yashagan mikro organizmlardan iborat.³¹ Ularning organik massalari havoning kelib qo'shilishi cheklangan sharoitda yuqori harorat va bosimda parchalanib, yangi moddalar hosil bo'lgan. Bu o'zgarishlar natijasida organik massadagi uglerod miqdori ortib kislorod, vodorod va azot miqdorlari kamayib borgan. Tashqi muhit ta'sirida turli jadallik bilan kechgan bu jarayon organik massanining qo'mirga aylanish

jarayoni deb atalgan. Ko'mirga aylanish paytida qazilma yoqilg'ilarning zich uglerodli birikmalari hosil bo'lgan. Qattiq yoqilg'ilarning shakllanishida o'simlik va mikroorganizmlar tarkibiga kiruvchi karbon suvlar, lignin, mum, qatron, oqsil modda va boshqalar ishtirok etgan. Lignin - biokimyoviy jarayonlar paytida o'simliklarning hujayralararo bo'shlig'ini to'ldiruvchi moda – lignin kislotasiga, keyin esa gumus kislotasiga aylanadi: bunday birikmalarni gumusli birikmalar deyiladi va ular organik massalaridagi vodorodning kamligi bilan ajralib turadi. Qazilma yoqilg'ilarning boshqa turi suv qatlami ostida chiriyotgan cho'kindiga aylangan bir hujayrali organizmlarning parchalanish mahsuloti bo'lgan va ko'mirga aylanish jarayonining birinchi bosqichi hisoblangan sopropeldir.

Shu tarzda hosil bo'lgan ko'mirlar sapropel ko'mirlari deyiladi va ular yoqilg'i organik massasi tarkibidagi vodorodning miqdori yuqori bo'lishi bilan boshqalardan farq qiladi.

Yoqilg'i hosil bo'lishining har qanday turi bo'yicha ko'mirga aylanishning birinchi bosqichi organik massaning torfga aylanishi hisoblanadi. Torf geologik eng yosh qazilma yoqilg'i bo'lib, ko'mirlardan kislorod, vodorod va azot miqdorlarining yuqori bo'lishi bilan farq qiladi.

Torf massasining o'zgarishda davom etishi ketma-ket qo'ng'ir ko'mir, tosh ko'mir va antrasitning hosil bo'lishiga olib keladi. Antrasit birlamchi organik massaning ko'mirga aylanish jarayonining eng chuqur bosqichi hisoblanadi.

Yonuvchi slaneslar ham qattiq qazilma yoqilg'ilari qatoriga kiradi. Ular kelib chiqishi bo'yicha sopropel turdag'i neftga o'xshash organik moddalar bilan shamilgan ohakli yoki moyli jinslardan iborat.

Neft va yonuvchi tabiiy gazlar ham o'simlik va hayvonot qoldiqlarining alohida geologik sharoitlarda uzoq vaqt davomida o'zgarib turli suyuq va gazsimon uglevodorodli birikmalarga aylanishi natijasida hosil bo'lgan.

Su'niy yoqilg'ilari ham turli xil bo'ladi (3.3-jadval). Ular tabiiy yoqilg'ilarning sifatini yaxshilash yoki yoqilg'inining yangi turlarini olish maqsadida maxsus ishlov berish natijasida yoki turli ishlab chiqarish jarayonlarining yonuvchan texnologik chiqindilari ko'rinishida hosil qilinadi.

Su'niy qattiq yoqilg'ining eng muhim turi koks hisoblanadi. Koks yoqilg'isi toshko'mirning ayrim turlarini maxsus pechlarda havo kiritmasdan 900-1100 °S gacha qizdirib, pirogen parchalanishini amalga oshirish natijasida hosil qilinadi.

Domna pechlarida cho'yan olish jarayonida ishlatiladigan asosiy texnologik yoqilg'i koks hisoblanadi. Ko'mirni kokslash paytida undan qatron (smola) va koks gazi olinadi; koks gazi tozalanib, qimmatli kimyoviy mahsulotlari ajratib olingandan so'ng sun'iy gaz yoqilg'isi sifatida keng qo'llaniladi.

Kokslash jarayoni kabi, ammo 500-700 °C da, ko'mirni yarim kokslash amalga oshiriladi. Bu jarayon davomida qatron va yarim koks gazi olinadi, ular kimyoviy qayta ishlash uchun xom-ashyo sifatida va, qisman, yoqilg'i sifatida qo'llaniladi.

Neftni qayta ishlash paytida juda ko'p miqdorda turli sun'iy yoqilg'ilar: benzin, kerosin, ligroin va boshqalar hosil qilinadi va ular keyinchalik transport yoki motor yoqilg'isi sifatida foydalaniladi. Neftni qayta ishlash zavodlarida olinadigan og'ir qoldiqlar-mazutlar turli sanoat pechlari va issiqlik elektr stansiyalari uchun asosiy yonilg'i hisoblanadi. Neftni issiqlik va kimyoviy qayta ishlash paytida dissillyasion yoqilg'ilar bilan bir qatorda ko'p miqdorda turli yuqori sifatli yonuvchi gazlar (neft zavodi gazlari) olinadi.

Domna gazi domna pechlarida cho'yan eritish jarayonida hosil bo'ladi yonuvchan chiqindi gazdir. Bu gaz metallurgiya zavodlari yoqilg'i balansining asosiy tashkil qiluvchisi hisoblanadi. Domna gazining asosiy iste'molchilari havo qizdirgichlari, energetik qozonlar, koks batareyalari va qizdirish pechlari sanaladi.

Generator gazlari ham turli bo'ladi. Ular havo, suv bug'i, bug'-havo yoki bug'-kislorod aralashmalari kabi oksidlovchilar yordamida turli tabiiy va su'niy qattiq yoqilg'ilarni gaz generatorlarida gazga aylantirish (gazifikasiyalash) yo'li bilan olinadi. Generator gazlaridan yoqilg'i ³sifatida yoki kimyoviy qayta ishlash uchun xom ashyo sifatida foydalaniladi.

Organik yoqilg'ilarni foydalanish bo'yicha ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. Energetik yoqilg'i -issiqlik va elektr energiyasini olish uchun foydalaniladi.

2. Sanoat yoqilg'isi - yuqori haroratlari texnologik qurilma va tizimlar uchun energiyaning asosiy manbai.

3.4. Tabiiy va sun'iy qattiq yoqilg'i

Tayanch iboralar: *tabiiy qattiq yoqilg'i, tabiy va sun'iy yoqilg'ilar, toshko'mir, chala antrasit, atrasit ko'mirlari bo'laklarining yirikligi.*

Tabiiy qattiq yoqilg'i

Ma'lumki, asosiy tarkibiy qismi ugleroddan iborat yonuvchan moddalarga **yoqilg'i** deyiladi. Yoqilg'lar asosan ikki turga bo'linadi: **Tabiy** va **sun'iy** yoqilg'ilarga.

Tabiiy qattiq yoqilg' ilarga torf, qo'ng'ir ko'mir, tosh ko'mir, chala antrasit va antrasitlar, yonuvchi slaneslar kiradi. Sun'iy qattiq yoqilg' ilarga asosan tabiiy yoqilg' ilarni termokimyoviy qayta ishlash natijasida olinadigan mahsulotlar; koks, chala koks, yog' och ko'miri kiradi. Ba'zan sun'iy qattiq yoqilg' iga tabiiy yoqilg'ini mexanik qayta ishlash mahsulotlari, ko'mir changi, torf, qo'ng'ir ko'mir va tosh ko'mir briketlari ham kiritiladi.

Tabiiy qattiq yoqilg'ilarning ba'zi o'rtalashtirilgan ko'rsatkichlari 6.1 jadvalda keltirilgan. Qazib olinadigan yoqilg'inинг eng yoshi torf bo'lib, uning tarkibi boshlang'ich tabiiy moddaning tarkibiga yaqindir.

Tabiiy qattiq yoqilg'ining asosiy turlarining ko'rsatkichlari.

3.4- jadval.

Yoqilg'i turi	Yonuvchi massa tarkibi 31					namligi kulliligi	va	o'zgaru v-chan moddal ar chiqishi	Q _k ^{ishchi} Mjoul/k g
	S ^g	N ^g	O ^g	N ^g	S ^g _{or+k}	Δ ⁰	W ^r	V _g %	

Torf	57,8	6,0	33,4	2,5	0,3	5,0÷12 ,5	40- 50	70gach a	8,38- 10,47
qo'ng'ir ko'mir	55-78	4,5- 6,5	15-30	0,6- 1,6	0,3- 6,0	15-25	15- 60	60 gacha	7,33- 20,31
toshko'mir	75-90	4-6	3-13	1,0- 2,7	0,5- 6,0	5-45	3-13	9-50	23,0- 27,23
Antrasit	90-96	2-3	1-3	0,5- 1	0,5- 3,0	16-30	5-11	9,0	23,02- 27,2
yonuvchi slanes	58-74	7,5- 9,5	10,1- 16,5	0,3- 1,5	4,9- 14,5	48-64	11,5- 17	80-90	5,53- 10,34

Parchalanish darajasiga qarab torf tolali, yer sifat va qatlamlili bo'ladi. Qatlamlili torf eng yaxshi yoqilg'i hisoblanadi, chunki unda o'simlik qoldiqlari deyarli uchramaydi. Qazib olish sathiga qarab torf pastlikda (past qatlamlili) va balandlikda joylashgan bo'ladi.

Qazib olish usuliga qarab torf bo'lakli va frezerlangan bo'ladi. MDH mamlakatlarida frezerlash usuli bilan torf qazib olish keng tarqalgan. Bu usulda torfnинг yuqorigi, qurigan qatlami maxsus frezer mashinalari yordamida maydalanadi, torf maydasi joyida quritiladi va keyin iste'molchiga jo'natiladi. Bo'lak qilib qazib olish usuli ko'p mehnat talab qiladi va shu bilan birga unumdorligi kam.

Olinadigan torfning asosiy qismi elektr stansiyalarida yoqiladi. Bir qismi gaz olish uchun va maishiy ehtiyojlarga, yana bir qismi o'g'it sifatida ishlataladi. Tabiiy holatdagi torfning namligi juda yuqori 90% gacha bo'ladi. Quruq torfning namligi 30-40 % bo'ladi. Tarkibi va olishi usuliga qarab torfning yonish issiqligi katta oraliqda o'zgaradi. Torf oson oksidlanadi va o'z-o'zidan yonib ketadi. Torfning katta zaxiralari Rossiya, Belorus va Boltiqbo'yini mamlakatlarida joylashgan.

Qo'ng'ir ko'mir kimyoviy tarkibi va fizik kimyoviy xossalari bo'yicha torf va toshko'mir orasida o'rinn tutgan.

Qo'ng'ir ko'mirlarga yonish issiqligining yuqori qiymati:

$$Q_{yu}^i = \frac{100}{100 - A_i} < 24000 \frac{kJ}{kg}$$

bo'lgan ko'mirlar kiradi.

Qo'ng'ir ko'mirning o'ziga xosligi tarkibida torfga nisbatan uglerodning ko'pligi, kislorodning kamligi va uchuvchan moddalarning kamligi, koksining yomonligi, namlanish darajasining yuqoriligi, oson oksidlanish va o'z-o'zidan yonishi mumkinligi, namligi va kul miqdori yuqori bo'lgani uchun yonish issiqligining pastligi, mexanik mustahkamligining pastligidadir.

Turli joylardagi qo'ng'ir ko'mirning tashqi balasti (ya'ni kulliligi va namligi) juda keng oraliqlarda o'zgaradi, shuning uchun ularning ishchi massasiga nisbatan hisoblangan yonish issiqligi katta farq qiladi.

Wⁱqiymatiga qarab qo'ng'ir ko'mirlar uch turga bo'linadi:

$$B_1 = W^i > 40\%; B_2 = W^i = 30-40\%; B_3 = W^i < 30\%.$$

Qo'ng'ir ko'mirlar bo'laklarining o'lchami bo'yicha uch sinfga bo'linadi: K - katta, bo'laklarining o'lchami 50-100 mm; M – mayda, o'lchamlari 0–50 mm va oddiy O (R) – o'lchamlari 0–100 mm.

Ko'mirlarnibelgilashdategishlichabelgiqo'yiladi, maslan: (BK)- qo'ng'ir ko'mirkattabo'lakli.

Qo'ng'ir ko'mir konlari butun MDH hududida joylashgan bo'lib, ularning asosiyлари Rossiya va Ukrainada. Kansk-Achinsk qo'ng'ir ko'mir xavzasining zahirasi 140 mldt. bo'lib, u eng katta havza hisoblanadi. Mamlakatimizda Angren ko'mir konidan BPK markali qo'ng'ir ko'miri qazib olinadi. Tosh ko'mirlar sinfiga kulsiz, nam massasi yonish issiqligining yuqori qiymati $Q_{yu}^i = 100/(100 - A^i) > 2400$ kJ/kg va uchuvchan modular miqdori 9 % dan ko'proq bo'lgan ko'mirlar kiradi.

Toshko'mirning zichligi va mustahkamligi qo'ng'ir ko'mirga nisbatan ancha yuqori, uchuvchan moddalarning chiqishi kam hamda kuli va namligi past bo'ladi. Toshko'mirning yonuvchi massasida uglerod miqdori ko'proq, kislorod kamroq bo'ladi. Toshko'mirning asosiy ahamiyatli xosalaridan biri koks qoldig'inining erib yopishib qolishga moyilligi hisoblanadi.

Koks qoldig'ining erib yopishuvchanligi va uchuvchan moddalarning chiqishiga qarab toshko'mir qator turlarga bo'linadi. Turli ko'mir havzalari uchun o'zining GOST lari mavjud. 3.5-jadvalda Donesk havzasida olinadigan ko'mirlar tasnifi keltirilgan:

Toshko'mir tasnifi

3.5 - jadval

Ko'mir turi	belgilanishi	uchuvchan moddalar chiqishi	koks qoldig'ining tavsifi
Uzun alangali	D (U)	36 va ortiq	kukunsimon-chala yopishgan
Gazli	G	35 va ortiq	yopishqoq
gazli-moyli	GJ (GM)	27-37	yopishqoq
moyli	J (M)	27-37	yopishqoq
kokslili-moyli	KJ (KM)	25-31	yopishqoq
kokslili-ikkinchchi	K2	17-25	yopishqoq
Koksli	K	18-27	yopishqoq
sust yopishqoqli	OS (SYo)	14-22	yopishqoq
Kam yopishqoq	SS (KYo)	25-37	kukunsimon-chala yopishqoq
Kuchsiz	T (K)	8-17	kukunsimon-chala yopishqoq

Bir turdag'i toshko'mirlarda V^g qiymatini o'zgarib turishi turli xavzalardagi ko'mirlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Ko'mir turining aniqlovchi ko'rsatkichi bo'lib, koks qoldig'idagi plastik qatlama qalinligi (y), hisoblanadi.

Maslan: G6 - gazli ko'mir, plastik qatlaming kichik qiymati 6 mm;

Ko'mirlarning G, GJ, J, OS turlari metallurgik koks olishda ishlataladi. Ko'rsatilgan ko'mirlarning bir qismi kokslashdan oldin boyitiladi. Buning natijasida kam kulli ko'mir konsentrati ajralgandan keyin, kulliligi yuqori ($A^i > 40\%$) bo'lgan

oraliq (sanoat) mahsuloti va boyitish chiqindilari qoladi. Bu sanoat mahsuloti metallurgiya zavodlarining IEMlarida energetik yoqilg'i bo'lib ishlatiladi. T, D va qisman SS turdag'i ko'mirlar xom energetik yoqilg'i hisoblandi.

Antrasitlar (A) tarkibida ugablerodning maksimal miqdori va uchuvchan moddalarning chiqishi kamligi bilan (91 % dan ko'p emas), yuqori darajada zich va mustaxkam bo'lishi bilan tavsiflanadi.

«A» turdag'i ko'mirlarga yarim antrasitlar yaqin turadi. Uchuvchan moddalarning nisbatan ko'proq (yonuvchan massasining 1 gramiga nisbatan 220-330 sm³/g, antrasitlarda - 220 sm³/g dan kamroq) chiqishi ularni boshqa ko'mirlardan ajratib turadi. Antrasit va yarim antasitlar asosan energetik yoqilg'i sifatida ishlatiladi. Toshko'mir, antrasit va yarim antrasitlar o'lchamlariga qarab saralanadi, ya'ni yiriklilik sinflari (3.6 -jadval) ga bo'linadi.

Toshko'mir,chala antrasit va atrasit ko'mirlari bo'laklarining yirikligiga qarab tavsiflanishi.

3.6 - jadval

Ko'mir sinfi	Belgilanishi	Bo'laklari o'lchami mm
Plitali	P	> 100
Yirik	K	50 ÷ 100
YOnq'oq	O	25 - 50
Mayda	M	13 - 25
Pista	S	6 - 13
SHtib	SH	< 6
Mayda va shtibli pista	MSSH	< 25
SHtibli pista	SSH	< 13
Oddiy	R	200 shaxtada olingan

	300 karerda olingan
--	---------------------

M: ASH - antrasit, JR- moyli oddiy toshko'mir.

Yonuvchi slaneslar sopropelning chirishi mahsulotlaridan va mineral jinslar aralashmasidan iborat bo'ladi.

Slaneslar tarkibida yonmaydigan mineral moddalarining ko'p bo'lishi, bu yoqilg'ining ishchi massasida kulning ko'p bo'lishiga yonish issiqligining past bo'lishiga sabab bo'ladi. Slaneslarning yana bir xosiyati, ularda uchuvchan moddalar chiqishi juda yuqori (90 %) bo'lishidir.

Yonuvchi slaneslar mahalliy yoqilg'i bo'lib, IESda ishlatiladi. Slaneslarning aksariyat qismiga termokimyoviy qayta ishlov (chala kokslanish) beriladi. Slaneslar moyidan benzin, kerosin, motor yonilg'isi, moylar, katta miqdorda kimyoviy moddalar olinadi. Slanes gazi $Q_q^i=15,69-17,6 \text{ MJ/m}^3$ issiqlik berish qobiliyatiga ega va tozalashdan so'ng maishiy ehtiyojlarga ishlatiladi. Yonuvchi slaneslar asosan Estoniya va Rossiyada qazib olinadi.

Sun'iy qattiq yoqilg'i

Yog'och ko'miri – bargli daraxtlarning yog'ochini 600-800 °C haroratda, havosiz yoki juda kam miqdordagi havoli muhitda qizdirish natijasida olinadi. Kuruq yog'och massasidan 30-40 % yog'och ko'miri olish mumkin. Yog'och ko'mirning yonish issiqligi jarayonning so'ngidagi haroratga bog'liq va $27\div31 \text{ MJ/kg}$ atrofida bo'ladi.

Yog'och ko'miri namni juda yaxshi tortadi. Odatda uning tarkibida 10 % gacha namlik bo'ladi. Agar ochiq havoda yog'och ko'miri saqlansa, namligi 40 % gacha ko'payadi. Bu ko'mir tarkibida kul miqdori kam va oltingugurt yo'qligi bilan farq qilinadi. Bu ko'mirning asosiy iste'molchilari kimyo sanoati va metallurgiya bo'lib, u asosan texnologik yoqilg'i sifatida ishlatiladi.

Chala koks – su'niy qattiq yoqilg'i bo'lib, qazib olinadigan qattiq yoqilg'ilarni chala kokslash jarayoni natijasida olinadi. 3.7 – jadvalda turli yoqilg'ilarni chala

kokslash natijasida olinadigan mahsulotlarning o’rtacha chiqish miqdorlari keltirilgan.

Qazib olinadigan yoqilg’ilarning quruq massasidan chala kokslanish mahsulotlarining chiqishi.

3.7 – jadval

Yoqilg’i	chala koks	Birlamchi moy	Pirogenitiksuv	chala kokslashgazi
Torf	40-45	8-12	20-25	24-30
Ko’ng’ir ko’mir	72-75	5-7,5	4,5-10	6,5-8,5
Toshko’mir	70-85	10-18	2-8	6,5-8
Yonuvchi slaneslar	60-80	10-25	5-10	5-8

Chalakoks – osonyonuvchitutunsiz, uchuvchanmoddalarchiqishi $V^{yo}=10 \div 15\%$ bo’lganyoqilg’i. Boshlang’ichmoymotoryoqilg’isi, moylar, fenollar, parafinvaboshqamahsulotlarolishbilanqaytaishlanadi.

Chala kokslash gazi ancha yuqori yonish issiqligiga ega bo’ladi. Lekin uning qiymati boshlang’ich yoqilg’i turiga qarab o’zgarib turadi (qo’ng’ir ko’mir uchun 9,4 dan 26,4 MJ/kg gacha). Chala koksning asosiy iste’molchilari kimyo sanoati va IES lari chala koksning bir qismi maishiy ehtiyojlar uchun ishlatiladi.

Toshko’mirli koks sun’iy qattiq yoqilg’ilar orasida eng ahamiyatlisi bo’lib, metallurgiya, kimyo sanoati va xalq xo’jaligining boshqa sohalarida keng ishlatiladi. Koks olish uchun boshlang’ich xom – ashyo bo’lib, 3 mm gacha maydalangan PS, G ko’miri bilan aralashtirilgan kokslanadigan K va PJ turdag'i ko’mirlar va qisman T va D turdag'i ko’mirlar hisoblanadi. Kokslash uchun issiqlik sarfi o’rtacha 2,5 - 2,7 MJ/kg (shixta) qiymatga ega bo’ladi.

Ko’mirlarni kokslash natijasida olinadigan mahsulotlar miqdorining o’rtacha qiymatlari quyidagicha: koks 70-80 %, koks gazi 14 %, tosh ko’mir moyi – 3-4 %, benzol – 1:1,2 %, ammiak 0,3–0,4 %. Tarkibida vodorod miqdori yuqori bo’lgan

tozalangan koks gazi sanoat va maishiy ehtiyojlar uchun yoqilg'i hamda kimyoviy xom-ashyo sifatida ishlataladi.

Koksning asosiy yonuvchi moddasi ugleroddir. Ugleroddan tashqari koks tarkibida kul, kam miqdorda oltingugurt, fosfor va boshqa moddalar bo'ladi. Koksning namligi odatda $W^i = 2 \div 5\%$. Koksning kulliligi qo'llanilgan ko'mir turiga qarab $A^i = 9 \div 7\%$ atrofida, oltingugurt miqdori 0,4-2,4 % atrofida bo'ladi. Koksning yonish issiqligi W^i , A^i larga bog'liq va $A^i = 9 \div 10\%$, $W^i = 2 \div 3\%$ bo'lganda $Q_q^i = 29,3$ MJ/kg ni tashkil qiladi.

Koksni tavsiflovchi xususiyatlari uning yuqori darajada mustahkamligi va tuzilishida bo'shliqlar borligi, hamda deyarli uchuvchan moddalarning yo'qligi ($V^{yo} = 0,8 \div 1\%$) dan iborat. Uchuvchan moddalarning deyarli yo'qligi koks yondirilishi va yoqilishini qiyinlashtiradi. Koksning yondirilish harorati $700 \div 800$ °C.

Toshko'mir koxsidan tashqari neft, termoantrasit, toshko'mir peki kabi koks turlari olinadi.

Neft koksi, sun'iy qattiq yoqilg'i bo'lib neft va neft mahsulotlarini qayta ishslash (kreking, piroлиз) qoldiqlari va neft pekini kokslash natijasida olinadi. Neft koksining kulliligi kichik ($0,3 \div 0,8\%$), oltingugurt miqdori kam ($<1\%$), uchuvchan moddalarning chiqishi $V^u = 6,5 \div 7\%$ namigi 3 % dan ko'p emas, yonish issiqligi 31,4-33,5 MJ/kg ga teng. Neft koksi turli elektrodlarni ishlab chiqarishda va texnologik yoqilg'i sifatida ishlataladi.

Toshko'mir pekidan olinadigan koks yuqori darajadagi mexanik mustaxkamlikga, kul va oltingugurt miqdori kichik, uchuvchan moddalar chiqishi $V^u < 0,8\%$ bo'lgan yoqilg'i. Odatda bunday koksda $A^i = 0,5\%$, $W^i = 3\%$; $S^i = 0,5\%$ bo'ladi.

Toshko'mir pekidan olinadigan koks elektrod ishlab chiqarish va elektr ko'mirchilikda xom ashyo sifatida ishlataladi.

Kam ulli, kam oltingugurtli va issiqga chidamli antrasitni $1000 \div 1300$ °S haroratda havosiz muhitda qizdirish natijasida termoantrasit olinadi. Bunda antrasit

tarkibida oltingugurt kamayadi, bo'shliqlar ko'payadi ($S^i=2\%$, $E=5\%$). Termoatrasitning namligi 5% , kuliligi $A^i = 6,5\%$ uchuvchan moddalar chiqishi $V^u=0,5+0,7\%$, yonish issiqligi $Q=33,9\text{ MJ/kg}$.

Termoantrasit yuqori sifatli texnologik yoqilg'i bo'lib eritish jarayonlarida toshko'mir koksi o'rniga ishlataladi. Asosiy iste'molchilar rangli va qora metallurgiya hisoblanadi.

3.5.Suyuq va gaz yonilg'isi

Tayanch iboralar: *suyuq va gaz yonilg'isi , uglerod, oltingugurt, kislorod, katta miqdorda benzin fraksiyasi , og'ir neftlar, k am oltingugurtli.*

Suyuq yonilg'i

Tabiiy suyuq yonilg'i – neft, turli uglevodorodlar, asosan metan (umumiyo'k'inishdagi formularasi $C_nH_{2n} + z$) va neft (umumiyo'k'inishda C_nH_{2n}) qatorlarining katta miqdordagi aralashmasidan tashkil topgan tabiiy organik birikma ko'rinishda bo'ladi. Bundan tashqari neftning tarkibiga biroz miqdorda – qisman kalloid-dispers holatdagi benzollar qatoriga (C_nH_{6n-6}) kiruvchi xushbo'y uglevodorodlar, suyuq birikmalar, asfalt-moy moddalari va boshqalar kiradi. Neftning kimyoviy tarkibi juda murakkab va hozirgacha yaxshi o'rganilmagan.

Neftning elementar tarkibi uning olinayotgan joyiga va ma'lum darajada qazib olinish, uzatilish va saqlanish sharoitiga qarab farqlanadi. Neftning organik massasining o'rtacha tarkibi quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi:

Uglerod – 84-86%,

Vodorod – 12-14%,

Oltingugurt – 0,01-5 %,

Kislorod va azot – 1 % ga yaqin.³¹

Odatda neft tarkibida 1 % ga yaqin suv va 0,2 - 0,4 % mineral qo'shimchalar bo'ladi.

Tarkibi va xossalariiga qarab neft quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1) Katta miqdorda benzin fraksiyasi bo'lgan engil neft ($\rho < 850 \text{ kg/m}^3$) va og'ir ($\rho > 850 \text{ kg/m}^3$) neftlar;

2) Kam oltingugurtli ($S=0,65\%$), oltingugurtli ($S=0,5 \div 1,9 \%$) va ko'p oltingugurtli ($S > 1,9 \%$) neftlar;

3) Kam moyli (moylar miqdori 8% dan ko'p bo'limgan), moyli (moylar miqdori 8-25 %) va ko'p moyli (moylar miqdori 25 % dan ko'p) neftlar;

4) Parafinsiz (parafin miqdori 1% gacha) va parafinli (parafin miqdori 2 % dan ko'p) neftlar.

Neftga termik ishlov berilib, karbyurator, dizel va qozon-o'choq guruhlariga tasniflanadigan turli sun'iy yoqilg'ilar olinadi.

Qattiq yoqilg'iga nisbtan, sun'iy suyuq yonilg'ilar bir qator afzalliklarga ega. Bularga kam kullilik va past namlilik, yuqori yonish issiqligi, uzatilish qulayligi (shu jumladan quvurlarda uzatilish imkoniyati), yoqishga oson tayyorlanish va yonishining osonligi, bir qator suyuq yonilg'ilarning ichki yonuv dvigatellarida qo'llanilishi mumkinligi kiradi.

Suyuq yonilg'ilarning asosiy issiqlik va texnik ko'rsatkichlari (tasnifi) 6.5-jadvalda keltirilgan. Suyuq yonilg'ilar qo'shimcha ravishda qovushqoqligi hamda alanganish va o't olish haroratlari bilan tavsiflanadi.

Suyuq yonilg'inining qovushqoqligi odatda shartli birliklarda o'lchanadi va Engler viskozimetridan andoza haroratlari 200 ml tekshirilayotgan yonilg'inining oqib chiqish vaqtini xuddi shu miqdordagi 20 °C haroratlari distillangan suvning oqib chiqish vaqtiga nisbati bilan aniqlanadi.

Qovushqoq suyuq yonilg'ilar (dizel yonilg'isi, mazut, kreking mazuti) uchun andoza harorati qilib 50, 75, 80 va 100 °C lar qabul qilingan.

Suyuq yonilg'inining alanganish harorati deb suyuq holatdagi yonilg'i sirti ustida, shu yonilg'i bug'lari va havo hosil qilgan aralashmaga yondiruvchi manba keltirilganda alanganish kuzatiladigan yonilg'i haroratiga aytiladi.

O't olish harorati deb yonilg'iqa yondirish manbasi yaqinlashtiril-ganda yonilg'i yona boshlaydigan va yonish jarayoni kamida 5 sek davom etadigan yonilg'i haroratiga aytildi.

Karbyurator yonilg'ilarga yaxshi bug'lanadigan distillangan yonilg'ilar (avtomobil va aviasiya dvigatellariga mo'ljallangan turli benzinlar, traktor kerosinlari kiradi. Ular asosan yonilg'inining flotasjon turg'unligini aniqlaydigan **oktan soni** bilan farqlanadi.

3.8 – jadval

Ishchi massasi tarkibi %							
YOnilg'i	C ^a	H ⁱ	O ⁱ + N ⁱ	S ⁱ _{uch}	A ⁰	W ⁱ	Q ⁱ _{pastMD}
Benzin	85	14,9	0,05	0,05	-	-	43,75
Kerosin	86	13,7	0,1	0,2	-	-	42,96
Dizelyoqilg'i	86,3	13,3	0,1	0,1	-	-	42,62
Solyarmoyi	86,5	12,8	0,4	0,3			42,33
Mazut:							
kam	84,6	11,7	0,3	0,3	0,1	3,0	40,27
oltingugurtli	83,8	11,2	0,5	1,4	0,1	3,0	39,73
Ko'p oltingugurtli	83	10,4	0,7	2,8	0,1	3,0	38,77

Dizel yonilg'ilarga yaxshi bug'lanadigan va dizel silindirida havoning siqilishi natijasida hosil bo'ladigan haroratlar (taxminan 550-600°C)da o'z-o'zidan alangalanishga qobiliyatli yonilg'ilar kiradi. Dizel yonilg'isining alangalanish ko'rsatkichi qilib tsetan soni qabul qilingan. Tsetan soni qancha katta bo'lsa, yonilg'inining o'z-o'zidan alangalanishi harorati shuncha (³¹past) bo'ladi, ya'ni dizel yonilg'isining sifati shuncha yuqori bo'ladi. Dizel yonilg'isi avtotraktorlar uchun, tezyurar dizellar uchun, transport (teplovoz va gazli yonilg'isi) dizellar uchun, sekin yurar dizellar uchun (motor yonilg'isi), solyarka moyi turlariga bo'linadi.

Kemalarning va qisman stasionar qozon qurilmalari o'txonalarida hamda sanoat pechlarini isitish uchun, suyuq o'txona yonilg'isi, neft mazuti va toshko'mirli va slanesli moylar ishlataladi. **Mazut – neftni to'g'ridan-to'g'ri haydash va krekinglash jarayonlarining og'ir qoldiqlari va neftning ba'zi bir distellangan fraksiyalari bilan aralashmasidan iborat.** Toshko'mir va slanes moylari qattiq yoqilg'ilarni termik qayta ishslash jarayonida olinadi.

Sanoatda qo'llaniladigan asosiy sun'iy yonilg'i mazutdir. Odatdagi haroratlar sharoitida mazut yuqori qovushqoqli suyuqlikdir. Sisternalardan quyib olish, nasoslar bilan uzatish quvurlar orqali uzatish, yondirish jarayonida purgakichlardan yaxshi purkalishi uchun mazutning qovushqoqligi ma'lum chegaralardan oshmasligi kerak. Mazutni ishlatalishida katta ahamiyatga ega bo'lganligi uchun, mazutning qovushqoqligi uni (mazutni) belgilashga asos qilib olingan.

F5 va F12 turdag'i dengiz kemalarida ishlataladigan mazutlar, bo'lib F5 va F12 mazutlari kema qozonxona qurilmalari uchun yonilg'i hisoblanadi. 40, 40V, 100 va 100V turdag'i o'txona mazuti. 40V va 100V mazutlari asosan og'ir kreking qoldiqlari yoki ularning to'g'ridan – to'g'ri haydalgan mazut bilan aralashmasidan iborat. 40 va 40V mazutlari qisman kema qozonlarida, asosan esa sanoat pechlarini isitish va qozonxonalarda yoqishga mo'ljallangan.

100 va 100V turdag'i mazutlar sanoat va energetika yonilg'isi hisoblanadi. Mazut turi uning shartli qovushqoqligini 50°C haroratda SHQ (ВУ град) graduslaridagi maksimal qiymatini tavsiflaydi. Masalan mazut 5-SHQ 50 birlikda qovushqoqligi 5 ga teng. Mazut 40- SHQ 50 da 40 shartli qovushqoqlik birligiga ega.

Purkalishi yaxshi bo'lishi uchun mazutning purkagich oldidagi qovushqoqligi 3-6 grad SHQ ga teng bo'lishi kerak. SHuning uchun mazutlar saqlashda, nasoslar yordamida uzatishda, yoqishdan oldin ³¹kerakli qovushkoqlikga ega bo'lishi uchun qizdiriladi. Odatda purkalish yaxshi bo'lishi uchun mazut $90\text{-}120^{\circ}\text{C}$ gacha qizdirilsa yetarli. Yuqoriroq qovushqoqlikga ega kreking-qoldiqlar $140\text{-}150^{\circ}\text{C}$ gacha qizdiriladi.

Elementar tarkibi va ko'rsatkichlari bo'yicha mazutlar unchalik farqlanmaydi. Bir turdag'i mazutlar orasida mazut tarkibidagi oltingugurt miqdori turlicha bo'lishi mumkin. Shu sababli ular kam oltingugurtli, oltingugurtli va ko'p oltingugurtli guruhlarga bo'linadi. Turli mazutlar uchun bir qator ko'rsatkichlar belgilangan bo'lib, ularning asosiyлари 3.9- jadvalda keltirilgan.

Mazutlarning texnik xarakteristikasi

3.9 - jadval

Mazutko'rsatkichi	$\varnothing 5$	$\varnothing 12$	40V	40	100V	100
VU grad.qovushqoq						
50 da	5	12	-	-	-	-
80 da	-	-	6	8	10	16
kulliligi % ortiq emas	0,05	0,1	0,04	0,12	0,05	0,14
Mexanik qo'shimchalar % ortiq emas	0,1	0,12	0,07	0,8	0,2	1,5
Suv miqdori % ortiq emas	0,3	0,3	1,5	1,5	0,3	1,5
Kul miqdori %	—	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5
kam oltingugurtli	2,0	—	2,0	2,0	2,0	2,0
Oltingugurtli	—	—	—	3,5	—	3,5
Ko'p oltingugurtli						
Harorat $^{\circ}\text{C}$	80	90	90	90	110	110
o't olish	-5	-8	+10	+10	+25	+25
qotib qolish	41,4	41,4	40,7	39,9-	40,5	39,9-
Yonish issiqligi $Q_q^0 \text{ MJ/kg}$				40,7		40,5

31

Tabiiy neftni termik qayta ishlash natijasida qoldiq mahsulot sifatida olingan mazut tarkibida bir qator moddalar bo'ladi. Ularga asfalt-moy moddalar, kul va mineral (ma'danli) qo'shimchalar, oltingugurtli birikmalar kiradi.

Asfalt moy moddalari asfalten, karben va karbonatli qattiq birikmalardan iborat. Mazut tarkibida ularning bo'lishi ushbu yonilg'inining noturg'un bo'lishiga olib keladi. Chunki bu qo'shimchalar, ayniqsa mazut qizdirilganda, ya'ni uning qovushqoqligi kichik bo'lganda, polimerlanishi va cho'kishi mumkin. Asfalt-moy moddalari tarkibida uglerodning ko'pligi (84-87%) bilan farqlanadi. Bu modda 300 °C gacha qizdirilganda parchalanadi va koksga aylanadi. Mazut tarkibida koksning cho'kma hosil qilishi uni uzatishni qiyinlashtiradi, purkagichlarning tiqilib qolishiga olib keladi. Mazutlarni saqlash jarayonida oksidlanish va boshqa jarayonlar natijasida asfalt-moy moddalari miqdori doimo ko'payib boradi.

Mazutlar tarkibidagi mineral (ma'danli) qo'shimchalar asosan ishqorli metallar tuzlari va temir oksidlaridan iborat. YOqish natijasida ular mazut kulining bir qismini hosil qiladi. Kulning qolgan qismi mazutning yonuvchan massasi tarkibidagi elementar organik birikmalar tarkibiga kiruvchi metallar (vanadiy, nikel va boshqalarning) oksidlanishi natijasida hosil bo'ladi. Ishqor metall tuzlari va vanadiy kulning yumshash haroratini pasaytiradi.

Kul bunday haroratda issiqlik ishlatuvchi qurilmalarning isitish sirtlarida o'tirib qoladi, issiqlik almashinishni yomonlashtiradi va yuqori harorat sharoitida po'latning korroziyalanishiga olib keladi.

Mazutlar tarkibidagi oltingugurt asosan oltingugurtli organik birikmalar va qisman oltingugurt-vodorod birikmasi H_2S va toza oltingugrt ko'rinishida bo'ladi. Mazut yoqilg'sida oltingugurt SO_2 gacha oksidlanadi. U esa o'z navbatida yuqori harorat va kislород ortiqligi sharoitida oltingugurt angdridi SO_3 gacha qisman oksidlanadi. Issiqlik ishlatuvchi qurilmalarning past haroratli qismlarida SO_3 – oltingugurt kislotasiga aylanadi va tutun gazlarining shudring nuqtasini ko'taradi. Suv bug'larining oltingugurt kislotasi bilan kondensasiyalanishi metall isitish yuzalari (sirtlari)ning oltingugurt kislotali³¹ korroziyasini rivojlantiradi. Yonish mahsulotlari tarkibida SO_2 ning bo'lishi atrof - muhitni ifloslantiradi.

Suyuq yonilg'ini qazib olish so'ngi yillarda asta-sekin kamaytirilmoqda. Buning asosida bir qator ob'ektiv omillar bor. Ularga yangi xavzalarning tog'-kon sharoitlarining murakkablashuvi, ularning uzoqligi va ularga etish qiyinligi kiradi.

Shuning uchun neft qazib olishning absalyut ko'payishiga qaramay, qozon-o'txona xo'jaligida mazutning ulushi kamayib boradi. Shu bilan birga neftdan motor yonilg'isi va kimyo hamda neft kimyo sanoati uchun xom ashyo olishi ko'paytiriladi.

Gaz yonilg'isi

Energetikada, sanoat issiqlik texnologiyasida, maishiy maqsadlarda katta miqdorda turli yonuvchi gazlar ishlataladi. Ular tabiiy, ya'ni tabiiy gaz, gaz kondensati va neft - gaz konlarida olinadigan qattiq va suyuq yoqilg'ilarni qayta ishlash natijasida olingan yoki turli ishlab chiqarish jarayonlarining texnologik chiqindilari hisoblangan mahsulotlardir. Ba'zi gazlarning tarkibiy qismlari haqidagi ma'lumotlar 3.10 – jadvalda keltirilgan.

Ba'zi gaz yonilg'ilarining tarkibi.

3.10- jadval

Yonilg'i gaz turi	Yonilg'i tarkibi %											
Sun'iy gazlar:	CH ₄	C ₂ H ₆	C ₃ H	C ₄ H ₁	C ₅ H ₁	CO	O ₂	H ₂	C0	N ₂	H ₂	uzluks
Domna gazi	0,3	-	8	0	2	2	0,2	55	27,	5,0	S	iz
Koks gazi	25,5	-	-	-	-	12,	3,0	3,0	0	59,	-	uglevo
Chalakoks gazi:			-	-	-	5			6,5	8	-	dorodlar
yonuvchi slaneslar-dan olingan qo'ng'ir ko'mirdan olingan	29,3	15,0	-	-		2,4	1,1	3,1			-	
Neft zavodi gazlari:	28,0	3,5	-	-		36,	-	1,7	8,3	6,9	-	2,3
						3			7,8	9,2	-	-
						50,					-	
	18,0	16,0	22,0	18,3	-	0	-	-	-	-	-	
	8,0	4,8					-	-			-	

Mazutni termik krekinglash gazi	30,0	10,0	18,6	33,4	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Gazoylni katalitik krekinglash gazi	0,5	-	4,5	1,5	-	-	0,2	49,	-	-	-	-	25,7
Kerosin pirolizi gazi	0,5	-	-	-	-	-	0,2	3	30,	13,	-	0,	29,1
Generator gazi:	0,9	-	-	-	-	-	5,2	0,2	2	0	0	0,	44,0
-Bug' havoli							6,5			33,	1,6	4	
-Suvli							0,6		53,	7			
-Havoli									8		18,	2,	
Yer ostida gazlash-tirish gazlari							14,			9,8	6	0	
							1						

Gazlarni gaz va gaz kondensat konlarida olingan va neft gaz konlaridagi yo'ldosh gazlarga ajratiladi.

Tabiiy gazlarning asosiy yonuvchi komponenti metandir. Uning gaz tarkibidagi miqdori 80-98 % ni tashkil qiladi.

Yonuvchi moddalarning qolganlarini metanlar turkumiga kiradigan og'ir uglevodorodlar tashkil etadi. Ba'zi bir toza gazli konlarda uglevodorodlar deyarli uchramaydi. Ularning maksimal miqdori 35 % gacha yo'ldosh gazlar tarkibida bo'ladi. Aksariyat tabiiy gazlar tarkibida³¹ vodorod yo'q, faqat ayrim konlarda uning miqdori 1 % dan oshmaydigan miqdorda bo'ladi. Uglerod oksidi SO va kislorod tabiiy gaz tarkibida bo'lmaydi. Oltingugurt vodorod birikmasining miqdori tabiiy gazlarda 5 % ni tashkil qilishi mumkin. Oltingugrt va vodorod birikmasi hamda uning yonish mahsulotlari juda zaxarli va yuqori korroziya aktivligiga ega birikma

bo'lgani uchun, tabiiy gazlar gaz konlarida oltingugurt va vodorod birikmasidan chuqur tozalanadi. Shu sababli gaz quvurlaridagi gaz tarkibida oltingugurt va vodorod birikmasi deyarli bo'lmaydi. Aksariyat gaz konlarida olinadigan quruq tabiiy gazning yonish issiqligi Q_{q}^q qiymati 34,75 dan 38,10 MJ/m³ oralig'ida, quruq yo'ldosh gazniki esa 38,0 dan 46,9 MJ/m³ gacha bo'ladi.


Tabiiy gazlarning yonmaydigan (ballast) qismi uglerod ikki oksidi CO₂ va azot N₂ dan iborat. Tabiiy gazlar yuqori sifatlari va arzon yonilg'i bo'lib yuqori yonish issiqligiga va issiqlik chiqarishiga (2030-2050 °C) ega. Shuning uchun uni uzoq masofalarga magistral (bosh) gaz quvurlari orqali uzatish maqsadga muvofiqdir.


Tabiiy gazning asosiy iste'molchilari qatoriga sanoat pechlari, quritish va boshqa qurilmalar kiradi. Ushbu iste'molchilarga boshqa yoqilg'i qo'llanilishi yo juda jiddiy qiyinchiliklar bilan bog'liq yoki texnologik jarayon xususiyati bo'yicha umuman mumkin emas. Tabiiy gazlarning asosiy miqdori maishiy maqsadlarda ishlatiladi.

Maxsus qurilmalarda olinadigan su'niy gazlarning tarkibi va xossalari, ular olinadigan yonilg'i turiga qayta ishlov berish sharoiti va texnologiyasiga bog'liq. Ishlab chiqarish jarayonlarining qoldig'i sifatida olinadigan sun'iy gazning tarkibi va xossalari shu ishlab chiqarish texnologiyasiga to'la-to'kis bog'liq bo'ladi.

Sun'iy yonuvchi gazlar orasida generator gazlari deb ataladigan guruh mavjud bo'lib, ular tabiiy va sun'iy qattiq yoqilg'larni gazlashtirish usuli bilan olinadi.

Gazlashtirish jarayonining ma'nosi qattiq yoqilg'inining kimyoviy bog'liq energiyasini gazlashtirish jarayonining gazsimon mahsulotlari (asosan CO va H₂) ning kimyoviy issiqligiga aylantirishdir. Bo'lakli yoqilg'i qatlamiga turli oksidlovchilar berilganda, qatlamda quyidagi reaksiyalar amalga oshadi (reaksiyalarning issiqlik effekti MJ/kmol da berilgan):.





Ko'mir changli mash'alada ham shunga o'xshash reaksiyalar sodir bo'lishi mumkin.

(3.1) va (3.2) reaksiyalar yoqilg'ini kislorod bilan gazlashtirilganda sodir bo'ladi. (3.3) va (3.4) reaksiyalari suv bug'i bilan, shularga parallel ravishda (3.5) va (3.6) reaksiyalari sodir bo'ladi. Bu reaksiyalar natijasida generator gazi uglerod oksidi va vodorod bilan boyitiladi.

(3.1), (3.2), (3.3) reaksiyalari bilan olingan gaz-havoli generator gazi deyiladi. Uning yonish issiqligi kichik ($3,8 - 4,6 \text{ MJ/m}^3$). SHuning uchun uning yonilg'i sifatida ishlatalishi chegaralangan.

(3.3), (3.4) va (6.6) reaksiyalar orqali olingan suvning generator gazi o'z tarkibida ko'p vodorodga ega, uning yonish issiqligi $10,1 - 11,3 \text{ MJ/m}^3$ oraliqda yotadi. (3.3) va (3.4) reaksiyalari endotermik bo'lgani uchun suv gazini olish jarayoni davriy jarayondir. Bu jarayon 2 bosqichdan iborat.

1. Issiq havo bilan puflash (ya'ni yoqilg'i qatlagini issiq havo bilan puflash) va gaz xosil qilish bosqichi (cho'g' bo'lib turgan yoqilg'ini suv bug'i bilan puflash).

Sanoat o'txonalari (pechlari) uchun suvli gaz cheklangan miqdorlarda ishlataladi. Tarkibida vodorod ko'pligi uchun suvli gaz kimyo sanoatida xom ashyo sifatida ko'proq qo'llaniladi.

Aralash yoki bug' havo yoki bug' kislorodli generator gazi qattiq yoqilg'ini suv bug'i va havo yoki texnik kislorod bilan gazlashtirish natijasida olinadi. Bu jarayonning asosiy reaksiyalari (3.2) va (3.3) reaksiyalardir. Olinadigan bug' havo gazi $5,0 \div 6,7 \text{ MJ/m}^3$, bug' kislorod gazi esa $10 \div 10,5 \text{ MJ/m}^3$ yonish issiqligiga ega.

Qarama-qarshi issiqlik effektiga ega kimyoviy reaksiyalarning bir vaqtning o'zida sodir bo'lishi uzluksiz gazlashtirish jarayonini amalga oshirishga imkon yaratadi. Aralash generator gazi sanoatda o'txona (pechni) isitishga ishlatalishi mumkin.

Qattiq yoqig'ini gazlashtirish yoqilg'inining zich qatlamida, atmosfera va yuqori bosim ($2 \div 2,6 \text{ MPa}$) sharoitida chang ko'rinishidagi "mavhum qaynash"

qatlamida amalga oshirilishi mumkin. Gazlashtirish usuli jarayon ko'rsatkichlariga va olinayotgan gaz tarkibiga ta'sir qiladi.

Ko'mir qatlamining ma'lum geologik sharoitda joylashishi ko'mir qatlamlarini er ostining o'zida gazlashtirishga imkon yaratadi. Bu usulda olingan yonuvchi gaz ko'mirni er ostida gazlashtirish gazi deyiladi.

Yoqilg'i sifatida bu gaz uncha ahamiyatga ega emas, yonish issiqligi $3,77 \div 4,61 \text{ MJ/m}^3$. Bu gaz IES larning bug' qozonlari o'txonasida mahalliy yonilg'i sifatida ishlatalishi mumkin. Sanoat va energetikada keng qo'llaniladigan sun'iy gazlar-texnologik jarayonlarning qoldig'i bo'lgan domna, koks va neft kimyo gazi hisoblanadi.

Domna gazi domna pechlarida cho'yanni eritish jarayonida qo'shimcha mahsulot sifatida ajralib chiqadi. Uning hosil bo'lishi murakkab kimyoviy jarayonlar koks uglerodining oksidlanishi va temir oksidlarining tiklanish natijasidir.

Domna gazining tarkibi domna pechining ishlash rejimiga bog'liq va o'rta hisobda 6.6 jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga mos keladi. Domna gazining yonishi issiqligi 3,94 dan 6,02 MJ/m^3 gacha o'zgaradi. Changdan tozalangandan keyin domna gazi $0,02\text{-}1 \text{ g/m}^3$ quruq gaz changlanganlik va to'yinish holatiga mos keluvchi namlik (35 g/m^3) bilan iste'molchiga beriladi.

Domna gazi issiqlik energiyasining past potensialli manbai deb hisoblansada, metallurgiya kombinatlarida uning chiqishi miqdori katta bo'lgani uchun (1 tonna koxsdan o'rtacha $3600\text{-}3800 \text{ m}^3$ domna gazi olinadi) shu gazni korxona hududida ishlatalish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Domna gazining asosiy iste'molchilari domna pechlarining havo qizdirgichlari, koks kimyo zavodlarining pechlari, zavod qoshidagi IEMLari, prokat ishlab chiqarishning isitish pechlari va hokazolardir.

Toshko'mirni kokslash jarayonida^{³¹} olingan koks gazi 6.6-jadvalda keltirilgan komponentlardan tashqari o'z tarkibiga suv bug'lari, moylar, benzol uglevodorodlari, oltingugurt angidridi, ammiak va boshqalarni oladi.

Bunday gaz to'g'ri (xom) koks gazi deb ataladi. Uni quritib, tarkibidagi birikmalar chiqarib tashlangandan so'ng tozalangan yoki qaytma koks gazi deb

ataladi va u sanoat va maishiy yonilg'i sifatida hamda qisman ammiakni sintez qilishda ishlatiladi.

Qaytma koks gazining chiqish miqdori ko'mir shixtasining tarkibi va kokslash rejimi (holati)ga bog'liq va o'rtacha olinayotgan koksning 1 tonnasiga $400\text{-}450 \text{ m}^3$ ni tashkil qiladi. Koks gazining yonish issiqligi $16,37\text{-}21,44 \text{ MJ/m}^3$ tashkil qiladi. Qattiq yoqilg'i (qo'ng'ir va toshko'mirlar, hamda yonuvchi slaneslar)ni chala kokslash jarayonida bir qancha miqdorda chala koks gazi olinadi. Ushbu gazni bug', moylar, gaz benzini, oltingugurt vodorod birikmasi, namlikdan tozalagandan so'ng maishiy yonilg'i sifatida ishlatiladi.

Chalakoks gazining yonish issiqligi $15,57\text{-}24,83 \text{ MJ/m}^3$ (kichik qiymatlar qo'ng'ir va toshko'mirni, katta qiymatlar yonuvchi slaneslarni chala kokslashda olinadigan gazlar uchun tegishli).

Neft mahsulotlarini termokimyoviy qayta ishlash (gidroliz va kreking) jarayonida (asorat) qoldiq mahsulot sifatida piroliz va kreking gazlari olinadi. Ular odatda neft zavodi gazlari deb ataladi. Neft zavodi gazlari katta miqdorda cheklangan va cheklanmagan uglevodorodlarning o'z ichiga oladi. Shuning uchun ular juda qimmatli hisoblanadi.

Tarkibida propan, butan va ularidan og'irroq uglevodorodlarning ahamiyatli miqdorda bo'llishi neft zavodi gazlarini suyultirilgan gaz yonilg'isini olishda qo'llashga imkon yaratadi. Neft zavodi gazlari o'zining juda katta yonish issiqligi ($54\text{-}85 \text{ MJ/m}^3$ va undan yuqori) bilan boshqa gazlarda farqlanadi.

Neft zavodi gazlarining bir qismi sanoat pechlari (o'txonalarida)da bevosita yonilg'i sifatida yoqiladi, qisman tabiiy gaz bilan aralashtirilib-maishiy yonilg'i sifatida, keyinchalik xom-ashyo sifatida kimyoviy qayta ishlov berishga mo'ljallangan.

Eritilgan metallni kislород bilan ³¹puflaganda (shamollatganda) kislород bilan metal uglerodi birikishi sodir bo'ladi va katta miqdorda uglerod oksidi CO hosil bo'ladi. Po'latning konverter usulida ishlab chiqarish davriy jarayon bo'lgani uchun shamollatish bilan olinadigan gazlar tarkibi doimo o'zgarib turadi.

Kislород konverter gazining taxminiy tarkibi quyidagicha:

$\text{CO}=74\%$, $\text{CO}_2=11,5\%$, $\text{H}_2=13\%$, $\text{H}_2-0,3\%$.

Quyi yonish issiqligi $10,5 \text{ MJ/m}^3$. 1 tonna po'latni shamollatish usulida olinadigan gaz miqdori 55 m^3 gazning o'rtacha changlanganligi 64 g/m^3 .

Yuqorida ko'rsatilgan gazlardan tashqari, sanoatda juda ko'p tashlandiq texnologik gazlar bor. Ular o'zining tarkibida turli yonuvchi komponentlarga ega. Odatda bu texnologik gazlar tarkibidagi yonuvchi komponentlari miqdori kichik va past yonish issiqligiga ega.

Yoqilg'i sifatida bu gazlar deyarli qo'llanilmaydi, lekin ularning katta qismi atmosferaga tashlashdan oldin zararsizlantirish maqsadida (ba'zi katalizatorlar qo'llanilib) yondiriladi.

Shartli yoqilg'i. Issiqlik ajratish xususiyati turlicha bo'lgan yoqilg'ilarni taqqoslash uchun «shartli yoqilg'i» tushunchasidan foydalaniladi. Yonish issiqligi 29300 kJ/kg yoki $\sim 30000 \text{ kJ/kg}$ bo'lgan yoqilg'i shartli yoqilg'i deyiladi.

Berilgan yoqilg'ini shartli yoqilg'iga aylantirib hisoblashda va aksincha shartli yoqilg'ini berilgan yoqilg'iga aylantirib hisoblashda yoqilg'i ekvivalenti deyiladigan kattalikdan foydalaniladi.

$$E = \frac{Q_q^i}{29300}$$

3.6. Yoqilg'i issiqligi va havoning ortiqchalik koeffitsienti

Tayanch iboralar: *yoqilg'i issiqligi va havoning ortiqchalik koeffitsienti, yoqilg'i issiqligi, kalorimetrik bomba, suvli idish, termosta, aralashtirgich*

Yoqilg'i issiqligi

1 kg yoki 1 m^3 yoqilg'i to'liq yonganda chiqadigan issiqlik miqdori yoqilg'ining issiqlik ajratishi (yonish issiqligi) deyiladi ($Q^i, \text{ kJ/kg}$ yoki $Q^i \text{ kJ/m}^3$).

Yoqilg‘ining issiqlik ajratishi ikki xil: yuqori yonish issiqligi Q_{yu}^i va quyi yonish issiqligi Q_q^i bo‘ladi. Yoqilg‘ining massa birligi to‘liq yonganda chiqqan issiqlik miqdori yoqilg‘ining yuqori yonish issiqligi deyiladi, bunda namlikning bug‘lanishiga sarflangan issiqlik hisobga olinmaydi. Yoqilgining birlik massasi yonganda uning tarkibidagi namlik hamda vodorodning kislorod bilan reaksiyaga kirishish jarayonida hosil bo‘lgan namlik hisobga olingan xolatda ajralgan issiqlik miqdori quyi yonish issiqligi deyiladi. 1 kg suv bug‘ining atmosfera bosimida kondensatsiyalanish issiqligi taxminan 2500 kJ/kg ga teng. Ishchi yoqilg‘i tarkibidagi suv bug‘lari miqdori $W^i/100$ ga teng. 1 kg vodorod yonganda 9 kg suv bug‘i hosil bo‘ladi ($2H_2+0,5O_2=2H_2O$).


Demak, suv bug‘ining kondensatsiyalanish issiqligi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$2500\left(\frac{W^i}{100} + 9\frac{H^i}{100}\right) = 25W^i + 225H^i, \quad (3.7)$$

u holda

$$Q_q^i = Q_{yu}^i - 225H^i - 25W^i = Q_{yu}^i - 25(9H^i + W^i) \quad (3.8)$$

ya’ni yoqilg‘ining quyi yonish issiqligi uning yuqori yonish issiqligidan bug‘ hosil bo‘lish issiqligini ayirib tashlanganiga teng. Yoqilg‘ining yonish issiqligi laboratoriya sharoitida kalorimetrik bomba yordamida aniqlanadi (3.1-rasm).



3.1-rasm. Kalorimetrik qurilma. 1-kalorimetrik bomba; 2- suvli idish; 3- termostat; 4- aralashtirgich; 5-termometr; 6-aralashtirgichning uzatma mexanizmi.

Kalorimetrik bomba, bosimi 3 MPa bo‘lgan kislород bilan to‘ldirilgan germetik idish 1 dan iboratdir. Idishda massasi 1 g bo‘lgan yoqilg‘i yondiriladi. Bombani suvli idish 2 ga joylashtiriladi va suv haroratini ortishi orqali yoqilg‘ining yonish issiqligi aniqlanadi. Qattiq va suyuq yoqilg‘ining yonish issiqligini D.I. Mendeleev emperik formulasidan yetarli aniqlik bilan topiladi:

$$Q_{yu}^i = 340C^i + 1260H^i - 109(O^i - S^i) \frac{\text{kJ}}{\text{kg}} \quad (3.9)$$

$$Q_q^i = 340C^i + 1035H^i - 109(O^i - S^i) - 25W^i \frac{\text{kJ}}{\text{kg}} \quad (3.10)$$

Quruq gazning qo‘yi yonish issiqligi quyidagiga teng:

$$\begin{aligned} Q_q^q = & 358CH_4 + 640C_2H_6 + 915C_3H_8 + 1190C_4H_{10} + 1465C_5H_{12} + \\ & + 126,5 CO + 107,5H_2 + 234H_2S \frac{\text{kJ}}{\text{m}^3} \end{aligned} \quad (3.11)$$

Yuqori yonish issiqligi:

$$\begin{aligned} Q_{yu}^q = & 398CH_4 + 700C_2H_6 + 995C_3H_8 + 1285C_4H_{10} + 1575C_5H_{12} + \\ & + 126,5 CO + 127,5 H_2 + 257 H_2S \frac{kj}{m^3} \end{aligned} \quad (3.12)$$

Havoning ortiqchalik koeffitsienti

Yoqilg‘ini yonishi uchun atmosfera havosi zarur bo‘ladi. Uning miqdori ko‘p yoki kam bo‘lishiga qarab kimyoviy reaksiya jadal yoki sust bo‘ladi. O‘z navbatida yonish mahsuloti tarkibidagi zaharli gazlarning miqdori ham keng oraliqda bo‘ladi. Yoqilg‘ining yonishida asosiy oksidlovchi modda sifatida kislorod yoki atmosfera havosi olinadi. Yoqilg‘ining to‘la yonishi uchun zarur bo‘lgan atmosfera havosining miqdori nazariy jihatdan hisoblab topiladi. O‘txonada qattiq yoki suyuq yoqilg‘ining 1kg to‘liq yonishi uchun zarur bo‘lgan kislorod miqdori quyidagi tenglikdan topiladi.

$$q_{q,n} = (2,6 + C^i + 8H^i + S^i + O^i) : 100 \quad (3.13)$$

Kislorodning nazariy miqdori. (i – ish yoqilg‘isi) 2,67; 8 – $1kgC$, va $1kgN$ to‘liq yonish uchun zarur bo‘lgan O_2 miqdori. $1kg$ yoqilg‘ining to‘liq yonishi uchun zarur bo‘lgan havo massasi quyidagi ifodadan topiladi.

$$m_{h,n} = \frac{q_{q,n}}{23,15} \cdot 100 = 0,115C^i + 0,344H^i + 0,043(S^i - O^i) \quad (3.14)$$

$23,15$ – birlik hajmidagi havo tarkibidagi kislorod miqdori, %;

$C^i + H^i + S^i - O^i + N^i = 100\%$ - ish yoqilg‘isining yonuvchan qismi, %

$1kg$ yoqilg‘ining to‘liq yonishi uchun zarur bo‘lgan atmosfera havosining nazariy hajmi $\frac{m^3}{kg}$:

$$V_{h,n} = \frac{m_{h,n}}{P_h} = 0,089C^i + 0,0266H^i + 0,033(S^i - O^i) \quad (3.15)$$

$$\rho = 1,293 \frac{kg}{m^3}$$

31

Haqiqiy hajmi:

$$V_h = 0,01(2,67C^i + 8H^i + S^i - O^i); \quad (3.16)$$

To‘la yonish uchun zarur bo‘lgan haqiqiy havo miqdorining nazariy hisoblab topilgan miqdoriga nisbati ortiqcha havo koeffitsienti deyiladi.

$$\alpha_h = \frac{V_h}{V_{hn}} \quad (3.17)$$

Uning bir qismi yonish reaksiyasiga kirishmaydi va tutun gazlar bilan birga erkin holda chiqib ketadi. Yoqilg‘ining to‘liq yonishi uchun havoni hisoblab topilganidan ko‘proq miqdorda berish zarur. Haqiqiy beriladigan havo miqdori nazariy hisoblab topilganidan necha marta ko‘pligini ko‘rsatuvchi son ortiqcha havo koeffitsienti deyiladi va α bilan belgilanadi:

$$\alpha = \frac{V}{V_0}$$

α ning kattaligi yoqilg‘ining turiga, jarayon sodir bo‘ladigan sharoitlarga, yoqish usuliga, o‘txonaning tuzilishiga bog‘liq. Hisoblashlarda α ning qiymati tegishli tajriba ma’lumotlari asosida tanlanadi. α qanchalik kichik bo‘lsa, yonish jarayoni shunchalik tejamli bo‘ladi. Lekin α juda ham kichik bo‘lsa, yoqilg‘i chala yonadi va qozon aggregatining F.I.K. pasayadi. Qattiq yoqilg‘i qatlamlili usulda yoqilsa, odatda $\alpha = 1,3 - 1,5$ ga teng bo‘ladi, gaz va suyuq yoqilg‘i kamerali o‘txonalarda yoqilganda $\alpha = 1,1-1,15$ ga teng bo‘ladi.

3.7.Yoqishni yoqishusullari

Tayanch iboralar: *yoqishni yoqish usullari, qatlamlili usullar, mash’alali usullar, uyurmali yoqish usullari.*

Hozirgi zamon o‘txona texnikasida yoilg‘ini yoqishni asosan uch xili mavjuddir:

31

- 1). Qatlamlili usullari;
- 2). mash’alali usullari;
- 3). uyurmali yoqish usullari.

Qatlamlili yoqish – bu yoqilg‘ini o‘txona panjarasida qatlamlab yoqish usulidir

Yoqilg‘ining yonishi natijasida panjarada bevosita kul va shlakdan iborat g‘ovak yostiq hosil bo‘ladi. Uning ustida yonayotgan koks qatlami, ya’ni uchuvchan moddalarini chiqib ketgan yoqilg‘i bo‘ladi. Koks ustiga yangi yoqilg‘i qatlami beriladi. Bu yerda u keltirilgan issiqlik yoki yonayotgan yoqilg‘ining va o‘txona ichidagi qizigan qatlamning issiqligi hisobiga isiydi. So‘ngra yoqilg‘i quriydi, ya’ni undagi namlik bug‘lanib ketadi, shundan so‘ng sublimatlanish – uchuvchan moddalarining chiqishi ,va koks hosil bo‘lishi boshlanadi.

Uchuvchan moddalar va koksning yonishi natijasida issiqlik chiqadi va o‘txona ichining harorati ko‘tariladi. Havo, panjara teshigi va g‘ovak shlakli yostiq orqali o‘tib, isiydi. Havo keyingi harakati davomida o‘z yo‘lida koks va yoqilg‘i qatlamiga duch keladi. Ular bilan o‘zaro ta’sir etishib yoqilg‘i qatlami ustida yonadigan o‘txona gazlari oqimiga aylanadi va qatlam usti aylanasini hosil qiladi. Bu hol yuqori qatlamlarning tez alangalanishini va barqaror yonishini ta’minlaydi. Yonish paytida hosil bo‘lgan tutun gazlar o‘z issiqligini qozonni isitish sirtlariga beradi va quvurdan chiqib ketadi.

Qatlamlab yoqishda o‘txonada doimo yonayotgan yoqilg‘ining anchagina zahirasi bo‘ladi, bu esa o‘txonaning barqaror ishlashiga va qozonning yuklamasi o‘zgarganida o‘txonaning ishini dastlab faqat yoqilg‘i qatlamiga berilayotgan havoning miqdorini o‘zgartirish yo‘li bilan rostlashga yordam beradi.

Qattiq yoqilg‘i chang holatiga keltirilishi lozim. Kukun zarralarining o‘lchami mikronlar bilan o‘lchanadi. Yoqilg‘ining bunday ishlanishi tufayli yoqilg‘ining havo kislorodiga tegish va reaksiyaga kirishish sirti kattalashadi. Kamerali o‘txonada harorat taqsimlanishi rasmida ko‘rsatilgan.


Suyuq yoqilg‘ida ballast deyarli bo‘lmaydi, shuning uchun u faqat mash’ala qilib yoqiladi. Yoqish paytida yoqilg‘ini butunlay to‘zitib yuborish kerak. Yoqilg‘i yaxshi to‘zitilmasa yonish mahsulotlari ³¹ichida ko‘p miqdorda yonmagan sof uglerod S, uglerod-oksid SO va og‘ir uglevodorodlar SnNm qolishi mumkin.

Suyuq va qattiq yoqilg‘iga qaraganda gaz yoqilg‘ini mash’ala usulida oson va yaxshi yoqish mumkin. Lekin barcha yoqilg‘ini yoqishdagi singari, uni ham havo bilan yaxshi aralashtirish lozim.

Uyurmaviy usulda qattiq yoqilg‘ini chang holida emas, balki yaxshi maydalangan bo‘laklar holida yoqish mumkin.

Yoqishning bu usulida o‘txonada yoqilg‘i zahirasi mash’ala usulidagiga qaraganda ko‘p, lekin qatlam usulidagiga qaraganda kam bo‘ladi. Shuning uchun yoqishning uyurmaviy usulining barqarorligi mash’ala usulidagiga qaraganda katta, qatlam usulidagiga nisbatan esa kichik bo‘ladi.

Yoqilg‘ini qatlamlab yoqish jarayonining o‘ziga xos xususiyati yoqilg‘i zarralarini qatlamda barqaror joylashishi zarurligidadir. Bunda o‘txona panjarasida yotgan yoqilg‘i zarralari va bu zarralarga kelayotgan havo tezligi shunday bo‘lishi kerakki, zarralar qatlamdan uchib ketmasligi lozim. Havoning harakat tezligi katta bo‘lganda yoqilg‘i zarralarini havo qatlamidan uchirib ketadi va ular yonmay, tutungazlar bilan birga chiqib ketadi.




3.2-rasm.Yoqilg‘ini o‘txona panjarasida qatlamlab yoqish.

1-o ‘txona; 2-panjara; 3-issiq qabil qiluvchi yuza.

Yoqilg‘ini uyurmaviy usulda yoqish, o‘txonada hosil qilingan gaz-havo uyurmasi bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Oqimlar yoqilg‘ining havo bilan yaxshi aralashishiga imkon beradi, bu esa yoqilg‘ini yanada to‘liq yonishini ta’minlaydi .

Uyurmaviy usulda qattiq yoqilg‘ini chang holida emas, balki yaxshi maydalangan bo‘laklar holida yoqish mumkin.



3.3-rasm.Siklonli o‘txonalar. *a – gorizontal siklonli o‘txona; b – vertikal siklonli o‘txona; 1 – yonish kamerasi (siklon); 2 – shlak ushlab qoluvchi panjara; 3 – sovutish kamerasi; 4 – yondirgich; 5 – ikkilamchi havo soplosi; 6 – shlak chiqarish moslamasi; 7 – shlak vannasi.*

Mash’ala qilib yoqish usulida yoqilg‘i va yonish uchun zaruriy havo o‘txonaga maxsus moslamalar yordamida yuboriladi. Yoqishning mash’ala usuli yoqilg‘i zarralarini havo oqimi va yonish mahsulotlari bilan birgalikda to‘xtovsiz harakatlanib turishi.

MASALA YECHISH NAMUNALARI

1-masala. Uzluksiz ishlaydigan kamerali pech uchun yoqilg‘ining soatli sarfi aniqlansin. Yoqilg‘i-mazut, pechning unumдорлиги 741 kg/soat . Qizdirilayotgan metall massasining $1,3\%$ и metall kuyindisiga aylanadi, kimyoviy chala yonish natijasida yo‘qotilgan issiqlik yonish issiqligining $1,5\%$ ини tashkil qiladi. Chiquvchi gazlarning harorati 1300°C . Bundan tashqari yonish uchun beriladigan havoni 400°C gacha qizdirilganda tejaladigan yoqilg‘i miqdori aniqlansin. Atrof-muhitga

yuqotiladigan issiqlik 131,5 kVt deb qabul qilinsin; metallni qizdirish harorati 1250°C .

Yechish. 90°C dagi mazutning entalpiyasi: $H_{YO} = S_{YO} t_{YO} = 2,1 \cdot 90 = 189 \text{ Joule/kg}$. Yonish uchun beriladigan 90°C li havoning entalpiyasi: $H_H = V^0 \alpha C_{htH} = 10,7 \cdot 1,15 \cdot 1,295 \cdot 20 = 319 \text{ kJoule/kg}$. Kimyoviy chala yonish natijasida yuqotilgan issiqlik: $q_{K.CH.YO} = 0,015 \cdot 39,5 \cdot 10^3 = 592 \text{ kJoule/kg}$. Mexanik chala yonishdan yuqotilgan issiqlik $q_{M.CH.YO} = 0$; Pechdan chiquvchi 1300°C li gazlar bilan yuqotilgan issiqlik: $H_{CH.G} = (V_{CO_2} \cdot C_{CO_2} + V^0_{N_2} C_{N_2} + \Delta V_H C_H + V_{H.P.} \cdot S_{H.P.}) t_{CH.G.} = (1,586 \cdot 2,30 + 8,453 \cdot 1,425 + 1,601 \cdot 1,445 + 1,47 \cdot 1,806) \cdot 1300 = 24000 \text{ kJoule/kg}$

Yoqilg‘idan foydalanish koeffitsiyenti;

$$\eta_{FOYD} = 1 + \frac{H_{YO} + H_H}{Q_K^I} - \frac{q_{K.CH.YO} + q_{M.CH.YO} + H_{CH.G.}}{Q_K^I} = \frac{189 + 319}{39,5 \cdot 10^3} - \frac{592 + 24 \cdot 10^3}{39,5 \cdot 10^3} = 0,391$$

Metall kuyganda ajralib chiqadigan issiqlik; $Q_{EKZ} \approx 5660 \text{ u}/100 = 5660 \cdot 1,3/100 = 73,4 \text{ kJoule/kg}$.

Texnologik jarayonga sarflangan issiqlik:

$$Q_{TEXN} = (Q''_M - Q'_M) + (Q_T + Q^{T,G}_K + Q_{EKZ}) - Q_{EKZ} = 838 + 0 - 73,4 = 764,6$$

kJoule/kg . bunda: 838 kJoule/kg - metall qizdirilganda entalpiyasinining usishi, tegishli jadvaldan olindi. (A-4) Atrof-muhitga yuqotilgan issiqlik (1 kg metallga):

$$Q_{A.M.} = \frac{131,5 \cdot 3600}{741} = 640 \text{ kJ/kg}$$

Mazutning solishtirma sarfi:

$$b = \frac{Q_{TEXN} + Q_{A.M.}}{Q_Q^I \cdot \eta_{FOYD}} = \frac{764,6 + 640}{39,5 \cdot 10^3 \cdot 0,391} = 0,091 \text{ kg/kg}$$

Shartli yoqilg‘ining solishtirma sarfi: $_{31}$

$$b_{SH} = \frac{b Q_Q^I}{29,33 \cdot 10^3} = \frac{0,091 \cdot 39,5 \cdot 10^3}{29,33 \cdot 10^3} = 0,122 \text{ kg/kg}$$

Mazutning soatli sarfi:

$$V = q_b = 141 \cdot 0,091 = 67,6 \text{ kg/soat}$$

Havo rekuperatorda 400°C gacha qizdiriladi, uning entalpiyasi 6570 kJoul/kg ga teng , bu holda:

$$\eta_{FOYD} = 1 + \frac{189 + 6570}{39,5 \cdot 10^3} = \frac{592 + 0 + 24 \cdot 10^3}{39,5 \cdot 10^3} = 0,539$$

Yoqilg‘ining solishtirma sarfi:

$$b = \frac{764 + 640}{39,5 \cdot 10^3 \cdot 0,539} = 0,0662 \text{ kg/kg}$$

Yoqilg‘ining soatli sarfi:

$$V = 0,0662 \cdot 741 = 49,0 \text{ kg/soat.}$$

Tejalgan yoqilg‘i:

$$\Delta V = \frac{67,6 - 49,0}{67,6} \cdot 100 = 27,5\%$$

Bundan tashqari, rekuperatorning urnatilishi qurilma-ning unumdotligini ham oshiradi.

2 – masala. Quyidagi tarkibda berilgan: $C^i = 62,7\%$; $H^i = 3,1\%$; $S^i = 3,1\%$; $S^i = 2,8\%$; $N^i = 0,9\%$; $O^i = 1,7\%$; $A^i = 23,8\%$; $W^i = 5,0\%$ ko’mirning 1 kg miqdori to’la yoqilganda hosil bo’ladigan ikki va uch atomli gazlarning hajmi va CO_2 qamda SO_2 quruq gazlarning miqdori aniqlansin. To’la yonish natijasida tutun gazlari tarkibidagi uch atomli gazlarning miqdori $\text{RO}_2^{\text{MAKC}} = 18,5\%$ deb qabul qilinsin.

Yechish : Uch atomli gazlarning miqdori

$$\begin{aligned} V_{\text{RO}_2} &= V_{\text{CO}_2} + V_{\text{SO}_2} = 0,0187(C^i + 0,375S^i) = 0,0187(62,7 + 0,375 \cdot 2,8) = \\ &= 1,19 \text{ m}^3/\text{kg}. \end{aligned}$$

$$\text{Quruq gazlarning hajmi: } V_{K.G.} = \frac{VR0_2}{R0_2^{\text{MAKS}}} \cdot 100 = \frac{1,19}{18,8} \cdot 100 = 0,633 \text{ m}^3/\text{kg}$$

$$\text{Ikki atomli gazlarning hajmi: } V_{R2} = V_{K.G.} - V_{\text{RO}_2} = 6,33 - 1,19 = 5,14 \text{ m}^3/\text{kg}.$$

Qruq gazlardagi CO_2 ning miqdori

$$\text{CO}_2 = \frac{V_{\text{CO}_2}}{V_{K.G.}} \cdot 100 = \frac{0,0187 C^i}{V_{K.G.}} \cdot 100 = \frac{0,0187 \cdot 62,7}{6,33} \cdot 100 = 18,5\%$$

Qruq gazlardagi SO_2 ning miqdori

$$\text{SO}_2 = \frac{V_{\text{SO}_2}}{V_{K.G.}} \cdot 100 = \frac{0,0187 S^i}{V_{K.G.}} \cdot 100 = \frac{0,0187 \cdot 0,375}{6,33} \cdot 100 = 0,31\%$$

MUSTAQIL YECHISH UCHUN MASALALAR

1–masala. Quyidagi tarkibda berilgan $2000 \text{ m}^3/\text{soat}$ tabiiy gazni: $\text{CO}_2=0,5\%$; $\text{CH}_4=92,8\%$; $\text{C}_2\text{H}_6=2,8\%$; $\text{C}_3\text{H}_8=0,9\%$; $\text{C}_4\text{H}_{10}=0,4\%$; $\text{C}_5\text{H}_{12}=0,1\%$; $\text{N}_2=2,5\%$; va ikkinchi turdagи $1000\text{m}^3/\text{soat}$ gazni: $\text{CO}_2=0,1\%$; $\text{CH}_4=89,7\%$; $\text{C}_2\text{H}_6=5,2\%$; $\text{C}_3\text{H}_8=1,7\%$; $\text{C}_4\text{H}_{10}=0,5\%$; $\text{C}_5\text{H}_{12}=0,1\%$; $\text{N}=2,7\%$ yoqish uchun zarur bo’lgan havoning nazariy va kalsiy hajmlari aniqlansin. O’txona kamerasidagi havoning ortiqlik koeffitsienti tegishlicha $\alpha_{\text{fb}}=1,15$ ba 1,1.

Javob: $V^0 = 29360 \text{ m}^3/\text{soat}$; $V_{\text{QAK}} = 33264 \text{ m}^3/\text{soat}$.

2–masala. Qozon o’txonasida 600m^3 tabiiy gaz yoqiladi, uning tarkibi: $\text{CO}_2=0,2\%$; $\text{CH}_4=98,5\%$; $\text{C}_2\text{H}_6=0,2\%$; $\text{C}_3\text{H}_8=0,1\%$; $\text{N}_2=1,0\%$. O’txonadagi qavoning ortiqlik koeffitsienti $\alpha_O=1,15$ bo’lganda yonish mahsulotlarining hajmi aniqlansin.

Javob: $V_g = 7210 \text{ m}^3$.

3–masala. Pech o’txonasida ikki xil ko’mir yoqiladi. Ulardan birinchisining sarfi $2 \cdot 10^3 \text{ kg}/\text{soat}$ va tarkibi $C_1^i = 49,3\%$; $H_1^i = 3,6\%$; $S_1^i = 3,0\%$; $N_1^i = 1,0\%$; $O_1^i = 8,3\%$; $A_1^i = 21,8\%$; $W_1^i = 3,0\%$ va ikkinchisining sarfi $3 \cdot 10^3 \text{ kg}/\text{soat}$, tarkibi: $C_2^i = 55,2\%$; $H_2^i = 3,8\%$; $S_2^i = 3,2\%$; $N_2^i = 1,0\%$; $O_2^i = 5,8\%$; $A_2^i = 23$; $W_2^i = 8\%$. Agar o’txonadagi havoning ortiqlik koeffitsienti $\alpha_O = 1,3$ bo’lsa, aralashmaning to’la yonishi natijasida hosil bo’ladigan gazning hajmi aniqlansin.

Javob: $V_G = 37480 \text{ m}^3/\text{soat}$.

4–masala. Qozon o’txonasida 600m^3 tabiiy gaz yoqiladi, uning tarkibi: $\text{CO}_2=0,4\%$; $\text{CH}_4 = 197,0\%$; $\text{C}_2\text{H}_6 = 0,4\%$; $\text{C}_3\text{H}_8 = 0,2\%$; $\text{N}_2=2,0\%$. O’txonadagi qavoning ortiqlik koeffitsienti $\alpha_O=230,0$ bo’lganda yonish mahsulotlarining hajmi aniqlansin.

Javob: $V_g = 14420 \text{ m}^3$.

5 – masala. $3 \cdot 10^6$ kg B2 markali ko'mirni tashish paytida namligi $W_1^i = 32\%$ dan $W_1^i = 32\%$ gacha ko'tariladi. Agar $W_1^i = 32\%$ bo'lganda yoqilg'inining ishchi massasiga ko'ra quyi yonish issiqligi $Q_q^i = 10435 \frac{kJ}{kg}$ bo'lsa shartli yoqilg'iga nisbatan yoqilg'I isrofini aniqlang.

Javob: $B_{sh} = 58460 \text{ kg.}$

Nazorat savollar

- 1.Qanday yoqilg'ilar tabiiy qattiq yoqilg'ilar sanaladi?
- 2.Sun'iy yoqilg'ilarga qanday mahsulotlar kiradi?
- 3.Tabiiy qattiq yoqilg'ini asosiy turlarining ko'rsatkichlari?
- 4.Shartli yoqilg'i deb nimaga aytildi?
5. Yuqoriharoratli jarayonlar qanday sanoat sohalarida amalgam oshiriladi?
6. Past haroratli jarayonlar qanday sanoat sohalarida amalgam oshiriladi?
7. Energiya tejamkorligi deganda nimani tushunasiz?
8. O'txonaning barqaror ishlashiga nima kilish kerak?
9. Yoqilg'ini uyurmaviy yoqishda, o'txonada nima bilan tavsiflanadi?.
10. Siklonli o'txonalarini chizmasini tushuntirib bering.
11. Qattiq yoqilg'i qaysi holatiga keltirilishi lozim?
12. Suyuq yoqilg'i uchun kaysi yoqish usullaridan foydalanish kerak?

IV-BOB. ELEKTRIK PECHLAR

4.1.Elektr energiyasi yordamida qizdirish usullari

Tayanch iboralar: *elektr pechlarida, elektr energiyasi yordamida qizdirish, qarshilik pechlarida bilvosita qizdirish, bevosita qizdirish, induksion yuqori chastotali qizdirish, elektron - nurli qizdirish, plazmali qizdirish.* ;

Zamonaviy texnikaga yuqori darajadagi sof metall va qotishmalar zarur. Ular yuqori yuklama va haroratlarda ishlaydigan detallar (gaz turbinalarining kurakchalari, raketa dvigatelining qismlari)ni tayyorlashda qo'llaniladi. Bu maqsadlar uchun niobiy, molibden, tantal, volfram va ularning qatnashchilari ishlatiladi. Ular tarkibida juda kam miqdorda gaz aralashmalari (azot, kislorod, vodorod) va shuningdek, qattiq aralashmalar (uglerodli va boshqalar) bo'lsa, metallarning mexanik xossalari keskin pasayib ketadi, murtligi oshadi, payvandlanishi yomonlashadi va hokazo.

Yuqori sifatli sof metall va qotishmalar **elektr pechlarida** olinadi. Elektr pechlarida chuqur vakuum (10^{-5} - 10^{-7} mm.sm.ust.gacha)ni hosil qilish va shuningdek, himoyalovchi atmosferadan foydalanish mumkin. Vakuum texnikasining tez rivojlanishi natijasida chuqur siyraklik sharoitida 30 t. va undan og'ir sof quymalarni olish imkoniyatiga ega bo'linadi. Bunday sharoitda olingan metallning fizik va mexanik xossalari keskin yaxshilanadi. Masalan, vakuumda eritib olingan po'latdan yasalgan podshipnik (turumtak)ning ishlash muddati 4-5 marta ortadi. Elektrik qizdirish paytida ishchi kameradagi haroratni $\pm 1-6^{\circ}\text{S}$ aniqlik bilan rostlash mumkin. Bu oldindan belgilangan xossali metallar olish uchun muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi paytda sanoatda qo'llaniladigan elektrik qizdirish turlari quyidagilarga bo'linadilar:

- 1) Qarshilik pechlarida bilvosita qizdirish;**³¹
- 2) Bevosita qizdirish;**
- 3) Induksion yuqori chastotali qizdirish;**
- 4) Yoyli qizdirish;**
- 5) Elektron - nurli qizdirish;**

6)Plazmali qizdirish;

7)Optik qizdirish.


4.2.Qarshilik pechlari. Induksion yuqori chastotali qizdirish

Tayanch iboralar: *qarshilik pechlari, induksion yuqori chastotali qizdirish, to ‘g ‘ri kontaktli qizdirish, qarshilik pechida bilvosita qizdirish, induksion qizdirish*

Qarshilik pechlarida bilvosita va bevosita qizdirish

Bilvositaqizdirishpaytida elektrenergiyasining issiqlikga aylanishi yuqori ichki qarshili kgaegabo ‘lgan va issiqlik gachida maxsus qizdirish elementlarida amalga oshiriladi. Yuqori harorat largacha qizigane elektr element dan issiqlik qizdiriladi gan buyumga urlanish, konveksiyava issiqliko ‘tkazuvchanlik yo‘lib ilan beriladi.

Elektr qizdirgich yordamida yuqori harorat gacha qizdirilgan pechning o‘tga chidamlı devorlari buyumga issiqlikni qisman nurlanish yo‘uli bilan beradi (4.1-rasm).



4.1- rasm. Elektr termik moslamalarining ishlash prinsipi.

a- to ‘g‘ri kontaktli qizdirish; b - qarshilik pechida bilvosita qizdirish; v - induksion qizdirish; g - yoysi qizdirish.

Qizdirish elementlari nixrom, karborund, grafit, volfram, molibden kabi materiallardan yasalsa, $300\text{-}400^{\circ}\text{C}$ dan to 3000°C gacha haroratlarga erishish mumkin. Bundan tashqari, yuqoridagi materiallar qo‘llanilganda ishchi kamerada oksidlanish, tiklanish jarayonlarini amalga oshirish va neytral hamda vakuumli atmosferani yaratish mumkin bo‘ladi.

Pech iste’mol qiladigan quvvat quyidagi munosabatdan aniqlanadi:

$$N = Q_{SEK} = 0,001 I^2 R, \text{ kVt} \quad (4.1)$$

bunda: Q_{SEK} - pechdaajralibchiqadiganissiqlikmiqdori, Vt;

I - tok kuchi, A;

R- qizdirish elementining qarshiligi, Om.

Bevosita qizdirish

To‘g‘ridan-to‘g‘ri qizdirish usuli qo‘llanilganda qizdiriladigan buyumdan tok utishi natijasida unda issiqlik hosil buladi (4.1-rasm). Qizdiriladigan buyumning hajmida issiqlikning hosil qilinishi issiqlik yo‘qotilishlarini keskin kamaytirish imkonini beradi, shuning uchun qizdirishning bu usuli yuqori foydali ish koeffitsientiga ega.

Kontaktli qizdirish yordamida uzun detallar, masalan prujina uramlari tayyorlanadigan metall chiviqlari qizdirib yumshatiladi.

Induksion yuqori chastotali qizdirish

Induksion qizdirishning o‘ziga xos tomoni elektr energiyasini o‘zgaruvchan magnit oqimi yordamida issiqlikka aylantirishdan iborat. Agar silindrik burama g‘altak (induktor) dan o‘zgaruvchan elektr toki o‘tkazilsa, u holda g‘altak atrofida o‘zgaruvchan magnit maydoni F_m hosil³¹bo‘ladi (12- v rasm). Magnit oqimi g‘altak ichida eng yuqori zichlikka ega bo‘ladi.

Induktor ichiga tok o‘tkazuvchi metall buyum joylashtirilsa, unda elektr yurituvchi kuch hosil bo‘ladi, uning oniy qiymati quyidagiga teng:

$$e = \frac{dF_m}{d\tau} \cdot . \quad (4.2)$$

Elektr yurituvchi kuch ta'sirida tez o'zgaruvchi magnit maydoniga joylashtirilgan metallda elektr toki hosil buladi. Bu tokning qiymati materialni kesib o'tuvchi magnit oqimiga va magnit oqimini keltirib chiqaruvchi tokning chastotasiga bog'liq bo'ladi.

Induksion qizdirish usuli qo'llanilganda bevosita qizdirilayotgan material hajmida issiqlik ajralib chiqadi; bu issiqlikning ko'p qismi materialning sirtqi qatlamlarida hosil bo'ladi. Eng ko'p issiqlik ajralib chiqadigan qatlam qalinligi:

$$\delta = 5030 \sqrt{\rho/\mu f}, \quad cm \quad . \quad (4.3)$$

bunda : ρ - solishtirma qarshilik, $Om \cdot sm$;

μ - materialning nisbiy magnit o'tkazuvchanligi ;

f - chastota (o'zgaruvchan tokning 1 sek.dagi o'zgarishlari soni), Gs.

Keltirilgan formuladan ko'rindaniki, berilgan metall uchun chastota ortishi bilan faol qatlamning qalinligi kamayar ekan. Chastota asosan texnologik talablar asosida tanlanadi. Masalan, metallarni eritish uchun 50-2500 Gs, qizdirish uchun - 10000 Gs. gacha va metall sirtini toplash uchun esa 30000 Gs. talab qilinadi.

CHo'yan eritish paytida sanoat chastotasi (50 gs.) qo'llaniladi, bu qurilmaning umumiy FIKini oshirish imkonini beradi, chunki chastotani o'zgartirish bilan bog'liq bulgan energiya yuqotilishlari sodir bulmaydi.

Induksion qizdirish tezkor usul hisoblanadi, chunki issiqlik bevosita qizdirilayotgan metallning ichida ajralib chiqadi, buning natijasida induksion elektr pechlarda nur qaytaruvchi alangali pechlardagiga nisbatan metallni 2-3 marta tez eritish imkoniyati yaratiladi. Induksion qizdirish yordamida 3000^0S va undan yuqori haroratlarga erishish mumkin.

4.3.Yoyli qizdirish va eritish

Yoyliqizdirishpaytidaelektrenergiyasiningissiqlikkaaylanishielektryoyiningmash' al idaamalgaoshiriladi (4.1-rasm). Elektr yoyi elektrodlar o'rtasida yuzaga keladigan alohida (mustaqil) gazli razryadning bir ko'rinishidan iborat. Yo'y razryadini hosil qilish uchun potensiallar farqi ostida bo'lgan elektrodlar avval bir-biriga tegiziladi. Yuqori qiymatli tok hisobiga elektrodlarning o'zaro tutashgan joylari shu darajada qiziydiki, natijada elektronlarning termoemissiyasi yuzaga keladi.

Razryadlanish oralig'idagi yuqori haroratgacha qizdirilgan gaz fazasi o'z energiyasini qizdirilayotgan metallga asosan nurlanish yuli bilan beradi. Yo'yli razryadning ustuni gazli plazmadan, ya'ni ionlashtirilgan holatdagi gazdan iborat. Plazma yuqori energiyali neytral gaz zarrachalaridan, musbat ionlar va elektronlardan tashkil topgan. Musbat ionlar bilan elektronlarning zaryadlari o'zaro teng bulib, elektrik nuqtai nazardan plazma ustuni neytraldir.

Yoyning harorati yoy yonayotgan gazning ionlanish potensialiga proporsional bo'ladi va quyidagi munosabatdan aniqlanadi:

$$T_{yo} = 800 \cdot U_i, {}^0K; \quad (4.4)$$

bunda : U_i - gazning ionlanish potensiali, V ;

Turli elementlarning ionlanish potensiali 3,87 dan to 24,5 V gacha o'zgargani uchun, bu formuladan ma'lum bo'ladiki, atmosfera bosimi sharoitida yoyning harorati 3200^0 K dan to 20000^0 K gacha orliqda bo'lishi kerak. SHuning uchun qizdirishning bu usuli sifatli po'lat eritish va shuningdek, qiyin eriydigan va o'tga chidamli materiallarni eritish uchun qo'llaniladi.

Nazorat savollar

- 1.Elektr energiyasi yordamida qizdirish usullarini sanab bering.
- 2.Qarshilik pechlari haqida nimalarni bilasiz?
- 3.Induksion yuqori chastotali qizdirish $\overset{31}{\overset{\circ}{g}}risida$ gapirib bering.
- 4.Yoyli qizdirish va eritish qaerlarda ishlatiladi?
5. Elektr pechlarning turlarini aytib bering.
6. Elektr pechlari qaysi sohalarda qo'llaniladi?

V-BOB.YUQORI HARORATLI JARAYONLARDA BO'LADIGAN HARAKATLAR

5.1.Elektron - nurli qizdirish va eritish

Tayanch iboralar: elektronlarning yo'naltirilgan oqimi pushkalar, eritilgan metallar, elektron nurlanishli qurilma, elektron vakuum

Eritilgan metallarning xossalari ular tarkibidagi aralashmalar, ayniqsa kislorod, vodorod va azot miqdoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘ladi. O‘ta toza metallarni faqat chuqur vakuum sharoitida eritish yo‘li bilan olish mumkin. Bu amallarni yuqori samara bilan elektron-nurli eritish yordamida amalga oshirish mumkin.

Ma’lumki, U_T potensiallar farqiga ega bo‘lgan elektrodlar orasidagi bo‘shliqda joylashgan erkin elektron anod tomon harakatlanadi. Elektronning harakatlanish tezligi U_T kattalikga bog‘liq bo‘lib, uni quyidagi formula bo‘yicha aniqlash mumkin:

$$S \approx 600\sqrt{U_T}, \quad \text{km/ sek} \quad (5.1)$$

Bunda : S - elektronning elektr maydonidagi tezligi, km/sek;

U_T - potensiallar farqi (tezlashtiruvchi kuchlanish), V.

Elektron vakuum sharoitida harakatlansa, uning energiyasi havo molekulalari bilan to‘qnashishga sarflanmaydi, shuning uchun elektronning elektr maydoni ta’sirida ega bo‘lgan kinetik energiya quyidagi tenglik bilan ifodalanishi mumkin:

$$\varepsilon U_T = \frac{mc^2}{2}, \quad (5.2)$$

bunda : m- elektron massasi, $9,1 \cdot 10^{-28}$ griga teng;

ε - elektron zaryadi, $1,6 \cdot 10^{-19}$ K. ga teng;

U_T - potensiallar farqi , V .

Keltirilgan (5.1) va (5.2) tenglamalardan ko‘rinadiki, elektronning kinetik energiyasi elektrodlar o‘rtasidagi potensiallar farqiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq.

Elektron anod materiali tomonidan yutilganda uning kinetik energiyasi (taxminan 70-80 % i) issiqlikka aylanadi. Agar katod elektrodi termoelektronli emissiya boshlanadigan haroratgacha qizdirilsa, katod va anod elektrodlari o‘rtasida katodning emissiya tokiga teng elektronlar oqimi (anod toki) yuzaga keladi.

Anodni tez elektronlar oqimi tomonidan bombardimon qilinishi hisobiga harorat tezda ko‘tarilib ketadi. Qizish tezligi va chegaraviy haroratning qiymati potensiallar farqiga va anod tokiga, ya’ni elektron oqimning quvvatiga, bog‘liq bo‘ladi;


$$N_0 = I_a U_T, \text{ Vt} ; \quad (5.3).$$

bunda : N_0 - elektron oqimining quvvati, Vt ;

I_a - anod toki, A ;

U_T - tezlashtiruvchi kuchlanish, V.

Qizdiriladigan metall anod vazifasini bajaradigan qurilmalar texnikada keng qo‘llaniladi. Bu qurilmalarda (5.1- rasm) erkin elektronlar manbai vazifasini termokatod o‘taydi, u volfram yoki tantal simlaridan halqa ko‘rinishida tayyorlanadi. Qizdiriladigan metall termokatod halqasining o‘qi bo‘uylab joylashtiriladi va ular o‘rtasidagi potensiallar farqi 10-15 kV.ga etkaziladi. Termokatoddan tok o‘tkazilib, uni 2000-2500°C gacha qizdiriladi. Elektron bombardimon qilish natijasida metall hattoki qaynash va bug‘lanish haroratigacha qizdirilishi mumkin. Yo‘naltirilgan elektronlar oqimi (nuri) ega bo‘lgan termik qurilmalar yuqori ishonchli hisoblanadi.



5.1- rasm. Elektron nurlanishli qurilmaning sxemasi.

Elektronlarning yo‘naltirilgan oqimi pushkalar yordamida hosil qilinadi; ularning ishlash prinsipi elektronlar magnit yoki elektr maydonidan o‘tayotganida o‘z yo‘nalishini o‘zgartira olish xususiyatiga asoslanadi. Elektron optika qonunlaridan foydalanib va magnit maydonining shakli elektron va jadalligini tanlash yo‘li bilan erkin uchuvchi elektronlarni elektron tutamga yig‘ish mumkin. Chuqur vakuumda elektron nur bilan faqat o‘tga chidamli metallarni eritish uchun foydalanibgina qolmay, balki bu usul maxsus po‘latlarning sifatini oshirish uchun ham qo‘llaniladi. Bunday usulda olingan po‘lat oddiy po‘latga nisbatan turt barobar ko‘up vaqt davomida ishlaydi va ulardan tayyorlangan qismlar ishonchliroq bo‘ladi.

5.2. Plazmali qizdirish va eritish

31


Tayanch iboralar: suv bilan sovitiladigan metall katod elektrod, zichlagich, suv bilan sovitiladigan kamera, elektr yoyi, soploli anod elektrod, plazma oqimi.

Yuqoridako‘rsatilganidek,

elektrenergiyasiningyoylirazryadsharoitidaissiliqlikkaaylanishigazliplazmahosilbo‘lishibilanamalgaoshadi. Oddiy yoyli razryad paytida plazma atrof-muhitdagi gaz molekulalaridan hosil bo‘ladi. Agar yoyli razryad gaz oqimida sodir bo‘lsa, u holda qizigan ionlashgan gaz mash’ali hosil bo‘ladi. Atmosfera bosimidagi plazma oqimida harorat $800\text{-}3000^{\circ}\text{S}$ gacha etishi va bu oqimdan yuqori haroratli qizdirish maqsadida foydalanish mumkin.


Plazma oqimini shakllantirish maxsus plazma generatori yoki plazmatronlar yordamida amalga oshiriladi. Plazma generatori ikkita elektrod joylashtirilgan kameradan iborat; anod elektrodi soploli maxsus plastina ko‘rinishida va katod elektrodi esa - oddiy tayoqcha ko‘rinishida bajariladi.

Plazma generatorining tuzilishi 5.2-rasmda keltirilgan. Agar elektrodlar o‘rtasida yoy hosil qilinib, kameraga gaz berilsa, anod elektrodining soplosidan yuqori haroratli plazma oqimi otilib chiqadi. Soplidan chiqayotgan plazma oqimi o‘z energiyasini qizdirilayotgan jismga issiqlik nurlanishi va isciqlik o‘tkazuvchanlik yo‘li bilan va shuningdek, plazmaning yo‘naltirilgan harakatining kinetik energiyasi hisobiga beradi. Plazmatronlardan tashqari plazma generatorlarining shunday konstruksiyalari mavjudki, ularda plazma yuqori chastotali induksion razryadlar yordamida hosil qilinadi.



5.2- rasm. Plazma generatorining sxemasi.

1- suv bilan sovitiladigan metall katod elektrodi; 2-zichlagich; 3-suv bilan sovitiladigan kamera devorlari; 4-elektr yoyi; 5-soploli anod elektrodi; 6- plazma oqimi; 7-gazni berish.



5.3- rasm. Plazmali eritish pechining sxemasi.

Yuqori chastotali induksion razryad elektrod materiali bilan ifloslanmagan sof plazma olish imkonini beradi, shuning uchun uning yordamida kimyoviy toza materiallarni qizdirish va eritish mumkin. Plazma oqimida energiyaning yuqori darajada to‘planganligi va ixtiyoriy atmosferalarni (tiklovchi, neytral va oksidlovchilarni) yaratish mumkinligi kelajakda gaz ximiyasi va metallurgiyada plazmali qurilmalarni qo‘llash uchun keng imkoniyatlar yaratadi. 5.3- rasmda plazmali eritish pechining sxemasi keltirilgan.³¹

5.3.Optik qizdirish va eritish

Qizdirishning optik usuli qo'llanilganda fokuslangan yorug'lik nurlanishidan foydalaniladi. Optik qurilma asosan nurlanish manbaidan va nur oqimini fokuslovchi nur qaytargichlar tizimidan iborat. Nurlanish manbai sifatida cho'g'lanish lampalaridan, grafitli qizdirish elementlaridan, yoyli lampalardan, plazmali nur taratgichlardan va ayrim hollarda-quyosh energiyasidan foydalaniladi. Optik sistema reflektorli (ya'ni nur qaytarish optikasi qo'llaniladigan) sxemaga yoki refraktoriyli (ya'ni linza optikasi qo'llaniladigan) sxemaga ega bulishi mumkin.

Optik qurilmalarda nurlanish oqimining solishtirma quvvati (yoki integral zichligi) $100-1000 \text{ Vt/sm}^2$ bo'lib, qizdirish haroratining $1000-4000^0\text{K}$ atrofida bo'lishi ta'minlanadi. Optik pechlarda shishali yoki metalli nur qaytargichlardan foydalaniladi. Qizdiriladigan buyumning nurlanish darajasi nurlanish manbaining elektr quvvatini o'zgartirish yo'li bilan yoki nur oqimining bir qismini to'sish yo'li bilan rostlanadi.

Optik pechlarda materiallarni yuqori haroratlari qizdirish va ularga havoda, vakuumda yoki nazoratlanadigan atmosferada termik ishlov berish amalga oshiriladi. Pechning qizdirish kamerasi butunlay yoki qisman shaffof material (kvars shishasi) dan yasalishi lozim.

Nazorat savollar

1. Elektron - nurli qizdirish va eritish haqida nimalarni bilasiz?
2. Plazmali qizdirish va eritishto'g'risida gapirib bering.
3. Optik qizdirish va eritishqaerlarda ishlataladi?
4. Elektron - nurli qizdirish va eritishni afzallikkleri nimada?
5. Optik qizdirish va eritishqaysi sohalarda qo'llaniladi³¹?
6. Plazmali qizdirish va eritishqaysi sohalarda qo'llaniladi?

VI- BOB.JISMGANURLANISHBILANISSIQLIKBERILISHI

6.1.Metalga nurlanish bilan berilgan issiqlik miqdori

Gazdanvadevordanmetalganurlanishbilanberilganissiqlikmiqdoriqyidagifo
rmulabilanhisoblanadi.

31

$$Q_{NUR} = S_{G.D.M} F_M [(T_G / 100)^4 - (T_M / 100)^4] Vt$$

$S_{G.D.M}$ - gazdan va devordan metalga berilgan nurlanish koeffitsenti.

Bu koeffitsent

$$S_{G.D.M} = S_O S_M \frac{1/\varphi + (1 - E_G)}{[E_M + E_G(1 - E_M)][1 - E_G]/E_G + (1/\varphi)]};$$

S_0 - absolyut qora jismning nur o'tkazish koeffitsenti.

$1/4 = \omega$ - devorning balandligini oshirish darajasi.

Bu kattalik hamma ichki devor yuzalarining yig'indisini issiqlik nurini kabul qiladigan metall yuzasiga nisbatiga ham tengdir.

$$1/4 = \omega = F_D F_M;$$

Issiqlik uzatishida devorning roli pechning o'lchami va konstruktiv formasiga juda ham bog'liq.

Agar pechning shifti kancha baland bo'lsa, devor balandligini oshirish darajasi shuncha katta bo'ladi.

Pechning shiftining balandligini oshirib borishimiz mumkin, kachonki olov o'sha pechning butun ishchi xajmini to'ld

irib borsagina foydalansa bo'ladi. Agarda olov o'sha pechning xajmini to'ldirib bormasa unda pechning shifti atrofida sovigan gaz yig'ilib koladi va bu xech kanday foyda keltirmaydi. Demak bu issiqlikka chidamli va boshqa materiallarni ko'p sariflanishiga va issiqlikning ko'prok yo'qolishiga olib keladi.

Asosan devor balandligini oshirish darajasi 2-3,5 atrofida bo'ladi.

6.2. Domna pechidagi issiqlik almashinuvi

Domnapechlaridamahsulotyuqoridanpastgaqarab, gazbo'lsashunchaqarama-qarshiboradi. Shunday qilib gaz bilan mahsulot o'rtasida qarama-qarshi yo'nalish hosil buladi.

31

Gaz bilan mahsulot bulaklari orasidagi issiqlik almashinuvi suvning ekvivalentlik nisbatiga bog'liq.

Gazdagi suv ekvivalenti

$$W_G = S_G \cdot G_G$$

G_G - gazning sarflanishi

S_G - gazning issiqlik sig‘imi

Mahsulotdagi suv ekvivalenti

$$W_{SH} = S_{SH} \cdot G_{SH}$$

G_{SH} - mahsulotning sarflanish

C_{SH} - mahsulotning issiqlik sig‘imi

Agar $W_G > W_{SH}$ bo‘lsa mahsulotning harorati (T_{SH}) gazning boshlang‘ich haroratigacha T_G^1) ko‘tariladi va gaz pechdan oxirgi harorat (T_G') bilan chikib ketadi. SHu sharoitda domna pechining turli balandlik nuqtasidagi mahsulot haroratni (T_{SH}) quyidagi formula bilan aniqlashimiz mumkin.

$$(T_{SH} - 273) / (T_G' - 273) = 1 - \exp [-\mu (\alpha_v / C_{SH}(1-f)) (1 - W_{SH} / W_G) \tau].$$

$\mu = 1 / 1 + (1 / S) Bi$ - koeffitsent bo‘lib asosan Bi kriterisiga bog‘liq.

α_v - hajmiy issiqlik berish koeffitsenti.

f – siraklik.

τ - mahsulotning pechga tushganidan to chiqib ketganigacha vaqt.

Agarda $W_{SH} > W_G$ bo‘lsa, gaz o‘zining issiqligini mahsulotga to‘lik beradi va o‘zi mahsulotning kirish haroratigacha soviydi. Ammo lekin bu issiqlik mahsulotni gazning boshlang‘ich haroratigacha isitish kobiliyatiga ega emas. Mahsulot issiqlik almashiluvidan keyin keraklicha kizimagan bo‘ladi va mahsulotning harorati gazning haroratidan past bo‘ladi. $T_{SH} < T_G$.

Demak, pechning turli balandlik nuqtasidagi gazning harorati bu issiqlik almashuv sxemasida quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$T_G' - T_G / T_G - T_{SH} = 1 - \exp [-\mu (\alpha_v / C_{SH}(1-f)) (W_{SH}W_G - 1) \tau] :$$


A mahsulotning harorati issiqlik balansi orqali aniqlanadi.

$$(T_{SH} - T_{SH}') W_{SH} = (T_G' - T_G) W_G$$

6.3. Issiqliknidomna pechidagi regeneratsiyaxemasi

Mahsulotbo‘laklaribilangazorasidagi issiqlik mashin uchi bilansodi rbo‘ladi. Konveksiya, issiqlik o‘tkazish va nurlanish.

Bu pechlarda asosan konveksiya usulida issiqlik almashiladi, sababi mahsulot bo‘laklari bir biriga juda yaqin joylashgan shuning uchun issiqlik nurlari unga ta’sir qilmaydi.



6.1- rasm. Issiqliknidomnapechidagiregeneratsiyasxemasi.

1- domnapechi; 2- puflashkollektori; 3- domnagazinitozalash; 4- kauperlar; 5- regenerativnasadka; 6- yoqishqurilmasi; 7- yonishmahsulotlariniolibketish; 8- tutunquvuri; 9- quvurlihavopuflagich; 10- issiqhavonikeltirish.

Bu pechlarda issiqlik almashuvini hisoblashimizga issiqlik berish koeffitsentining hajmiga nisbatidan (α_v) va yuzasiga nisbatidan (α_F) foydalanishimizga olib koladi va bular 31 quyidagicha bog‘liqlik bor.

$$\alpha_v = \alpha_F (1 - f)$$

F - mahsulot bo‘laklarining o‘rtacha nisbiy yuzasi.


Bu gazning ishdashida balandligi bo‘ylab issiqlik almashinushi 3 xil zonaga bo‘linadi.

1. Yuqori zona demak, bunda $W_G > W_{SH}$ sharoitida sodir bo'ldi va gazning to'lik issiqligidan foydalanilmaydi.
2. O'rta zona, bunda issiqlik almashinuvi o'zining ekzotermik reaksiyasi natijasida sodir bo'ldi.
3. Pastki zona, bunda $W_G = W_{SH}$, va eng intensiv issiqlik almashinuvi jarayoni sodir bo'ldi.

6.4. Domnada choyan eritish va uning xususiyatlari

Domna pechiga solingan shixtaga qizigan gazlar ta'sir etishi natijasida sodirbo'ladigan jarayonlar tufayli chuyan, shlak va koloshnik gazlari hosil bo'ladi. Domna pechida sodir bo'ladigan prosesslar, asosan, yoqilg'inining yonishi, temir oksidlaridan temirning qaytarilishi, temirning uglerodga toyinishi, marganes, kremniy va boshqa qo'shimchalarning qaytarilishi hamda shlak hosil bo'lishidan iborat.

Yoqilg'ininingyonishi. Domna pechiga solingan yoqilg'i (koks) pastga tomon tushar ekan, ko'tariluvchi gazlar ta'sirida qiziy boradi va furmalar ruparasiga yetganda, gornga haydalgan havo tarkibidagi kislorod hisobiga to'la yonadi, ya'ni koks uglerodi bilan kislorod reaksiyaga kirishadi, natijada karbonat angidrid hosil bo'ladi va ma'lum miqdorda issiqlik ajralib chiqadi:



Hosil bo'lган karbonat angidrid yuqoriga ko'tariladi va qattiq qizigan koks qatlamlari orasidan o'ta turib, koks tarkibidagi uglerod bilan reaksiyaga kirishadi, natijada uglerod II oksid (is gazi) hosil bo'ladi va ma'lum miqdorda issiqlik yo'tiladi:



Bu reaksiya bilan bir vaqtدا, pechga haydalgan havo tarkibidagi suv bug'idan uglerod vodorodni qaytaradi, natijada vodorod bilan uglerod II oksid aralashmasi hosil bo'ladi va ma'lum miqdor issiqlik yuritiladi:



Yuqorida keltirilgan reaktsiyalar natijasida ajralib chiqqan, uglerod II oksid (CO_2) hamda vodorod (H_2) va havo bilan birga kirgan azot (N_2) dan iborat gazlar aralashmasi yuqoriga tomon ko'tariladi va pastga tushayotgan shixta bilan uchrashib uni qizdiradi. Shu bilan birga, bu gazlarning ba'zilari, masalan, CO shixta materialli bilan reaktsiyaga ham kirishadi.

Shixtaning yuqorigi qismida – temperaturasi 300° gacha bo'lgan zonasida shixta materiallari qurib, ulardan gigroskopik suv, $300\text{-}500^\circ\text{C}$ li zonasida esa kristallizatsion suv bug' holida ajralib chiqadi. Suv bug' CO bilan reaksiyaga kirishib, qo'shimcha gazlar CO_2 , CO va H_2 hosil qiladi.


Shixta tarkibida karbonatlar bo'lsa, ular parchalanadi. Masalan, $350\text{-}400^\circ\text{C}$ li zonada temir II karbonat parchalanadi:



5000°C dan sal yuqori temperaturali zonada marganets karbonat parchalanadi.



900°C chamasi temperaturasi zonada esa kal'siy karbonat parchalanadi:



Bu reaktsiyalarning hammasida issiqlik yo'tiladi. Demak, 350 dan 900°C gacha temperaturalarda flyus va ruda karbonatlardan hosil bo'ladi. Karbonatlarning parchalanishidan hosil bo'lgan kal'siy va magney oksidlari hamda boshqa ba'zi oksidlар pechning yuqoriroq temperaturali zonasida tushganda bekorchi jinslar bilan qo'shib, suyuqlanadi-da, shlak hosil qiladi.

Shlak hosil bo'lishi. Shlak domna pechining raspar va zapplechik qismlarida ruda tarkibidagi bekorchi jinslar, yoqilg'i kuli va oltingugurt hamda rudadagi qo'shimchalarning flyus bilan qo'shib suyuqlanishidan hosil bo'ladi. Domna protsessida shlakning ahamiyati juda katta, chunki olinadigan chuyanning sifati shlakning harakteriga bog'likdir.³¹ Masalan, chuyanda marganetsning miqdori ko'p bo'lishi kerak, negaki bunday shlakda MnO yomon eriydi, natijada marganets qaytarilib choyanga o'tadi. Agar choyan tartibida kremniyning miqdori ko'p bo'lishi talab etilsa, aksincha, shlakda oxak miqdori kam bo'lishi kerak va hakozo.

Hosil bo'lgan suyuq shlak gorndagi suyuq choyan ustida yig'iladi.


6.5.Po'latnichig'irlabyoyishjarayonitavsifi

Tayanch iboralar: *po'lat ishlab chiqarish sanoati, gorn, garnning tubi, leshchad, zapplechik, domna pechi, raspar., shlak, shaxta hajmlari, domna pechining foydali hajmi.*


Po'lat ishlab chiqarish sanoati

Xozirgi zamon domna pechlari juda katta inshoatlar bo'lib, boyi 70 m (foydali balandligi 35 metrgacha) ga yetadi, hajmi esa 2000...5000 m³dan oshadi. Bitta domna pechida so'tkasiga + 10000 t dan ko'proq chuyan ishlab chiqariladi. Domna pechlari, barcha shaxta pechlari kabi, qarshi oqim prentsipida ishlaydi, ya'ni yoqilg'i (koks), ruda va flyus domna pechining tepasidan tushiriladi. Ular o'z og'irligi ta'siri pechning tubiga tomon uzlusiz tushib turadi, pechning tubiga yoqilg'inining yonishidan hosil bo'lgan mahsulotlar-yuqori temperaturali gazlar tepaga uzlusiz ko'tarilib turadi. Domna pechi (6.2-rasm) beshta asosiy qismdan, gorn, zapplechik, raspar, shaxta va koloshnikdan iborat.

Gorn. Domna pechining bu qismida yoqilg'i yonadi, suyuq chuyan va shlak yig'iladi. Garnning tubi **leshchad** deb ataladi, suyuq chuyan ana shu leshchad (1) ga oqib tushadi. Garnda leshchad sadxidan sal balandga chuyan chiqarish uchun teshik (2), undan yuqoriroq esa shlak chiqarish uchun teshik qilingan. Gornning yuqoridagi qismida aylana boylab furmalar (3) o'rnatilgan, bu furmalar soni o'n oltita va undan ortiqroq bo'ladi, yoqilg'inining yonishi uchun zarur bo'lgan havo pechga ana shu furmalar orqali xaydaladi. Qizdirilgan havo furmalarga xalqa truba (10) dan keladi. Gornda temperatura 1800°C dan oshadi.



6.2-rasm.500 m³ hajmli domna pechinining sxemasi. 1-chuean chiqarish novasi; 2- shlak chiqarish novasi; 3-furmalar; 4-leshchad(tub); 5,6-chuyan tashuvchi vogoncha; 7-gaz chiqarish trubasi; 8-ta'minlovchi voronka; 9-fundament; 10-havo haydovchi truba; 11-kichik konus; 12-katta konus; 13-o'tga chidamli g'ishtdan terilgan devor; 14-kojux.



6.3-rasm.Domna pechining sxemasi.

Zaplechik. Domna pechining bu qismi – katta asosi, tepaga qaragan kesik konus shaklida bo’lib, unda temperatura 1900°C ga yetadi va metall bilan shlak suyuqlanishda davom etadi.

Raspar. U domna pechining keng qismi bo’lib, tsilindr shaklidadir. Rasparda temperatura 1400°C va undan yuqorirok bo’ladi. Domna pechining bu qismida metall suyuqlanadi va shlak hosil bo’la ³¹boshlaydi.

Shaxta. Domna pechining eng asosiy va eng katta (uzun) qismi bo’lib yuqoridan pastga tomon kesik konus shaklida bo’ladi.

Pechning bu qismida mavjud xom ashyolar quriydi va rudalar darz ketadi. Shaxtaning koloshnik tomonidagi qismida temperatura (ishlangan gazni chiqarish

trubasi oldida) 200-300 °C ni tashqil kilsa, shaxta pastida (raspar tomonidagi qismida) esa temperatura 1200-1300°C ni tashqil qiladi.

Shaxtaning yuqori (400-600°C da) temir oksidlariga uglerod oksid (CO) ta'sirida temir quyidagi sxema boyicha tiklanadi, ya'ni;



Koloshnik. Koloshnik domna pechining eng ustki qismi bo'lib, unga shixta solish apparati o'rnatiladi. Pechga shixga portsiyalab tushiriladi, pechga tushiriladigan shixtaning har bir portsiyasi **kolosha** deb ataladi. Koloshnik so'zi koloshadan degan iborani anglatadi.

Shixta solish apparati shixtani bir tekisda taqsimlash uchun xizmat qiladi va pech gazlarining atmosferaga chiqishiga, atmosfera havosining esa pechga kirishiga yo'l qoymaydi.

Shixta solish apparatining turli konstruktsiyalari mavjud bo'lib, ulardan eng ko'p tarqalgan turi kichik konus (11) va katta konus (12) dan iborat konstruktsiyadir. Bunday konstruktsiyali apparat shixtaning yirikroq bo'laklarini pechning markaziga tomon, maydarloq bo'laklarini esa pechning markaziga tomon, maydarok bo'laklarini esa pechning devorlari tomon tushiriladi, shixtaning zichligi pech devorlari tomonida kattaroq, markazida esa kichikroq bo'ladi. Domna pechida pastdan yuqoriga ko'tarilayotgan gazlarning ko'pi, odatda, pech devorlari yonidan, oz qismi esa markazidan o'tadi. Shixtaning yuqorida aytib o'tilgan tarzda taqsimlanishi gazlarning pech kundalang kesimi boyicha bir tekisda o'tishiga sharoit yaratadi, natijada rudadan metall ancha to'la qaytariladi.

Domna pechida koloshnigining yon devoriga truba (7) o'rnatilgan bo'lib, pechda hosil bo'ladijan yonuvchi gaz³¹lar, karbonat angidrid, chang, havo bilan kirgan azot va boshqalar aralashmasi ana shu trubadan gaz tozalash apparatiga yuboriladi. Bu gazlar aralashmasi domna gazi yoki koloshnik gazi deb ataladi. Koloshnik gazining pechdan chikish oldidagi temperaturasi 300°C ga yetadi.

Domna pechining temir-betondan ishlangan ogir fundamenti bo'ladi. Pechning shaxtasi ana shu fundamentga urnatilgan kolonnalarga tayanch xalka (9) orqali mustahkamlanadi. Domna pechining devori (13) yuqori sifatli shamot g'ishtidan tirilgan bo'lib, 15-20 mm qalinlikdagi po'lat kojuk (14) bilan qoplangan.

Gorn, zapplechik, raspar va shaxta hajmlarining yig'indisi domna pechining foydali hajmi deyiladi. Hozirgi ba'zi domna pechlarining foydali hajmi 5000m^3 dan oshadi.

Domna pechiga juda ko'p miqdorda shixta materiallari solib turiladi, domna pechining ish unumini oshirish uchun esa unga haydalanadigan havo ma'lum temperaturagacha qizdirib olinadi. Shixta materiallarini keltirish va ularni domna pechiga solish, yoqilg'inining yonishi uchun zarur bo'lgan havoni qizdirish va uni domna pechiga haydash ishlari domna pechining yordamchi qurilmalari vositasida bajariladi. Domna pechi, yuqorida aytib o'tilgandek, 8-10 yil to'xtovsiz ishlaydi. Domna pechining bunday uzoq-uzoq vaqt ishlashini ta'minlash uchun uning yordamchi qurilmalari juda puxta bo'lishi va buzilmay ishlashi kerak, ya'ni ular ishonchli bo'lishi zarur. Domna pechining yordamchi qurilmalari jumlasiga ko'tarish va to'kish mexanizmlari, qoyish saroy (maydoncha) lari, havo qizdirgichlar, gaz tozalash apparatlari, havo haydash mashinalari va boshqalar kiradi.

Nazorat savollar

1. Metalga nurlanish bilan berilgan issiqlik miqdori nima?
2. Domna pechidagi issiqlik almashinuvi qanday amalga oshirilad?
3. Issiqliknin domna pechidagi regeneratsiya sxemasini tushuntiring.
4. Domnada choyan eritish va uning xususiyatlarito'g'risida gapirib bering.
5. Po'latni chig'irlab yoyish jarayoni tavsiyfida nimalarni bilasiz?
6. Po'latni chig'irlab yoyish jarayonini kattaliklarini sanab bering.

VII - BOB. PECHLARDA ISSIQLIK ALMASHUV JARAYONI

7.1.Yuqori haroratli jarayonlarda issiqlik almashuvini tashkil etish

Tayanch iboralar: *kamerali pech, metall buyumlarni qizdirishga mo‘ljallangan metodik pech, aylanuvchi barabanli pech, shaxtali pech.*

Sanoatpechlaridabirvaqtninguzidaqator murakkab jarayonlar kechadi:

yoqilg‘ining yonishivaga zlashtirilishi, ishchibo‘shliqdayonish mahsulotlarining harakatlanishi, issiqlikvamassaalmashuvijarayonlari, ishlovberilayotgan materiallarning ekzotermik yoki endotermik kimyoviyo‘zgarishlari bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlar va hokazo. Bu jarayonlar o‘zaro bog‘langan bo‘lib, ularning barchasi birgalikda yig‘indi jarayonini tashkil qiladi. Bularning ichida issiqlik uzatish jarayoni eng muhim hisoblanadi.

Pechlarda turli metall va nometall materiallar: kulolchilik buyumlari, bog‘lovchi materiallarning xom-ashyosi, kimyoviy xom-ashyo va boshqalar qizdiriladi. Eritish jarayonlarida barcha jismlar oldin qizdiriladi. Turli pechlarda metall buyumlarning yuzalari orqali qizdirish amalga oshiriladi. Bu paytda pechning ishchi bo‘shlig‘ida joylashtirilgan buyumlar harakatsiz holatda bo‘lishi yoki sekin xarakatlanishi mumkin.

Issiqlik almashuvi odatda qizdirish usuliga bog‘liq bo‘ladi.

Qizdirishning quyidagi usullari mavjud:

1) texnologik jarayonning turi bo‘yicha:

a) materialning tuzilishi va fizik-kimyoviy xossalari o‘zgarmaydigan yoki ularning o‘zgarishi kuzatiladigan qizdirish; ³¹

b) shixta (ruda, toshqol, yoqilg‘i va boshqalar aralashmasi) materiallarini qizdirish;

2) issiqlik tashuvchidan foydalanish usuli bo‘yicha:

a) yonish mahsulotlari bilan ochiq (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) qizdirish;


- b) yonish mahsulotlarini yoki buyumlarni ajratib qo‘yilgan (izolyasiyalangan) holda bilvosita qizdirish;
- v) oraliq bug‘indagi issiqlik tashuvchining mavhum qaynash qatlamida qizdirish.

3) qizdirilayotgan materialning aerodinamik holati bo‘yicha:

- a) materialning harakatsiz (zich) qatlamida qizdirish;
- b) materialning “mavhum qaynash” qatlamida qizdirish;
- v) muallaq holatdagi material qatlamida (uyurmali, girdobli) qizdirish.

Pechlarda qizdirish ochiq usulda va ayrim hollarda bilvosita (biror vosita yordamida) amalga oshiriladi. Ochiq qizdirish (7.1- rasm) eng oddiy usul hisoblanadi, unda tutun gazlari qizdiriladigan material bilan bevosita to‘qnashadi. Bu usul eritish, qizdirish va toplash pechlarida qo‘llaniladi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri qizdirish amalga oshiriladigan pechlar o‘z navbatida quyidagi turlarga bo‘linadi: ishchi bo‘shlig‘i katta erkin hajmga ega bo‘lgan pechlar, bo‘lakli materiallarga ishlov berish uchun mo‘ljallangan shaxtali (quduqsimon) pechlar, qaynovchi qatlamlı pechlar, siklonli (girdobli) pechlar va boshqalar. 7. 1- a rasmida ishchi bo‘shlig‘i katta erkin hajmga ega bo‘lgan pechning sxemasi tasvirlangan. Qizdiriladigan material pech tubida joylashadi uning ustida esa katta erkin hajm bo‘lib, unda yoqilg‘i yoqiladi. Erkin hajmning mavjudligi yonish alangasini qizdirilayotgan materialga yaqinlashtirish imkonini beradi, bu esa juda muhimdir, chunki bu paytda issiqlik uzatilishi jiddiy jadallahshadi. Natijada pechning yuqori unumдорлиги ta’minlanadi, issiqlikning solishtirma sarfi kamayadi. Bunday pechlarning ishchi bo‘shlig‘ining har bir nuqtasida taxminan bir xil harorat kuzatiladi.



7.1- rasm. Pechlarda ochiq qizdirish sxemalari.

a - kamerali pech; b - metall buyumlarni qizdirishga mo'ljallangan metodik pech; v- aylanuvchi barabani pech; g- shaxtali pech.

Metodik (rejali qizdiriladigan) pechlarda (7.1-b rasm) esa harorat o'zgaruvchan buladi. Po'lat buyumlarni ochiq qizdirish paytida metall yuzasi oksidlanadi va u uglerodsizlanadi. Buning oldini olish uchun yoqilg'i havo sarfi koefitsientining kichik qiymatlarida, ya'ni $\alpha = 0,4-0,5$ da yoqiladi.

Talab qilingan haroratlар darajasiga erishish uchun yoqishga berilayotgan havoni 800°S gacha qizdiriladi yoki kislorod qo'llaniladi. Keyinchalik chala yonish mahsulotlari to'la yondiriladi va havoni qizdirish yoki boshqa maqsadlar uchun foydalilanildi.

Aylanuvchi barabani pechlarda (7.1- v rasm) erkin hajm pechning o'qi bo'ylab joylashadi; bu pechlarda turli sochiluvchan yoki bo'lakli materiallar toblanadi. Pechning ichki qoplamasini baraban bilan birga aylanib, navbatma-navbat goh qizigan gazlar bilan, goh qizdiriladigan material bilan to'qnashadi, bu esa issiqlik uzatilishini jadallashtiradi.

Shaxtali (quduqsimon) pechlarda (7.1- g rasm) ishchi bo'shliq bo'lakli material qatlami bilan to'ldiriladi va tutun gazlari bo'lakchalar hosil qilgan kanallar orqali


oqib o‘tadi; bu kanallarning ko‘ndalang kesimi pech balandligi bo‘yicha bir xil emas, shuning uchun gazlarning tezligi doim o‘zgarib turadi. Tezlikning o‘zgarishi oqimning girdobli harakatlanishiga va konvektiv issiqlik uzatilishining ortishiga sabab buladi, ammo bu o‘z navbatida material qatlaming qarshilagini oshiradi. Turli xildagi sochiluvchan materiallar pechlarda qatlamli usulda yoki mavhum qaynash qatlamida yoki nihoyat, muallaq uchish holatida qizdirilishi mumkin.

Mayda zarrachali materialarning “mavhum qaynash” qatlamidagi issiqlik almashuvi jarayonlari juda jadal kechadi. Buning asosiy sababi-pechning butun hajmi bo‘yicha materialning yaxshi aralashishi va shu materialning har bir zarrasi atrofidan qizdiruvchi gazlarning oson va jadal oqib o‘tishidir. SHuning uchun qaynovchi qatlamli pechlar metallurgiya va kimyo sanoatida mayda zarrachali ruda va konsentratlarni hamda oltingugurt kolchedanini toplash (pishirish) uchun, neftni qayta ishlash sanoatida esa neft mahsulotlarini kataliz krekinglash uchun keng qo‘llaniladi.

SHu bilan birga qizdirishning siklonli (girdobli) usuli ham keng qo‘llanilmoqda. Bu usulda girdobli harakat amalga oshirilgani uchun issiqlik almashuvi jarayonlari keskin jadallahadi va natijada siklonli pech unumdorligining yuqori bo‘lishi ta’milanadi. Bu usul ishlab chiqarishning turli sohalarida qo‘llanilishi uchun keng istiqbollarga ega.

Materialni ***bilvosita qizdirish*** paytida u tutun gazlaridan ajratilgan (yakkalangan) holda bo‘ladi va unga issiqlik (ajratuvchi) devor orqali uzatiladi. Masalan, koks batareyalarida issiqlik tutun gazlaridan kumir shaxtasiga retortalarning yon devorlari orqali uzatiladi. Bu bilan havosiz muhitda ko‘mirni quruq haydash jarayoni amalga oshiriladi. Bilvosita qizdirish pechlariga mufel pechlar va radiatsion quvurli pechlar (7.2- rasm) misol bo‘la oladi.

Pulat qismlarga issiqlik bilan³¹ ishlov berish (pishirish, toplash, sementatsiya)ga mo‘ljallangan mufel pechlarida ishlov beriladigan buyumlar tutun gazlaridan mufel yordamida ajratilgan bo‘ladi.



7.2- rasm. Pechlarda bilvosita qizdirish sxemalari.

a- mufel pechi; b- radiatsion quvurli pech.

Po‘lat qismlar bilan tutun gazlarining bevosita tuqnashishi mumkin emas, chunki bu hol po‘latning oksidlanishiga yoki uglerodsizlanishiga olib keladi. Buyumlar mufel orqali o‘tadi (7.2-a rasm), mufelning ichi esa himoyalovchi gaz bilan to‘ldirilgan bo‘ladi. Issiqlik mufel devori orqali uzatiladi. Radiatsion quvurli pechlarda (7.2-b rasm) qizigan tutun gazlari radiatsion (nur tarqatuvchi) quvurlar orqali o‘tadi. Issiqlik quvur devorlari orqali uzatiladi, pechning ishchi bushlig‘i esa himoyalovchi gaz bilan to‘ldiriladi. Umuman olganda bilvosita qizdirish to‘g‘ri qizdirishga nisbatan ancha murakkab va qimmatdir.

7.2.Ichki va tashqi issiqlik almashuvi

Tayanch iboralar: *ichki va tashqi issiqlik almashuvi, radiatsiyali rejim, konveksiyali rejim, aralash rejim.*

Issiqlikalmashuvingmurakkabjarayoniodatdaikkiqismgabo‘linadi:

ichkivatashqiissiqlikalmashuvi. **Tashqi** ³¹ issiqlik almashuvi pechning ishchi bo‘shlig‘idan isitiladigan material va buyumlarning tashqi yuzasiga issiqlik uzatilishidan iborat. **Ichki** issiqlik almashuvi esa qizdirilayotgan materialning ichki qatlamlari bilan yuzasi orasidagi haroratlar farqi hisobiga issiqlik o‘tkazuvchanlik yo‘li bilan yuzaga keladigan issiqlik almashuvidan iborat. Material massasining

qizishi shu materailning xossalariiga, shakli va o‘lchamlariga bog‘liq. Ichki issiqlik almashuvini boshqarish tashqinikiga nisbatan qiyinroqdir.

Pechlarda tashqki issiqlik almashinuvi 3 xil rejimga bo‘linadi.

1.Radiasiyali rejim.

2.Konveksiyali rejim.

3.Aralash rejim.

Radiasiyali rejim deb pechning ishchi kamerasida qizdirilayotgan jism va devorga tushayotgan nurlanish tushuniladi. Radiatsiyali isitish ham o‘z navbatida 3 xil bo‘ladi.

1) Teng bo‘lingan issiqlik almashinuvi.

T_G - gazning harorati; T_D - devorning harorati; T_M - metalning harorati; $\alpha_{M,D}$ - metalga va devorga issiqlik berish koeffitsenti; W_G - gazning tezligi.

Olovning devorga va qizdirilayotgan materialning yuzasiga berilayotganissiqlik oqimlari teng bo‘lsa, unda ishchi kamerasi hajmi bo‘yicha olovning nurlanishi va haroratiga bir xil ta’sir qiladi.

$$Q^N_{G\gamma} = Q^N_{GM}$$

2)To‘g‘ri yo‘nalishli issiqlik almashinuvi.

$$Q^N_{GD} = \alpha_D (T_G - T_D)$$

$$Q^N_{T,M} > Q_{GD}$$

$$Q^N_{G,D} = \alpha_M (T''_G - T_M)$$

3) Bilvosita yo‘nalishli issiqlik almashinuvi

$$Q^N_{GD} = \alpha_D (T_G - T_D)$$

$$Q^N_{T,M} < Q_{GD}$$

$$Q^N_{G,D} = \alpha_M (T''_G - T_M)$$

Konveksiyali rejim.

Burejimda asosan issiqlik berish konveksiyajaro yonida sodir bo‘ladi, radiatsiyafaqato‘zgarmaskoeffitsentor qalito‘g‘irlanadi.

Konveksiya rejimida issiqlik tashuvchilarga quyidagilar kiradi.

- 1. Gazsimon moddalar (tutun gazlari, qizigan bug'lar).**
- 2. Suyuqlik (erigan metallar, erigan minerallar).**
- 3. Mayda bo'lakli materiallarning qaynashi.**

Konveksiya rejimida quyidagi tipdagи pechlar ishlaydi.

- 1. Past haroratli pechlar $t = 600^{\circ}\text{C}$ gacha**
- 2. O'rta haroratli pechlar $t = 600 \div 950^{\circ}\text{C}$**
- 3. Yuqori haroratli pechlar $t = 1100 \div 1150^{\circ}\text{C}$.**

Aralash rejim.

Burejimlar uchun issiqlik almashinuv jarayoni hisoblashda quyidagishartlar qabul qilinadi.

- 1. Ishchi bo'shliq kameraning butun hajmida gaz haroratsi bir xil deb olinadi.**
- 2. Metall yuzasining turli nuqtalaridagi haroratlar ham bir xil deb olinadi.**
- 3. Gazdan devorga konveksiya usulida berilgan issiqlik oqimi, devordan tashkariga chikgan issiqlik oqimiga teng deb olinadi.**

Ammo lekin, pechning hajmida gaz harorati har xil; Material alanganing kalin joyida joylashgan bo'lsa issiqlik olish ham bladi, agarda qizdirilayotgan material alnganining uch tomonida joylashgan bo'lsa, shuncha issiqlik ko'p ta'sir qiladi. Demak bunda asosan aralashtirish usuli ko'p rol o'ynaydi. Bunday tipdagи issiqlik almashinuvi radiatsiya konveksiyali rejim deyiladi.

Texnologik jarayonlarga bog'liq holda yo ichki, yo tashqi issiqlik almashuvi ustivor buladi. Masalan, po'lat va cho'yan eritiladigan pechlarning unum dorligi asosan tashqi issiqlik almashuvi bilan belgilanadi va qizdirish pechlarida esa, unum dorlik ichki issiqlik almashuvi bilan belgilanadi.³¹

Pechning ishchi bo'shlig'ida tutun gazlari turli tezlik bilan harakatlanadi va issiqlik nurini taratadi. Nurlanish manbai bo'lib tutun gazlari tarkibidagi uch atomli gazlar - SO_2 , SO_3 , suv bug'lari N_2O va shuningdek, uglerod, kul va chang zarrachalari

xizmat qiladi. Qattiq jismlar faqat tashqi yuzalaridan energiya taratsa, gazlar-butun hajmlaridan taratadi.

Tutun gazlari tarkibidagi chala yongan uglerodli zarrachalar alanganing qoralik darajasini va nur tarqatish imkoniyatini oshiradi. SHuning uchun yuqori haroratlari pechlarda tabiiy gaz yoqilganda unga qo'shimcha qilib purkalgan mazut yoki smola (qatron) beriladi. Buning natijasida alanganing qoralik darjasini va demak, issiqlik nurini tarqatishi ortadi.

Umuman olganda, alanganing qoralik darjasini quyidagi omillarga bog'liq:


a) *yoqilg'inining xossalariiga; b) yoqilg'ini yoqishga tayyorlash darajasiga (maydalash, purkash, qizdirish va hokazo); v) yoqilg'i bilan havoni aralashtirish usuliga; g) o'txonaning tuzilishiga va boshqa shartlarga bog'liq.*

7.3.YuHQ lardagi issiqlik almashuvining holatlari

Pechlardagi tashqi issiqlik almashuvining holatlari **radiatsion (nurlanishli), konvektiv va qatlamlili** turlarga bo'linadi (M. A. Glinkov bo'yicha). Agar radiatsion qizdirish haqida so'z borsa, bu faqat nurlanishli issiqlik almashuvi ustivor ekanini anglatadi, ammo shu paytning o'zida u bilan birga konvektiv qizdirish ham amalga oshiriladi; konvektiv qizdirish haqida ham xuddi shuni aytish mumkin.

O'z navbatida radiatsion qizdirish uch turga bulinadi:

- 1) bir tekisda taqsimlangan issiqlik almashuvi. Bunda pech devoriga va qizdirilayotgan materialning yuzasiga alangadan tushayotgan issiqlik oqimlari $Q_{G.D}$. va $Q_{G.M}$. o'zaro teng bo'ladi, haroratlar maydoni va alanganing nurlanish xossalari o'txonaning butun hajmi bo'yicha bir tekisda bo'ladi.
- 2) yo'naltirilgan to'g'ri issiqlik almashuvi. Bunda $Q_{G.M} > Q_{G.K}$. shart bajariladi.
- 3) yo'naltirilgan bilvosita issiqlik almash³¹uvi. Bunda $Q_{G.M} < Q_{G.K}$. shart bajariladi.



7.3- rasm. Qizdirish pechlaridagi radiatsion-konvektiv issiqlik almashuvining turli holatlari.

Amalda nurlanish konveksiyasiz bulmaydi, shuning uchun radiatsion-konvektiv qizdirish haqida suz yuritsa haqiqatga yaqinroq va to‘g‘riroq bo‘ladi. Gazni ikki xil usulda yoqilgan paytda hosil bo‘lgan yonish mahsulotlarining harorati va tezligining o‘zgarishi 7.3- rasmda ko‘rsatilgan: 1- butun hajmda va 2- devor yaqinidagi qatlamda (bu usul yo‘naltirilgan bilvosita issiqlik almashinuvini amalga oshirish uchun ahamiyatlidir).

Turli xil issiqlik almashuvlarining roli turlicha bulishi mumkin. Masalan, agar konveksiya yo‘li bilan materialga faqat $\frac{31}{100}$ issiqlik berilgan bulsa, shu paytning uzida buyumlarga issiqlik berilishidagi konveksiyaning umumiy roli 65 % ni tashkil qilishi mumkin, chunki devor qoplamasiga konvektiv usulda berilgan issiqlik devordan buyumlarga nurlanish yo‘li bilan berilgan issiqlikka aylanadi. Turli pechlarda qizdirishning turli holatlari amalga oshiriladi. Masalan, eritish pechlarida

to‘g‘ri yo‘naltirilgan radiatsion issiqlik almashuvidan foydalanish qulay bo‘ladi, chunki bu usulda nurlanuvchi alanga shixtaga yo‘naltirilgan buladi. Qizdirish pechlarining yuqori haroratlari bo‘lishida esa, yo‘naltirilgan bilvosita issiqlik almashuvini qo‘llash afzalroq bo‘ladi, chunki bu holda pechning yuqorisida joylashgan yoqish moslamalari pech gumbazini kuchli darajada qizdiradi va u o‘z navbatida buyumlarni jadal nurlantiradi. Bu holat boshqa ish holatlariga nisbatan pechlarning unumдорлиги va yoqilg‘ining solishtirma sarfi buyicha eng yuqori ish ko‘rsatkichlarini ta’minlaydi.

7.4.Pechning ishchi bo‘shlig‘idagi tashqi issiqlik almashuvi

Agar pechkamerasidako ‘pmiqdordabirtekisdataqsimlanganalangalaryokiboshqanurl anishmanbalarimavjudbo‘lsa,
uholdaalangadanvadevorqoplamasidanqizdirilayotganmaterialgaberilganumumiyis siqlikmiqdorini Stefan-Bolsmanqonuniasidaaniqlashmumkin:

$$Q_{GQM}^N = S_0 \varepsilon_K N_N \xi \left[\left(\frac{T_G}{100} \right)^4 - \left(\frac{T_M}{100} \right)^4 \right] = S_K N_N \xi \Delta \quad (7.1).$$

bunda S_0 - mutloq qora jismning nurlanish koeffitsienti,

$S_0 = 5,67 \text{Vt/m}^2 \cdot \text{K}^4$

ε_K -pech bushlig‘ining keltirilgan qoralik darjasи;

T_G , T_M - gaz va materialning mutlaq haroratlari;

ξ -nurlantirilayotgan yuzaning ifloslanganlik koeffitsienti ($\xi = 0,6 \div 0,75$);

Δ - mutlaq haroratlar turtinchi darajalari farqining o‘rtacha qiymati;

N_N - jismning nurlanish tushadigan yuzasi.

Atrof-muhitga yuqotilayotgan issiqlik konveksiya hisobiga pech devorining qoplamasi tomonidan qabul qilinayotgan issiqlikka teng bo‘lishini e’tirof etgan holda V.N. Timofeev keltirilgan qoralik darajasini topish uchun quyidagi tenglamani taklif etadi:

$$\varepsilon_K = \frac{\varepsilon_M \varepsilon_G \psi (1 - \varepsilon_G) + 1}{\psi (1 - \varepsilon_G) [\varepsilon_M + \varepsilon_G (1 - \varepsilon_M)] + \varepsilon_G} \quad (7.2)$$

bunda: ε_M va ε_G gazlarning va qizdirilayotgan materialning qoralik darajalari; $\psi = N_N/F_Q$ - jismning nurlanishni qabul qiluvchi yuzasini N_N pech devori qoplamasining umumiyligini yuzasiga F_Q nisbatini ifodalovchi koeffitsient; unga teskari bulgan qiymatni qoplamaning rivojlanish darajasi ω deyiladi.

Doim $N_N < F_M$ buladi va $N_N = \varphi F_M$; bunda φ - urtacha burchak koeffitsienti yoki nurlanganlik koeffitsienti. Uning qiymati qizdirilayotgan buyumning geometrik shakliga va shuningdek, buyumning pechda joylashish usuliga bog'liq buladi.

Hisoblashni osonlashtirish uchun D.V.Budrin (7.1) tenglamaning maxraji va suratini $\varepsilon_G \psi$ ga bo'ldi, u holda :

$$S_0 \varepsilon_K = S_0 (\varepsilon_M \cdot \varepsilon_{KEL}); \quad (7.3)$$

$$\beta = \varepsilon_M + \varepsilon_G (1 - \varepsilon_M); \quad \omega = 1/\psi; \quad (7.4)$$

D.V. Budrin bo'yicha oksidlangan metallar uchun $\beta = 0,85 - 0,95$.

7.5. Yo'naltirilgan va bilvosita amalga oshiriladigan nurlanishli (radiatsion) issiqlik almashuvi

Bilvosita amalga oshiriladigan vayo'naltirilgan issiqlik mashuvini qizdirish pechlaridat ashqiradiatsion-

konvektiv issiqlik mashuvini jadallashtirishning yangiusuli hisoblanadi. Ushbu usul qullaniladigan pechning sxemasi 7.4-rasmda keltirilgan.

Pechning shipida yuqori samarali yassi alangali radiatsion yoqish moslamalari urnatilgan. Alanga va yonish mahsulotlari ship yuzasi buyicha katta tezlik bilan harakatlanadi. Buning natijasida qizigan gazlardan ship qoplamasiga jadal issiqlik berilishi uchun qulay sharoit yaratiladi. SHu paytda alanganing qizigan yuza bilan bevosita tuqnashishi natijasida yoqilg'ining tez va to'la yonishi ta'minlanadi. Ship qoplamsasi tomonidan qabul qilingan issiqlik amalda faqat nurlanish yo'li bilan material yuzasiga beriladi. SHuning uchun bu holatda

alangadan materialga to‘g‘ridan-to‘g‘ri konvektiv issiqlik berilishini nolga teng deb hisoblash mumkin. Demak, qizdirilayotgan materialga berilayotgan issiqlik miqdori quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$h_{i,v} = \lambda \cdot [1,07 \cdot d^2 + 0,61 \cdot z \cdot (1 - \varepsilon) \cdot d \cdot l_2^{1,5}] \cdot \frac{1}{v} \cdot \frac{u^3}{10^6} \cdot \frac{1}{M} =$$

$$= 1,2 \cdot [1,07 \cdot 1,1^2 + 0,61 \cdot 1 \cdot (1 - 0,4) \cdot 1,1 \cdot 3^{1,5}] \cdot \frac{1}{0,25} \cdot \frac{173^3}{10^6} \cdot \frac{1}{30} =$$

$$= 2,7 \text{ kJ/kg.}$$


$$Q_M = \varepsilon_M N_N [S_{KEL} \left(\frac{T_Q}{100} \right)^4 - S_O \left(\frac{T_M}{100} \right)^4] - \varepsilon_G [S_{KEL} \left(\frac{T_Q}{100} \right)^4 - S_O \left(\frac{T''}{100} \right)^4] + \varepsilon'' (1 - \varepsilon_G'') \quad (7.5)$$

$$[S_O \left(\frac{T'_G}{100} \right)^4 - S_{KEL} \left(\frac{T_Q}{100} \right)^4];$$

bunda: S_{KEL} - keltirilgan nurlanish koeffitsienti, u quyidagi tenglamadan aniqlanadi:

$$S_O = \frac{\alpha_K (T'_G) (1 - \varepsilon_Q)}{T_Q}$$

$$S_{KEL} = \frac{\varepsilon_Q (T_Q)^4}{T_Q} - \frac{1 - \varepsilon_Q}{\varepsilon_Q} (1 - \varphi_{QM}) (1 - \varepsilon'_G) (1 - \varepsilon''_G)$$



7.4-rasm.Yo'naltirilgan issiqlik almashuvi.

$\varphi_{Q,M}$ – qoplamadan qizdirilayotgan yuzaga yunalgan nurlanishning burchak koeffitsienti; ε_M -materialning qoralik darajasi; T_G va T_G'' – gazlarning yonish zonasidagi va issiqlik almashuvi zonasidagi (material yuzasi yaqinidagi) haroratlari ; ε_r va ε_r'' – gazlarning tegishli qoralik darajalari ;
 T_Q va T_M - shipning qoplamasi va materialning haroratlari
 α_K - alangadan qoplamaga konvektiv issiqlik berilishi koeffitsienti.

7.6.Zich (filtrlovchi), yuqoridan tushuvchi va mavhum qaynayotgan material qatlamidagi tashqi issiqlik almashuvi

Bo'laklarniqatlamdaqizdirishpaytidagitaşhqıissiqlikalmashuvi Viomezonining 0,6 dankichikqiymatlarida, ya'ni $V_i < 0,6 \div 1,0$ dasodirbo'lishimumkin. Eslatish mumkinki, Vio mezoni $V_i = \alpha_k d_e / 2 \lambda_m$, bunda:

d_e - bo'laklarning ekvivalent diametri; λ_m - materialning issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti; α_k - konvektiv issiqlik almashuvi koeffitsienti.

Harakatsiz (zich, filtrlovchi) qatlam orqali qizigan gazlar utganda issiqlik almashuvi asosan, konveksiya yo‘li bilan amalga oshadi. Quyidagi tenglamalar yordamida α_k ni aniqlash mumkin (V.N. Timofeev buyicha):

$$Nu_q = 0,106 Re_q \quad (Re_q < 200 \text{ bo'lsa}). \quad (7.6)$$

$$Nu_q = 0,61 Re_q \quad (Re_q > 200 \text{ bo'lsa}). \quad (7.7)$$

bu erda: $Nu_q = \alpha_k d_e / \lambda_g$ - Nusselt mezoni (kriteriysi);

$Re_q = \omega d_e / v_g$ - Reynolds mezoni; ω - gazlar tezligi; λ_g, v_g - gazning issiqlik o‘tkazuvchanlik va kinematik qovushqoqlik koeffitsientlari.

Bo‘laklarning yuzasi F_m quyidagi tenglikdan aniqlanadi:

$$\frac{F_M}{V_m} = \frac{6(1-f)}{d} \quad m^2 / m^3 \quad (7.8)$$

bunda: V_m -qatlam hajmi; f - qatlam ichidagi bushliqning ulushi.

Harakatlanayotgan zich qatlam bilan unga qarshi yo‘nalgan gaz oqimi o‘rtasidagi issiqlik almashuvi quyidagi tenglamalar bilan ifodalanadi:

$$Nu_q = 0,014 Re_q \cdot R_r^{0,33} \quad (Re_q < 200 \text{ bo'lsa}) \quad (7.9)$$

$$Nu_q = 0,056 Re_q^{0,87} \cdot R_r^{0,33} \quad (Re_q = 200 \div 700 \text{ va } R_2 = 0,68 \div 1,1 \text{ bo'lsa}) \quad (7.10)$$

(7.6) va (7.9) tenglamalarni uzaro taqqoslab, V.N. Timofeev formulalariga kiritiladigan tuzatish koeffitsientlarini aniqlash mumkin:

$$\psi = 0,132 R_r^{0,33} \quad (Re_Q < 200 \text{ bo'lsa})$$

$$\psi = 0,092 Re_Q^{0,2} \cdot R_r^{0,33} \quad (Re_Q > 200 \text{ bo'lsa}) \quad (7.11)$$

Kuzatilayotgan farq harakatdagi qatlamda gazning yomonroq taqsimlanishi bilan izohlanadi, demak harakatlanayotgan qatlamda issiqlik berilishi sustroq kechadi. Qatlamga gazlar kundalang yo‘nalishda berilsa, $Re=140 - 1000$, $W_Q/W=0 \div 1$ (W_Q va W -qattiq material va gazlarning suvli ekvivalentlari), $t' = 280 - 380^\circ C$ va $t'' = 210 -$

600°C sharoitidagi issiqlik almashuvi quyidagi tenglama asosida hisoblanishi mumkin:

$$Nu_q = 0,055 \cdot Re_Q; \quad (7.12)$$

Qattiq zarrachali gaz oqimidagi issiqlik almashuvi gazzlardan zarrachalarga konvektiv va radiatsion issiqlik berilishi yuli bilan va zarrachalar ichida esa - issiqlik o'tkazuvchanligi yo'li bilan amalga oshadi. Bu paytda oqimning tezligi. zarrachalarning konsentratsiyasi va o'lchamlari katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Hisoblash tenglamalari quyidagi kurinishda:

$$Nu_Q = 0,194 \cdot Re_Q^{0,79} \quad (30 < Re_Q < 480) \quad (7.13)$$

$$Nu_Q = 0,316 \cdot Re_Q^{0,8} \quad (Re_Q = 40 - 50) \quad (7.14)$$

$$\text{bunda: } Nu_Q = \alpha d_Q / \lambda; \quad \text{va } Re_Q = \omega_N d_Q / v \quad (7.15)$$

Bu erda oqimning nisbiy tezligi olinadi:

$$\text{a) qarshi oqimda } \omega_Q = \omega + \omega_Q; \quad \omega_Q = \omega_Q - \omega$$

$$\text{b) ko'tariluvchi oqimda } \omega_Q = \omega - \omega_Q; \quad \omega_Q = \omega - \omega_Q$$

$$\text{v) pastga tushuvchi oqimda } \omega - \omega_Q = -\omega_Q; \quad \omega_Q = \omega + \omega_Q$$

bunda : ω - oqimning mutlaq tezligi ; ω_Q -oqimning zarrachani ko'tarish (muallaq tutish) tezligi; ω_Q - qattiq zarrachaning tezligi. Zarrachaning bosib o'tgan yo'li:

$$L = (\omega_Q - \omega) (\tau_Q - \tau_0) = \omega_Q \tau; \quad (7.16)$$

Mavhum qaynash qatlamicidagi tashqi issiqlik almashuvi

Mavhumqaynayotganqatlama issiqlik almashuvi harakatsiz qatlama dagigan isbatanjad alroqkechadi. Bunda issiqlik almashuvining jadallahishi qattiq zarrachalarning murakkab tebranma - aylanma harakati bilan va gaz oqimining yuqori darajada uyurmalanishi bilan belgilanadi. Mavhum qaynash qatlamicidagi gaz oqimi bilan qattiq zarrachalar o'rta sidagi issiqlik almashuvi tenglamasi quyidagi kurinishga ega :

$$\text{Nu} = 0,316 \text{ Re}_Q^{0,8} \quad (\text{Re}_Q = 40-50 \text{ bo'lsa})$$

bunda: $\text{Re}_Q = \omega d_E / v$; ω - qatlam joylashgan panjara yuzasiga nisbatan olingan tezlik; d_E - qattiq zarrachaning ekvivalent diametri.

Haroratlar farqi :

$$\Delta t = \frac{1N}{N^o} \int [t_O(h) - t_G(h)] dh = t_{mq} - t_{mr}$$

Issiqlik almashuvining maksimal jadalligiga Reynolds mezonining quyidagi eng maqbul (optimal) qiymatida erishiladi:

$$R_{\text{OPT}} = 0,121 Ar^{0,5} \quad (7.17)$$

$$\text{bunda } Ar = \frac{gd_E^3}{v^2} \cdot \frac{\rho_Q - \rho}{\rho}; \quad \text{Arximed mezoni ;}$$

$$v^2 \rho$$

ρ_Q - zarrachaning zichligi.

Agar $Ag = 30 \div 2 \cdot 10^5$ bulsa, issiqlik berilishining maksimal koef-fitsientlarini quyidagi tenglama asosida hisoblash mumkin:

$$\text{Nu}_{\text{MAKS}} = 0,86 Ag^{0,2}; \quad (7.18)$$

7.7. Qizigan gazlar resirkulyasiyasi (qayta kiritilishi) va YuHQ larning issiqlik samaradorligini oshirish

Yuqoriharoratliqurilmalarningishchikamerasidagazlarningharoratinipasaytirishuch unko‘pinchaortiqchahavo beriladi. Gazlarharoratinipasaytirishningbundayusulizararl idir, chunkihavoortiqligining o'sishialbattachiqibketuvchigazlarbilanissiqlikyuqotilishiniorttiradi, demak, yoqilg³¹‘isarfiko‘payadivafoyda liishkoeffitsientipasayadi.


Bu masalani hal qilishning eng to‘g‘ri yullaridan biri **tutun gazlarining retsirkulyasiyasini** qullahdan iborat. Amalda gazlarning ichki va tashqi retsirkulyasiyasi qullaniladi.

Gazlarning ichki retsirkulyasiyasi qullanilganda alanganing ayrim oqimlari sovib qolgan tutun gazlarini ilashtirib qaytadan yonish kamerasiga kiritadi. YOnish oqimiga jalb qilingan gazlar miqdori faqat ishchi kamerasidagi haroratlar taqsimotiga ta'sir qilibgina qolmay, balki gazlarning yonish jarayoniga ham ta'sir qiladi, chunki aralashtirish natijasida yonuvchi aralashma kuchsizlanadi va shu sababli alanga uzayadi. Yoqish moslamasidan chiqayotgan oqimning tezligi va shuningdek, sirkulyasiya karraligi l/d nisbatga bog'liq (l - oqim kesimi bilan moslamaning chiqish teshigi urtasidagi masofa, d - yoqish moslamasinig chiqish teshigi diametri). Bu nisbat qanchalik katta bo'sa, sirkulyasiya karraligi ham shunchalik katta bo'ladi. Demak, sirkulyasiya karraligini oshirish uchun kichik diametrli soploni tanlash, ya'ni gaz oqimini qator kichik oqimlarga bo'lish lozim. Bunday qilinganda haroratlar bir tekisda taqsimlanadi. Ichki sirkulyasiya qo'llanilgan pechning sxemasi 7.5-rasmda keltirilgan.

Gazlarning tashqi sirkulyasiyasi qo'llanilgan paytda gazlar pechning ishchi bo'shilig'idan tashqarida olinadi va ventilyator yordamida yoki yoqish moslamalari hosil qiladigan siyraklik hisobiga ishchi kamerasiga yoki o'txonaga qaytariladi. Bu paytda pechda aylanma harakatli gaz oqimi hosil buladi, buning natijasida issiqlik almashuvi yaxshilanadi va issiqlik yo'qotilishi kamayadi.

Sirkulyasiya kursatkichi bo'lib retsirkulyasiya karraligi xizmat qiladi:

$$i = \frac{V_{QAYTA}}{V_G}$$



7.5-rasm. Gazlar tashqi retsirkulyasiyasining sxemalari.

a - ventilyator yordamida; b- injeksiyon yoqgich(gorelka) yordamida.

bunda : V_{QAYTA} - qaytarilayotgan gazlar miqdori; V_G - yoqilg‘ini oddiy yoqish paytidagi gazlar miqdori.

Gaz yo‘lining ixtiyorli kesimidagi gazlarning miqdori:

$$V_{RES} = V_G + V_{QAYTA} = (1+i)V_G \quad (7.19)$$

Resirkulyasiya gazlari yonishining kalorimetrik harorati-ni yoqilg‘i miqdorini birligiga nisbatan olingan issiqlik balansi (muvozanati) tenglamasidan aniqlanadi:

$$Q^I_Q + H_{YO} + H_H + H_{QAYTA} = [V_G + (V_{qayta} - 4,76V_{qayta}^{02})] S_K t_K; \quad (7.20)$$

bunda: N_{qayta} - qaytarilgan gazlar entalpiyasi; N_h - havo bilan kiritilgan issiqlik; V_{qayta} - qaytarilgan gazlar miqdori.

Bundan quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$\begin{aligned} t_K &= \frac{Q^I_Q + H_{yo} + H_Q + H_{qayta}}{[Vg + (V_{qayta} - 4,76V_{qayta}^{02})]S_K} = \\ &\frac{Q^I_Q + C_{yo}t_e + (V_0\alpha_{yo} - 4,76V_{qayta}^{02})S_K t_H + V_{qayt} + S_{qayt}t_{qayta}}{[Vg + (V_{qayta} - 4,76V_{qayta}^{02})]S_K} \quad (7.21) \end{aligned}$$

Agar (7-21) tenglamani $V_G S_K$ qiymatiga bo‘lsak, quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$\frac{Q^I_Q + H_Q}{V_2 C_K} + \frac{H_{QAYTA}}{V_G S_K} = \frac{(V_G + V_{QAYTA})S_K t_{K.RES}}{V_G C_K}$$

bundan :

$$t_{K.RES} = \frac{t_K + iC_{QAYTA} / S_K t_{QAYTA}}{1+i} \quad (7.22)$$

yoki taxminiy kurinishda :

$$t_{K.RES} = \frac{t_K + it_{QAYTA}}{1+i} \quad (7.23)$$

bunda : $i = V_{QAYTA} / V_G$ - retsirkulyasiya karraligi.

MASALA YECHISH NAMUNALARI

1-Masala. Materiali po'lat diametri 500 mm bo'lgan yarim mahsulotni qizdirish vaqtি aniqlansin. Pech ichidagi o'zgarmas harorat $t_p = 850^0\text{C}$ ($T_p = 1123^0\text{K}$). Qizdirilgan materialning oxirgi harorati $t_M = 727^0\text{C}$ ($T_M = 1000^0\text{K}$).

Po'latning boshlang'ich harorati $t_M^0 = 20^0\text{C}$ ($T_M^0 = 293^0\text{K}$). Po'latning fizik konstantalari: $\lambda = 35 \text{ Vt/m.grad}$; $C = 0,71 \text{ kJoul/kg.grad}$; $\rho = 7860 \text{ kg/m}^3$ $a = 0,0225 \text{ m}^2 \cdot \text{soat}$. Keltirilgan nurlanish koeffitsienti $c_K = 3,5 \text{ Vt/m}^2 \cdot 0\text{K}^4$.

Yechish. Ivansov-Stark kriteriysini aniqlaymiz:

$$I = \frac{10 \cdot C_K R}{\lambda} \left(\frac{T_p}{100} \right)^3 = \frac{10 \cdot 3,5 \cdot 0,25}{35} 1,123^3 = 0,35$$

Metallning boshlang'ich nisbiy harorati: $U_1 = T_M^0/T_p = 293/1123 \approx 0,26$

Metallning oxirgi nisbiy harorati: $U_2 = T_M/T_p = 1000/1123 \approx 0,89$

$$\psi_1 = 0,24 \quad \text{ba} \quad \psi_2 = 1,23.$$

$$\text{Fure kriteriysi: } F_0 = \frac{\alpha \tau}{R^2} = \left(\frac{\psi_2 - \psi_1}{2I} \right) = \frac{1,23 - 0,24}{2 \cdot 0,35} \approx 1,41$$

$$\text{Metallni qizdirish vaqtি: } \tau = \frac{F_0 R^2}{a} = \frac{1,41 \cdot 0,25^2}{0,0225} = 3,92 \text{ soat}$$

Metall yuzasi va markazidagi haroratlar qiymatini aniqlaymiz.

Qizdirish natijasida metall yuzasidagi haroratni $t_M = 780^0\text{C}$ ga teng deb qabul qilamiz, u holda :

$$q_M^{yuzsa} = C_K \left[\left(\frac{T_p}{100} \right)^4 - \left(\frac{T_{yuzsa}}{100} \right)^4 \right] = 3,5 [11,23^4 - 10,54^4] = 21200 \text{ Vt/m}^2$$

Metall yuzasi va markazidagi haroratlarning farqi:

$$\Delta t_M = \frac{q_M R^{yuzsa}}{2\lambda} = \frac{21200 \cdot 0,25}{2 \cdot 35} = 76^0\text{C}^{31}$$

Metall markazidagi harorat:

$$t_M^{MAR} = t_M^{yuzsa} - \Delta t_M = 780 - 76 = 704^0\text{C}$$

Metall massasi bo'yicha o'rtacha harorat:

$$t_M^{MAR} = t_M + 0,33\Delta t_M = 704 + 0,33 \cdot 76 = 730^{\circ}C$$

bu berilgan qiymatga juda yaqin.

Demak, metall yuzasi va markazidagi haroratlarning qiymatini taxminan $t_M^{yuzza} = 780^{\circ}C$ va $t_M^{MAR} = 704^{\circ}C$ ga teng deb hisoblash mumkin.

Yoqilg'i yoqish uchun beriladigan $20^{\circ}C$ li havoning entalpiyasi:

$$H_h = V^0 \alpha C_h t_h = 10,7 \cdot 1,15 \cdot 1,295 \cdot 20 = 319 \text{ kJoul/kg.}$$

Kimyoviy chala yonish natijasida yo'qotilgan issiqlik:

$$Q_{K.ch.yo.} = 0,015 \cdot 39,5 \cdot 10^3 = 592 \text{ kJoul /kg.}$$

Chiqib ketuvchi gazlarning entalpiyasi $H_{ch.g.} = 2400 \text{ kJoul/kg.}$

Yoqilg'idan foydalanish koeffitsienti:

$$\eta_F = 1 + \frac{H_{yo} + H_x}{Q_K^i} - \frac{q_{K.ch.yo} + H_{ch.G}}{Q_K^i} = 1 + \frac{189 + 319}{39,5 \cdot 10^3} - \frac{592 + 24 \cdot 10^3}{39,5 \cdot 10^3} = 0,391$$

Metallning kuyishi natijasida ajralib chiqadigan issiqlik:

$$Q_{ekz} = 5660 \cdot y / 100 = 5660 \cdot 1,3 / 100 = 73,4 \text{ kJoul/kg.}$$

Texnologik jarayonga sarflanadigan issiqlik:

$$Q_{tex.} = (Q_M'' - Q_M') + Q_{III} - Q_{ekz} = 838 - 73,4 = 764,6 \text{ kJoul/kg.}$$

bunda: $Q''_M - Q'_M = 838$ - metall entalpiyasining ortishi
(tegishli jadvaldan olinadi).

$$\text{Atrof-muhitga yo'qotilgan issiqlik: } Q_{A.M.} = \frac{31,5 \cdot 3600}{74} = 640 \text{ kj/kg}$$

Mazutning solishtirma sarfi:

$$B = \frac{Q_{TEXN} - Q_{A.M.}}{Q_K^i \cdot \eta_F} - \frac{746,6 + 640}{39,5 \cdot 0,391} = 0,091 \text{ kg/kg}$$

metalga

Shartli yoqilg'inining solishtirma sarfi:

$$B_{SH} = \frac{B Q_K^i}{29,33 \cdot 10^3} - \frac{0,091 \cdot 39,5 \cdot 10^3}{29,33 \cdot 10^3} = 0,122 \text{ kg/kg}$$

Mazutning soatli sarfi: $B = qB = 141 \cdot 0,091 = 67,6 \text{ kg/soat.}$

Havoni pechga $400^{\circ}C$ gacha qizdirib berilganda, uning entalpiyasi 6570 kJoul/kg ga teng bo'ladi. Demak:

$$\eta_F = 1 + \frac{189 + 6570}{39,5 \cdot 10^3} - \frac{592 + 24 \cdot 10^3}{39,5 \cdot 10^3} = 0,539$$

2-Masala. Gaz bilan to'ldirilgan pechning tag qismida metall qizdiriladi. Pech tag qismi o'lchamlari $1 \times 1,5$ m; uning 90% qismi qoralik darajasi $\varepsilon_M = 0,8$ bo'lgan metall bilan band. Metalldan pechning tepe qismigacha bo'lgan balandlik $-0,95$ m. Gazning tarkibida 18% CO_2 ba 12% H_2O mavjud, uning harorati $1200^{\circ}C$. Metall harorati $800^{\circ}C$ bo'lganda gaz va devor qoplamasidan metallga nurlanish oqimining zichligi aniqlansin.

Yechish. Nurning effektiv uzunligi: $S_{EF} = 3,6 \text{ V}/\Sigma F$

bu yerda : V - gazning hajmi; ΣF - uni chegaralovchi yuzalar yig'indisi.

$$S_{EF} = 3,6 \frac{1 \cdot 1,5 \cdot 0,95}{2[(1+1,5) \cdot 0,95 + 1 \cdot 1,5]} = 0,526, m$$

Quyidagi kattaliklarni hisoblaymiz: $P_{CO_2} \cdot S_{EF} = 18 \cdot 0,526 = 9,47 \text{ kPa} \cdot \text{m}$;

$$P_{H_2O} \cdot S_{EF} = 12 \cdot 0,526 = 6,31 \text{ kPa} \cdot \text{m}$$

Bu berilganlar asosida nomogrammadan quyidagilarni topamiz:

$$\varepsilon_{CO_2} = 0,095; \quad \varepsilon_{H_2O} = 0,075; \quad \eta = 1,08.$$

Gazning qoralik darajasini hisoblaymiz: $\varepsilon_g = 0,095 + 1,08 \cdot 0,075 = 0,17$

Devor - metall uchun burchak koeffitsienti:

$$\varphi_{K.M.} = \frac{F_M}{F_K} = \frac{0,9 \cdot 1 \cdot 1,5}{2(1+1,5)0,95 + 1 \cdot 1,5} = 0,216$$

Nurlanish oqimi:

$$Q_{r1} = \varepsilon_g \varepsilon_1 \frac{\varphi_{21}(1+\varepsilon_g) + 1}{\varphi_{21}(1-\varepsilon_g)[\varepsilon_1 + \varepsilon_g(1-\varepsilon_1)] + \varepsilon_g} \cdot \sigma_0 F_1 (T_g^4 - T_1^4);$$

Bu ifodaga binoan gaz va devordan metallga nurlanishning keltirilgan koeffitsienti quyidagiga teng:

$$Q_{G.D.M} = \frac{0,17 \cdot 0,8[0,216(1-0,17) + 1] \cdot 5,7 \cdot 10^{-8}}{0,21(1-0,17)[0,8 + 0,17(1-0,8)] + 0,17} = 3,1 \cdot 10 \cdot Vt / m^3 \cdot K^4;$$

Metallga nurlanish oqimining zichligi:

31

$$q_M = \frac{Q_M}{F_M} = 3,1 \cdot 10^{-8} (1473^4 - 1473^4) = 104847 Vt / m^2;$$

MUSTAQIL YECHISH UCHUN MASALALAR

1- masala. Quyidagi tarkibli ko'mir berilgan:

$C^i = 45,4\%$; $H^i = 3,5\%$; $S^i = 1,3\%$; $N^i = 0,9\%$; $O^i = 8,9\%$; $A^i = 27\%$; $W^i = 13,0\%$; tutun gazlaridagi uch atomli gazlarning miqdori $RO_2^{MAKC} = 18,7\%$. Shu yoqilg'ining 1 kg miqdori to'la yoqilganda hosil bo'ladigan uch atomli gazlarning hajmi va ulardagi CO_2 hamda SO_2 gazlarning miqdori aniqlansin.

Javob: $V_{RO_2} = 0,86 \text{ m}^3/\text{kg}$; $CO_2 = 18,5\%$; $SO_2 = 0,2\%$.

2-Masala. Gaz bilan to'ldirilgan pechning tag qismida metall qizdiriladi. Pech tag qismi o'lchamlari $2 \times 3,0 \text{ m}$; uning 90% qismi qoralik darajasi $\varepsilon_M = 1,6$ bo'lgan metall bilan band. Metalldan pechning tepe qismigacha bo'lgan balandlik -1,9 m. Gazning tarkibida 36% CO_2 ba 24% H_2O mavjud, uning harorati 2400°C . Metall harorati 1600°C bo'lganda gaz va devor qoplamasidan metallga nurlanish oqimining zichligi aniqlansin. Metallga nurlanish oqimining zichligi:

Javob: $q_M = 209694Vt/m^2$;

3- masala. Pech o'txonasida $2 \cdot 10^3 \text{ kg/soat}$ miqdorda mazut yoqiladi, uning tarkibi: $C^i = 84,65\%$; $H^i = 11,7\%$; $S^i = 0,3\%$; $O^i = 0,3\%$; $A^i = 0,05\%$; $W^i = 3,0\%$. Agar shu yoqilg'i to'la yongan paytda hosil bo'lgan tutun gazlarining tarkibidagi SO_2 ning miqdori 15% dan 12 % gacha kamaygani ma'lum bo'lsa, o'txonaga berilayotgan havoning hajmi qanchaga ortgani aniqlansin.

Javob: $V_Q = 6666 \text{ m}^3/\text{soat}$.

4-masala. Materiali po'lat diametri 1000 mm bo'lgan yarim mahsulotni qizdirish vaqtি aniqlansin. Pech ichidagi o'zgarmas harorat $t_p = 1700^\circ\text{C}$ ($T_p = 2246^\circ\text{K}$). Qizdirilgan materialning oxirgi harorati $t_M = 1454^\circ\text{C}$ ($T_M = 2000^\circ\text{K}$).

Po'latning boshlang'ich harorati $t_M^0 = 40^\circ\text{C}$ ($T_M^0 = 586^\circ\text{K}$). Po'latning fizik konstantalari: $\lambda = 70 \text{ Vt/m.grad}$; $C = 1,42 \text{ kJoul/kg.grad}$; $\rho = 15720 \text{ kg/m}^3$; $a = 0,045 \text{ m}^2/\text{soat}$. Keltirilgan nurlanish koeffitsienti $c_k = 7,0 \text{ Vt/m}^2 \cdot ^0\text{K}^4$.

Javob: $\eta_F = 1,078$

5 – masala. Ishchi massasiga ko'ra tarkibi $C^i = 45,0\%$; $H^i = 2,6\%$; $S_u^i = 1,7\%$; $N^i = 0,4\%$; $O^i = 9,9\%$; $A^i = 11,4\%$; $W^i = 29,0\%$ bo'lgan B3 markali ko'mirni 800 kg/soat

va tarkibi $C^i = 43,4\%$; $H^i = 2,9\%$; $S_u^i = 0,8\%$; $N^i = 0,8\%$; $O^i = 7,0\%$; $A^i = 38,1\%$; $W^i = 7,0\%$ bo'lgan SS markali ko'mirni 500 kg/soat sarf bilan yoqish uchun zarur bo'lgan havo hajmi aniqlansin. Bunda o'txonadagi havoning ortiqchalik koeffisiyentlari mos ravishda $\alpha_{yo} = 1,4$ va $1,3$ bo'lsin.

Javob: $V_h = 7823 \text{ m}^3/\text{soat}$.

6 – masala. Tarkibi $CO_2 = 0,5\%$; $CH_4 = 92,8\%$; $C_2H_6 = 2,8\%$; $C_3H_8 = 0,9\%$; $C_4H_{10} = 0,4\%$; $C_5H_{12} = 0,1\%$; $N_2 = 2,5\%$ bo'lgan Buxoro koni tabiiy gazini $2000 \text{ m}^3/\text{soat}$ va tarkibi $CO_2 = 0,1\%$; $CH_4 = 89,7\%$; $C_2H_6 = 5,2\%$; $C_3H_8 = 1,7\%$; $C_4H_{10} = 0,5\%$; $C_5H_{12} = 0,1\%$; $N_2 = 2,7\%$ bo'lgan Gazli koni tabiiy gazini $1000 \text{ m}^3/\text{soat}$ sarf bilan yoqish uchun zarur bo'lgan havoning nazariy va haqiqiy hajmlari aniqlansin. Bunda o'txonadagi havoning ortiqchalik koeffisiyentlari, mos ravishda $\alpha_{yo} = 1,15$ va $1,1$ bo'lsin.

Javob: $V^o = 29360 \text{ m}^3/\text{soat}$; $V_h = 33264 \text{ m}^3/\text{soat}$.

Nazorat savollar

- 1.Yuqori haroratli jarayonlarda issiqlik almashuvini qanday tashkil etilad?
- 2.Ichki va tashqi issiqlik almashuvito'g'risida gapirib bering.
- 3.YuHQ lardagi issiqlik almashuvining holatlarihaqida nimalarni bilasiz?
- 4.Pechning ishchi bo'shlig'idagi tashqi issiqlik almashuvisanab bering.
- 5.Yo'naltirilgan va bilvosita amalga oshiriladigan nurlanishli (radiatsion) issiqlik almashuvito'g'risida gapirib bering.
- 6.Qizigan gazlar resirkulyasiyasi (qayta kiritilishi) va YuHQ larning issiqlik samaradorligini oshirishto'g'risida nimalarni bilasiz?

VIII-BOB.METALNI QIZDIRISHNING RATSIONAL TEXNOLOGIK ASOSLARI

8.1.Qizdirilayotgan metal ichida bo‘ladigan jarayon

Tayanch iboralar: *qizdirilayotgan metal , qizdirish harorati,qizdirish tezligi , metalni toplash, yupqa materiallar*

Metal qizishining asosiy ko‘rsatkichiga harorat va qizdirish tezligi kiradi.

Qizdirish harorati deb pechdan olinayotgan metalning oxirgi harorati tushiniladi.Qizdirish tezligi deb vaqt birligida metal haroratining o‘zgarishi tushuniladi.Qizdirish tezligiga metalni kizitishda uning ichida ro‘y beradigan jarayon tushuniladi. Metalni toplashda uning kalinligi bo‘yicha qizish jarayoni bir xil sodir bo‘lmaydi va metalda mumkin bo‘lmanan ichki kuchlanish sodir bo‘ldi. Agarda qizdirish tezligi kancha katta bo‘lsa, shuncha metal kalinligi orasidagi haroratlar farqi ko‘p bo‘ladi va haroratlar kuchlanishi ham katta bo‘ladi.

Haroratlar farqi qizdirish tezligi bilan bog‘lik:

$$\Delta T = T_{YUZA} - T_{MARKAZ} = S_K S^2 / 2 a$$

a- harorat o‘tkazuvchanlik koeffitsenti

Masalan temirning harorati 773^0 oshsa kuchlanish yo‘qoladi va u yumshoq holatga keladi.Shuning uchun har xil materiallar o‘ziga xos ma’lum qizdirish tezligiga ega.

Siqish kuchlanishini plastinka formali qizdirilayotgan metal yuzasida ko‘proq ko‘rshimiz mumkin.

$$\sigma = \beta E / (1-\nu) \cdot S_K S^2 / 3a = 2\beta E \Delta T / 3(1-\nu) = 0,95\beta E \Delta T; \text{ N/m}^2$$

β - minimal kengayish koeffitsenti.³¹

E - egiluvchanlik moduli.

ν - puassan nisbati, temir uchun $\nu = 0,3$.

S_K - qizdirish tezligi.

S - plastina kalinligi.

a- harorat o‘tkazuvchanlik koeffitsenti.

Agarda $\sigma = \sigma_{\text{ma'lum}}$ bo‘lsa unda

$$S_K = 2,1 a \sigma_M / (\beta \cdot E \cdot S^2)$$

bundan

$$\Delta T = 1,05 \sigma_d / \beta E$$

Metal qalinligi bo‘yicha ΔT kamaytirish va bir xil qizdirish uchun, metalni ushbu zonada ko‘proq ushlab turish kerak, shunda metal yuzasidagi harorat oshmaydi, markazidagi harorat yuzasidagi harorat tenglashishga harakat qiladi.

Qizishjarayoni 2 xilshartbilananiqlanadi.

1) *Tashqi issiqlik almashinuvini aniqlovchi shart, bunda pechdagi gazning metal yuzasiga issiqlik berish tushiniladi. Bularga pechdagi harorat, boshlang‘ich va oxirgi kazish vaqtdagi metalning harorati, pech gazining nurlantirish kobiliyati, pechning ishchi kamerasining o‘lchami kiradi.*

2) *Ishchi issiqlik almashinuvini aniqlash shart, bunda metal yuzasidan uning ichiga issiqlik o‘tkazuvchanlik yo‘li bilan beriladigan issiqlik tushuniladi. Bulrga metalning issiqlik o‘tkazuvchanligi va issiqlik sig‘imi, uning qalinligi va kimyoviy birikmasi kiradi.*

Metalning qizish vaqtini hisoblashda Vi kiriterysi katta rol o‘ynaydi.

$$Vi = \alpha \cdot S / \lambda = \frac{S/\lambda}{1/\alpha}$$

bunda $1/\alpha$ - tashqi issiqlik almashinuvi.

S/λ - ichki issiqlik almashinuvi.

Agarda $Vi < 0,25$ yupqa materiallar.

$Vi > 0,25$ hajmli katta materiallar tushuniladi.

8.2.Yupqa materiallarni qizdirish. Hajmi katta materiallarni qizdirish

Tayanch iboralar: *yupqa materiallarni qizdirish. hajmi katta materiallarni, plastinaniqizdirish, silindrniqizdirish, furekriteriysi*

1. Yupqa materiallarni qizdirish.

Pechlarda asosan qizdirilayotgan materialning yuzasiga issiqlik berish konveksiya yoki nurlanish yo‘li bilan sodir bo‘ladi. Agarda issiqlik berish konveksiya usulida sodir bo‘lsa, unda Nyuton tengligi haqqoniy bo‘ladi:

$$Q = \alpha (T_n - T_M) F\tau$$

va metalni qizdirish vao‘ti quyidagi tenglik bilan aniqlanadi.

$$\tau = MS / \alpha F \ln [(T_n - T_M \text{ oxir}) / (T_n - T_{MBOSHL})] ;$$

S- issiqlik sig‘imi


M - massasi

α - issiqlik berish koeffitsenti

F - material yuzasi

T_n - pech harorati

T_M - materialni boshlang‘ich va oxirgi harorati.



8.1- rasm. Plastinaniqizdirish hisobiuchun yordamchigrafik.

a- plastinaniqizdirish; b- silindrniqizdirish.

Agarda issiqlik berish ko‘prok nurlanish usulida sodir bo‘lsa, unda Stefan-Bolsman qonuni haqqoniy bo‘ladi va yupqa metalni qizdirish vaqtiga quyidagi tenglik bilan aniqlanadi.³¹

$$\tau = \frac{MS}{S_{PR}F} \cdot 100 / (T_n / 100)^3 [f_1 (T_{MOXIR} / T_n) - f_2 (T_{MBOSH} / T_n)]$$

C_{PR} - nurlanish koeffitsenti

Furekriteriysi

Qizdirish vaqtini aniqlash uchun Fure kriteriysi topishimiz kerak, buning uchun biz Bio kriteriysi harorat kriyteriysi aniqlashimiz kerak. Agarda bu kriteriyalar aniq bo'lsa unda nomagramma orqali kriteriy Fureni aniqlaymiz va u orqali qizdirish vaqtini topamiz.

$$\tau = FO \cdot S^2 / \alpha ;$$

Bu qizdirish vaqtি faqat ishchi bo'shlig'inинг hamma nuqtasida bir xil haroratda bo'lganda haqqoniy bo'ladi. Qizdirish vaqtini hisoblashda harorat vaqt bo'yicha o'zgarmas bo'lsa, ishchi bo'shlig'i uzinligi bo'yicha o'zgarsa bir muncha qiyinchiliklar bo'ladi.

Bunday pechlarga metodik pechlar kiradi.

Buning uchun pechni bir necha bo'laklarga bo'lamiz va har bir bo'lak uchun o'zgarmas harorat deb olib, metalni qizdirish vaqtini aniqlaymiz. Har bir bo'lak uchun topilgan qizdirish vaqtini qo'shsak umumiy vaqtni topamiz.

Agar pech oxirida metal to'siq kizimagan bo'lsa yoki T_{M.YU} > T_{M.M} bo'lsa, unda materialni to'xtatib turish kerak.

Metalni to'xtatib turish Tyu.m bilan Tm.m. tenglashtirish demakdir. Bu to'xtatib turish zonasida pech gazining haroratini Tm.yu. dan 50° yuqori ushab turish kerak, chunki Tm.yu. qattiq qizib ketishi kerak emas.

Agar boshlang'ich bosqichda Tyu bilan Tm ning farqini ΔT_{BOSHL} bilan oxirgi bosqichda ΔT_{OXIR} bilan belgilab, ularning nisbatini olsak, $\Delta T_{OXIR} / \Delta T_{BOSHL}$ - haroratini tenglashtirish rejasini beradi va δ bilan belgilanadi.

Metalni ushlab tushish vaqtি quyidagi tenglik bilan aniqlanadi.

$$\tau_V = m (S^2 / a)$$

31

m - koeffitsent bo'lib bu haroratni tenglashtirish darajasiga bog'liq va bu grafik orqali aniqlanadi.

8.3.Jismda haroratning taqsimlanishi

Issiqliko ‘tkazuvchanlikmasalaniechishdayokijismdaharoratningtaqsimlanish inivauningvaqtbο‘yichao‘zgarishini T(x, u, z, t) aniqlashdashuhodisauchunissiqliko ‘tkazuvchanliktenglamasininganiqformasinibili shizkerak (to‘g‘riyokiegrichiziqli, birjinsliyokibirxiljinslibo ‘lmanbo‘lishimumkin).

Agar chiziqli tenglama berilgan bo‘lsa, u, λ (T) bog‘liqligini aniqlashimiz kerak, agar bir jinsli bo‘lman tenglama berilgan bo‘lsa, unda qV (x, u, z, t) bog‘liqligini aniqlashimiz kerak, lekin bu issiqlik o‘tkazuvchanlik tenglamasining juda ko‘p echimli bo‘ladi. SHu echimlar ichidan bittasini tanlab olsak bu shu echimlar uchunu mumiy bo‘lib birlamchi shartiga amal qiladi.

Birlamchi shartga quyidagilar kiradi:

1. Geometrik shart (jismning geometrik o‘lchamlari)
2. jismning fizik parametrlari (λ, S)
3. boshlang‘ich shart (birmuncha vaqt ichidagi jism hajmi bo‘yicha haroratning taqsimlanishi) $t = 0$
4. chegaralovchi shart (issiqlikning jism asosi bilan fazo o‘rnatilgan bir biriga ta’srini xarakterlaydi).

Chegaralovchishartquyidagichabo‘lishimumkin.

1. birlamchi chegaralovchi shart: Bunda jism yuzasida g‘aroratning taqsimlanishi va buning vaqt bo‘yicha o‘zgarishi beriladi, yoki funksiya briladi. $T_m = T_w(x, u, z, t)$. Ayrim hollarda bu harorat jismning butun yuzasida va vaqt o‘zgarishi bilan o‘zgarmas bo‘ladi.

2. Ikkilamchi chegaralovchi shart. Bunda jismning butun yuzasidagi issiqlik oqimining taqsimlanishi va uning vaqt bo‘yicha o‘zgarishi beriladi.

$$\lambda \left(\frac{\partial T}{\partial n} \right)_w = q_w(x, u, z, t)$$

n - normal kordinat.

Ayrim hollarda bu issiqlik oqimi jismning butun yuzasida va vaqt bo‘yicha o‘zgarmas bo‘ladi.

3.Uchlamchi chegaralovchi shart (atrof-muhit harorati yoki issiqlik manbai va jism yuzasi bilan atrof-muhit orasidagi issiqlik almashinuvi qonuni beriladi). Bu eng ko‘p uchraydigan holatdir.

Masalan, atrof-muhit orasidagi tashki issiqlik almashinuvi T_0 va jism yuzasi T_w bo‘lib, konveksiya usulida issiqlik almashilsa, issiqlik oqimini Nyuton qonuni orqali aniqlash mumkin.

$$Q_w = \alpha (T_0 - T_w)$$

Ikkinchchi tomondan issiklik oqimini Fure qonuni orqali ham aniqlash mumkin.

$$Q_w = -\lambda (\partial T / \partial n)_w$$

$$\alpha (T_0 - T_w) = -\lambda (d_T / dn)$$

Bu erda α bilan λ aniq son.

Bunga misol kilib o‘zgarmas haroratda qizdirish kiradi.

Nazoratsavollar

- 1.Furekriteriy sigata’rif berin.
2. Jism daharoratning taqsimlanishi qanday kechadi.
3. Chegaralovchi shartlarni malardan iborat.

8.4.Jismni bir xil haroratda qizdirish

Jismni qizdirganda harorat kordinatga bog‘liq bo‘lmagan usulni ko‘ramiz. Bu praktikaada yaxshi aralashadigan suyuqliklarni qizdirishimiz bilan xarakterlanadi.

Agar issiqlik jism yuzasiga konveksiya usulida berilsa, unda issiqlik balansi vaqtida, atrof-muhitdan issiqlik berishi natijasida jism yuzasidan o‘tayotgan issiqlik miqdori:
³¹

$$dQ = \alpha (t_c - t) F \cdot d\tau$$

Bu issiqlik entalpiyani oshirishga xizmat kilsa:

$$di = m c d t = \rho v c d t'$$

bularni tenglashtirib keyin integrallasak yoki

$$\tau_0 = 0 \rightarrow \tau$$

unda

$$\tau = MC / \alpha F \ln (t_C - t_n) / (t_C - t) ;$$

Agarda issiqlik jismiyuzasiganurlanishusulidaberilsa, unda issiqlik balansidan d τ va qtdaberilgan issiqlik miqdori quyida gichaaniqlanadi:

$$dQ = \delta_{PR} (T_s^4 - T^4) F d\tau$$

Buissiqlikentalpiyanioshirishgaxizmatkilsa

$$di = mc dt$$

bularni tenglashtirib keyin integrallasak.

$$\tau T$$

$$\int_0^{Tn} d\tau = MC / \delta_{PR} F \int_{Tn}^{T} dT / (T_C^4 - T^4) ;$$

$$\begin{aligned} \tau &= MC / \delta_{PR} F \cdot 1 / T_C^3 [[\ln [[1 + (T / T_C)] / [1 - T / T_C]] + 2 \arctg T / T_s] - \\ &- [\ln (1 + T_n / T_C) / (1 - T_n / T_C) + 2 \arctg T_n / T_C]] \\ &\Psi(T / T_C) \text{ va } \Psi(T_n / T_C) \text{ funksiyalarnigrafikorqalitopishimiz mumkin.} \end{aligned}$$

8.5. Jismni notekis harorat maydonida qizdirish. Jismni o'zgarmas issiqlik oqimida qizdirish

Jismni notekis harorat maydonida qizdirish.

Jismni qizdirishda va sovitishda ko'pincha harorat har xil ta'sir qiladi. Agarda pech ichiga jismni joylashtirsak, boshlang'ich vaqtida yuza harorati tez ko'tariladi, ichki qatlamlardagi harorat keskin oshadi, keyinchalik haroratlar tenglashadi.

Jismda haroratning o'zgarishini issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasidan topishimiz mumkin, bunda

$$\partial t / \partial \tau = \lambda / \rho_C (\partial^2 t / \partial x^2 + \partial^2 t / \partial u^2 + \partial^2 t / \partial z^2) ;$$

$t_n = f(x, \tau)$ issiqlikoqimikamayibboradi.

Jismnio‘zgarmasissiqlikoqimidaqizdirish.

Bundacheksizplastinaniqizdirishniko‘ribchikamiz.

Vaqto‘tishiilanjismyuzasigaberilayotganissiqlikoqimio‘zgarmaydi. $Q_n = \text{const}$ - birkameralepechlardabo‘ladi.

$$q_w = f(x, y, z, \tau);$$

CHeksiz plastina uchun Fure tenglamasi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$\frac{\partial v}{\partial \tau} = a \frac{\partial^2 v}{\partial x^2}$$

$$v = t - t_n$$

Bir nuqtadagi haroratning o‘zgarishi:

$$\text{grad } t = \frac{\partial t}{\partial x} + \frac{\partial t}{\partial y} + \frac{\partial t}{\partial \tau};$$

$$Q = -\lambda \text{ grad } t$$

$$q = Q / F = -\lambda \text{ grad } t.$$

8.6.Texnologik chiqindilarining klassifikatsiyasi

Sanoatpechlardanchiqayotgangazlartarkibidagichanglarikkigabo‘linadi, yoqilg‘iyokitexnologikchiqindilarga:

Gazyokimazutbilanishlaydiganpechlardayoqilg‘ichikitlibo‘lamaydi. Ko‘mir kukuni bilan ishlaydigan pechlarda ko‘mirdan chiqadigan kulga qarab o‘rtacha $10\text{g}/\text{m}^3$ yoqilg‘i chiqiti bo‘lishi mumkin.

Texnologik chiqindi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- 1) *gaz oqimi bilan chikadigan yonmagan qattiq mahsulotlar;*
- 2) *gaz oqimi bilan chikadigan erigan mahsulot tomchilari yoki toshqollar;*
- 3) *gaz bilan chiqadigan par holatga aylangan texnologik mahsulotlar yoki metallar.*

Pechdan chikadigan chiqindilar o‘zining nisbiy og‘irligi, granulometrik tarkibi va formasi hamda pechdagisi gaz oqimining tezligi bilan aniqlanadi.

Granulometrik materiallarni qizdirishda termik kuchlanish sodir bo‘ldi va u mayda bo‘laklarga bo‘linadi, bu esa gaz oqimi bilan pechni ishchi bo‘shlig‘idan chikib ketishiga sabab bo‘ladi. Bunday chiqindilar hamma texnologik pechlarda, umuman shaxtali pechlarda, qaynash pechlarida hamda qaytaruvchi pechlarda sodir bo‘lishi mumkin.

Tajribadan ma’lumki, atmosfera havosida ishlagandagi marten pechidan chiqayotgan gazdagi chiqindilar quyidagicha bo‘ladi.

0-10 mk chiqindi bo‘laklari	17-38%
10-30 mk chiqindi bo‘laklari	13-34%
30-60 mk chiqindi bo‘laklari	14-24%
6 mk chiqindi bo‘laklari	15-45%

Agarda shu pechga kislorod yuborilsa, unda chiqindi bo‘laklari quyidagicha bo‘ladi:

0-10 mk	65-70%
60 mk	6-9%

Pechdan keyin toshqol ushlanadi va regeneratorda gaz chiqindilarining katta bo‘laklari yana ushlanadi va undan keyingi qozon-utilizatorga juda mayda bo‘laklar aralash gaz keladi.

Bu qozon-utilizatorning quvurlarini tez ishdan chikishidan saqlaydi.

Chiqindi harorati xarakteristikasini gapirganimizda shuni aytish kerakki, uni aniqlashda xozirgi standart pirometrik konusdan foydalanish etarli bo‘lmaydi, uni tajriba orqali chiqindining haroratga bog‘liqligini aniqlash kerak. Bu oxirgi metod quyidagi haroratni aniqlashda foydalaniladi.

t_1 - boshlang‘ich suyuqlikning paydo bo‘lishi harorati;

t_2 - intensiv yig‘ila boshlashdagi $\overset{31}{\text{harorat}}$;

t_3 - erigan holatdagi harorat.

Bu usulda ko‘rilayotgan chiqindining erish harorati quyidagi taxminiy sonlar bilan xarakterlanadi. Masalan po‘lat eritadigan pechlarda

$t_1 = 900-100^{\circ}\text{C}$;

$t_2 = 1050 - 1150^{\circ}\text{C}$;

$t_3 = 1450 - 1500^{\circ}\text{C}$.

Qaytaruvchi temir eritadigan pechlarda

$t_1 = 750 - 850^{\circ}\text{C}$,

$t_2 = 850 - 950^{\circ}\text{C}$,

$t_3 = 1100 - 1200^{\circ}\text{C}$.

Shisha eritadigan pechlarda esa erish holati $t_3 = 800 - 850^{\circ}\text{C}$ da boshlanadi.

Toshqoldan tozalashda konvektiv qizdirilayotgan gazni oldindan, chiqayotgan tutun gazni t_2 haroratdan past haroratga sovitish kerak, agarda suyuq holatdagi toshqolni tozalashda shu zonada gaz haroratsi t_3 haroratdan katta bo‘lishi kerak.

MASALA YECHISH NAMUNALARI

1 – Masala. Pechning qizigan gazlari issiqligidan foydalanuvchi qozon qurilmasida ishlab chiqarilgan issiqlik (bug’ ko’rinishida) aniqlansin. Pechdan chiquvchi gazlar harorati $t=700^{\circ}\text{C}$ havoning ortiqlik koeffitsienti $\alpha=1,3$, pechda yoqilg’ining sarfi $B=0,05 \text{ m}^3/\text{t}$, ish holatlarining mos kelmaslik koeffitsienti $\beta=1,0$ va issiqlikning atmosferaga yo’qotilish koeffitsienti $\zeta=0,1$. Pechda tabiiy gaz yoqiladi, uning tarkibi: $\text{CO}_2=0,2\%$; $\text{CH}_4=98,2\%$; $\text{C}_2\text{H}_6=0,4\%$; $\text{C}_3\text{H}_8=0,1\%$; $\text{C}_4\text{H}_{10}=0,1\%$; $\text{N}_2=0,4\%$.

Yechish: Havoning hisobiy kerakli hajmi:

$$V^0 = 0,0478(0,5(\text{CO} + \text{H}_2) + 1,5\text{H}_2\text{S} + 2\text{CH}_4)$$

$$\sum \left(m + \frac{n}{4} \right) C_m H_n - O_2 = 0,0478(2 \cdot 98,2 + 3,5 \cdot 0,4 + 5 \cdot 0,1 + 6,5 \cdot 0,1) = 9,51 \text{ m}^3 / \text{m}^3$$

Uch atomli gazlarning hajmi:

$$V_{H_2O} = 0,01(\text{CO}_2 + \text{CO} + \text{H}_2\text{S} + \sum^{31} m C_m H_n) = 0,01(0,2 + 98,2 + 2 \cdot 0,4 + 3 \cdot 0,1 + 4 \cdot 0,1) = 1,0 \text{ m}^3 / \text{m}^3$$

Azotning hisobiy hajmi:

$$V_{N_2}^o = 0,79V^0 + N_2 / 100 = 0,79 \cdot 9,51 + 1/100 = 7,52 \text{ м}^3 / \text{м}^3$$

Suv bug'larining hisobiy hajmi:

$$\begin{aligned} V_{H_2O}^o &= 0,01(H_2S + H_2 + \sum \frac{n}{2} C_m H_n + 0,124\alpha_e) + 0,016IV^0 = \\ &= 0,01(2 \cdot 98,2 + 3 \cdot 0,1 + 4 \cdot 0,1 + 5 \cdot 0,1) + 0,0161 \cdot 9,51 = 2,13 \text{ м}^3 / \text{м}^3 \end{aligned}$$

Pechdan chiqayotgan gazlarning entalpiyasi:

$$\begin{aligned} I_e &= I_e^0 + (\alpha - 1)I_e^0 = V_{H_2O}(Ct)_{CO_2} + V_{N_2}(Ct)_{H_2O} + (\alpha - 1)V^0(Ct)_\Gamma = \\ &= 1 \cdot 1461 + 7,52 \cdot 946 + 2,13 \cdot 1147 + (1,3 - 1) \cdot 9,51 \cdot 979 = 13811 \text{ кДж/м}^3. \end{aligned}$$

Qozon qurilmasidan chiquvchi gazlarning entalpiyasi:

$$\begin{aligned} I_e' &= I_e^0 + (\alpha - 1)I_e^0 = V_{H_2O}(Ct')_{CO_2} + V_{N_2}^o(Ct')_{N_2} + \\ &+ V_{H_2O}^o(Ct')_{H_2O} + (\alpha - 1)V^0(Ct')_e = \\ &= 1 \cdot 357 + 7,52 \cdot 260 + 2,13 \cdot 304 + (1,3 - 1)9,51 \cdot 266 = 5489 \text{ кДж/м}^3 \end{aligned}$$

$(Ct)_{CO_2}$ ва $(Ct')_{CO_2}$ hokazolar I – ilovadan olindi.

Chiqib ketuvchi gazlar issiqligidan foydalanib qozon qurilmasida ishlab chiqarilgan bug' ko'rinishidagi issiqlik miqdori:

$$Q = B(I_r - I_e')\beta(1 - \zeta) = 0,005 \cdot (13811 - 5489) \cdot 1(1 - 0,1) = 375 \text{ кДж/с.}$$

MUSTAQIL YECHISH UCHUN MASALALAR

1– Masala. 1000 м³/soat tabiiy gaz₃ to'la yoqilganda hosil bo'ladigan tutun gazlarining hajmi aniqlansin. Tabiiy gazning tarkibi:

CO₂= 0,1%; CH₄= 85,8%; C₂H₆= 0,2%; C₃H₈= 0,1%, C₄H₁₀= 0,1%; N₂= 13,7 %.

Yonish kamerasidagi havoning ortiqlik koeffitsienti α_{O₂} = 1,1.

Javob: V_G= 10230 м³/soat.

2 – Masala. Pechning qizigan gazlari issiqligidan foydalanuvchi qozon qurilmasida ishlab chiqarilgan issiqlik (bug' ko'rinishida) aniqlansin. Pechdan chiquvchi gazlar harorati $t=1400^{\circ}\text{C}$ havoning ortiqlik koeffitsienti $\alpha=2,6$, pechda yoqilg'ining sarfi $B=0,1 \text{ m}^3/\text{s}$, ish holatlarining mos kelmaslik koeffitsienti $\beta=2,0$ va issiqlikning atmosferaga yo'qotilish koeffitsienti $\zeta=0,2$. Pechda tabiiy gaz yoqiladi, uning tarkibi: $\text{CO}_2=0,4\%$; $\text{CH}_4=196,4\%$; $\text{C}_2\text{H}_6=0,8\%$; $\text{C}_3\text{H}_8=0,2\%$; $\text{C}_4\text{H}_{10}=0,2\%$; $\text{N}_2=0,8\%$.

Javob: $Q=750 \text{ kJ/s}$.

3 – Masala. 1 kg ko'mir to'la yonganda hosil bo'ladigan gazlar massasi va ulardagi kulning kontsentrasiyasi aniqlansin. Ko'mir tarkibi: $\text{C}^i=54,7\%$; $\text{H}^i=3,3\%$; $\text{S}^i=0,8\%$; $\text{N}^i=0,8\%$; $\text{O}^i=4,8\%$; $\text{A}^i=27,6\%$;

$W^i=8,0\%$. $a_{\text{O.K.}}=0,85$,

Havoning ortiqlik koeffitsienti $\alpha_0=1,3$.

Javob: $M_g = 9,25 \text{ kg/kg}$; $\mu_k = 0,0253$.

4 – Masala. 2000 m^3 /soat tabiiy gaz to'la yoqilganda hosil bo'ladigan tutun gazlarining hajmi aniqlansin. Tabiiy gazning tarkibi:

$\text{CO}_2=0,2\%$; $\text{CH}_4=171,6\%$; $\text{C}_2\text{H}_6=0,4\%$; $\text{C}_3\text{H}_8=0,2\%$, $\text{C}_4\text{H}_{10}=0,2\%$; $\text{N}_2=27,4\%$.

Yonish kamerasidagi havoning ortiqlik koeffitsienti $\alpha_0=2,2$.

Javob: $V_G = 20460 \text{ m}^3/\text{soat}$.

5 – masala. 2000 kg D markali ko'mirni qatlamlili yoqish uchun zarur bo'lgan havoning nazariy va haqiqiy hajmlari aniqlansin. Bunda yonuvchi massasiga ko'ra ko'mirning tarkibi: $\text{C}^{yo}=78,5\%$; $\text{H}^{yo}=5,6\%$; $S_u^{yo}=0,4\%$; $\text{N}^{yo}=2,5\%$; $\text{O}^{yo}=13,0\%$; quruq massaga ko'ra kul miqdori $A^q=15,0\%$; ishchi namlik $W^i=12,0\%$ va o'txonadagi havoning ortiqchalik koeffisiyenti $\alpha_{yo}=1,3$ bo'lsin.

Javob: $V^o = 12040 \text{ m}^3$; $V_h = 15652 \text{ m}^3$.

6 – masala. 1500 kg nam slanesni qatlamlili yoqish uchun zarur bo'lgan havoning nazariy hajmi aniqlansin. Bunda yonuvchi massasiga ko'ra slanesning tarkibi: $\text{C}^{yo}=74,0\%$; $\text{H}^{yo}=9,5\%$; $S_u^{yo}=6,1\%$; $\text{N}^{yo}=0,4\%$; $\text{O}^{yo}=10,0\%$; ishchi massaga ko'ra kul miqdori $A^i=46,0\%$; namligi $W^i=11,5\%$ va $(\text{CO}_2)_k^i=16,4\%$ bo'lsin.

Javob: $V^o = 3765 \text{ m}^3$.

7 – masala. Qozon o'chog'ida 2000 kg D markali (1) va 3000 kg G markali (2) ko'mirlar aralashmasi yoqilmoqda. Ularning ishchi massasiga ko'ra tarkibi quyidagicha:

$$\begin{aligned} C_1^i &= 58,7\%; H_1^i = 4,2\%; \left(S_u^i\right)_1 = 0,3\%; N_1^i = 1,9\%; O_1^i = 9,7\%; A_1^i = 13,2\%; W_1^i = 12,0\%; \\ C_2^i &= 66,0\%; H_2^i = 4,7\%; \left(S_u^i\right)_2 = 0,5\%; N_2^i = 1,8\%; O_2^i = 7,5\%; A_2^i = 11,0\%; W_2^i = 8,5\%. \end{aligned}$$

Aralashma yonishi uchun zarur bo'lgan quruq havoning nazariy hajmi aniqlansin.

Javob: $V_{ar}^o = 32700 m^3$.

Nazorat savollar

- 1.Qizdirilayotgan metal ichida bo'ladigan jarayonhaqida nimalarni bilasiz? 2.Yupqa materiallarni qizdirish. Hajmi katta materiallarni qizdirishto'g'risida gapirib bering.
- 3.Jismda haroratning taqsimlanishihaqida nimalarni bilasiz?
- 4.Jismni bir xil haroratda qizdirishhaqida nimalarni bilasiz?
- 5.Jismni notekis harorat maydonida qizdirish.Jismni o'zgarmas issiqlik oqimida qizdirishto'g'risida gapirib bering.
- 6.Texnologik chiqindilarning klassifikatsiyasini sanab bering.

9.1. Regenerativ issiqlik almashinuv qurilmalari. G'ishtli regeneratorlar


Tayanch iboralar: *regenerativ issiqlik almashinuv qurilmalari, g'ishtli regeneratorlar, mos bo'l magan, kanalli, issiqlik balansi tenglamasi.*

G'ishtli regeneratorlar

Yonish jarayoniga beriladigan havoni oldindan isitsh uchun maxsus issqlik almashtirgichlari - g'ishtli regeneratorlar va keramik (sopolli) rekuperatorlar qo'llaniladi. Bu materiallar arzon va issqlikka chidamli bo'lganlari uchun havoni $1000-1200^{\circ}\text{C}$ gacha isitish imkonini beradilar. Shunga qaramay ular qator kamchiliklarga ega: cheklangan nisbiy issiqlik unumдорligi, shlakka nisbatan chidamsizlik, gaz zichligining pastligi va hokazo.

G'ishtli regeneratorlar arzonligi va issiqliknini to'plovchi material sifatida oddiy g'ishtdan foydalanishi bilan ajralib turadi. Regenerator ichida joylashtirilgan g'ishtlar qizigan tutun gazlari bilan isitiladi va ma'lum vaqtdan keysh sovuq havo bilan sovitiladi. Qo'llaniladigan g'ishtlarning o'lchamlari $l \times s \times \delta$ bo'lib, odatda uzunligi $l=250-300$ mm, balandligi $s=100-150$, qalinligi $\delta=50-100$ mm bo'ladi. Gazlar o'tadigan kanalning eni $\alpha=50-150$ mm bo'ladi.

Rekuperatorning asosiy ko'rsatkichlari: h_H , m^2/m^3 - joylashtirilgan 1 m^3 hajmli g'ishtning nisbiy isitilish yuzasi; kg/m^3 - joylashtirilgan 1 m^3 hajmli g'ishtning og'irligi.



9.1-rasm. Regenerator ichida g'ishtni joylashtirish turlari:

a) oddiy; b) mos bo'l magan; v) kanalli.

Regenerator ichida g'ishtlar “a” va “b” turda joylashtirilganda $h_H = 18-20 \text{ m}^2/\text{m}^3$ va $g_H = 1200-1400 \text{ kg/m}^3$ bo'ladi. Agar “v” turda joylashtirilsa, tegishlichcha $h_H = 14-16 \text{ m}^2/\text{m}^3$, ammo $g_H = 1800-2000 \text{ kg/m}^3$ bo'ladi.

G'ishtli regeneratorning issiqlik balansi tenglamasi:

$$B \cdot \vartheta_T \cdot C_T (t'_T - t''_T) \eta_p = B \cdot [\vartheta_F \cdot C_F (t'_F - t''_F) + C_{\dot{e}} (t'_{\dot{e}} - t''_{\dot{e}})] \quad (9.1)$$

Tenglamaning chap tomoni tutun gazlari regeneratorga bergen issqligini va tenglamaning o'ng tomoni esa, havo bilan yoqilishi isitishga sarflangan issqlikni ifodalaydi.

Regenerator ichida joylashtiriladigan g'ishtning kerakli yuzasi quyidagi tenglamadan aniqlanadi:

$$H_p = \frac{Q_F \cdot \tau_p}{K_p \cdot \Delta t}, \text{ m}^2. \quad (9.2)$$

bunda: $H_p = \frac{Q_F \cdot \tau_p}{K_p \cdot \Delta t}$ - havoni isitishga sarflanadigan issqlik, kjoul/soat;

τ_p - ish siklining davomiyligi, soat ulushlari;

K_p - issiqlik uzatilishi koeffisienti, kjoul/m² °Csikl;

Δt - haroratlar farqi, °C.

Bu tenglamadagi eng asosiy kattalik issiqlik uzatilish koeffisienti hisoblanadi:

$$K = \frac{1}{\frac{1}{\sum \alpha_T \cdot \tau_H} + \frac{1}{\frac{\delta_{\vartheta}}{2} \cdot \gamma_x \cdot C_x \cdot \eta_a \cdot \varphi} + \frac{1}{\alpha_x \cdot \tau_0}} \quad (9.3)$$

bunda $\sum \alpha_T$ - yig'indi issiqlik berish koeffisienti, kjoul/m² °C;

α_x - havoga issiqlik berish koeffisienti, kjoul/m² °C;

δ_{ϑ} - ikki yoqlama isitilayotgan g'ishtning ekvivalent qalinligi, m;

γ_x - g'ishtning solishtirma og'irligi, kg/ m³;

η_a - issiqlikni to'plash (akkumulyasiya) koeffisienti;

φ - harorat koeffisienti (sikl davomida g'ishtning o'rtacha harorati uning yuzasi harorati bilan bog'laydigan koeffisient).

Issiqlik berish koeffisienta α_x regenerator ichida g'ishtlarni joylashtirish (terish) turiga bog'liq bo'ladi. Chunonchi "a" turi uchun:

$$\alpha_x = 1,38 \cdot T^{0,25} \cdot \omega_{\Gamma.K}^{0,3} \cdot d_3^{-0,33};$$

"b" turi uchun:

$$\alpha_x = 1,56 \cdot T^{0,25} \cdot \omega_{\Gamma.K}^{0,3} \cdot d_3^{-0,33}$$

"v" turi uchun:

$$\alpha_x = 0,74 \cdot T^{0,25} \cdot \omega_{\Gamma.K}^{0,3} \cdot d_3^{-0,33}$$

bunda: T - tutun gazlarining harorati, °K;

$\omega_{\Gamma.K}$ - tutun gazlarining keltirilgan tezligi, m/sek;

d_3 - kanalning ekvivalent diametri, m.

Akkumulyasiya (to'plash) koeffisienta η_a umuman olganda $\frac{\alpha \cdot \tau_p}{(\frac{\delta_3}{2})^2}$

parametrining funksiyasi hisoblanadi, bunda $\alpha = \frac{\lambda_x}{C_x \cdot \gamma_x}$ - g'ishtning harorat o'tkazish koeffisienti, $m^2/soat$.

η_a ning qiymatlarini uning aniqlovchi parametrlarga bog'liqligidan foydalanim topish mumkin:

$\frac{\alpha \cdot \tau_p}{(\frac{\delta_3}{2})^2}$	0,5	1,0	2,0	3,0	4,0	5,0
η_a	0,28	0,42	0,60	0,70	0,76	0,80

Harorat koeffisienti quyidagi munosabatdan aniqlanadi:

$$\varphi = \frac{\Delta t_p}{t_u - t_c};$$

bunda: Δt_p - ish siklida g'isht harorati o'zgarishlarining amplitudasi;

t_u va t_c -isitish va sovitish paytidagi g'isht yuzasining o'rtacha haroratlari.

Odatda g'ishtli regeneratorlar uchun $\varphi = 2,2-2,5$ bo'ladi.


9.2.Keramik (sopol) rekuperatorlar

Tayanch iboralar: *quvurli keramik rekuperator, qiziganhavo, tutungazlari, sovuqhavo, keramik quvurlar, to'siqlar, regenerator ichidagi nasadka.*

Keramik rekuperatorlarni tayyorlashda shamot va shuningdek karborund ishlatiladi. Ularning olovbardoshlik chegarasi $1600-1700^{\circ}\text{C}$ ga va yumshab boshlashi $1300-1350^{\circ}\text{C}$ ga to'g'ri keladi. Shuning uchun ular yordamida havoni $1000-1100^{\circ}\text{C}$ gacha isitish mumkin.

Keramik rekuperatorlarning kamchiliklari: rekuperator elementlarining o'zaro ulanish joylarining juda ko'pligi va ularni amalda zichlab bo'lmasligi; g'ovakli keramik devorlarning haroratlar gradienti ta'siridan yorilib ketishi; keramik materiallarning shlak tomonidan emirilishi.

Rekuperator elementlarining ulanish joylaridan havoning tutun gazlariga o'tishini (20-30 %) kamaytirish uchun havo va gaz kanallari orasidagi bosimlar farqi 10-20 mm suv ust.dan ko'p bo'lmasligi kerak. Odatda keramik rekuperatorlarda issiqlik berish koeffisienti $25-30 \text{ kjoul/m}^2 \text{ soat }^{\circ}\text{S}$ dan oshmaydi, bu metall rekuperatorlaridan ikki barobar kamdir. Shakldor keramika bir birligi og'irligining narxi metallnikidan 15-20 barobar qimmatdir. Ammo 1 m^2 keramik rekuperatorning og'irligi 120-140 kg, metall rekuperatoriniki esa 20-25 kg ga teng va issiqlik berish koeffisienti 2-3 barobar katta bo'ladi. Shunga asosan xulosa qilish mumkinki, keramik rekuperatorlarni kelajakda qo'llanish ko'lami cheklangandir.



9.2- rasm. Quvurli keramik rekuperator.

1- qiziganhavo, 2- tutungazlari, 3- sovuqhavo,

4- keramikquvurlar, 5- to'siglar.

Regenerator ichidagi nasadka 2 xil joylashgan.

9.3.Metaldan tayyorlangan rekuperatorlar. Cho'yan rekuperatorlar

Tayanch iboralar: metaldan rekuperatorlar, cho'yan rekuperatorlar, rekuperatorlarida issiqlik qabul qilinishining notekisligi, yuzaniig solishtirma issiqlik yuklamasi.

31

Metall rekuperatorlarida havoni 800-850 °C gacha isitish mumkin. Ularni yasash uchun ishlataladigan cho'yan va po'latning issqbardoshligi 1000-1100 °Catrofida.

Issiqliki qabul qiluvchi metall devorining harorati:


$$t_F - t_F + \frac{q}{\alpha_F}, {}^{\circ}\text{C} \quad (9.4)$$

bunda: t_F - havoning harorati;

q - yuzaniig solishtirma issiqlik yuklamasi, kjoul/m²·soat;

α_F - yuzadan havoga issiqlik berilishi koeffisient, kkal/m²·soat, gr.

Bu tenglamada α_F muhim ahamiyatga ega.



9.3-rasm. Metall rekuperatorlarida issiqlik qabul qilinishining notekisligi.

"a"- chizma tasvirda regeneratorlar isitiladigan havo bo'yicha ham, isituvchi tutun gazlari bo'yicha ham parallel ulangan. Shunga ko'ra, bu erda issiqliknii qabul qilishning notekisligi gazlar yo'lidagi tezlik va harorat maydonlarining notekisligi bilan belgilanadi va $\varphi = 1,1-1,2$ bo'ladi.

"b" - chizma tasvirda regeneratorlar tutun gazlari bo'yicha ketma-ket va havo bo'yicha parallel ulangan. Bu holda rekuperator quvurlar qatorining har birida haroratlar farqi bilan issiklik almashinushi jadalligi kamayib boradi va φ 1,4-1,5, ayrim hollarda 1,8-2,0 ga teng bo'ladi.

Isitiladigan havo oqimning turlicha taqsimlanishi parallel ulangan elementlar orasidagi bosimlar farqining o'zgarmas qiymatda bo'lishi bilan belgilanadi:

$$\Delta P = A \cdot G^2 \left(1 + \frac{v''}{v'}\right), \text{ kg/m}^2. \quad (9.5)$$

bunda: $\Delta P = A \cdot G^2 \left(1 + \frac{v''}{v'}\right)$ - isitiladagan muhitning sarfi, kg/sek.

v' va v'' - boshlang'ich va oxirgi solishtirma hajm, m^2/kg .

A - elementlarning konstruktiv (l/d) va gidravlik ko'rsatkichlarini (λ , ξ) hisobga oluvchi koeffisient.

(9.5) tenglamadan ko'rindaniki, parallel ulangan quvurlar turlicha isitilganda, ulardan o'tayotgan havoning sarfi solishtirma hajmning ortishiga teskari proporsional ravishda qayta taqsimlanib turadi.

$$\frac{G_1}{G_2} = \sqrt{\frac{1 + \frac{v''_2}{v'}}{1 + \frac{v''_1}{v'}}}; \quad (9.6)$$


bunda: G_1 va G_2 - birinchi va ikkinchi elementlardagi muhitningsarfi;

v' - isitilayotgan muhitning boshlang'ich solishtirma hajmi;

v''_1 va v''_2 - birinchi va ikkinchi elementlardagi oxirgi solishtirma hajmlari.

Shunday qilib, mettall rekuperatorining issiqlik yuklamasi Q_K bo'lган elementlari havoning kichik sarfiga G_{kuu} ega bo'ladi. Shuning uchun ularda isitilayotgan muhit entalpiyasining eng ko'p o'sishi kuzatiladi, ya'ni $\Delta t_K = Q_K / G_{kuu}$, kjoul/kg.

Shubhasiz, bunday elementlar metalining harorati keskin oshib ketadi va tutun gazlarining haroratiga yaqinlashishi mumkin. Rekuperatorlarning qizigan gazlar yo'naliishi bo'yicha birinchi joylashgan ³¹metall, xususan ignasimon cho'yanli elementlari kuyib ketishining amalda tez-tez kuzatilishini yuqorligi sabab bilan izohlash mumkin. Bu holning yana bir salbiy tomoni shundan iboratki, elementning turlicha qizigan quvurlari tomanida isitilayotgan havoning o'rtacha harorati tamoman mo'tadil darajada bo'ladi.



9.4- rasm. Metaldan tayyorlangan rekuperatorlar.

Metaldan tayyorlangan rekuperatorlar issiqlik uzatish tipiga qarab konvektiv va radiatsiyali rekuperatorlarga bo‘linadi.

Konvektiv rekuperatorlar ham o‘z navbatida 2 gruppaga bo‘linadi:

- 1) gazlar kichik diametrli temir quvur ichidan o‘tadigan rekuperatorlar.
 - 2) gazlar kichik diametri temir quvur tashqarisidan o‘tadigan rekuperatorlar.
- Katta bo‘lmagan bosimda issiq havo olishda ishlatiladi.

Asosan 1- gruppa rekuperatorlari ishlatiladi.


Cho‘yan rekuperatorlar

Cho'yan rekuperatorlar. Cho'yan ignasimon rekuperatorlar keng qo'llaniladi. Cho'yan ignasimon rekuperatorlarning asosiy konstruktiv elementi cho'ziq kesimli quvurdan (uzunligi 0,9-1,6 m) iborat, havo tomonidagi ignalarining balandligi 20 mm, oralaridagi masofa 14 mm, gaz tomonidan tegishlicha 40 mm va 18-28 mm. Ignalar issiqlik uzatishini oshiradi ("K" koeffisienta ortadi), ammo rekuperatorning qarshiligi va ifloslanishi ortib, quvurlarda termik kuchlanishlar paydo bo'ladi. Shuning uchun faqat havo tomonida ignalari bo'lgan rekuperatorlarning qo'llash afzalroq bo'ladi. Odatda rekuperatorlardagi tutun gazlarining tezligi 1-3 m/sek, havoniki esa 3-6 m/sek. Qizish yuzasining ifloslanish koeffisienti silliq gaz quvurlari uchun $\gamma = 0,8-0,9$, ignasimon quvurlar uchun $\gamma = 0,5-0,8$, demak, haqiqiy issiqlik uzatish koeffisienti $KF = \gamma \cdot K$ bo'ladi. Ikki yo'lli cho'yan ignasimon rekuperatorining havo oqimiga ko'rsatadigan qarshiligi 20-25 dan to 100-150 mm. suv ust. gacha oraliqda bo'ladi; gaz oqimiga qarshiligi, undan ancha kam qiymatni tashkil qiladi. Ulanish joylaridan siriqib oqadigan havo 5-25% ga teng. Cho'yan ignasimon rekuperatorlarining xizmat muddati (havo $350-400^{\circ}\text{C}$ gacha isitilganda) 3-5 yildan oshmaydi. Shuning uchun ularning kelajakdagi rivojlanish istiqboli ma'lum darajada cheklangandir.

9.4.Nurlanishli (radiasion) po'lat rekuperatorlar

Tayanch iboralar: *nurlanishli (radiasion) po'lat rekuperatorlar, parallel oqimli, sovuq havo, qarshi oqimli issiqlik havo, doirali (tirqichli), ekran.*

Ma'lumki, nurlash yo'li bilan issqlik berish tutun gazlarining harorati $750-800^{\circ}\text{C}$ dan kam bo'lмаган hollarda samarali bo'ladi.



9.5-rasm. Nurlanish rekuperatorining havo bo'yicha ulanish usullari.

1 - qarshi oqimli sovuq havo;

2 - parallel oqimli sovuq havo;

3 - qarshi oqimli issiq havo;

4 - parallel oqimli issq havo.

Havoni isitish paytida tutun gazlari $\Delta t_F = 1100 - 800 = 300 {}^{\circ}\text{C}$ ga soviydi, havo esa, $\Delta t_x = 300 \cdot 1,25 = 375 {}^{\circ}\text{C}$ gacha isiydi. Agar havo qarshi oqim bo'yicha berilsa, (9.6 - rasm) qizish yuzasining past harorati va issiqlik qabul qilishini yuqori darajasi ta'minlanadi, ammo yuqori haroratli gazlar ($= 800 {}^{\circ}\text{C}$) foydalanimay qoladi.

Shuning uchun ikki pog'onali rekuperatorni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi: u havoni $775 - 800 {}^{\circ}\text{C}$ gacha isitib, chiqib ketuvchi gazlar haroratini $t_{Q,F} = 200-250 {}^{\circ}\text{C}$ ga tushirish imkonini beradi.

Ichki issiqlik berishni nurlanish bilan kuchaytirish usuli muhim ahamiyatga ega. Buni amalga oshirish uchun, ikkita silindrik yuzalar hosil qilgan tor aylanma kanal orqali havoni o'tkazish lozim (9.6 - rasm). Tashqi silindrik yuza tutun gazlari bilan bevosita kizdiriladi va ichki silindrik yuza esa issiqlikniga tashqi yuzadan nurlanish yo'li bilan oladi. Tutun gazlaridan havoga o'tadigan solishtarma issiqlik oqimi:

$$q_F = q_O - \frac{d_P}{d_O}, \text{ kjoul/m}^2\cdot\text{soat} \quad (9.7)$$

bunda: q_F - tutun gazlaridan metall yuzaga beriladigan solishtirma issiqlik oqimi, $\text{kjoul/m}^2(\text{soat})$.

(9.7) tenglamani asosiy sovitish yuzasiga nisbatan ifodalasak, quyidagiga ega

bo'lamiz:

$$q_O = \alpha_x \left[(t_M - t_X) + (t_P - t_X) \frac{d_P}{d_O} \right], \text{ kjoul/m}^2(\text{soat}) \quad (9.8)$$

bunda $\alpha(t_M - t_X)$ sovitilayotgan yuzaning (d_O) har 1 m^2 dan havoga o'tayotgan konvektiv issqlikni va $\alpha_x(t_P - t_X)$ esa qo'shimcha yuzaning (d_P) har 1 m^2 dan berilayotgan nurlansh issiqligini ifodalaydi.


Bu holda nurlanish issiqligi:

$$\alpha_x(t_P - t_X) = C_K \left[\left(\frac{T_M}{100} \right)^4 - \left(\frac{T_P}{100} \right)^4 \right] \quad (9.9)$$

bunda: S_k - asosiy yuzaning keltirilgan nurlansh koeffisienta.


$$C_K = \frac{1}{\frac{1}{C_P} + \frac{d_p}{d_o} \left(\frac{1}{C_M} - \frac{1}{4,96} \right)} \text{ kjoul/m}^2\cdot\text{soat} \left(\frac{\text{°K}}{100} \right)^4 \quad (9.10)$$

bunda: $C_K = \frac{1}{\frac{1}{C_P} + \frac{d_p}{d_o} \left(\frac{1}{C_M} - \frac{1}{4,96} \right)}$ - qo'shimcha (nurlanish) va asosiy metall yuzalarining nurlansh koeffisientlari; odatda 3,5-4,0 ga teng.



9.6-rasm. Quvurli nurlanish rekuperatorining chizma tasviri.

Shuni ta'kidlash joizki, aylanma kanalning ekvivalent diametri qanchalik kichik ($d_e = 0,012 - 0,016$) bo'lsa, issiqlik almashinuvi shunchalik yuqori bo'ladi.



9.7-rasm.Radiatsion temirlirekuperatorlarsxemasi.

a- doirali (tirqichli); b- birgatorekran bilan quvurlari.

Regenerator nasadkasining qiziyotgan yuzasi quyidagi formula bilan topiladi:

$$N = \frac{Q_{HK(yo,k)}^{\tau}}{K\Delta t}$$

$Q_{HK(yo,k)}$ - gaz yoqilg‘ining yoki havoning qizishida issiqlik kabul qilishi.

τ - ish siklining vaqtini

K - issiqlik uzatish koeffitsenti

Δt - haroratlar farqi.

9.5.Bug‘li qozon utilizatorlar

Tayanch iboralar: bug‘li qozon utilizatorlar, bug‘qizdirgich, isitkich quvurlar yuzasi, tutunquvuri, ekonomayzer, bug‘latishyuzasi, bug‘qizdirgich, barabankollektor, sirkulyasiyanasosi, toshqolushlagich, tutunso ‘rgich.


Pechdan chiqib ketayotgan issiq gazlarning umumiyligi issiqligining 30-40% havo qizdirgich rekuperatorlarda yo‘qoladi. Qolgan issiqlikning bir qismi qozon utilizatorda bug‘ yoki issiq suv olish uchun ishlatiladi.

Shuning uchun qozonga kelayotgan gazning harorat katta rol o‘ynaydi: bunga qarab biz yoqilg‘isiz ishlaydigan qozongan 2 gruppaga bo‘lishimiz mumkin.

1) t_g^1 - 450 - 500 dan 800 - 900°C (past haroratli gruppaga)

2) t_g^1 - 1200 - 1300°C va undan baland (yuqori haroratli gruppaga)

past harorat gruppali qozon utilizatorda suv bug‘ining yo‘nalishiga qarab ko‘p marotabali ixtiyoriy aylanish (mP) va to‘g‘ri seplatsiyaga (PS) bo‘lanadi.




9.8- rasm. KU – 40 tipidagi TKZ gaz quvurliqozonutilizator.

1 - bug 'qizdirgich, 2 - isitkichquvurlaryuzasi, 3 – tutunquvuri.

Buusulko‘pishlatilmaydi,

birxilvaqtlardakattatozalikkaegabo‘lgansuvnivakattabosimlibug‘olishdaishlatiladi.

Ko‘pmarotabamajburiysirkulyasiyaliqozonutilizatorsxemasi.



9.10-

rasm.Ko‘pmarotabamajburiysirkulyasiyaliqozonutilizatorsxemasi.

1- ekonomayzeryuzasi, 2- bug 'latishyuzasi, 3- bug 'qizdirgich, 4- barabankollektor, 5 – sirkulyasiyanasosi, 6- toshqolushlagich, 7- tutunso 'rgich.

Bu usluldan past haroratli gazlar issiqligidan suvni isitishda foydalilanildi.

Bunda ozroq energiya nasosga sarflanadi.

Nazorat savollar

1. Regenerativ issiqlik almashinuv qurilmalari.G‘ishtli regeneratorlarto'g'risida gapirib bering.
2. Keramik (sopol) rekuperatorlarhaqida nimalarni bilasiz?
3. Metaldan tayyorlangan rekuperatorlarni aytib bering.
4. Cho‘yan rekuperatorlarhaqida nimalarni bilasiz?

5. Nurlanishli (radiasion) po'lat rekuperatorlarqaysi sohalarda qo'llaniladi?
- 6.Bug'li qozon utilizatorlarturlarini aytib bering.

X- BOB. SANOAT PECHINING ISSIQLIK MUVOZANATI

10.1.YuHQ larning issiqlik balansi (muvozanatlari)

Yuqori haroratli qurilma (yoki pech)larda issiqliknинг taqsimlanishi energyaning saqlanish qonuniga asoslangan issiqlik muvozanatlari (balanslari) bilanifodalanadi. Demak, issiqlik muvozanati deb qurilmaga berilgan issiqlik bilan unda sarf qilingan issiqliklarning tengligiga aytiladi.

Pechning issiqlik balansi kurib chiqilganda uning ishlab chiqarish kursatkichlari bilan birga issiqlikdan foydalanish darajasini baholash, issiqlik tejamkorligining past bulish sabablarini aniqlash va ish jarayonida yaxshilash buyicha tegishli chora-tadbirlarni belgilash mumkin buladi. Regenerativ yoki rekuperativ issiqlik almashtirgichlari va qozon-utilizatori bilan jihozlangan pechlar uchun quyidagi umumlashtirilgan issiqlik muvozanatlarini tuzish mumkin:

- 1) pechning ishchi bo'shlig'i uchun;**
- 2) regenerator (yoki rekuperator) lar bilan birlashtirilgan issiqlik balansi uchun;**
- 3) butun bir yaxlit qurilma uchun (qozon-utilizator bilan).**

Bundan tashqari pechning ayrim qismlarini tahlil qilish uchun uning regeneratori, qozon - utilizatori va boshqalarning issiqlik balanslari tuziladi.

Davriy ishlaydigan pechlarning balansi uning bir ishchi sikli (masalan,bir eritish sikli, bir toplash sikli va hokazo) uchun va uzlusiz ishlaydigan pechlar uchun esa-bir soat ish vaqtiga nisbatan tuziladi.

Pechning issiqlik balansi tenglamasi umumiyl holda quyidagi kurinishga ega:
 $\Sigma Q_{kirim} = \Sigma Q_{chiqim}$.
yoki

$$Q^{yo_k} + Q^h_f + Q^{yo_m} + Q' + Q_{ekz} = Q''_m + Q_t + Q_{end} + Q_{ch.g} + Q_{e.g} +$$

$$+ Q_{k.ch.yo} + Q_{m.ch.yo} + Q_{a.-m} + Q_{qopl}; \quad (10.1)$$

bunda: Q^{yo_k} - yoqilg'ining kimyoviy energiyasi (yoqilg'ining yonish issiqligi);

Q^h_f -yonish jarayoniga berilgan havoning fizik issiqligi:

Q^{yo}_f - yoqilg‘ining fizik issiqligi:

Q'_m - materialning boshlang‘ich issiqligi:

Q_{ekz} -ekzotermik reaksiyalarda shixta tarkibidagi uglerod, marganets, kremniy, fosfor, oltingugurt va temirning yonishida, toshqolning hosil bulishida ajralib chiqadigan icsiqlik:

Q''_M - materialning oxirgi issiqligi:

Q_T -texnologik chiqindilar (toshqol, kuyindi va hokazo) ning issiqligi:

Q_{end} - endotermik reaksiyalarda (namlikning bug‘lanishi, ohaktoshning parchalanishi, rudadan temirning tiklanishida ajralib chiqadigan issiqlik):

$Q_{ch.g}$ - pechdan chiquvchi gazlarning issiqligi:

$Q_{s.g}$ - atmosferadagi pechdan siqib chiquvchi gazlar issiqligi:

$Q_{k.ch.yo}$ -yoqilg‘ining kimyoviy chala yonishi natijasida yuqotiladigan issiqlik:

$Q_{m.ch.yo}$ - yoqilg‘ining mexanik chala yonishi natijasida yuqotiladigan issiqlik:

$Q_{z..m}$ - atrof-muhitga yuqotiladigan issiqlik:

Q_{qopl} -pechning ichki qoplamasini qizdirishga yuqotiladi-gan issiqlik:

Marten pechlarida shixtani eritish paytida issiqlik ajralib chiqadigan va shuningdek, aksincha, issiqlik yutiladigan kimyoviy reaksiyalar kechishi mumkin. Ekzotermik reaksiyalarning issiqligi endotermik reaksiyalarning isciqligidan odatda 2-3 barobar kup buladi va pech kamerasiga kiritilgan umumiy issiqlikning 10-15% ini tashkil qiladi.

Atrof - muhitga yuqotiladigan umumiy issiqlik quyidagi tashkil qiluvchilardan iborat:

$$Q_{a..m} = Q'_{a..m} + Q''_{a..m} + Q'''_{a..m} + Q_{sov} \quad (10.2)$$

bunda: $Q'_{a..m}$ - pech ichki qoplamasining issiqlik utkazuvchanligi natijasida yuqotiladigan issiqlik;

31

$Q''_{a..m}$ -gazlarning filtratsiyasi (pech tirqichlaridan gazlar-ning silqib chiqishi) natijasida yuqotiladigan issiqlik;

$Q'''_{a..m}$ -pechning ochiq ishchi tuynuklari va boshqa teshiklardan nurlanish yuli bilan yuqotiladigan issiqlik;

Q_{sov} - pechning ayrim qismlarini sovitadigan suv bilan yuqotiladigan issiqlik; Ishlov berilayotgan materialning bir birligiga (masalan, tayyor mahsulotning 1kg, ga) sarflangan yoqilg‘ining miqdorini “ b ” deb belgilasak, balans tenglamasidagi yoqilg‘i sarfiga proporsional bulgan kattaliklarni quyidagicha yozish mumkin:

$$Q^{yo_k} = b \cdot Q^i_q ; \quad Q^{h_f} = b \cdot H_h ; \quad Q^{yo_f} = b \cdot H_{yo} ;$$

$$Q_{s,g} = \sigma \cdot b \cdot H_{s,g} ; \quad Q_{ch,g} = (1-\sigma) b \cdot H_{ch,g} ; \quad (10.3)$$

bunda: σ - ishchi bushliqdan sirqib chiquvchi gazlarning ulushi;

H_H - yonishga berilgan havoning entalpiyasi; N_{yo} - yoqilg‘i entalpiyasi;

$H_{s,G}$ - sirqib chiquvchi gazlar entalpiyasi;

$H_{CH,G}$ - ishchi bushliqdan chiqb ketuvchi gazlarning

entalpiyasi. (Bu entalpiyalarning barchasi yoqilg‘i miqdorining bir birligiga nisbatan olingan).

Bu holda uzluksiz ishlaydigan pechning muvozanat tenglamasini quyidagi kurinishda yozish mumkin:

$$\begin{aligned} b[Q^I_Q + H_H + H_{YO} - \sigma H_{s,G} - (1-\sigma) H_{CH,G} - q_{K.CH.YO} - q_{M.CH.YO..}] = \\ = Q_M'' - Q_M' + Q_T + Q_{END} - Q_{EKZ} - \Delta Q_F^{T.G.} + Q_{A.M.}; \end{aligned} \quad (10.4)$$

bunda : $\Delta Q_F^{T.G.}$ - eritish vannasidan ajralib chiqqan va vannada yutilgan texnologik gazlar entalpiyalarining farqi.

Bu tenglamadan materialning bir birligiga natural yoqilg‘ining solishtirma sarfi :

$$b = \frac{[Q_M' - Q_M'' + Q_T + \Delta Q_F^{T.G.} + Q_{END} - Q_{EKZ}] + Q_{A.M.}}{Q_Q^I + J_{YO} + J_H - \sigma J_F^{T.G.} - (1-\sigma) J_{CH.G} - q_{E.CH.YO} - q_{M.CH.YO}}; \quad (10.5)$$

Marten pechida texnologik jarayon uchun beriladigan issiqlik miqdori:

$$Q_{TEXN} = Q_M'' - Q_M' + Q_T + \Delta Q_F^{T.G.} + Q_{END} - Q_{EKZ};$$

Bu kattalikni (3-5) tenglamaga kiritsak, ³¹ quyidagiga ega bulamiz:

$$b = \frac{Q_{TEXN} + Q_{A.M.}}{Q_Q^I \eta_{FOYD}};$$

bunda η_{FOYD} - yoqilg‘idan foydalanish koeffitsienti.

Pech 1 soat davomida ishlagan paytda atrof - muhitga yuqotilgan issiqlik:

$$Q_{A.M.} = \frac{Q_{soat}^{soat}}{G} = \tau \frac{Q_{a.m}^{soat}}{P} = q_{A.M.}; \quad (10.6)$$

$$G \quad P$$

bunda - τ texnologik jarayonning davomiyligi, soat ; G - pechning soatlari unumdorligi, R - pechdagisi materialning miqdori.

Uzluksiz ishlaydigan pechga yoqilg‘ining soatli sarfi:

$$V = b \cdot G, \quad \text{kg/soat}; \quad (10.7)$$

Davriy ishlaydigan pechlar uchun issiqlik muvozanati sikl uchun tuziladi va yoqilg‘ining soatli sarfi:

$$V_{O.R} = \frac{V_s}{\tau} \text{ kg/soat}; \quad (10.8)$$

bunda: τ - ishchi siklning davomiyligi, soat; V_s - sikl davomidagi yoqilg‘i sarfi, kg/sikl.

Yoqilg‘ining maksimal soatli sarfi:

$$V_{MAKS} = V_{O.R} \cdot \xi; \quad (10.9)$$

bunda : ξ - yoqilg‘i sarfining notekislik koeffitsienti.

10.2.YuHQ lardagi foydali ish koeffitsientlari

Yuqoriharoratlilikchibushlig‘ining foydaliishkoeffitsientishukameraga kiritilganissi qlikning qanday yulushifoydaliishlatilganiniko’rsatadi. U foydali ishlatilgan issiqlikni ishchi kameraga kiritilgan barcha issiqlik miqdoriga nisbatini ifodalaydi.

$$\eta_{I.K.} = \frac{Q}{Q_K^{YO} + Q_F^H + Q_F^{YO} + Q_{EKZ}} \cdot 100\% \quad (10.10)$$

Texnologik foydali ish koeffitsienti pechga kiritil-gan umumiyl issiqlikning qanday ulushi berilgan texnologik jarayon uchun ishlatalishini kursatadi. U texnologik jarayon-ning foydali issiqligini haqiqatda sarflangan issiqlik miqdori nisbatiga teng;

$$\eta_{TEXN} = \frac{Q}{Q_K^{YO} + Q_{EKZ}} \cdot 100\% \quad (10.11)$$

Foydalishkoeffitsientinibaholashpaytidaissiqlikningfoydalisarfisifatidaquyidagikat talikqabulqilinadi :

$$Q = Q_M'' - Q_M' + Q_{END} \quad (10.12)$$

Energetik foydali ish koeffitsienti butun pech qurilmasida foydalanilgan issiqlikni sarflangan issiqlikka nisbatiga teng:

$$\eta_{EN} = \frac{Q + Q_{QO'SH}}{Q_K^{YO} + Q_{EKZ}} \cdot 100\% \quad (10.13)$$

Agar qurilmaning yordamchi jihozlari kup miqdorda elektr energiyasini iste'mol qilsa, shu energiyani ishlab chiqarishga sarflanadigan issiqlik miqdori Q_{EL} ni (10.13) tenglamaga kiritish lozim:

$$\eta_{EN} = \frac{Q + Q_{QO'SH}}{Q_K^{YO} + Q_{EKZ} + Q_{EL}} \cdot 100\% \quad (10.14)$$

Pechning optimal ish holatini aniqlash paytida ishchi kamerada yoqilg‘idan foydalanish koeffitsientini bilish zarurati tug‘iladi, u quyidagicha aniqlanadi:

$$\eta_{FOYD} = \frac{Q_{ISH}^I}{Q_{ISH}^I} \cdot 100\% \quad (10.15)$$

bunda $:Q_{ISH}^I$ ishlatalishimumkinbulganissiqlik, ya'niyoqilg'iningkimyoviyissiqligibilanyonishkomponentlariningfizikissiqliklariyig'indisi.

10.3.YuHQlardagi issiqlik balansi qismlarini hisoblash

Materialni qizdirish uchun sarflanadigan issiqliknini quyidagi tenglikdan aniqlanadi:

$$\Delta Q_M = Q''_M - Q'_M = P(H'' - H') = R(S'' t'' - C' t'); \quad (10.16)$$

bunda: R - qizdirlayotgan materialning massasi, kg;

H' va H'' - materialning boshlang'ich va oxirgi entalpiyasi, kJoul/kg;
 t' va t'' - materialning boshlang'ich va oxirgi haroratlari, $^{\circ}\text{C}$;
 C' va S'' - materialning boshlang'ich va oxirgi haroratlari-dagi tegishli urtacha issiqlik sig'implari, kJoul/kg grad.

Agar material ham qizdirilib, ham eritiladigan bulsa, u holda;

$$\Delta Q_M = R(u + S'' t'' - C' t'); \quad (10.17)$$

bunda: u - erish issiqligi [pulat uchun 272, chuyan -143, mis-175, alyuminiy -377 va toshqol (shlak) uchun - 210 kJoul/kg].

Agar material tarkibida namlik bulsa, u holda qushimcha bug'lanish issiqligini - 2490 kJoul/kg - hisobga olish zarur.

Ekzotermik va endotermik reaksiyalarning issiqligi Q_{EKZ} . va Q_{END} . texnologik jarayonning material balansiga asoslangan maxsus hisoblar yordamida aniqlanadi. Atrof-muhitga yuqotiladgan issiqlik $Q_{a.-m}$ yuqorida keltirilgan tenglamalar asosida aniqlanishi mumkin.

Sovitish suvi bilan yuqotiladigan issiqlik:

$$Q_{sov} = D(t'' - t') \quad (10.18)$$

bunda: D - sovitish suvining sarfi, kg;

t' va t'' - suvning boshlang'ich va oxirgi haroratlari, $^{\circ}\text{S}$.

YOqilg'ining entalpiyasi quyidagi tenglamadan aniqlanadi;

$$H_{YO} = C_{YO} \cdot t_{YO} \quad (10.19)$$

bunda: S_{YO} - yoqilg‘ining urtacha issiqlik sig‘imi.

YOqilg‘ini yoqish uchun beriladigan havoning entalpiyasi:

$$H_H = V_H \cdot S_H \cdot t_H; \quad (10.20)$$

bunda: V_H - havo sarfi, m^3/kg yoki m^3/m^3 ; S_H - havoning urtacha issiqlik sig‘imi, t_H - havoning harorati, 0C .

Pechdan chiquvchi gazlar bilan yuqotiladigan issiqlik:

$$H_{CH.G.} = \sum V_{CH.G.} \cdot S_{CH.G.} \cdot t_{CH.G.}; \quad (10.21)$$

bunda: $V_{CH.G.}$ - pechdan chiquvchi gazlarning miqdori, m^3/kg yoki m^3/m^3 ;

$t_{CH.G.}$ - chiquvchi gazlarning harorati, 0C ;

$S_{CH.G.}$ - tutun gazlarining urtacha issiqlik sig‘imi.

Pechning zinch bulmagan joylaridan sirqib chiquvchi gazlar bilan yuqotiladigan issiqlik $Q_{S.G.}$ ham shunday usulda aniqlanadi.

Kimyoviy chala yonish natijasida yuqotiladigan issiqlik quyidagi emperik tenglamalar asosida topiladi:

1) Gaz va mazut yoqilganda:

$$q_{K.CH.YO.} = (0,005 \div 0,015) Q_Q^I \quad (10.22)$$

2) Kumir yoqilganda:

$$q_{K.CH.YO.} = (0,015 \div 0,020) Q_Q^I :$$

Agar tutun gazlarining tarkibi ma’lum bulsa, quyidagi tenglamadan foydalanish mumkin:

$$q_{K.CH.YO.} = 0,01(Q_{SO} \cdot SO + Q_{H_2} \cdot N_2 + \dots) V_{CH.G.}; \quad (10.23)$$

bunda: CO va N_2 - chiquvchi gazlar tarkibidagi uglerod oksidi, vodorod va boshqalarning miqdori, %.

Qattiq yoqilg‘ining mexanik chala yonishi natijasida yuqotiladigan issiqlik:

$$q_{M.CH.YO.} = 0,01 Q_S \cdot \Delta S; \quad (10.24)$$

bunda: ΔS - yonmay qolgan uglerodning miqdori.

Misol. Uzluksiz ishlaydigan kamerali pech uchun yoqilg‘ining soatli sarfi aniqlansin. Yoqilg‘i-mazut, pechning unumdarligi 741 kg/soat. Qizdirilayotgan

metall massasining 1,3%i metall kuyindisiga aylanadi, kimyoviy chala yonish natijasida yo‘qotilgan issiqlik yonish issiqligining 1,5%ini tashkil qiladi. CHiquvchi gazlarning harorati 1300°C. Bundan tashqari yonish uchun beriladigan havoni 400°S gacha qizdirilganda tejaladigan yoqilg‘i miqdori aniqlansin. Atrof-muhitga yuqotiladigan issiqlik 131,5 kVt deb qabul qilinsin; metallni qizdirish harorati 1250°C.

Echish. 90°C dagi mazutning entalpiyasi:

$$H_{YO} = S_{YO} t_{YO} = 2,1 \cdot 90 = 189 \text{ Joul/kg.}$$

YOnish uchun beriladigan 90°Slı havoning entalpiyasi:

$$H_H = V^0 \alpha C_{HTH} = 10,7 \cdot 1,15 \cdot 1,295 \cdot 20 = 319 \text{ kJoul/kg.}$$

Kimyoviy chala yonish natijasida yuqotilgan issiqlik:

$$q_{K.CH.YO.} = 0,015 \cdot 39,5 \cdot 10^3 = 592 \text{ kJoul/kg.}$$

Mexanik chala yonishdan yuqotilgan issiqlik $q_{M.CH.YO.} = 0$;

Pechdan chiquvchi 1300°C li gazlar bilan yuqotilgan issiqlik:

$$\begin{aligned} H_{CH.G.} &= (V_{CO_2} \cdot C_{CO_2} + V^0_{N_2} C_{N_2} + \Delta V_H C_H + V_{H.P.} \cdot S_{H.P.}) t_{CH.G.} = \\ &= (1,586 \cdot 2,30 + 8,453 \cdot 1,425 + 1,601 \cdot 1,445 + 1,47 \cdot 1,806) \cdot 1300 = \\ &= 24000 \text{ kJoul/kg} \end{aligned}$$

Yoqilg‘idan foydalanish koeffitsienti;

$$\begin{aligned} \eta_{FOYD.} &= 1 + \frac{H_{YO} + H_H}{Q_K^I} - 1 + \frac{H_{YO} + H_H}{Q_K^{YO} + Q_F^H + Q_F^{YO} + Q_{EKZ}} = 1 + \\ &\frac{89 + 319}{39,5 \cdot 10^3} \cdot -1 + \frac{592 + 24 \cdot 10^3}{39,5 \cdot 10^3} = 0,391 \end{aligned}$$

Metall kuyganda ajralib chiqadigan issiqlik;

$$Q_{EKZ} \approx 5660 \cdot u / 100 = 5660 \cdot 1,3 / 100 = 73,4 \text{ kJoul/kg.}$$

Texnologik jarayonga sarflangan issiqlik:

$$\begin{aligned} Q_{TEXN.} &= (Q_M'' - Q_M') + (Q_T + Q_{T,G.}^K + Q_{EKZ.}) - Q_{EKZ} = 838 + 0 - 73,4 = 764,6 \\ &\text{kJoul/kg.} \end{aligned}$$

bunda: 838 kJoul/kg - metall qizdirilganda entalpiyasining usishi, tegishli jadvaldan olindi. (A-4)

Atrof-muhitga yuqotilgan issiqlik (1 kg metallga):

$$Q_{A.M.} = \frac{131,5 \cdot 3600}{741} = 640 \cdot kj/kg$$

Mazutning solishtirma sarfi:

$$b = \frac{Q_{TEXN} + Q_{A.M.}}{Q_Q^I \cdot \eta_{FOYD}} = \frac{764,6 + 640}{39,5 \cdot 10^3 \cdot 0,391} = 0,091 \cdot kg/kg$$

Shartli yoqilg‘ining solishtirma sarfi:

$$b_{SH} = \frac{b Q_Q^I}{29,33 \cdot 10^3} = \frac{0,091 \cdot 39,5 \cdot 10^3}{29,33 \cdot 10^3} = 0,122 kg/kg$$

Mazutning soatli sarfi:

$$V = qb = 141 \cdot 0,091 = 67,6 \text{ kg/soat}$$

Havo rekuperatorda 400°C gacha qizdiriladi, uning entalpiysi 6570 kJoul/kg ga teng , bu holda:

$$\eta_{FOYD} = 1 + \frac{189 + 6570}{39,5 \cdot 10^3} = \frac{592 + 0 + 24 \cdot 10^3}{39,5 \cdot 10^3} = 0,539 kg/kg$$

Yoqilg‘ining solishtirma sarfi:

³¹

$$b = \frac{764,6 + 640}{39,5 \cdot 10^3} = 0,062 kg/kg$$

10.1- jadval

Texnologikjara-yoningturi	pechturi	Materialni qiz-dirish harorati, ⁰ C	SHartli yoqilg‘ining solishtir-masarfi,t/t
Temir rudalari-dan chuyan eritish	domna	—	06, - 0,8
	marten	1500-1600	0,15 - 0,30
Pulat eritish	qizdiruv	1250	0,03 - 0,05
Pulatga shakl be-rish	chi metodik kamerali	1250 1150-1250	0,06 - 0,10 0,16 - 0,25
Pulatni chig‘irlash		950 - 1100	0,13 - 0,22
Pulatga issiqlik ishlovi berish	metodik	800 - 925	0,06
normalizatsiya toplash	metodik Vagrana	1300 - 1400	0,08 - 0,12
CHuyan eritish	kamerali	—	0,11 - 0,13
Bronza va jezni eritish	aylanuv	1430	0,15 - 0,24
Sement klinkerini toplash (pishirish)	chi	1250-1350	0,20 - 0,30
SHamotli utga chi-damli materiallar-	tunelli	800-900	31 0,043

ni pishirish Qizil g‘ishtni pi- shirish	tunelli		
---	---------	--	--

Yoqilg‘iningsoatlisarfi:

$$V = 0,0662 \cdot 741 = 49,0 \text{ kg/soat.}$$

Tejalganyoqilg‘i:

$$\Delta V = \frac{67,6 - 49,0}{67,6} \cdot 100 = 27,5\%$$

Bundan tashqari, rekuperatorning urnatilishi qurilma-ning unumdarligini ham oshiradi.

10.4. Yoqilg‘ining solishtirshma sarfi va uni kamaytirish usullari

Yoqilg‘idanfoydalanishdarajasinibaholashpaytidatayyormahsulotningharbirtonnasi
gasarflanganshartliyoqilg‘i (yonishissiqligi-29330
kJoul/kg)niifodalovchisolishtirmabirliklardanfoydalaniladi.

Bir tonna material yoki buyum uchun yoqilg‘ining hisobiy solishtirma sarfi:

$$b_{SH} = \frac{bQ_Q^I}{29330}, t/t \quad (10.25)$$

bunda: b- natural yoqilg‘ining solishtirma sarfi, t/t.

Ba’zi texnologik jarayonlar uchun shartli yoqilg‘ining solishtirma sarflari

Bir tonna tayyor mahsulot uchun shartli yoqilg‘ining solishtirma sarfi:

31

$$b_{SH} = \frac{bQ_Q^I \cdot K_2}{29330 \cdot K_1}, t/t \quad (10.26)$$

bunda: $K_1 < 1$ - tayyor mahsulot chiqishini ifodalovchi koeffitsient;

$K_2 > 1$ - takroriy qizdirishlarni, pechning salt yurishini va boshqalarni hisobga oluvchi koeffitsient.

Bu koeffitsientlar hisoblab topiladi.

Shartli yoqilg‘ining solishtirma sarfi bilan texnologik foydali ish koeffitsienti urtasida quyidagi bog‘liqlik mavjud:

$$b_{SH} = \frac{Q}{29330 \cdot \eta_{TEXN}}, t/t \quad (10.27)$$

yoki

$$\eta_{TEXN} = \frac{Q}{29,33 \cdot b_{SH}} \quad (10.28)$$

bunda: b_{SH} - shartli yoqilg‘ining solishtirma sarfi, t/t;

η_{TEXN} - texnologik FIK;

Q_{TEXN} - 1 tonna mahsulotga texnologik ishlov berish uchun foydali sarflangan issiqlik;

29,33 GJoul-1 tonna shartli yoqilg‘ining yonish issiqligi.

Yuqorida keltirilgan (10.28) tenglamaga asosan bir tonna pulatni 1200°C gacha qizdirish uchun issiqlikning foydali sarfi: $Q = 0,838 \text{ GJoul/t}$.

Demak, bu jarayonning texnologik foydali ish koeffitsienti:

$$\eta_{TEXN} = \frac{0,838}{29,33(0,25 \div 0,16)} = 0,11 \div 0,18$$

Yuqoridakeltirilganpechlarningissiqlikbalanslarinivaularningayrimqismlarinikuribc
hiqishnatijasidayoqilg‘isarfinikamaytirishbuyichaqandaychora-
tadbirlarkurishlozimligihalqilinadi.

Bujihatdanpechningishchibushlig‘idanchiqibketuvchigazlarbilanyuqotiladiganissiqlik
liknikamaytirishjudamuhimdir.Ularodatdapechgasarflanadiganissiqlikning
30÷60% initashkilqiladi.Buyuqotilishlarnikamaytirishchuchungazlarningissiqligidank
uproqfoydanishgavachiqibketuvchigazlarningmiqdorinikamaytirishgaintilishlozi
m
(pechgatashqaridanhavosurilishinibartarafqilish,

havoningquyortiqligidayoqilg‘iniyoqishvahokazo). Gazlarning issiqligidan tularoq foydalanish uchun pechning ishchi bushlig‘idagi issiqlik almashuvini jadallashtirish lozim. Bu haqda 2-bobda batafsil suz yuritilgan.

Pechdan chiqib ketuvchi gazlarning issiqligidan foydalanish uchun yonishga beriladigan havoni va gazli yoqilg‘ini regenerativ moslamalarda qizdirish lozim. Agar bu issiqlik nisbatan kup bulsa, undan qozon-utilizatorlarda foydalanish mumkin. Yonish komponentlarining haroratini oshirish, alangani vanna buylab berish yoqilg‘i sarfini kamaytiradi va pechning unumdorligini oshiradi. O‘tga chidamli materiallarni toplashda qullaniladigan davriy ishlovchi kamerali pechlarni uzluksiz ishlaydigan tunelli pechlar bilan almashtirish pech qoplamasini davriy qizdirishga sarflanadigan issiqlik Q_{QOPL} ni va chiqib ketuvchi gazlar bilan yuqotiladigan issiqlik $Q_{CH.G}$ ni kamaytiradi. Bu paytda yoqilg‘ining sarfi 2-3 marta qisqaradi.

Yuqori haroratlari pechlarda tutun gazlarining retsirkulyasiyasi katta samara berishi mumkin.

Yoqilg‘ining kimyoviy va mexanik chala yonishi bilan bog‘liq bulgan yuqotilishlar ($Q_{K.CH.YO} + Q_{M.CH.YO}$)ni yonish jarayonini tug‘ri tashkil qilish yuli bilan, ya’ni yoqish moslamalari konstruksiyalarini yaxshilash va ularni tug‘ri ishlatish bilan kamaytirish mumkin.

Atrof-muhitga yuqotiladigan issiqlik $Q_{A.M}$ ga va pechning ichki qoplamasini qizdirishga ketadigan issiqlik Q_{QOPL} ga katta ahamiyat berish lozim. Bu yuqotilishlar umumiyligi sarfining salmoqli ulushini tashkil qiladi, masalan, $Q_{A.M}$ marten va shisha eritish pechlarida umumiyligi issiqliknинг 30% iga teng va Q_{QOPL} esa davriy ishlaydigan pechlarda, masalan, sopol buyumlarni pishirish pechlarida, 30% dan ham ortadi. Atrof-muhitga yuqotiladigan issiqlikni kamaytirish uchun pechning qubbasi va pastki qismi issiqlik o‘tkaz³¹maydigan materiallardan, birinchi galadadiatomitli g‘ishtlardan ishlanadi, ularning issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsienti oddiy g‘ishtnikiga nisbatan 3-5 marta kamdir.

Pech devorining qoplamasini kup qatlamlari qilib bajariladi - ichki qatlami utga chidamli g‘ishtdan, urta qatlami-diatomitli g‘ishtdan va tashqi qatlami-qizil g‘ishtdan ishlanadi.

SHuni ta’kidlash lozimki, sanoat pechlarining ko‘pchiligi past foydali ish koeffitsientiga ega - ularning amaldagi qiymatlari 6-30% ga teng. Nazariy jihatdan esa juda yuqori F.I.K larga erishish mumkin. Bu sohada erishilgan bilimlar darajasi 75% va undan yuqori F.I.K. li pechlarni qurish imkonini beradi.

Ma’lumki, sanoat pechlari va shu kabi yuqori haroratli qurilmalar juda ko‘p miqdorda yuqori sifatli yoqilg‘ilarni iste’mol qiladi, shu sababli ularning tejamkorligini oshirish katta iqtisodiy ahamiyatga ega.

10.5.Metallurgiya zavodining issiqlik balansi (muvozanati)

Metallurgiya zavodi domna, marten, metallni chig‘irlab yoyish, energetik va yordamchi sexlardan iborat. Odatda koks ishlab chiqaradigan korxonalar metallurgiya zavodiga yaqin masofada joylashgan buladi. Bunday yaqinlik metallurgiya zavodining marten va qizdirish pechlariga koks gazini etkazib berishni osonlashtiradi. Agar metallurgiya zavodiga beriladigan yoqilg‘ining barcha kimyoviy energiyasini 100% deb qabul qilsak, uning 75,9% i kokslash uchun keltirilgan kumirda mujassamlangan buladi. Koksning yirik qismi domna sexiga beriladi va mayda qismi esa aglomeratsiya uchun va elektr stansianing qozonlarida yoqish uchun ishlatiladi. Koks zavodi kumirdan tashqari yana quyidagilarni oladi: domna gazini (10,2%), bug‘ni (3,3%), va elektr energiyasini (0,96%). Koksning kimyoviy issiqligi zavod ishlatgan isiqlikning 47,7% ini, koks gazining kimyoviy issiqligi 16,1% ini va koks maydasining³¹kimyoviy issiqligi 12,2% ini tashkil qiladi. Yuqotilgan issiqlik 14,5% ga va koks zavodining foydali ish koeffitsenti 84% ga teng.

Domna sexining issiqlik balansi kurib chiqilganda quyidagilarga e’tibor berish lozim: domna pechiga yuklanadigan koksning kimyoviy bog‘langan issiqligi

43,92% ni tashkil qiladi; chetga chiqarilgan koks kukunlari 3,78%, havoni qizdirish uchun kauperlarda yondiriladigan domna gazi 3,54% ; domnalarga yonish uchun beriladigan havoni uzatishga sarflanadigan birlamchi yoqilg‘i 5,38% ; elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun sarflanadigan yoqilg‘i zavodga berilgan hamma yoqilg‘ining 0,36 % ini va bug‘ olish uchun esa - 0,84% ini tashkil qiladi. Zavodga berilgan issiqlikning umumiy miqdori 57,82% ga teng. CHuyanni eritish paytidagi kimyoviy reaksiyalarning yig‘indi issiqligi 15,7% ni, domna gazining kimyoviy bog‘langan issiqligi 27,1% ni, marten pechlarida foydalaniladigan chuyanning fizik issiqligi 3,53% ni tashkil qiladi.

Foydali sarflanadigan issiqlik quyidagilardan tarkib topadi: domna jarayoniga sarflangan issiqlik (kimyoviy reaksiyalarning issiqligi) - 15,7%, domna gazining kimyoviy bog‘langan issiqligi - 27,1%, koks kukunining yonish issiqligi-3,78%, marten pechida foydalaniladigan chuyanning fizik issiqligi - 3,53%. Demak, foydali sarflangan issiqlik zavodga berilgan umumiy issiqlikning 50,11% ini tashkil qiladi. SHuning uchun sexning foydali ish koeffitsienti $(50,11/57,82) \cdot 100 = 86,8\%$ ga teng. Foydali ish koeffitsientini yanada oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim: a) domna pechlarida bug‘lanishli sovitish usulini qullash, hosil bulgan bug‘dan texnologik va energetik maqsadlarda foydalanish ; b) toshqol (shlak) ning fizik issiqligidan foydalanish ;
v) yonish uchun beriladigan havoning namligini oshirish va uni kislorod bilan boyitish va hokazo.

Marten sexiga koks va domna gazlari beriladi, ularning issiqligi zavodga beriladigan barcha yoqilg‘i issiqligining tegishlicha 10,44% va 3,53% ini tashkil qiladi. Pechlarga quyiladigan suyuq chuyanning issiqligi 3,53% ga teng. Sex iste’mol qiladigan elektr energiyasini va alohida bug‘ni ishlab chiqarish uchun sarflanadigan yoqilg‘ining kimyoviy bog‘langan issiqligi tegishlicha 0,56% va 0,42%ni tashkil qiladi. Marten sexining foydali ish koeffitsienti: $(4,51/18,48) \cdot 100 = 24,4\%$. Bu juda past kursatkich hisoblanadi. Pechlarda bug‘lanishli sovitish usulini qullash, gazlarning issiqligidan qozon-utilizatorlarda foydalanish, pechdagagi issiqlik almashuvi jarayonlarini jadallashtirish hisobiga

marten pechlarining foydali ish koeffitsientini 50-65% gacha, ya’ni 2 va undan kup marta oshirish mumkin.

Metallni chig‘irlab yoyish (prokat) sexining issiqlik balansi tahlil qilinganda shuni kurish mumkinki, metallni qizdirishga sarflangan issiqlik zavodga berilgan umumiyligi 2,53% ini tashkil qiladi, shu paytda sexga kiritilgan issiqlik esa 15,4% ga teng. SHunday qilib, chig‘irlab yoyish sexining foydali ish koeffitsienti $(2,53/15,4) \cdot 100 = 16,4\%$, ya’ni juda kichik. Uni oshirish uchun chiqib ketuvchi gazlarning issiqligini regeneratsiya qilish darajasini kutarish, issiqlik yuqotilishlarini va shuningdek, elektr energiyasining solishtirma sarfini kamaytirish lozim.

Zavodning energetik qurilmalarida yoqilg‘i umumiyligi miqdorining 24,1% i sarflanadi. Undan tashqari domna gazining ortiqcha qismi ham yoqiladi.. Energetika sexiga beriladigan yoqilg‘ining kup qismi elektr energiyasini ishlab chiqarishga sarflanadi (zavoddagi yoqilg‘ining 16,5% i) undan tashqari bug‘ ishlab chiqarishga (6,58%) va domna pechlariga beriladigan havo bosimini oshirishga (5,38%) sarflanadi.

Bayon etilgan issiqlik balansi ***berk balans*** hisoblanadi: kauperlar (havo qizdirgichlari) va koks batareyalari domna gazida ishlaydi, marten hamda qizdirish pechlari esa koks va domna gazlarining aralashmasida ishlaydi. Qattiq yoqilg‘i quyidagicha sarflanadi: kumir - energetik sexlarda -IEMda va havoni bosim bilan haydash stansiyasida; koks esa - domna pechlarida. Kislород qullanilganda eritish davomiyligi 4-5 soatgacha tushirilishi mumkin. Koks gazining solishtirma sarfi 3,15 GJoul/t ni tashkil qiladi (kislород qullanilmaganda -3,75GJoul/t). Kislородning sarfi $34m^3/t$. ga teng. Marten pechlari koks gazida ishlaydi; domna gazi asosan IEM da va qizdirish pechlarida ishlatiladi. Koks gazi issiqligi (3,15GJoul/t)ning 34% i, ya’ni 1,08GJoul/t. qozon-utilizator-larda foydalilanadi. Ishlab chiqarilgan bug‘ kislород stansiyasi-

ni va chig‘irlash dastgohlarini yuritish³¹ uchun elektr energiyasini hosil qilishga sarflanadi.

Agar erigan chuyanga qushiladigan metallurgiya chiqindilarining miqdori 1/3 nisbatdan ortmasa, bunday kislород konverterlariga yoqilg‘i sarflanmaydi. Bu paytda kislородning sarfi 47- 49m³/t. ni tashkil qiladi.

Yuqorida keltirilgan issiqlik balanslari davriy ishlaydigan korxonalar uchun taalluqlidir. Pulatni uzluksiz quyishiga utilganda zavodning issiqlik balansi sezilarli darajada uzgaradi. Masalan, metall quymalarini qayta qizdirishga xojat qolmaydi va hokazo. Buning natijasida elektr energiyasi va issiqlikning sarfi sezilarli kamayadi. Bunday tashqari tayyor mahsulotning chiqishi taxminan 12% ga ortadi.

10.6.Ayrim sanoat korxonalarinnig issiqlik balansi

Og‘ir mashinasozlik korxonalarida mazut yoki tabiiy gazda ishlovchi marten pechlari urnatiladi. Og‘ir mashinasozlik zavodining issiqlik balansi 3.4-rasmda keltirilgan. Bu zavodning pulat quyish sexi marten pechlari bilan va chuyan quyish sexi esa-vagraklar bilan jihozlangan.

Silikatlar ishlab chiqaradigan zavodning issiqlik balansi nisbatan soddaroq buladi. Bunday zavodning pechlari tabiiy gazda, mazutda yoki kumir.

kukunida ishlaydi. Qattiq yoqilg‘i shaxtali pechlarda va qatlamlı utxonasi bulgan kamerali pechlarda qullaniladi. Chiqib ketuvchi gazlardan va toblab pishirilgan tayyor mahsulotni sovituvchi havodan turli material va buyumlarni quritish uchun foydalanish imkoniyatining mavjudligi silikat zavodlarining uziga xos xususiyati hisoblanadi.

YAna bir misol sifatida neftni qayta ishlash zavodining issiqlik muvozanatini keltiramiz. Bu zavod quvurli pechlар bilan jihozlangan, ularda neftning krekingi va pirolizi amalga oshiriladi Bunday usulda hosil qilingan va qayta ishlangan mahsulotlar is

siqlikalmashirgichigaberiladivaulardamotoryoqilg‘ilari, moyvashuningdek, mazut, krekinggazi, pirolizgazivaboshqalarolinadi.

Neftni qayta ishlash zavodining issiqlik³¹

(yoqilg‘i-energetik) balansi.

I.Kiritilgan issiqlik, % :

- a) YOqilg‘ining yonish issiqligi 55,8
- b) Zavodga beriladigan bug‘ va issiq suvning issiqligi ..36,8

v) Iste'mol qilingan elektr energiyasiga ekvivalent
issiqlik 7,4

Jami-100,0

II. Sarflangan issiqlik, %:

a) Issiqlik yuqotilishlari 86,0
shu jumladan: sovitish suvi bilan 54,1
chiquvchi gazlar bilan 16,5
atrof- muhitga 8,0
yoqgich bug'i bilan 0,21
issiqlikni uzatish paytida 2,3
elektr energiyasini uzatish paytida . 0,1
kondensatni qaytarmaslik sababli .. 2,4
boshqa issiqlik yuqotilishlari ... 2,39
b) Foydali ishlatilgan issiqlik 14,0
shu jumladan: elektr yuritgichlarga va yoritishga . 7,3
umumzavod xujaligiga 3,9
tayyor mahsulot issiqligi 1,4
qaytarilgan kondensat issiqligi 1,4

Jami: 100,0

Sovitish suvi va chiquvchi gazlar bilan yuqotiladigan issiqlik asosiy yuqotilishlar hisoblanadi. Pechdan chiquvchi gazlarning issiqligi odatda qozon-utilizatorlarda bug' ishlab chiqarish uchun foydalilanildi.

1-masala. Mis eritish pechiga sovuq havo va alohida issiq havo berilgan paytdagi ish holatlari uchun uning unumdarligi aniqlansin. Havo avtonom qizdirgichda 800°C gacha isitiladi. Yoqilg'i - mazut.

Havoning ortiqlik koeffitsienti $\alpha = 1,1$. Ishchi bo'shlig'ining o'lchamlari: vannaning umumiyligi $L' = 32$ m. Eritish zonasining uzunligi $L = 26$ m; shipning kengligi $B=7,5$ m; gaz katlamining balandligi $h = 1,5$ m; eritish vannasining yuzasi $F_0 \cong H_{\text{NUR}} = 7,5 \cdot 26 = 195 \text{ m}^2$. Mazutning tarkibi: $C^i = 83,4\%$; $H^i = 10\%$; $S^i_A = 2,9\%$; $O^i + N^i = 0,4$; $W^i = 3,0\%$; $A^i = 0,3\%$. Quyi yonish issiqligi $Q^i_K = 38,4 \text{ MJoul/kg}$.

quruq havoning nazariy kerakli miqdori:

$$V^0 = 0,0889(C^i + 0,375 S^i_A) + 0,265H^i - 0,0333 \cdot O^i = 0,0889 \cdot (83,4 + 0,375 \cdot 2,9) + 0,265 \cdot 10,0 - 0,0333 \cdot 0,2 = 10,15 \text{ m}^3/\text{kg}$$

Azotning nazariy miqdori:

$$V^0_{\text{N}_2} = 0,79 \cdot V^0 + 0,8 N^i / 100 = 0,79 \cdot 10,15 + 0,8 \cdot 0,2 / 100 = 8,02 \text{ m}^3/\text{kg}$$

Quruq uch atomli gazlarning miqdori

$$V_{\text{RO}_2} = 0,01866(C^i + 0,37S^i) = 0,01866(83,4 + 0,37 \cdot 2,9) = 1,58 \text{ m}^3/\text{kg}$$

Suv bug'larining nazariy miqdori

$$V^0_{\text{H}_2\text{O}} = 0,111H^i + 0,0124W^i + 0,0161 \cdot V^0 = 0,111 \cdot 10,0 + 0,0124 \cdot 3,0 + 0,0161 \cdot 10,15 = 1,32 \text{ m}^3/\text{kg}$$

Suv bug'larining miqdori :

$$V_{\text{H}_2\text{O}} = V^0_{\text{H}_2\text{O}} + 0,0161(\alpha - 1)V^0 = 1,32 + 0,0161 \cdot 0,1 \cdot 10,15 = 1,336 \text{ m}^3/\text{kg}$$

Tutun gazlarining miqdori

$$V_{\Gamma} = V_{\text{RO}_2} + V_{\text{N}_2} + V_{\text{H}_2\text{O}} + (\alpha - 1)V^0 = 1,58 + 8,02 + 1,32 + 0,1 \cdot 10,15 = 11,94 \text{ m}^3/\text{kg}$$

Gazlarning atmosfera bosimiga nisbatan ulushlarda olingan partsial bosimlari:

$$P_{\text{RO}_2} = P \cdot r_{\text{RO}_2} = P \cdot V_{\text{RO}_2} / V_g = 1 \cdot 1,58 / 11,94 = 0,132;$$

$$P_{\text{H}_2\text{O}} = P \cdot r_{\text{H}_2\text{O}} = P \cdot V_{\text{H}_2\text{O}} / V_g = 1 \cdot 1,336 / 11,94 = 0,112.$$

Yoqilg'ini yokish uchun pechga beriladigan sovuq havoning harorati $t_h = 20^{\circ}\text{C}$, solishtirma issiqlik sig'imi $C_h = 1,3 \text{ kjoul/m}^3 \cdot \text{grad}$.

Sovuq havoning entalpiyasi: $H_h = \alpha V^0 C_h t_h = 1,1 \cdot 10,15 \cdot 1,3 \cdot 20 = 290 \text{ kj/kg}$.

Mazut yoqishdan oldin $t_{yo} = 90^0C$ gacha isitiladi.

Mazutning issiqlik sig'imi: $C_{yo} = 1,74 + 0,00251 \cdot T_{yo} = 1,74 + 0,00251 \cdot 90 = 1,966 \text{ kJ/kg}$ grad;

mazutning entalpiyasi: $H_{yo} = C_{yo} t_{yo} = 1,966 \cdot 90 = 177 \text{ kJoul/kg}$.

Sovuq havo ishlatilganda yonishning kalorimetrik haroratini $t_K = 2050^0C$ ga teng deb qabul qilamiz va shu haroratdagi tegishli issiqlik sig'imirini olamiz:

$C_{CO_2} = 2,43 \text{ kJoul/m}^3$ grad; $C_{N_2} = 1,49 \text{ kJoul/m}^3$ grad;

$C_{H_2O} = 1,975 \text{ kJoul/m}^3$ grad; $C_x = 1,505 \text{ kJoul/m}^3$ grad

Havoning harorati $t_h = 20^0C$ bo'lgandagi kalorimetrik harorat:

$$t_K = \frac{Q^i + H_K + H_{yo}}{V_{RO_2} C_{CO_2} + V^o_{N_2} + C_{N_2} + V^0_{H_2O} C_{H_2O} + (\alpha - 1)V^o C_K} = \\ = \frac{38,4 \cdot 10^3 + 290 + 177}{1,58 \cdot 243 + 8,02 \cdot 1,49 + 1,366 \cdot 1975 + 0,1 \cdot 10,15 \cdot 1,505} = 2050^0C$$

Pechda issiq havo ishlatilganda bu havoning harorati

$t_K = 800^0C$ га тенг. Havoning solishtirma issiqlik sig'imi: $C_h = 1,385 \text{ kJoul/m}^3$.град;

Issiq havoning entalpiyasi

$H_h = 1,1 \cdot 10,15 \cdot 1,385 \cdot 800 = 12400 \text{ kJoul/kg}$.

Issiq havo ishlatilganda yonishning kalorimetrik haroratini $t_K = 2560^0C$ ga teng deb qabul qilamiz va tegishli issiqlik sig'imirini olamiz; $C_{CO_2} = 2,50 \text{ kJoul/m}^3$.grad; $C_{N_2} = 1,52 \text{ kJoul/m}^3$.grad; $C_{H_2O} = 2,08 \text{ kJoul/m}^3$.град; $C_K = 1,535 \text{ kJoul/m}^3$.grad.

Havoning harorati $t_h = 800^0C$ bo'lgandagi kalorimetrik harorat:

$$t_h = \frac{38,4 \cdot 10^3 + 12400 + 177}{1,58 \cdot 2,50 + 8,02 \cdot 1,52 + 1,366 \cdot 2,08 + 0,1 \cdot 10,15 \cdot 1,535} = 2560^0C$$

Bu harorat nazariy harorat t_h dan juda kam farq qiladi.

Pechdan chiqib ketuvchi gazlarning harorati $t_{ch,k} = 1260^{\circ}\text{C}$. Pechdagি materialning harorati $t_M = 1250^{\circ}\text{C}$. Sovuq havo ishlatilgandagi gazlarning o'lchamsiz harorati.

$$\theta_{CH,G} = \frac{t_{CH,G} + 273}{t_{YO} + 273} = \frac{1260 + 273}{2050 + 273} = 0,66$$

Qizdirilayotgan yuzaning o'lchamsiz harorati;

$$\theta_M = \frac{t_M + 273}{t_{YO} + 273} = \frac{1260 + 273}{2050 + 273} = 0,655$$

To'rtinchi darajali o'lchamsiz haroratlar farqining o'rtacha qiymati:

$$\Delta_{2o,R} = 0,774\theta_{CH,G}^2 - \theta_M^4 = 0,774 \cdot 0,66^2 - 0,655^2 = 0,154.$$

Qizdirilayotgan materialning qoralik darajasi $\varepsilon_M = 07$.

Pech bo'shlig'inining keltirilgan qoralik darajasi

$$\varepsilon_K = 0,6$$

Nurlanuvchi yuza ifloslanishining shartli koeffitsienti

$$\xi = 062.$$

U holda pechning issiqqliq quvvati:

$$\begin{aligned} \theta_{quv} &= C_0 \varepsilon_M \varepsilon_K H_L \xi^4 \Delta_{2o,r} = 5,67 \cdot 0,7 \cdot 0,6 \cdot 195 \cdot 0,62^4 = \\ &= \frac{2050 + 273}{100} = 13,6 \cdot 10^6 Vt = 13,6 \cdot 10^3 kVt. \end{aligned}$$

Pechning nazariy unumdarligi:

$$G_{quv} = \frac{Q_{quv}}{q_{Sh}} = \frac{1,36 \cdot 10^3}{1,55 \cdot 10^3} = 8,77 \text{ kg / sek}$$

Bunda: $q_{sh} = 1,55 \cdot 10^3 \text{ kJoul/kg}$ - pechda 1 kg shixtani eritish va qizdirish uchun issiqlikning solishtirma sarfi.

Pechga isitilgan havo berilganda uning o'lchamsiz parametrlari quyidagicha bo'ladi:

$$\theta_{CH,G} = \frac{1260 + 273}{2560 + 273} = 0,542; \quad \theta_M = \frac{1260 + 273}{2560 + 273} = 0,538.$$

To'rtinchi darjali o'lchamsiz haroratlar farqining o'rtacha qiymati:

$$\Delta_{2o,R} = 0,774\theta_{CH,G}^2 - \theta_M^4 = 0,774 \cdot 0,542^2 - 0,538^4 = 0,143.$$

Pechga isitilgan havo berilganda uning issiqqlik quvvati:

$$Q_{IS} = 5,67 \cdot 0,7 \cdot 0,6 \cdot 195 \cdot 0,62 \cdot \left(\frac{2560 + 273}{100} \right)^4 = 26,4 \cdot 10^6 Vt = 26,4 MVt.$$

Pechga issiq havo berilganda uning nazariy unumdarligi:

$$G_{IS} = \frac{26,6 \cdot 10^3}{1,55 \cdot 10^3} = 17 \text{ kg / sek}$$

Sovuq va isitilgan havo berilgan paytda pech tagining har 1m^2 yuzasidan olinadigan mahsulot miqdori tegishlicha quyidagilarga teng bo'ladi:

$$q_{quv} = \frac{24 \cdot 3600 G_{quv}}{1000 \cdot Fo} = \frac{24 \cdot 3600 \cdot 8,77}{1000 \cdot 195} = 3,9 t / \text{sutka}$$

$$q_{IS} = \frac{24 \cdot 3600 \cdot 17,0}{1000 \cdot 195} = 7,92 t / \text{sutka}$$

Hisoblash natijalari shuni ko'rsatadiki, pechga issiq havo berilganda uning unumdarligi keskin ortadi.

2 – masala. 1kg slanes to'la yonganda hosil bo'ladigan yonish mahsulotlarining massasi va ulardagi kulning kontsentrasiyasi aniqlansin. Slanesning tarkibi: Cⁱ=20,6%; Hⁱ=2,7%; Sⁱ=1,7%; Nⁱ=0,1%; O₂ⁱ=2,8%; Aⁱ=46,0; Wⁱ=11,5%; CO₂ⁱ=16,4%, yonish maqsulotlari tomonidan olib ketiladigan kulning ulushi $\alpha_{O.K.}=0,95$. O'txonadagi havoning ortiqlik koeffitsienti $\alpha_{or}=1,3$.

Yechish. Yoqilgidagi kulning miqdori(parchalanmagan karbonatlarni hisobga olganda): Aⁱ_K=Aⁱ+ (1-K) CO₂ⁱ=46,0+(1-0,7) 16,4=50,9%.1 kg yoqilg'ini to'la yonishi uchun lozim bo'lgan havoning nazariy hajmi: V⁰=0,089Cⁱ+0,266Hⁱ+0,33(S^P-Oⁱ)=0,089·20,6+0,266·2,7+0,033(1,7-2,8)=2,52m³/kg. Yonish mahsulotlarining massasi:

$$M_g = 1 - 0,01 A_K^i + 1,306 \alpha_{O.K.} \cdot V^0 + 0,01 \cdot CO_2^i \cdot K = 1 - 0,01 \cdot 50,9 + 1,306 \cdot 1,3 \cdot 2,52 + 0,01 \cdot 1,64 \cdot 0,7 = 4,9 \text{ kg/kg.}$$

Tutun gazlaridagi kulning kontsentrasiyasi:

$$\mu_K = \frac{A^i \alpha_{O.K.}}{M_G} = \frac{46 \cdot 0,95}{4,9 \cdot 100} = 0,0892$$

3- masala. Pech o'txonacida tabiiy gaz yoqiladi, uning tarkibi quyidagicha: $\text{CO}_2 = 0,2\%$, $\text{CH}_4 = 98,2\%$, $\text{C}_2\text{H}_6 = 0,4\%$, $\text{C}_3\text{H}_8 = 0,1\%$, $\text{C}_4\text{H}_{10} = 0,1\%$, $\text{N}_2 = 1,0\%$. O'txonadagi havoning ortiqlik koeffitsienti $\alpha_{\text{O}_2} = 1,2$. To'la yonish mahsulotlarining o'txonadan chiqish joyidagi hajmi, shuningdek 1 m^3 tabiiy gazning yonishi uchun zarur bo'lган havoning nazariy va haqiqiy hajmlari aniqlansin.

Yechish: 1 m^3 yoqilg'ining to'la yonishi uchun zarur bo'lган havoning nazariy hajmi:

$$V^0 = 0,0478 [0,5 \text{ CO} + 0,5 \text{ H}_2 + 1,5 \text{ H}_2\text{S} + 2 \text{ CH}_4 + \Sigma(m+n/4) \text{ C}_m\text{H}_n - \text{O}_2] = 0,0478 (2 \cdot 98,2 + 3,5 \cdot 0,4 + 5 \cdot 0,1 + 6,5 \cdot 0,1) = 9,51 \text{ m}^3/\text{m}^3.$$

$\alpha_{\text{O}_2} = 1,2$ bo'lган paytda quruq gazlarning hajmi:

$$\begin{aligned} V_{\text{к.Г.}} &= V_{\text{RO}_2} + V^0_{\text{N}_2} + (\alpha_{\text{O}_2} - 1)V^0 = 0,01(\text{CO}_2 + \text{CO} + \text{H}_2\text{S} + \text{CH}_4 + 2\text{C}_2\text{H}_6 + \\ &+ 3\text{C}_3\text{H}_8 + 4\text{C}_4\text{H}_{10}) + 0,79V^0 + \text{N}_2/100 + (\alpha_{\text{O}_2} - 1)V^0 = 0,01(0,2 + 98,2 + \\ &+ 2 \cdot 0,4 + 3 \cdot 0,1 + 4 \cdot 0,1) + 0,79 \cdot 9,51 + 1,0/100 + (1,2 - 1) 9,51 = 10,42 \text{ m}^3/\text{m}^3. \end{aligned}$$

Suv bug'larining hajmi ($\alpha_{\text{O}_2} = 1,2$ да):

$$V_{\text{H}_2\text{O}} = 0,01(\text{H}_2\text{S} + \text{H}_2 + 2\text{CH}_4 + 3\text{C}_2\text{H}_6 + 4\text{C}_3\text{H}_8 + 5\text{C}_4\text{H}_{10} + 0,124d_r) + 0,0161 \cdot 1,2 \cdot 9,51 = 2,17 \text{ m}^3/\text{m}^3.$$

To'la yonish mahsulotlarining hajmi:

$$V_g = V_{\text{l.g.}} + V_{\text{H}_2\text{O}} = 10,42 + 2,17 = 12,59 \text{ m}^3/\text{m}^3.$$

MUSTAQIL YECHISH UCHUN MASALALAR

1– masala. 1 kg ko'mir to'la yonganda hosil bo'ladian gazlar massasi va ulardag'i kulning kontsentrasiyasi aniqlansin. Ko'mir tarkibi: $C^i = 54,7\%$; $H^i = 3,3\%$; $S^i = 0,8\%$; $N^i = 0,8\%$; $O^i = 4,8\%$; $A^i = 27,6\%$; $W^i = 8,0\%$; $a_{\text{O.K.}} = 0,85$,
 $\alpha_{\text{O}_2} = 1,3$.

Javob: $M_g = 9,25 \text{ kg/kg}$; $\mu_K = 0,0253$.

2–masala. 1 m^3 tabiiy gaz to'la yoqilganda hosil bo'ladian yonish mahsulotlarining massasi aniqlansin. Tabiiy gazning tarkibi

$\text{CO}_2 = 0,2\%$; $\text{CH}_4 = 98,2\%$; $\text{C}_2\text{H}_6 = 0,4\%$;

$\text{C}_3\text{H}_8 = 0,1\%$, $\text{C}_4\text{H}_{10} = 0,1\%$; $\text{N}_2 = 1,0\%$

quruq gazning zichligi $p_{\text{K},g} = 0,728 \text{ kg/m}^3$. Havoning ortiqlik koeffisienti $\alpha_{\text{O}} = 1,15$.

Javob: $M_g = 15 \text{ kg/m}^3$.

3–masala. Qozon qurilmasida ishlab chiqarilgan issiqlik miqdori aniqlansin. Pechdan chiquvchi gazlar entalpiyasi $I_r = 9800 \text{ kj/m}^3$, qozon qurilmasidan chiquvchi gazlar harorati $t = 200^\circ\text{C}$, havoning ortiqlik koeffisienti $\alpha = 1,3$, yoqilg'i sarfi $B = 0,036 \text{ m}^3/\text{s}$, issiqlikning yo'qotilish koeffisienti $\zeta = 0,1$. Pechlarda yoqiliayotgan tabiiy gazning tarkibi: $\text{CO}_2 = 0,8\%$; $\text{CH}_4 = 84,5\%$; $\text{C}_2\text{H}_6 = 3,8\%$; $\text{C}_3\text{H}_8 = 1,9\%$; $\text{C}_4\text{H}_{10} = 0,9\%$; $\text{N}_2 = 7,8\%$.

Javob: $Q = 138 \text{ kj/s}$.

4– masala. 2kg slanes to'la yonganda hosil bo'ladigan yonish mahsulotlarining massasi va ulardagi kulning kontsentrasiyasi aniqlansin. Slanesning tarkibi: $C^i = 41,2\%$; $H^i = 5,4\%$; $S^i = 3,4\%$; $N^i = 0,2\%$; $O_2^i = 5,6\%$; $A^i = 92,6$; $W^i = 23,0\%$; $\text{CO}_2^i = 32,8\%$, yonish maqsulotlari tomonidan olib ketiladigan kulning ulushi $a_{\text{O.K.}} = 1,9$. O'txonadagi havoning ortiqlik koeffitsienti $\alpha_{\text{or}} = 2,6$.

Javob: $\mu_K = 0,1784$

5 – masala. Ishchi massasiga ko'ra tarkibi: $C^i = 54,7\%$; $H^i = 3,3\%$; $S_u^i = 0,8\%$; $N^i = 0,8\%$; $O^i = 4,8\%$; $A^i = 27,6\%$; $W^i = 8,0\%$ bo'lgan 1 kg K markali Qarag'anda ko'miri to'liq yonishidan hosil bo'layotgan yonish mahsulotlari massasi va kul miqdori aniqlansin. Bunda yoqilg'i kulining yonish mahsulotlari bilan chiqish ulushi $\alpha_{\text{ch}} = 0,85$, o'txonadagi havoning ortiqlik koeffisiyenti $\alpha_{\text{yo}} = 1,3$ deb qabul qilinsin.

Javob: $M_g = 9,25 \text{ kg/kg}$; $\mu_{\text{kul}} = 0,0253$.

6 – masala. Tarkibi: $\text{CO}_2 = 0,2\%$; $\text{CH}_4 = 98,2\%$; $\text{C}_2\text{H}_6 = 0,4\%$; $\text{C}_3\text{H}_8 = 0,1\%$; $\text{C}_4\text{H}_{10} = 0,1\%$; $\text{N}_2 = 1,0\%$ bo'lgan 1 m^3 tabiiy gaz to'liq yonganda, yonish mahsulotlarining massasi aniqlansin. Bunda quruq gaz zichligi $\rho_{\text{yo},g}^q = 0,728 \frac{\text{kg}}{\text{m}^3}$, o'txonadagi havoning ortiqlik koeffisiyenti $\alpha_{\text{yo}} = 1,15$ deb qabul qilinsin.

Javob: $M_g = 15 \text{ kg/m}^3$.

Nazorat savollar

- 1.YuHQ larning issiqlik balansi (muvozanatlari)to'g'risida gapirib bering.
- 2.YuHQ lardagi foydali ish koeffitsientlari qanday aniqlanadi?
- 3.YuHQ lardagi issiqlik balansi qismlarini hisoblashni tushuntiring.
- 4.Yoqilg'iinig solishtirshma sarfi va uni kamaytirish usullariaytib bering.
- 5.Metallurgiya zavodining issiqlik balansi (muvozanati)haqida nimalarni bilasiz?
- 6.Ayrim sanoat korxonalarinnig issiqlik balansi qanday aniqlanadi?

11.1 .Asosiytushunchalar

Tayanch iboralar: *model (nusxa), fizik modellashlar, matematik modellashlar, analog hisoblash mashinalari, raqamli hisoblash mashinalari, model-analoglar va strukturali analog.*

Ob'ektningo 'zinitadqiqqilishqiyin, qimmatvako 'pvaqtalabqiladiyokiayrimhollardaumumantadqiqqilishmumkinbo 'lm aydi (masalan, loyihalashpaytida), bunday vaqtlardam **modellashgazarurattug** 'iladi.

Model (nusxa) - bu biror bir obyektning kichiklashtirilgan vaqulaylashtirilgan nusxasi bo'lib, uning xarakteristikalarini o'rganish uchun yaratiladi.

Modellarni tegishlicha qo'yidagi turlarini:

1).fizikmodellashlar

2).matematik modellashlar turlarini aytib o'tishimiz mumkin.

Fizik modellashda haqiqiy obyekt bilan uning modeli (nusxasi) bir xil fizik tabiatga ega bo'ladi.

Matematik modellashda hodisaning o'zi bilan emas, balki undan olingan nazariy "namuna", ya'ni modeli ustida ish olib boriladi. Bu model tekshirilayotgan hodisa bo'ysunadigan asosiy qonuniyatlarni matematik formada ifodalaydi. **Matematik model** - bu tadqiq qilinayotgan real obyektning ayrim xarakteristikalarini ifodalovchi matematik nisbatlar sistemasidir.

Matematik nisbatlarning u yoki bu turkumi matematik model deb atalishi uchun ular obyektning asosiy xossalari va o'zaro bog'lanishlarini to'la aks ettirishi shart.

Matematik modellashda o'zaro bog'langan turli parametrlarni o'zgartirish yo'li bilan jarayonni EHM yordamida tadqiq qilinadi. Bu o'rganilayotgan jarayon kechishining turli ko'rinishlari haqidagi³¹ ma'lumotlarni tez olish va modelning, shu bilan birga o'rganilayotgan real jarayonning optimal variantlarini aniqlash imkoniyatini beradi.

Yuqori haroratli qurilmalarni modellashni ikki turdag'i hisoblash mashinalaridan foydalanish mumkin:

1). analog hisoblash mashinalaridan foydalaniladi;

2). raqamli hisoblash mashinalaridan foydalaniladi.

Analog mashinalarda analogiya (o‘xshashlik) prinsipidan foydalaniladi; bu prinsip asosida fizik tabiatni turlichalashtirish bo‘lgan hodisalarga tegishli matematik modellarning izomorfizmi yotadi.

Misol tariqasida quyidagi hodisalarni ifodalovchi differensial tenglamalarni keltiramiz:

suyuqliqdagi ishqalish (Nyutonning ishqalanish qonuni)

$$\tau = \mu \frac{d\omega}{dx}$$

issiqlik uzatilishi (Furye qonuni) $q = -\lambda \frac{dt}{dx}$

modda almashinushi (Fik qonuni) $g \vartheta = -D \frac{dc}{dx}$

elektr uzatilishni (Om qonuni) $i = -\frac{dU}{\rho dx}$

Ko‘rinib turibdiki, bu tenglamalarning barchasiga tegishli gradiyentlar: tezlik $d\omega/dx$, harorat dt/dx , konsentratsiya dc/dx , kuchlanish dU/dx kiradi.

Agar boshqacha o‘lchov bilan hisoblash imkonini beradigan tegishli koeffitsiyentlar kiritilsa, har qanday hodisani elektr uzatilishidagi kabi modellash mumkin. Bunday analogiyalar prinsipi bitta muayyan misolni yechish natijasida o‘xshash matematik tenglamalar bilan ifodalanadigan butun bir sinfga tegishli obyektlarning xossalari haqida axborot olish imkonini beradi.

Analog mashinalari bajariladigan EHMlar turlari:

1).fizik modellash bajariladigan EHMlar;

2).matematik modellash bajariladigan EHMlarga bo‘linadilar.


Ular tegishlichcha **model-analoglar** va **strukturali analog**³¹ hisoblash mashinalari deyiladi. Ikki turdagи analog mashinalarining o‘ziga xos tomonlari 11.1-rasmida aks ettirilgan.

Keltirilgan 11.1-“a” rasmida issiqlik sxemasi va uning gidravlik hamda elektr model-analoglari ko‘rsatilgan. Bu modellarni o‘zaro taqqoslash shuni ko‘rsatadiki,

harorat "T" ning analogi bo'lib gidravlik modelda gidravlik siquv "N" va elektr modelda esa - kuchlanish "U" xizmat qiladi. Termik qarshilik $R_T = S/\lambda$ ning analogi bo'lib gidravlik qarshilik R_g va rezistorning elektr qarshiligi R_e xizmat qiladi. Shuningdek, issqliq sig'imi S_T ning analogi suyuqlik joylashgan idish kesimining yuzasi S va elektr modelida esa - kondensator sig'imi S_E bo'ladi.

Ushbu 11.1- "b" rasmda haroratning sterjen (metall tayokcha) bo'yab statsionar taqsimlanishi haqidagi masalaning **strukturali sxemasi** keltirilgan. Bu yerda xar bir integrator shunday ishlaydiki, uning kirish qismiga ixtiyoriy fizik o'zgaruvchi berilganda uning chiqish qismida kirish kattaligining mustaqil o'zgaruvchi vaqt bo'yicha integralidan iborat bo'lgan fizik kattalik hosil qilinadi.

11.1-rasm.EHM analoglarida tekshirish uchun a) model - analog va



b) tarkibiy sxema.

Keltirilgan 11.1-“b” rasmdagi sxema $x=0$; $t=t_1$; $dt/dx=c$; chegaraviy shartlarda olingan quyidagi tenglamani yechish imkonini beradi:

$$\frac{d^2t}{dx^2} = \frac{\alpha\rho}{\lambda f} f$$

bunda: α - issqlik berish koeffitsiyenti (sterjenden muhitga);

r , f -sterjenning perimetri va kesim yuzasi;

χ -issiqliko ‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti.

Model-analog mashinalari ko‘prok, **ixtisoslashtirilgan** bo‘ladilar; ularning tuzilishi tadqiq qilinadigan fizik sistemalarning xususiyatlari bilan belgilanadi. Strukturali analog EHMLari universalroq, bo‘ladi.

Raqamli elektron hisoblash mashinalari mutlaq universallik xususiyatiga ega bo‘lib, murakkab tenglamalar bilan ifodalangan masalalarni yechish va matematik modellash imkoniyatini beradilar.

Analog EHMLarining afzalligi- tez ishlashi, berilganlarni kiri- tish va chiqarishning soddaligi, ishlatish uchun oldindan ko‘p tayyorgarlik ko‘rishnnng zarur emasligi, turli vaqt masshtablarida ishlash imkoniyatiga ega bo‘lshlik va hokazo.

Analog EHMLarining kamchiligi - hisoblash natijalarining aniq emasligi va ularning tor darajada ixtisoslashganligidir.

Turli darajadagi chiziqli va chiziqli bo‘lmagan differensial tenglamalar sistemasining yechimini analog EHMLar yordamida aks ettirish eng katga samara beradi. *Raqamli EHMLar yuqori aniqlikka ega, ammo ularda masalani yechishga tayyorlash uchun ko‘p vaqt va mehnat talab qilinadi.*

Oxirgi paytda analog-raqamli hisoblash mashinalari qo‘llanila boshlandi, ular ikkala sinfdagi hisoblash mashinalarining afzal- liklarini o‘zlarida mujassamlantirgan.

11.2. YuHQ lar ishlashini matematik modellash bosqichlari

31

Tayanch iboralar: *YuHQning matematik modelini shakllantirish, hisoblash algoritmini tanlash,EHM uchun dasturni tuzish,tuzilgan dastur asosida, hisoblash ishlarini amalga oshirish,hisoblash algoritmini*

Yuqori haroratlari qurilmalar (YuHQ)ni matematik modellash jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

- 1). YuHQning matematik modelini shakllantirish, hisoblash algoritmini tanlash;**
- 2). EHM uchun dasturni tuzish;**
- 3). tuzilgan dastur asosida EHQda hisoblash ishlarini amalga oshirish;**
- 4). natijalarni tahlil qilish.**

YuHQning matematik modeli qo‘yilgan masalaning xususiyatiga bog‘lik holda besh xil murakkablik darajasiga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, sanoat korxonalari turkumining yokilg‘i-energetik balansini optimallash paytida tuziladigan matematik modellar tayyor mahsulot qiymatining yoqilgi va boshqa turdagি energiyalar sarfiga statik bog‘likligi asosida shakllanishi mumkin. Korxona miqyosida faqat berilgan ma’lum haroratdagi YuHQning ish holati uchun tuzilgan material va energetik balanslarnn aks ettiruvchi matematik modellardan foydalanish mumkin.

Ikkala misolda ham murakkabligi **birinchi darajali murakkablikka** bo‘lgan matematik modelga ega bo‘lamiz.

YuHQ ning **ikkinci darajalimurakkablikka** ega bo‘lgan modeli shu qurilmaning reaktori (ishchi bo‘shlig‘i) dagi issiqlik va massa almashuvi dinamikasini hisobga oladi. Bu model ishlab turgan YUHQlarning va sexning yoqilgi - energetik majmui ish holatlari parametrlarini optimallashtirish masalasini yechishga imkon beradi.

YuHQ ning **uchinchchi darajalimurakkablikka** ega bo‘lgan matematik modellarini issiqlik va massa almashuvi jarayonlarining qurilma reak-torining konstruktiv xususiyatlariga bog‘likligini hisobga oladi. Bunday modellar YuHQning faqat ish holatlarini emas, balki uning asosiy konstruktiv parametrlarini va birinchi galda reaktor kamerasining geometrik xarakteristikalarini optimallash imkonni beradi. Ammo uchinchi darajali matematik modellar YuHQning fakat oldindan berilgan turinigina aks ettiradi. YuHQning uchinchi darajali modellarida matematik ifodalanishi jihatdan juda murakkab bo‘lgan

jarayonlar (yopik, hajmdagi gazlarning harakati, yoqilgining alangali yonish jarayoni va boshqalar) fizik modellarda olingan emperik tenglamalar orqali ifodalanadi. Uchinchi darajali modellar YuHQni avtomatik loyihalash tizimini ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat kilish i mumkin.

YuHQning **to‘rtinchi darajalimurakkablikka** ega bo‘lgan matematik modellari oldindan qabul qilinadigan konstruktiv sxema bilan cheklanmaydi, balki texnologik jarayonni amalga oshirish paytida qatnashadigan fizik hodisalarning ketma-ketligi oldindan berilgan bo‘ladi.

Nihoyat, YuHQning eng **yuqori-beshinchchi darajali murakkablikdagi** matematik modeli maqsadga erishish uchun, ya’ni rejalashtirilgan sifatga ega bo‘lgan mahsulotni olish uchun, fizik vositalarni tanlashda cheklanmagan bo‘lishi kerak. *Beshinchchi darajali matematik model universal* deb qaralishi mumkin, chunki undan ayrim bloklarni ketma-ket chiqarish yo‘li bilan har qanday darajadagi modelni olish mumkin.

Hisoblash algoritmini tanlash paytida yechiladigan masala xususiyatlarini nazarda tutish lozim. Masalani yechishga o‘tishdan oldin optimal algoritmi tanlashga ma’lum miqdorda vaqt sarflab, keyinchalik ko‘plab soatni tejash mumkin. Tegishli masalalarni yechish uchun optimal algoritmlarni tanlash bo‘yicha mamlakatimizda ishlab chiqilgan va chet tillardan tarjima qilingan yetarli miqdorda qo‘llanmalar mavjud.

EHM uchun dastur tuzish bosqichi amaliy dasturlar paketi borligini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Masalan, yoqilgi yonishini hisoblash, yoqish moslamalarini hisoblash, rekuperatorlarni hisoblash, to‘siq orqali o‘tadigan issiqlik oqimlarini hisoblash va boshqalar bo‘yicha dasturlar mavjud. Oldindan tuzilgan va sozlangan dasturlar asosida qator hisoblashlar bajariladi, ular natijasida obyekt ishini ifodalovchi sonlar turkumi hosil bo‘ladi.³¹

Oxirgi bosqichda natijalar tahlil qilinadi. Bu bosqichda odatda matematik modelga va hisoblash algoritmiga aniqlik kiritiladi va matematik modellash sikli yanada mukammalroq asosda takrorlanadi. Matematik modellash va uni qo‘llash natijasida ko‘zlangan maqsadga erishish uchun aniq mikdoriy shaklda

ifodalangan amaliy tavsiyalar beriladi.

11.3. Matematik modellarning tuzilishi

Tayanchiboralar: *submodellar, “material balansi” submodeli, haroratlar maydonini aniqlash, tezliklar va bosimlar maydonini aniqlash, issiqlikning ajralib chiqish maydonini aniqlash, modelning chiqish parametrlari*

Odatda murakkab matematik modellar alohida jarayonlarni yoki hisoblash bosqichlarini aks ettiruvchi oddiy modellardan tashkil topadi. Bunday oddiy modellarni ba’zida **submodellar** deb ataydilar. Submodellardan YuHQ reaktornning ixtiyoriy darajadagi murakkablikka ega bo‘lgan matematik modelini yigish mumkin.

Umumiy model to‘rtta submodellardan tuzilgan; ular kirish va chiqish parametrlari: YuHQning material balansi, YuHQning energetik balansi, YuHQ ichidagi issiqlik va massa almashuvi, nazorat va diagnostika orqali bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan.

O‘z navbatida har bir submodel bir yoki bir necha hisoblash bloklaridan iborat bo‘lishi mumkin. Masalan, **“material balansi” submodeli uchta hisoblash blokidan iborat:**

1) yonish harorati va havo sarfi koeffitsiyentining berilgan qiymatlarida yonish mahsulotlarining tarkibi va miqdorini aniqlash;

2) metall yuzasida haroratning ma’lum o‘zgarishi bo‘yicha va pech atmosferasining ma’lum tarkibi sharoitida metallning kuyishini (kuyindisini) aniklash;

3) texnologik jarayon davomida \dot{h}_1^1 bo‘ladigan qo‘shimcha mahsulot va moddalarning miqdori hamda tarkibini aniklash.

“Energetik balans” submodeli material balans parametrlari bo‘yicha va “issiqlik va massa almashuvi” submodeli chikarib beradigan ayrim parametrlar (chiqib ketuvchi gazlar harorati, reaktor o‘lchamlari) bo‘yicha yoqilgi (yoki boshka turdagি

energiya) sarfini aniqlashga mo‘ljallangan hisoblash blokidan iborat.

“Issiqlik va massa almashuvi” submodeliuchta hisoblash blokidan iborat:

- 1).*haroratlar maydonini aniqlash;*
- 2).*tezliklar va bosimlar maydonini aniqlash;*
- 3).*issiqlikning ajralib chiqish maydonini aniqlash.*

Har bir hisoblash bloki tarkibida differensial tenglamalar bo‘lib, bu bloklarning har biri tegishli berilgan kirish parametrlarida avtonom holda ishlashi mumkin.

“Haroratlar maydoni” blokida metall, gaz va reaktor devorlarining haroratlar maydoni aniqlanadi. Bu maydonlarning o‘zaro aloqadorligi YUHQning turiga bog‘lik bo‘lgan chegaraviy shartlar bilan belgilanadi. Masalan, yoqilgi yokiladigan qizdirish pechlarining chegaraviy shartlariga metall zaxi (kuyindisi) qatlamining termik qarshiligi va metallning oksidlanish issiqligi kiradi. Mifel pechlarida qizdirilayotgan jismning, gaz va to‘silarning haroratlar maydoni mufel devorining haroratlar maydonini hisobga olgan holda aniqlanadi. Alangali eritish pechlarida chegaraviy shartlar ishlov berilayotgan jism bilan alanga o‘rtasida vositachi-jism vazifasini bajaradigan sirtki erigan qatlam paydo bo‘lishini hisobga oladi.

Metodik pechlarda chegaraviy shartlar glissaj (sirpanish) quvurlari va boshqa sun’iy sovitiladigan elementlar bilan bo‘ladigan issiqlik almashuvini hisobga olishi kerak.

Gazli jismning xaroratlar maydonini aniqash paytida energiya balansi tenglamasidan foydalaniladi. Agar gazli jism qator zonalarga bo‘lingan bo‘lsa, tegishli tenglamalar sistemasini yechish uchun, odatda interatsion jarayonni amalga oshirish talab qilinadi.

Uchinchi darajali murakkablikka ega bo‘lgan modelning kirish parametrlari quyidagi berilganlardan iborat bo‘ladi:³¹ energiya manbai (xususan, yoqilg‘ining elementar yoki tarkibiy tahlili), qurilmaning unumдорligи va uning ish holatlari, YuHQ ning to‘sil va devorlari yasalgan materiallarning issiklik-fizik xossalari, issiqliqnk bilan ishlov beriladigan jismlarning o‘lchamlari va xossalari, termik kuchlanishlar va mahsulotga ishlov berish sifatiga qo‘yiladigan cheklovchi talablar

yoki reaktor va ishchi kameraning o‘lchamlari.

Yoqilg‘i yoqiladigan YuHQ lar uchun qo‘srimcha holda yoqilg‘ining yonish holatlari, yonish mahsulotlarining yoqgich kanalidan YuHQ ning ishchi bo‘sning‘iga chiqish tezligi, yoqishga beriladigan havoning solishtirma sarfi va harorati; elektr YuHQ lari uchun reaktordagi atmosferaning parametrlari va harakatlanish tezliga berilishi kerak.

Modelning chiqish parametrlari material va energetik balanslar bo‘yicha quyidagi ma’lumotlarni berishi kerak: energiya (yoqilg‘i) sarfi; mahsulot, qo‘srimcha mahsulot va texnologik jarayon chiqindilari (xususan, chiqib ketuvchi gazlar) ning chiqishi, tarkibi va haroratlari; qurilmaning tashqi devorlari orqali energiyaning atmosferaga tarqalishi. YuHQ ni ishlatish sharoitlarini nazorat qilish uchun chiqish parametrlarida haroratlar maydonlari bo‘yicha issiqlik berish koeffitsiyent, nurlanish koeffitsiyenti va qurilma oynalari yaqinidagi gazlar bosimi bo‘yicha ba’zi ma’lumotlarga ega bo‘lish maqsadga muvofiq bo‘ladi.“Nazorat va diagnostika” submodelida YuHQ matematik modeliningtuzilishi qaytariladi, ammo har bir element eng oddiy tenglamalarsistemasi asosida shakllanadi. Bunday oddiy elementlar modellarni yig‘ishva sozlash paytida “tiqinlar” deb ataladi, ular yordamida dasturni sozlashjarayoni sezilarli darajada soddalashadi. Model elementlarini tegishlitiqinlarga ketma-ket almashtirish yo‘li bilan model ishlamay qoladiganyoki ma’nosiz natija beradigan element EHMtomonidan aniqdanadi. “Nazorat va diagnostika” submodeliga alohida elementlarning va butun modelning barcha chiqish parametri og‘ishining yo‘l qo‘yilgan chegaralari kiritilgan bo‘ladi, Nazorat operatsiyalari boshqa submodellarda hisoblash ishlari bajarayotgan paytda ham amalga oshirilishi mumkin.

YuHQ ning matematik modelini tuzishni amalda ko‘p marta sinalgan modullar yordamida olib borish qulay bo‘ladi. Modul - u yoki bu jarayonning yoki uning ayrim bosqichining mustaqil elementar matematik modeli hisoblanadi.

U mustaqil kichik dastur (podprogramma) ko‘rinishida amalga oshiriladi. Hisoblash jarayonida bu kichik dastur (modul) berilgan asosiy dastur hajmida ko‘p karra foydalaniladi. Masalan, YuHQ da ixtiyoriy shakldagi jism qizdirilgan paytda

uni juda ko‘p elementar paralelepipedlardan tashkil topgan deb qabul qilish mumkin. Bu paralelepipedlardan ixtiyoriy shakl va o‘lchamdagn jismni "yig‘ish" mumkin bo‘ladi va ularning harorat maydonlarini tegishlicha birlashtirib (to‘rtinchi turdagи chegaraviy shartlardan foydalanib), izlangan umumiylar maydonini olish mumkin. Demak, ko‘rilayotgan holda modul - elementar paralelepiped bo‘lib, issiqlik o‘tkazuvchanlikning Furye differensial tenglamasi:

$$C_p \rho \frac{\partial t}{\partial \tau} = \Sigma \frac{\partial}{\partial X} \lambda \frac{\partial t}{\partial X} + q_v$$

Bu paralelepipedning ixtiyoriy berilgan kirish va chegaraviy shartlarida haroratlar maydonini aniqlaydi va u elementar matematik model bo‘lib, kichik dastur ko‘rinishida amalga oshiriladi.

Masalani EHMda yechish davomida o‘zgaruvchi chegaraviy shartlarda paralelepipedning haroratlar maydoni hisoblanadigan kichik dasturga ko‘p marta murojaat qilinadi. YuHQni hisoblash paytida chegaraviy shartlarni oldindan tanlab olingan modullar (masalan, “metallnnngkuyishi”, “mufel”, “tagbilankontakt” vaboshqalar) gamoslabqabulqilishyanadaqulaybo‘ladi.

Gaz hajmining matematik modelini tuzish paytida hisoblash modellaridan - kub shaklidagi elementar gaz hajmlarining issiqlik balanslaridan foydalanish mumkin. Bu kublardan gaz hajmining ixtiyoriy shaklini yig‘ish mumkin.

11.4.YuHQ reaktori matematik modelining asosiy tenglamalari

Tayanch iboralar: *YuHQ reaktori matematik modelining, “Material balans” submodelida, reaktorning nurlanish harorati, devor ichki yuzasining harorati, gaz harorati, nurlanish koeffitsiyentlari*

YuHQ reaktorining matematik modeli ko‘p darajada unda amalga oshirilayotgan texnologik jarayonning turiga va ishlov berilayotgan materialga bog‘lik bo‘ladi.

Metallni qizdirish uchun mo‘ljallangan reaktorning matematik ifodalanishini


ko‘rib chiqamiz. Bunday modelning tuzilishi 11.2-rasmida keltirilgan.

“Material balans” submodelida termodinamik muvozanatlik sharoitida yonish mahsulotlarining chiqishi va tarkibi hisoblanadi. Hisoblash blokining kirish parametrlari quyidagilar: yokilg‘i tarkibi, uning yonish issiqligi, havoning solishtirma sarfi, yonish jarayoni tugaydigan harorat. Bunga qo‘shimcha holda texnologik jarayon davomida hosil bo‘ladigan metall kuyindisinnng qalinligini va metallnnng oksidlanishiga ketadigan kislorod sarfini hisoblab aniqlanadi.

“Energetik balans” submodelida energetik balans tenglamasn asosiy hisoblanadi.

“Haroratlar maydonlari” blokida 11.2-rasmida ko‘rsatilgan turg‘un holatdan foydalaniladi. Bu holatda YuHQning ish sikli uni oldindan qizdirish vaqtidan τ reaktorning o‘zgarmas haroratda ishlagan vaqtidan τ_{ish} va sovitish vaqtidan iborat bo‘ladi. 11.2-rasmida devor ichki yuzasining harorati - T_{do} ‘zining minimal qiymati T'_d dan to maksimal qiymati T''_d gacha o‘zgarishi ko‘rsatilgan.

Qizdiriladngan material $R=R_{vo'lchamli}$ plastina (yassi taxta) ko‘rinishida berilgan bo‘lib, $T_g=const$ holatida $T_{or}(0)=T_o$ dan to $T_{or}(\tau_{ox})=T_{or'ox}$ gacha qizdiriladi. Plastina kesimida harorat kvadrat parabola ko‘rinishida o‘zgaradi, shuning uchun:



11.2-rasm. Kamerali qizdirish YuHQ sining ish holati haroratlari.

- reaktorning nurlanish harorati;
- . — -devor ichki yuzasining harorati;
- x-x— gaz harorati;
- devor ichki yuzasining vaqt bo'yicha o'rtacha harorati.

$$T_M = T(I, F_0) = T_{o'r}(F_o) + \frac{q_{pm} \cdot R}{3\lambda(T_{o'r})}$$

bunda

$$q_{PM} = \alpha(T_g - T_m) + \lambda M (T_g^2 - T_M^4)$$

Bundan tashqari $q(I, \tau) = \frac{2\lambda}{R} \Delta t = q$ ekanini nazarda tutsak,

$\Delta T(\tau_{ox}) < \Delta T_{0X}$ sharoiti uchun quyidagiga ega bo'lamiz:

$$q_{PM}(\tau_{ox}) = \frac{2\lambda(T_{o'rox}) \Delta T_{ox}}{R}$$

Yuqoridagi tenglamalarni hisobga olganda va $q_{PM}(\tau_{ox})$ ma'lum bo'lganda gaz jismining ishchi haroratini anglash uchun quyidagi tenglamaga ega bo'lamiz:

$$q_{PM}(\tau_{ox}) = \alpha(T_g - T_{o'rox} - \frac{2}{3} \Delta T_{ox}) + \delta_M (T_g^4 - (T_{o'rx} - \frac{2}{3} \Delta T_{ox})^4)$$

bunda: α va q_m - tegishlicha T_g va T_m larga, reaktor ishchi bo'shlig'ining

o‘lchamlariga va yoqilgi sarfiga bog‘lik bo‘lgan parametrlar.

Bu yerda τ_{ox} ni topnsh uchun $T_{o\cdot r}$ ning T_0 dan to $T_{o\cdot rox}$ gacha o‘zgarnsh intervali ita teng bo‘laklarga bo‘linadi va ularnnng har biri uchun yuqoridagi tenglamadan q_{PMi} ning qiymati aniqlanadn. Har bir bo‘lakdagi qizdirish vaqt τ_i issiqlik balansidan topiladi:

$$q_{PM} \tau_i = \rho R \Delta H_i$$

bunda: ΔH_i berilgan bo‘lakchada material entalpiyasining ortishi, u bo‘lakcha chegarasidagi o‘rtacha haroratlar orqali aniqlanadn. Umumiy vaqt τ_{ox} barcha τ_i larni qo‘sish natijasida topiladi.

YuHQning devorlari, odatdamurakkabshakllivako‘pqatlamlibo‘ladi. Ikkinchidara jamurakkablikdagimodellaruchundevorlarshaklinicheksizplastinayoki ichkiradiusi $R_0 = 3V_{ib}/F_0$ bo‘lgansilindrikyokisferikyuzadebqabulqilishmumkin (bunda: V_{ib} va F_0 - ishchibo‘shliqning tegishlichahajmivaichkiyuzasi). Devorqatmlario‘rtasidagichegaraviyradiuslartegishliqatmlaruchunalohidaaniqlanadn. Masalan, birinchiqatlamuchun R_1 quyidagi tenglamadantopiladi:

$$V_1 = \frac{3}{2}\pi(R_1^3 - R_0^3)$$

Ikkinci qatlamning chegarasi uchun: $V_2 = \frac{3}{2}\pi(R_2^3 - R_1^3)$ va hokazo.

Qurilma devorining haroratini hisoblash uchun quyidagi chegaraviy shartlarniqabulqilamiz:

$$t_i = (x, o) = t_{aM}$$

$$\alpha = [t(R_{tash} \tau) - I_{AM}] = \lambda_{tash} \Delta t(R_{tash}, \tau)$$

$$\alpha = [t_g - t(R_o \tau)] = -\lambda_o \Delta t(R_o, \tau)$$

bunda: I_{AM} - atrof-muhitharorati; α - issiqdikberishkoeffitsiyenti

Hisoblashnatijaviyfarqlanishlarnianglashusulidaolibboriladi.

Issiqdikalmashuvikoeffitsiyentining konvektivtashkilqiluvchisi quyidagi formuladan aniqlanadi;

$$\alpha_k = 0,056 \lambda g \sqrt{\left(\frac{IRv}{Vg \nu \mu} \right)}$$

bunda: λ, ν, μ - yonishmahsulotlarining issiqlik -fizik parametrlari,

R_g - gazli hajmning umumlashtirilgan o'lchami;

I - ishchi bo'shligiga kiritilayotgan yangi yonish mahsulotlari oqimining impulsi.

R_g va V_g ning qiymatlari (xususan, $R_g = V_2/F_2$) reaktorning o'lchamlari asosida aniqlanadi. Reaktorning o'lchamlari esa, o'z navbatida, YuHQning unumдорлигиги va qizdirish vaqtiga τ_{ox} bo'yicha aniqlanadi. Oqimlarning impulsi yokilg'i sarfi "V" va yonish mahsulotlarining yoqgichdan chiqish tezligi asosida aniqlanadn.

Gaz - devor - metall sistemasidagi nurlanishnig keltirilgan koeffitsiyenti V.I.Timofeyev formulasidan aniqlanadn; unga gaz jismining nurlanish koeffitsiyenti ϵ_g , devorning issiqlikka chidamli qoplamasining rivojlantirilganlik darajasi - w [xususan, $w = (\tau_{ox, T_g})$] kiradi.

Agar $\tau_b < \tau < \tau_h$ bo'lsa, gazli hajmning harorati YuHQdan chiqib ketuvchi gazlarning haroratiga teng va o'zgarmas deb qabul qilinadi. Reaktorning qizishi davomida $0 < \tau < \tau_b$ bo'lsa, gazlar haroratining o'rtacha qiymati T_g devorlar tomonidan yutilgan issiqlik Q_b va devorning vaqt bo'yicha o'rtacha harorati T_{db} bilan belgilanadi:

$$Q_b = \alpha_{kb} (T_g - T_{db}) F o \tau_b + \delta_{gk} (T_g^4 \frac{\epsilon_d}{\epsilon_g} - T_{db}^4) F o \tau_b$$


$$\delta_{gd} = \delta o \left(\frac{1}{\epsilon_g} + \frac{1}{\epsilon_d} - 1 \right)^{-1}$$

bu yerda ϵ_g va ϵ_d gazlarning va devorning tegishlicha o'rtacha haroratlari t_g va t_d dagi nurlanish koeffitsiyentlari.

11.5. YuHQ ning ish holatini EHM da optimallash

Tayanch iboralar: YuHQ ning ish holatini EHM da optimallash, kamerali statsionar, kamerali ikki pog'onali, kamerali ikki pog'onali va sovitishli.

Optimallash deganda shunday jarayon yoki amallar ketma-ketligi tushuniladiki, ular yordamida ma'lum optimallik me'zonining optimummini (maksimum yoki minimumni) olish mumkin bo'ladi. Metallni qizdirishga mo'ljallangan YuHQ uchun optimallik mezoni sifatida yoqilg'ining solishtirma sarfi, metallning ko'yishi, qizdirish jarayonining davomiyligi, qizdirishning keltirilgan xarajatlari (iqtisodiy ko'rsatgichlar) va boshqalarni qabul qiliish mumkin. Metallni qizdirish holati deganda metallning qizdirilgan yuzasi haroratining boshlang'ich qiymati T_0 dan to berilgan oxirgi qiymati T_{ox} gacha ma'lum vaqt davomida $\varphi(\tau)$ o'zgarishi tushuniladi. Amaliyotda turli holatlar $\varphi(\tau)$ kuzatiladi. Metallni qizdirish paytidagi YuHQ ning ba'zi holatlari 11.3- rasmda ko'rsatilgan.



11.3-rasm. Qizdirish YuHQ larining odatdag'i ish holatlari.

a - kamerali statsionar; b- kamerali ikki pog'onali; v- kamerali ikki pog'onali va sovitishli; g- metodik (qat'iy rejali) to'rt zonal.

Keltirilgan 11.3-rasm, "a" da statsionar ishlaydigan kamerali YuHQ lar uchun xarakterli bo'lgan **birinchi sindf** ish holatlari ko'rsatilgan.

$\varphi(\tau)$

chiziqlariningko'rinishijismningissiqdiksig'diruvchanligiga,

konvektivvanurlanishyo‘libilanissiqlikberishjadalligiga, haroratgaqarabjismningissiqlik-fizikxossalaringo‘zgarishgavaboshqaomillargabog‘likbo‘ladi. Ammo barcha $\varphi(\tau)$ egri chiziqlari uchun umumiy bo‘lgan jihat shundan iboratki, τ ning ortishi bilan jismning harorati gaz jismining harorati T_g ga asimptotik ravishda yaqinlashib boradi. Bundan tashqari $\tau = 0$ bo‘lgan paytda jism harorati o‘sishining tezligi juda yuqori bo‘ladn. Amalda T_g qiymatini ko‘tarish va pasaytirish yo‘li bilan qizdirish vaqtini yoki qizdirish sifatini o‘zgartirish mumkin. Qizdirish sifati reaktordan chiqayotgan tayyor mahsulot kesimidagi haroratlar farqining maksimal qiymati ΔT_{ox} bilan belglnanadi. Ammo ΔT_{ox} va τ_{ox} mustaqil o‘zgaruvchilar ko‘rinishida emas, balki $\Delta T_{ox}(\tau_{ox})$ bog‘liqlik ko‘rinishida beriladi.

Ish holatlarining **ikkinchi sinfi** vaqt davomida harorati o‘zgaradigan $T_g(\tau)$ kamerali YuHQ lar uchun xosdir. Ularda, odatda ikki pog‘onali ish holatlari (11.3-rasm, b) amalga oshiriladi. Birinchi pog‘ona (bosqich)da reaktor yokgichlari to‘la quvvatda ishlaydi va qizdiriladigan jism yuzasining harorati T_{ox} ga yetganda - ikkinchi pog‘ona (bosqich) boshlanadi, unda yuza harorati T_{ox} o‘zgarmas holda saqlab turiladi. Saqlab turish bosqichining davomiyligi berilgan sifat parametri ΔT_{ox} bilan belgilanadi. Bu ikki pog‘onali ish holatida $\tau_{ox} = \tau_b + \tau_{st}va\Delta T_{ox}$ parametrlari mustaqil o‘zgaruvchilar sifatida berilishi mumkin, ammo bu paytda $\tau_{ox} > \tau_{st}$ shart bajarilishi lozim.

Agar texnologiya bo‘yicha quyumingning yuzasi vaqtinchalik δT_{ox} qiymatga o‘ta qizitiladigan bo‘lsa (11.3 -rasm, v), u holda birinchi bosqichni quyum yuzasining harorati $T_{ox} + \delta T_{ox}$ ga yetishi ta’milnadanigan τ_b vaqt bilan cheklab quyilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ikkinci bosqich davomida esa, yoqgichlar quvvatini rostlash yo‘li bilan $T_{ox} + \delta T_{ox}$ qiymatni o‘zgarmas holda saqlash va quyumni YuHQ dan bir oz vaqt τ_{st} o‘txazib chikarish mumkin bo‘ladi. Quyum tashqariga chiqarilgandan keyin unnnng yuzasi talab qilingan harorat T_{ox} gacha tez (τ_{st} vaqtida) soviydi va bu paytga kelib quyum kesimidagi haroratning og‘ishi ΔT_{ox} qiymatdan

ortmaydi, shuning uchun qizdirishning talab qilingan sifati ta'minlanadi. Bu holatdagi yig'indi vaqt $\tau_{ox} + \tau_{st} + \tau_o$ oddiy ish holatidagi $\tau_b + \tau_{st}$ yig'indidan kichik bo'ladi va shunga ko'ra sovitishli ikki pog'onali ish holati afzalroq bo'lishi mumkin. Bunda τ_o ning qiymatn δT_{ox} bilan belgilanadn. Ish holatini optimallash paytida bu parametrni ish holatining o'gartiriladigan parametri deb qaralishi lozim.

Uchinchi sinfga metodik pechlardagi qizdirish holatlarini kiritish mumkin (11.3-rasm, g).

Klassik talqin bo'yicha pechning bunday ish holatlari metallnnng metodik, ikkita payvandlanish va qizib toblanish qismlaridan o'tishini o'z ichiga oladi. Metodik zonada metall qizigan gazlarning o'zgaruvchan haroratida qizdiriladi. Payvandlanish qismlarida ba'zi xarakterli va o'zgarmas haroratlar T_{g1} va T_{g2} o'rnatiladi.

Metodik pechning qizitib toplash qismida odatda $T_{ox} = \text{const}$ sharoiti saqlanadi. EHM dan foydalanish pechning qizitib toplash va payvandlanish qismlaridagi yoqilg'i sarfini chegaraviy shartlar sifatida qabul qilishni va metallni qizdirish jarayonining boshidan oxirigacha xarakterli uzlucksiz qonun $\varphi(\tau)$ amal qilishini ta'minlaydi.

Avval ta'kidlanganidek, optimallashning turli mezonlarini tanlash mumkin. Masalan, optimallash mezoni sifatida metallni to oxirgi harorat T_{ox} gacha qizdirish uchun sarflanadigan minimal vaqt qabul qilinishi mumkin. Bu ish holati katta yoqilg'i sarfi bilan amalga oshirilishi mumkin. Boshqa hollarda optimallashning mezoni qilib yoqilg'inining minimal sarfi va metallning minimal kuyishi qabul qilinadi. "Aniq" ish holatlari ma'lum, ularda metall massasi uchun berilgan o'rtacha haroratga nisbatan metall kesimidagi haroratning og'ishi minimal qiymatda bo'ladi. YuHQning ish holati bilan yokilg'inining sarfi, metallning kuyishi va qurilma unumdarligi o'rtasidagi bog'liklikni hisobga oluvchi universal mezon - keltirilgan xarajatlardir.

Optimallashdan maqsad - optimallashning qabul qilingan mezonini minimumlashtiruvchi funksional $\varphi(\tau)$ ni topishdan iborat. Ko'rilayotgan

masalaning xususiyatlariga qarab bu funksionalni hisoblashning klassik variatsion usullari bilan yoki L.S.Pontryagin taklif qilgan maksimumlik prinsipi yordamida aniqlash mumkin. Ammo masalaning analitik yechimini faqat juda oddiy hollardagina topish mumkin. Shuning uchun amaliy masalalarning optimal yechimini sonli usullar asosida topiladi.

Optimallashning eng samarali usullaridan biri - to‘g‘ri usuldir; unda funksional $\varphi(\tau)$ ketma-ket yaxshilanishi (aniqlashishi) ning interatsion jarayoni amalga oshiriladi. Qizdirishning optimal holatini topish uchun $\varphi(\tau)$ nio‘zgartirish yo‘li bilan optimallash mezonining global (keng qamravli) ekstremumi aniqlanadi.


11.4-rasmda YuHQ ning ayrim ish holatlarida haroratning vaqtga bog‘liqligi keltirilgan.

$\varphi(\tau)$ ning o‘zgarish qonuniyati quyidagi egri chiziqli tenglik bilan ifodalanishi mumkin:

$$\varphi(\tau) = T_0 + v_1 \tau + v_2 \tau^2 ;$$

bunda: $v_1 = v_2 \tau_{ox} + (T_{0x} - T_0) / \tau_{ox}$ bo‘ladi - ikkinchi koeffitsiyent (v_2) ning qiymati vaqt $\tau_{ox}/2$ bo‘lganda yuzaning berilgan harorati asosida aniqlanadi. Masalan, $T = 0,5 (T_{ox} + T_0)$ bo‘lsa, $v_2 = 0$ bo‘ladi. Vaqt $\tau_{ox}/2$ bo‘lgan paytda haroratni ma’lum qiymatga oshirib yoki kamaytirib, v_2 koeffitsiyenti orqali qurilmaning ish holati $\varphi(\tau)$ nio‘zgartirish mumkin.

Bir maromdagagi qizdirish holatlari uchun $\varphi(\tau)$ ni approksimatsiya qilish mumkin. Umumiy holda ifodani uchinchi darajali polinom bilan aproksimatsiya qilish lozim. Bu paytda $\tau_{ox}/3$ va $2\tau_{ox}/3$ vaqt larga to‘g‘ri keluvchi ikkita harorat o‘zgartiriladi, bu esa variantlar sonini va EHM da sarflanadigan vaqtni keskin orttiradi.



11.4- rasm. YuHQdaharoratnnngvaqtgabog'liqlikgrafigi

Vaqtni tejash uchun o‘zgartirishlar tartibini tajribani rejalarshirish nazariyasi asosida belgilash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Optimallash modeli YuHQnning matematik modeli va optimallash blokidan iborat. Optimallashning kirish parametrlari (unumdarlik, yoqilg‘i, xom ashyo, qizdirish sifati bo‘yicha shartlar, yoqgichlar quvvati va boshqalar) odatda o‘zgartirilmaydi, chunki ular ishlab chiqarish texnologiyasi tomonidan qat’iy belgilangan yoki YuHQ sxemasini optimallash davomida olingan bo‘ladi.Optimallash mezonining ekstremumiga javob beruvchi chiqish parametrlari va shuningdek, yoqilg‘i sarfi V, metallning kuyishi, qizdirishning kesim bo‘yicha notekisligi ΔT_{ox} texnologik kartalarni ishlab chiqish uchun ahamiyatga ega; ulardan YuHQ ishini qo‘l bilan yoki avtomatik boshqarish paytida foydalanish mumkin.

11.6. YuHQ ni avtomatlashgirilgan loyihalash tizimi (ALOT)

Tayanch iboralar:avtomatik loyihalash tizimi - (ALOT), texnik sistema , perfolentalarni tayyorlash, dastgohlar avtomatlashirilgan , loyihalash muddatini, qiymatini va mehnat sarfini,loyihachining ishchi o‘rni.

XX asrning 60 inchi yillarda muhandislik iqtisodiyotida yangi tushuncha ya’ni:
- avtomatik loyihalash tizimi - (ALOT) paydo bo‘ldi. Eng avval u radio elektron

sanoatida, keyinchalik kompyuter texnikasida, aviatsiyada, qurilish va avtomobilsozlikda qo'llanila boshlandi. ALOT tushunchasining ma'nosи nima va u zamonaviy ilmiy - texnik inqilobda qanday o'rнin tutadi?

Ta'riflanishi bo'yicha **AJIOT tashkiliy-texnik sistema** bo'lib, loyihalashni avtomatlashtirish vositalari majmuidan iborat. ALOT ni yaratishdan maqsad loyihalashtiriladigan obyektlarning sifatini, texnik- iqtisodiy darajasini va mehnat unumdorligini oshirish, loyihalash muddatini, qiymatini va mehnat sarfini kamaytirishdir. ALOT ning asosiy vazifasi obyektni loyihalashning barcha bosqichlarida avtomatik loyihashni bajarishdan iborat. Shuning uchun ALOT an'anaviy loyihalash jarayonini tubdan o'zgartiradi. Loyihachining ishchi o'rnini sifat jihatdan yuksak darajaga ko'tariladi .

Avtomatlashtirilganishchijoylariularniboshqarishchunmaxsusbilimvako'nik malargaegabo'lishnitalabqiladi. Bu talablar butun tashkilot ko'lamida loyihalash texnologiyasini o'zgartirishni taqozo etadi. Natijada loyihalash mehnatining unumdorligi an'anaviy loyihalash usullariga nnsbatan 2-5 marta ortadi. Demak, murakkab qurilma yoki sistemani 1-3 yil davomida loyihalash o'rniga uni 0,5-1,0 yilda tugallash mumkin. Bu hol fan va texnikaning jadallik bilan rivojlanayotgan davrida juda muhimdir. Ammo texnik taraqqiyotga ALOT ning ta'siri faqat loyihalash paytidagi mexnat unumdorligini oshirish bilan cheklanib qolmaydi. ALOTning ishlashini ta'minlovchi sistemalar loyihalashtirilayotgan qurilma kesimlari konstruksiyalaring faqat chizmalarini beribgina qolmay, balki raqamli boshqarish dasturiga ega bo'lган dastgoh, (stanok) lar uchun perfolentalarni ham tayyorlab beradi. Bu dastgohlar avtomatlashtirilgan ishlab chikarish tizimi (AIT) ning assosini tashkil qiladi. ALOT/AIT ning yagona majmui yaratilganda sanoatning tegishli sohasidagi ishlab chiqarish darjasini yangi, yanada yuqori pogonaga ko'tariladi.

Xozirgi paytda ayrim sohalarda, masalan, radiotexnika va aviatsiyada, qo'llanilayotgan ALOTlar yirik sistemaning ayrim qismlari darajasida ishlatilmoqda.Energetikada avtomatlashtirilgan loyihalash tizimi yaratilgandan keyin bu sohada mexnat unumdorligining keskin o'sishini kuzatish mumkin

bo‘ladi.

11.7.YuHQALOTiningtarkibivatuzilishi

Tayanch iboralar: YuHQlar bir-biridan texnologik sxemalari, konstruksiyalari, chizma (grafik) qismlar, rekuperativ qurilmalari, gazyo llari, qurilish konstruksiyalari

YuHQ lar bir-biridan texnologik sxemalari, konstruksiyalari, joylashtirilishi va ish holatlarining parametrlari bilan keskin farq qiladilar. YuHQ ning har bir turi odatda faqat o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatga ega. Loyihalash amaliyotida barcha YuHQlar uchun namunaviy bo‘lgan yechimlar mavjud emas, ammo qurilmaning ayrimqismlariniloyihalashdaamaliysinovdano‘tgannamunaviyyechimlardanfoydala niladi.

YuHQning avtomatlashrilgan loyihalash tizimi bu qurilmaning barcha xususiy tomonlarini hisobga oluvchi umumiy ko‘rinishda ishlab chiqilgan bo‘lishi kerak. Shu munosabat bilan YuHQ to‘la ALOTining umumiy tuzilish sxemasi 11.6-rasmida keltirilgan ko‘rinishga ega bo‘lishi mumkin. ALOT ning bunday tuzilishi har qanday yirik qurilma yoki sistemanı loyihalash uchun xosdir. Keltirilgan 11.6-rasmdan ko‘rinadiki, YuHQ ALOTining tarkibigaturli ta’minlash tizimlari kiradi. Ular qatorida tashkiliy, texnik, uslubiy, lingvistik, axborot, dasturiy va matematik tizimlar bor. Tuzilish tarkibida asosiy ishlovchi xodimlarning va avtomatlashtirilganloyihalash tizimini yaratish va rivojlantirish xizmati xodimlariningsoni nazarda tutilgan bo‘lishi lozim.

YuHQ ALOTining yuqorida keltirilgan tuzilishi alohida tarkibiyqismlarning oddiy to‘plami emas, balki butun sistemaning samaraliishlashini ta’minlovchi o‘zaro bog‘langan kichik maxsus sistemalarning yagona majmuidan iborat. Turlitarkibiyqismlaro‘rtasidagigorizontalg‘lanishlarbunitasdiqlaydi.

YuUHQ ning ALOTi turli tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib (11.5-rasm), ularni ikki guruhga bo‘lish mumkin:


- 1).hisoblash qismlari;**
- 2).chizmaqismlari.**

Chizma (grafik) qismlar meyoriy hujjatlar asosida barcha turdag'i loyihalash ishlarini bajarishga mo'ljallangan. Bu bilan loyihalash paytidagi ish unum dorligini oshirish ta'minlanadi. Ularbirinchi galda loyiha hujjatlarini tayyorlash muddatlarini qisqartirishga qaratilgan bo'lib, ishlar kam mehnat sarf qilingan holda va yuqori sifatli qilib bajariladn. YuHQ ning ALOTida bunday tarkibiy qismlarning soni bir necha undan ortiq, bo'lishi mumkin, ularning harbiri muayyan konstruksiya va sistemani loyihalashga mo'ljallangan.


YuHQning ALOT titarkibiga quyidagi larkiradi:

- 1). qurilmareaktorini;**
- 2). materialni kiritish va chiqarish tizimlarini;**
- 3). regenerativ varekuperativ qurilmalarni;**
- 4). gaz yo'llarini;**
- 5). qurilish konstruksiyalarini;**
- 6). yordamchi jihozlarni;**
- 7). YuHQ ga xizmat qo'rsatuvchi turli tizimlar (yoqilg'i, havo, gaz va suv ta'minoti) ni loyihalash qismlari.**

Ularning soni YuHQning murakkabligiga qarab o'zgarishi mumkin. Odatda YuHQ to'la ALOTining 10-20% ini hisoblash qismlari tashkil qiladi. Bu qismni bajarish uchun grafik qismdagiga nisbatan ko'proq mehnat sarflanadi.



11.5-rasm. YuHQ to'la A LOT ining yiriklashtirilgan tuzilish sxemasi.



2.6-rasm. YuHQ ALOT ining tarkibi

11.8.ALOT ishlashini ta'minlovchi tizimlar

Tayanch iboralar: ALOT ishlashini ta'minlovchi tizimlar, sistemali dasturlash, muammoli dasturlash, xizmat ko'rsatishni ta'minlash, dasturlash.

YuHQning ALOTi muvaffaqiyatli ishlashi uchun ta'minlash tizimlarining yagona majmuuni yaratish lozim.Uyuqori haroratli qurilmalarni loyihalash amaliyotiga ALOTini qo'llashni osonlashtiradi. Ular ichidagi dasturiy va matematik ta'minlash tizimlari asosiylar qatoriga kiradi.

Dasturiy ta'minlash odatda uch turga bo'linadi:

1).sistemali dasturlash;

2).muammoli dasturlash;

3).xizmat ko‘rsatishni ta’minlash dasturlash.

Sistemali dasturlash ALOT vositalari majmuining ishlashini tashkil qilish uchun mo‘ljallangan. U loyihalovchini maxsus maqsadli soha dasturlari bilan ta’minlaydi. Ular amaliy dasturlar to‘plami (ADT) ko‘rinishida yaratilgan bo‘lishi va muayyan masalalarni hal qilishi, masalan, regenerativ havo qizdirgichning qismlari chizmasini chizib berishi yoki metall buyumlar qizitilgan paytdagi issiqlik hisobini bajarib berishi kerak. Xizmat ko‘rsatish dasturi sistemali va muammoli dasturlashga xizmat ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan. U sistemaga xizmat ko‘rsatishni qulaylashtiradi va osonlashtiradi. Uning yordamida, masalan, boshqa turdagи EHM da ishlash uchun foydalaniladigan tegishli axborotni tayyorlash mumkin (perfo- va magnit tasmalarini qayta yozish, qayta kodlash va hokazo).

Matematik ta’minlash texnologik qurilmalarning maxsus matematik modellariga va shuningdek, texnologik jarayonlarni boshqarish uchun mo‘ljallangan funksional modellarga tayanadi. Loyihalashtirilayotgan qurilmalarni sistemali tahlil qilish uchun va tegishli dastur algoritmlarini ishlab chiqish uchun zarur bo‘lgan barcha matematik usullar shular jumlasiga kiradi.

Ahamiyati bo‘yicha keyingi o‘rinda ta’minlashning texnik vositalari turadi. Ularga EHMLar, termik moslamalar, aloqa asboblari, axborotni aks ettiruvchi va xujjatlashtiruvchi vositalar kiradi. Texnik vositalarning ro‘yxati doimo kengayib, o‘zgarib turadi. Sistemanı tashkiliy va uslubiy jihatdan ta’minlash tegishli xujjatlar bilan belgilanadi; ularda ALOT vositalarining tarkibi, tanlanish tartibi va ishlatilishi aks ettiriladi. Ta’minlash vositalari ALOT dan foydalanuvchilarni o‘kuv va uslubiy adabiyotlar bilan ta’minlaydi, loyihachilarning texnik malakasini oshirish bo‘yicha tegishli chora- tadbirlarni amalga oshiradi.

YuHQ ALOT ini axborot bilan ta’minlashni tashkil qilishga alohida talablar qo‘yiladi. YuHQ ni loyihalash uchun quyidagi ma’lumotlar zarur: meyoriy va texnologik axborot, topshiriqlarni ifodalash va sistemanı boshqarish tillarining lug‘ati, loyihalash obyekti haqidagi axborotlar to‘plami, mamlakatimizda va horijda ishlatilayotgan jihozlarning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari haqidagi

ma'lumotlar.

Lingvistik ta'minlash loyihalash tillarining majmuidan iborat, ularga maxsus atama va ta'riflar ham kiradi.

Asosan uch xil til farq qilinadi:

- 1).dasturlash tili;**
- 2). loyihalanadigan obyekt bayon qilinadigan til;**
- 3).loyihalash jarayoni boshqariladigan til.**

Maxsus ishlab chiqilgan muammoli-yo'naltirilgan tildan foydalanib, har qanday qurilmani yoki har qanday qism chizmasini kodlash (shartli belgilar bilan yozish) mumkin.

ALOT ning ta'minlash tizimlarini yaratish tegishli soha uchun juda katta muammo hisoblanadi, uni amalga oshirish uchun mutaxassis -loyihachilar va mutaxassis-programmachi (dasturlovchi)lar kuchini birlashtirish lozim.

11.9. ALOTni yaratish va rivojlantirish bosqichlari

Tayanch iboralar: ALOTni yaratish va rivojlantirish bosqichlari, kichik modellar paketi, maxsus chetki moslamalar, loyihalash jarayoni, issiqlik ta'minoti tizimi, avtomatlashtirilgan tizimlar.

ALOT tizimini yaratish birinchi galda loyihalash uchun ko'p miqdorda kapital mablag' va vaqt sarflanadigan qurilmalar uchun rejalashtirilishi lozim. Yuqori haroratli qurilma (YuHQ) lar shular qatoriga kiradi. ALOTni ishlab chiqish juda qimmatga tushishi mumkin, ammo loyihalash paytida u beradigan afzalliklar barcha harajatlarni 3-5 yil davomida to'la qoplaydi.

ALOT rivojlanishining uchta darajasini farqlaydilar:

- a) kichik modellar paketi yordamida ayrim masalalarni yechish;**
- b) EHM yordamida maxsus chetki moslamalardanva berilgankattaliklar to'plamidan foydalanib va shuningdek, loyihalash jarayoniniva tegishli chizmalarni aks ettiruvchi moslamalarni boshqarish vositalaridan foydalangan holda yirik loyihalash ishlarini bajarish.**

v) *loyihalash jarayonini to‘la avtomatlashtirish*, ALOT bilan boshqa avtomatlashtiri lgan tizimlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, sistemanı rivojlantirish va uni loyihalashtirilayotgan obyektga moslashtirish imkoniyatlari, sistema bir paytning o‘zida ko‘p kishilar tomonidan ishlatilganda tegishli so‘zlashuv ish holatlarini tashkil qilish.

YuHQning ALOTini yaratish va rivojlantirish paytida bir qator tamoyillarga rioya qilish lozim. Ulardan eng muhimi - sistemaning birligi tamoyili (prinsipi)dir, ya’ni ayrim kichik sistemalar o‘rtasidagi aloqalar butun snstemaning yaxlitligini ta’minlashi zarur. Va yana muhim ahamiyatga ega bo‘lgani - funksional to‘liklik prinsipidir, ya’ni loyihalash ishlarining barcha funksiyalarini asta-sekin kompyuterli asosga o‘tkazish. Ahamiyati bo‘yicha keyingi o‘rinlarda ulanish (qo‘shilish) va rivojlanish tamoyillari turadi.

Kelajakda YuHQning ALOTi yanada umumiy bo‘lgan ALOT (masalan, qayta tiklangan issiqlikdan foydalanuvchi issiqlik ta’minoti tizimi) tarkibiga kiritiladi, demak, uni shunday tuzish kerakki, unda barcha ta’minalash turlarinn kuchaytirish va takomillashtirish (yoki yangilash) hamda ALOTning eng yuqori va quyi avtomatlashtirilgan tizimlari bilan o‘zaro aloqasi ta’minalishi lozim.

ALOTning rivojlanishi eng oddiy kichik sistemalardan to murakkab sistemalargacha intilish sxemasi bo‘yicha amalga oshiriladi. Shuning uchun YuHQ ALOTining tarkibiy qismlari va kichik sistemalarini takomillashtirish va yangilash paytida yuqorida keltirilgan tamoyillarga rioya qilish shart. Loyihalash ishining kelajagi avtomatlashtirilgan tizimlarga bog‘lik. Bu kelajakni faqat texnolog, loyihachi va ALOT sohasi bo‘yicha maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan dasturchi (programmachi)larning birgalikda qilgan mexnati natijasida yaqinlashtirish mumkin.

Nazorat savollar

- 1 .Asosiy tushunchalar to'g'risida gapirib bering.
2. YuHQ lar ishlashini matematik modellash bosqichlari qancha?
3. Matematik modellarning tuzilishi turlarini aytib bering.
- 4.YuHQ reaktori matematik modelining asosiy tenglamalarini yozib bering.
5. YuHQ ning ish holatini EHM da optimallash haqida nimalarni bilasiz?
6. YuHQ ni avtomatlashgirilgan loyihalash tizimi (ALOT) qanday ishlaydi?
- 7.YuHQ ALOTining tarkibi va tuzilishini aytib bering.
- 8.ALOT ishlashini ta'minlovchi tizimlar to'g'risida gapirib bering.
9. ALOTni yaratish va rivojlantirish bosqichlari turlarini aytib bering.

ILOVALAR

“Yuqori haroratlari jarayonlar va qurilmalar” fanidan Shaxtali kuydirish pechining issiqlik energetik hisobi” mavzusidagi kurs loyihasi variantlaridan

Metallarning zichligi

Material	Zichligi, kg/m ³
Po’lat	7850
Kulrang choyan	7250
Mis	8800
Latun	8500
Alyuminiy	2700
Qo’rgoshin	11400

Har-xil isitish yuzalaridagi ishchi jismning issiqlikni o’ziga olishining taqsimlanishi

O’ta qizigan bug‘ning bosimi, Mpa	O’ta qizigan bug‘ning harorati, °C	Ta’minot suvining harorati, °C	Isitish sirtlarida issiqlik taqsimlanishi, %		
			Bug‘lan-tiruvchilar	Bug‘ni o’ta qizdiruv-chilar	Ekonomay-zerlar

Nº	Yoqilg'ining temperaturasi $t=20^{\circ}\text{C}$	Pechning unumdorlig i $R=\text{kg/sek}$	Namlik miqdori $d_{t.m}$	Zichligi $p_{t.m.}$	Jarayoni ng harorat darajasi $T_{m.n}^{\max}$	Bo'lakla rning o'rtacha diametri d_b	Termik dissotsiosiy alashning bosqlanish harorati t_t
1	Yoqilg'ining temperaturasi $t=21^{\circ}\text{C}$	$R=1.28\text{kg/sek}$	0.29kg/kg	2328kg/m^3	1328°C	$d_b=0.28_m$	$t_t. 927^{\circ}\text{C}$
2	Yoqilg'ining temperaturasi $t=22^{\circ}\text{C}$	$R=1.29\text{kg/sek}$	0.30kg/kg	2329kg/m^3	1329°C	$d_b=0.29_m$	$t_t. 928^{\circ}\text{C}$
3	Yoqilg'ining temperaturasi $t=23^{\circ}\text{C}$	$R=1.30\text{kg/sek}$	0.31kg/kg	2330kg/m^3	1330°C	$d_b=0.30_m$	$t_t. 929^{\circ}\text{C}$
4	Yoqilg'ining temperaturasi $t=24^{\circ}\text{C}$	$R=1.31\text{kg/sek}$	0.32kg/kg	2331kg/m^3	1331°C	$d_b=0.31_m$	$t_t. 930^{\circ}\text{C}$
5	Yoqilg'ining temperaturasi $t=25^{\circ}\text{C}$	$R=1.32\text{kg/sek}$	0.33kg/kg	2332kg/m^3	1332°C	$d_b=0.32_m$	$t_t. 931^{\circ}\text{C}$
6	Yoqilg'ining temperaturasi $t=26^{\circ}\text{C}$	$R=1.33\text{kg/sek}$	0.34kg/kg	2333kg/m^3	1333°C	$d_b=0.33_m$	$t_t. 932^{\circ}\text{C}$
7	Yoqilg'ining temperaturasi $t=27^{\circ}\text{C}$	$R=1.34\text{kg/sek}$	0.35kg/kg	2334kg/m^3	1334°C	$d_b=0.34_m$	$t_t. 933^{\circ}\text{C}$
8	Yoqilg'ining temperaturasi $t=28^{\circ}\text{C}$	$R=1.35\text{kg/sek}$	0.36kg/kg	23358kg/m^3	1335°C	$d_b=0.35_m$	$t_t. 934^{\circ}\text{C}$
9	Yoqilg'ining temperaturasi $t=29^{\circ}\text{C}$	$R=1.36\text{kg/sek}$	0.37kg/kg	2336kg/m^3	1336°C	$d_b=0.36_m$	$t_t. 935^{\circ}\text{C}$
10	Yoqilg'ining temperaturasi $t=30^{\circ}\text{C}$	$R=1.37\text{kg/sek}$	0.38kg/kg	2337kg/m^3	1337°C	$d_b=0.37_m$	$t_t. 936^{\circ}\text{C}$
11	Yoqilg'ining temperaturasi $t=31^{\circ}\text{C}$	$R=1.38\text{kg/sek}$	0.39kg/kg	2338kg/m^3	1338°C	$d_b=0.38_m$	$t_t. 937^{\circ}\text{C}$
12	Yoqilg'ining temperaturasi $t=32^{\circ}\text{C}$	$R=1.39\text{kg/sek}$	0.40kg/kg	2339kg/m^3	1339°C	$d_b=0.39_m$	$t_t. 938^{\circ}\text{C}$
13	Yoqilg'ining temperaturasi $t=33^{\circ}\text{C}$	$R=1.40\text{kg/sek}$	0.41kg/kg	2340kg/m^3	1340°C	$d_b=0.40_m$	$t_t. 939^{\circ}\text{C}$
14	Yoqilg'ining temperaturasi $t=34^{\circ}\text{C}$	$R=1.41\text{kg/sek}$	0.42kg/kg	2341kg/m^3	1341°C	$d_b=0.41_m$	$t_t. 940^{\circ}\text{C}$
15	Yoqilg'ining temperaturasi $t=35^{\circ}\text{C}$	$R=1.42\text{kg/sek}$	0.43kg/kg	2342kg/m^3	1342°C	$d_b=0.42_m$	$t_t. 941^{\circ}\text{C}$
16	Yoqilg'ining temperaturasi $t=36^{\circ}\text{C}$	$R=1.43\text{kg/sek}$	0.44kg/kg	2343kg/m^3	1343°C	$d_b=0.43_m$	$t_t. 942^{\circ}\text{C}$
17	Yoqilg'ining temperaturasi $t=37^{\circ}\text{C}$	$R=1.44\text{kg/sek}$	0.45kg/kg	2344kg/m^3	1344°C	$d_b=0.44_m$	$t_t. 943^{\circ}\text{C}$
18	Yoqilg'ining temperaturasi $t=38^{\circ}\text{C}$	$R=1.45\text{kg/sek}$	0.46kg/kg	2345kg/m^3	1345°C	$d_b=0.45_m$	$t_t. 944^{\circ}\text{C}$

19	Yoqilg'ining temperaturasi $t=39^0\text{C}$	R=1.46kg/ sek	0.47kg/k g	2346kg/m ³	1346°C	d _b = 0.46 _m	t _l . 945°C
20	Yoqilg'ining temperaturasi $t=40^0\text{C}$	R=1.47kg/ sek	0.48kg/k g	2347kg/m ³	1347°C	d _b = 0.47 _m	t _l . 946°C
21	Yoqilg'ining temperaturasi $t=41^0\text{C}$	R=1.48kg/ sek	0.49kg/k g	2348kg/m ³	1348°C	d _b = 0.48 _m	t _l . 947°C
22	Yoqilg'ining temperaturasi $t=42^0\text{C}$	R=1.49kg/ sek	0.50kg/k g	2349kg/m ³	1349°C	d _b = 0.49 _m	t _l . 948°C
23	Yoqilg'ining temperaturasi $t=43^0\text{C}$	R=1.50kg/ sek	0.51kg/k g	2350kg/m ³	1350°C	d _b = 0.50 _m	t _l . 949°C
24	Yoqilg'ining temperaturasi $t=44^0\text{C}$	R=1.51kg/ sek	0.52kg/k g	2351kg/m ³	1351°C	d _b = 0.51 _m	t _l . 950°C
25	Yoqilg'ining temperaturasi $t=45^0\text{C}$	R=1.52kg/ sek	0.53kg/k g	2352kg/m ³	1352°C	d _b = 0.52 _m	t _l . 951°C
26	Yoqilg'ining temperaturasi $t=46^0\text{C}$	R=1.53kg/ sek	0.54kg/k g	2353kg/m ³	1353°C	d _b = 0.53 _m	t _l . 952°C
27	Yoqilg'ining temperaturasi $t=47^0\text{C}$	R=1.54kg/ sek	0.55kg/k g	2354kg/m ³	1354°C	d _b = 0.54 _m	t _l . 953°C
28	Yoqilg'ining temperaturasi $t=48^0\text{C}$	R=1.55kg/ sek	0.56kg/k g	2355kg/m ³	1355°C	d _b = 0.55 _m	t _l . 954°C
29	Yoqilg'ining temperaturasi $t=49^0\text{C}$	R=1.56kg/ sek	0.57kg/k g	2356kg/m ³	1356°C	d _b = 0.56 _m	t _l . 955°C
30	Yoqilg'ining temperaturasi $t=50^0\text{C}$	R=1.57kg/ sek	0.58kg/k g	2357kg/m ³	1357°C	d _b = 0.57 _m	t _l . 956°C
4	440	145	62	19	19		
10	540	215	49	30	21		
14	560	230	40	35	25		
14	545/545	240	35	44	21		
26,5	565/570	260	--	58	42		

Gazlarning atomligi va molekulyar massasi

Ko‘rsatkichlar	O ₂	N ₂	N ₂	CO	SO ₂	SN ₄	NO ₂	SN ₃	Ar	N ₂ O	voz-dux	NN ₃	SO ₂
Atomligi	2	2	2	2	3	5	3	4	1	2	3	4	3
Molekulyar massasi	32	2	28	28	44	16	64	17	40	18	29	17	64

Gazlarning molar issiqlik sig‘imi

Gazlar	Issiqlik sig‘imi, kJ/kmol·°C	
	μ_{SV}	μ_{CR}
Bir atomli	12,56	20,93
Ikki atomli	20,93	29,31
Uch va ko‘p atomli	29,31	37,68

Gazlarning massaviy va hajmiy issiqlik sig‘imlari

Gaz	Issiqlik sig‘imi, kJ/kg·°C	
	massaviy	hajmiy

1	2	3
O_2	$s_{rm} = 0,9127 + 0,00012724 \cdot t$	$c'_{rm} = 1,3046 + 0,00018183 \cdot t$
	$c_{vm} = 0,6527 + 0,00012724 \cdot t$	$c'_{vm} = 0,9337 + 0,00018183 \cdot t$
N_2	$s_{rm} = 1,0258 + 0,00008382 \cdot t$	$c'_{rm} = 1,2833 + 0,00010492 \cdot t$
	$c_{vm} = 0,7289 + 0,00008382 \cdot t$	$c'_{vm} = 0,9123 + 0,00010492 \cdot t$
SO	$s_{rm} = 1,0304 + 0,00009575 \cdot t$	$c'_{rm} = 1,2883 + 0,00011966 \cdot t$
	$c_{vm} = 1,7335 + 0,00009575 \cdot t$	$c'_{vm} = 0,9173 + 0,00011966 \cdot t$
H_2O	$s_{rm} = 0,9952 + 0,00009349 \cdot t$	$c'_{rm} = 1,2870 + 0,00012091 \cdot t$
	$c_{vm} = 0,7084 + 0,00009349 \cdot t$	$c'_{vm} = 1,9161 + 0,00012091 \cdot t$
N_2	$s_{rm} = 1,8401 + 0,00029278 \cdot t$	$c'_{rm} = 1,4800 + 0,00023551 \cdot t$
	$c_{vm} = 1,3783 + 0,00029378 \cdot t$	$c'_{vm} = 1,1091 + 0,00023551 \cdot t$
SO_2	$s_{rm} = 0,6314 + 0,00015541 \cdot t$	$c'_{rm} = 1,8472 + 0,00004571 \cdot t$
	$c_{vm} = 0,5016 + 0,00015541 \cdot t$	$c'_{vm} = 1,8472 + 0,00004571 \cdot t$
0 - 1500 °C haroratlar chegarasida o‘rtacha issiqlik sig‘imi		
N_2	$s_{rm} = 14,2494 + 0,00059574 \cdot t$	$c'_{rm} = 1,2803 + 0,00005355 \cdot t$
	$c_{vm} = 10,1241 + 0,00059574 \cdot t$	$c'_{vm} = 1,9094 + 0,00005355 \cdot t$
SO_2	$s_{rm} = 0,8725 + 0,00024053 \cdot t$	$c'_{rm} = 1,7250 + 0,00004756 \cdot t$
	$c_{vm} = 0,6837 + 0,00024053 \cdot t$	$c'_{vm} = 1,3540 + 0,00004756 \cdot t$

Kislороднинг issiqlik sig‘imi

Harorat, ° C	Issiqlik sig‘imi, kJ/kmol·°C			
	massaviy		hajmiy	
	S _{rm}	C _{vm}	C' _{rm}	C' _{vm}
0	0,9148	0,6548	1,3059	0,9349
100	0,9232	0,6632	1,3176	0,9466
200	0,9353	0,6753	1,3352	0,9462
300	0,9500	0,6900	1,3561	0,9854
400	0,9651	0,7051	1,3775	1,0065
500	0,9793	0,7193	1,3980	1,0270
600	0,9927	0,7327	1,4168	1,0459
700	1,0048	0,7448	1,4344	1,0634
800	1,0157	0,7557	1,4479	1,0789
900	1,0258	0,7658	1,4645	1,0936
1000	1,0350	0,7750	1,4775	1,1066
1100	1,0434	0,7834	1,4892	1,1183
1200	1,0509	0,7913	1,5005	1,1296
1300	1,0580	0,7984	1,5106	1,1396

Azotning issiqlik sig‘imi

	Issiqlik sig‘imi, kJ/kmol·°C
--	------------------------------

Harorat, °C	massaviy		hajmiy	
	s _{rm}	c _{vm}	c' _{rm}	c' _{vm}
0	1,0392	0,7423	1,2987	0,9278
100	1,0404	0,7427	1,3004	0,9295
200	1,0434	0,7465	1,3038	0,9328
300	1,0488	0,7519	1,3109	0,9399
400	1,0567	0,7599	1,3205	0,9496
500	1,0660	0,7691	1,3322	0,9613
600	1,0760	0,7792	1,3452	0,9743
700	1,0869	0,7900	1,3586	0,9877
800	1,0974	0,8005	1,3716	1,0006
900	1,1078	0,8110	1,3845	1,0136
1000	1,1179	0,8210	1,3971	1,0178
1100	1,1271	0,8302	1,4089	1,0379
1200	1,1359	0,8395	1,4202	1,0492
1300	1,1447	0,8478	1,4306	1,0597

Is gazi(SO)ning issiqlik sig‘imi

Harorat,	Issiqlik sig‘imi, kJ/kmol·°C	
	massaviy	hajmiy

$^{\circ}\text{C}$	s_{rm}	c_{vm}	c'_{rm}	c'_{vm}
0	1,0396	0,7427	1,2992	0,9282
100	1,0417	0,7448	1,3007	0,9307
200	1,0463	0,7494	1,3071	0,9362
300	1,0538	0,7570	1,3167	0,9458
400	1,0634	0,7666	1,3289	0,9579
500	1,0748	0,7775	1,3427	0,9718
600	1,0861	0,7892	1,3574	0,9864
700	1,0978	0,8009	1,3720	1,0011
800	1,1091	0,8122	1,3862	1,0153
900	1,1200	0,8231	1,3996	1,0287
1000	1,1304	0,8336	1,4126	1,0417
1100	1,1401	0,8432	1,4248	1,0538
1200	1,1493	0,8566	1,4361	1,0651
1300	1,1577	0,8608	1,4465	1,0756

Karbonat angidridning issiqlik sig‘imi

Harorat, $^{\circ}\text{C}$	Issiqlik sig‘imi, kJ/kmol \cdot $^{\circ}\text{C}$			
	massaviy		hajmiy	
	s_{rm}	c_{vm}	c'_{rm}	c'_{vm}

0	1,8148	0,6259	1,5998	1,2288
100	1,8658	0,6770	1,7003	1,3293
200	1,9102	0,7214	1,7373	1,4164
300	1,9487	0,7599	1,8627	1,4918
400	1,9826	0,7938	1,9297	1,5587
500	1,0128	0,8240	1,9887	1,6178
600	1,0396	0,8508	2,0411	1,6701
700	1,0639	0,8746	2,0884	1,7174
800	1,0852	0,8964	2,1311	1,7601
900	1,1045	0,9157	2,1692	1,7982
1000	1,1225	0,9332	2,2035	1,8326
1100	1,1384	0,9496	2,2349	1,8640
1200	1,1530	0,9638	2,2638	1,8929
1300	1,1660	0,9772	2,2898	1,9188

Suv bug‘ining issiqlik sig‘imi

Harorat, °C	Issiqlik sig‘imi, kJ/kmol·°C			
	massaviy		hajmiy	
	s _{rm}	c _{vm}	c' _{rm}	c' _{vm}
0	1,8596	1,3980	1,4943	1,1237

100	1,8728	1,4114	1,5052	1,1342
200	1,8937	1,4323	1,5223	1,1514
300	1,9192	1,4574	1,5424	1,1715
400	1,9477	1,4863	1,5654	1,1945
500	1,9778	1,5160	1,6148	1,2188
600	2,0092	1,5474	1,6402	1,2439
700	2,0419	1,5805	1,6402	1,2703
800	2,0754	1,6140	1,6680	1,2971
900	2,1097	1,6483	1,6957	1,3247
1000	2,1436	1,6823	1,7229	1,3519
1100	2,1771	1,7158	1,7501	1,3791
1200	2,2106	1,7488	1,7769	1,4059
1300	2,2429	1,7815	1,8028	1,4319

FOYDALI MA'LUMOTLAR-MASLAHATLAR

Yuqori haroratli jarayonlar va qurilmalar – energetika sohalari va a'nanaviy energiya manbalari asosiy masaladir. Bu masalani hal etishda konstruksiya elementi ishlash sharoiti va qanday maqsadda foydalanishini hisobga olib mos kelgan material tanlab olinishi zarur.

Fanining rivoji va takomillashuvida asosiy namoyonda (olim) larning xizmatlari beqiyosdir.O'quv jarayonida o'qitiladigan amaliy fanlardan birinchisi bo'lib, talabani ilk bor muxandislik olamiga olib kiradi va yuqori malakali muxandislar tayyorlashda muhim o'rinni egallaydi.

Kelajakda engil elementlar sintezidan hosil bo'ladigan termoyadro energiyasidan foydalanish muammosi ustidan ishlar olib borilmoqda. Bu muammo hal etilsa, energiya zahiralarning tugab borayotganligiga qaramasdan insoniyat energiyaga bo'lgan kelajakdagi ehtiyoji to'la qondirilishi mumkin.

Energetik tizimlarni loyihalashtirayotganda, ularni rivojlantirish va foydalanish davomida atrof muhitga ta'siri barcha jihatlari tomonidan ko'rib chiqilishi kerak. Shuning uchun muhandis-energetikka tabiat va unda bo'layotgan hodisalar to'g'risida bilimlar juda zarur.

Zamonaviy muhandis nafaqat maxsus texnik doirada yaxshi fikrlashi kerak, balki qabul qilinayotga qarorlarni atrof muhitga ta'sirini ko'ra bilishi lozim. Masalan, suv elektr stansiyasi qurilishda, katta joydagi erlarni suvgaga ko'milishi oqibatida aholini yashash joylaridan ko'chirishga to'g'ri keladi, bu o'z navbatida odamlarning kundalik hayotini o'zgartirishga va qishloq xo'jaligiga zarar etkazishga olib keladi. Bundan tashqari bu stansiyaning qurilishi tabiat mikroklimatiga ham ta'sir etadi. Agar qo'llanilayotgan birlamchi energiya manbalarini 100% deb hisoblasak, undan faqat 30-40% energiya olinadi; energiyani qolgan katta qismi issiqlik ko'rinishida yo'qotiladi.

Energiya yo'qotishlar asosan hozirgi davrdagi energetik mashinalarning texnik tavsiflari bilan ifodalanadi.

Bizni koinotimizda 6 mlrd. odam yashashligini hisobga olsak, yil davomida har bir odamga 25 mlrd.t/6 mlrd.odam=4,1 tonna energetik zahira to'g'ri keladi. Issiqlik kondensasion elektr stansiyalar organik yoqilg'i energiyasini avval mexanik, so'ngra elektr energiyasiga aylantirib beradi.

Bug' qozonlarini samaradorligini oshirish uchun suv barabaniga berilishdan oldin eknomayzerda 5, o'txonaga berilayotgan havo esa havo qizdirgichda 6 isitiladi. Barabandan chiqayotgan bug' qozonlarda suv va suv-bug' qorishmasi ularning zichliklar hisobiga tabiiy aylanadi. Bug'ni harorati va bosimi ortishi bilan suv-bug' zichliklari farqi kamayadi va aylanishi yomonlashadi.

Bug' qozonidan 6000°C haroratda va 30 MPa bosimda olingan bug' bug'quvuri orqali soploga uzatiladi. Soplo bug' ichki energiyasi molekulasi tartibli harakati kinetik energiyasiga qayta hosil qilib berish uchun mo'ljallangan. Hozirgi davrda turbinalar koep pog'onali qilib yasaladi, bir turbinaning o'zida ham reaktiv, ham aktiv turbina jam qilinishi mumkin.

IEM da markazlashgan issiqlik bilan ta'minlangan holda, 20-30% elektr energiyasi ishlab chiqarish mumkin. Kondensatsion stansiya ishi faqat katta miqdorda elektr energiyasi ishlab chiqarish bilan izohlanadi. Shuning uchun, IEM ning afzalliklari bo'lishiga qaramasdan, kelajakda asosan kondensasion elektr stansiyalari quriladi.

IEM larda keng miqiyosda gaz turbina qurilmalari dan foydalanilmoqda. Ularda ishchi jism sifatida yoqilg'i yonish mahsulotlari, katta bosim va haroratda qizdirilgan havodan foydalanilmoqda. GTQ da gazlarni issiqligini turbina rotorini aylantirish kinetik energiyasiga qayta hosil qilinadi. Konstruktiv va energiyani qayta hosil qilish jihatidan gaz turbinalar bug' turbinalardan farq qilmaydi. Lekin gaz turbinalar bug' turbinalarga qaraganda ixchamroq.

GTQ da ishlatilgan gazlar yuqori haroratga ega bo'ladi, bu esa termodinamik siklning FIK ga salbiy ta'sir etadi. Gaz va bug' turbina qurilmalarini birlashtirish, yoqilg'ini yonishdan hosil bo'lgan issiqlikdan umumiyo foydalanish hisobiga ishchi qurilmaning samaradorligini 8-10% ga oshiradi va tannarxini 25% ga kamaytiradi. Oxirgi vaqtarda gorizontal agregatlar (kapsulalar) qo'llana boshladi, ularda generator suv o'tmaydigan germitik kapsulaga joylashtirilgan. Bu agregatlar gidravlik xususiyatlarining yaxshiligi hisobiga ularning FIK yuqori (95-96%).

Pechning energiya, uran yadrosining parchalanishi natijasida hosil bo'lgan energiyadan issiqliq bug' yoki gaz olinib undan elektr energiyasi hosil qilinadi. Uran yadrosining parchalanishi uni neytronlar bilan bombordimonlash hisobiga sodir bo'ladi, buning natijasida yadro parchalari-neytronlar va boshqa parchalanish mahsulotlari hosil bo'ladi. Ular katta tezliklarga, ya'ni kinetik energiyaga ega. Yadro bo'linishi natijasida hosil bo'lgan energiya to'liq issiqlikka aylantiriladi. Boshqariladigan zanjirli yadro bo'linish reaksiyasi ketadigan qurilmaga yadro reaktori deyiladi. Energetik reaktorning quvvati, aktiv zonadan issiqlikni tez olish imkoniyatlari bilan belgilanadi.

AES xavfsizligini ta'minlashda birinchi navbatda uni aholi joylaridan 180-200 km uzoqlikda joylashtirish zarur. Bu joy seysmik jihatdan xatarsiz bo'lishi lozim.

Qo'lga kiritilgan yutuqlarga qaramasdan MGD-generatorlar uchun ishlatiladigan material olish hozirgacha hal etilgani yo'q. Elektr energiyasini bo'linishi cheksiz imkoniyatlar beradi. Katta va kichik quvvatlarga ega bo'lga qurilmalarni yaratishga imkon beradi.

Sanoat korxonalarini ishlab chiqarish sur'atlarini oshirish, yordamchi robot qurilmalarini elektrlashtirilganiga ham bog'liq. Yordamchi va transport ishlarini elektrlashtirish, asosiy ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarishdan ko'ra 3-4 marotaba samarali.

Kelajakda shahar ichki transportida, elektr energiyasini akkumlyatoridan oluvchi, elektromobil va elektrobuslardan foydalanish kutilmoqda. Tizimdag'i iste'mol sur'atlari pasayganda, akkumlyatorlarni zaryadlalab olish mumkin.

Insoniyat faoliyati natijasida har yili atmosferaga (350-400) (106 tonna chang chiqarib yuboriladi, tabiiy ofatlar natijasida esa bu ko'rsatkichdan 10 barobar ko'p chang chiqarilib yuboriladi.

Atmosferaga chiqarilib yuborilayotgan chang va boshqa chiqindilar koinotimiz bo'y lab notejis tarqalgan. Shahar joylarining changlanganligi qishloq joylariga qaraganda 9-10 marotaba yuqori.

Energetikani rivojlanishi natijasida arning yuza qismi ham ifloslanmoqda. Toshko'mirda ishlovchi IES va qozon qurilmalari katta kultepalar hosil qilinib, 1 GVt quvvatga ega IES yiliga yuzasi 0,5 km² va balandligi 2 metr bo'lgan kultepa hosil qiladi. Kultepalarni kulini qurilish materiallari sifatida foydalanish hozirgi davrda eng muhim masalalaridan biri.

Mutaxassislar fikriga ko'ra, biosfera muammosini echish va uni zahiralarini muhofaza qilish uchun, atrof muhitga inson tomonidan etkazilayotgan o'zgarishlar to'g'risidagi bilimlarni oshirish zarur va bu zararli ta'sirlarni kamaytirish yo'llarini izlash kerak.

FANNING IZOHLI LUG'ATI (GLOSSARIY)

- 1. Yuqori haroratli jarayonlar** – yuqori haroratlarni tashkil etilishi .
- 2. Yoqilg'ilar** –(mazut,gaz,koks gazi,kumir) .
- 3. Gorelkalar**-yoqish qurilmalari .
- 4. Texnologik qurilmalar** – issiqlik bilan ishlov berish .
- 5. Pishirish** –xar xil jisimlarni aniq issiqlikda pishirish .
- 6. Murakkab jarayonlar** –yoqilarni yonishi,gazlanish,tutun gazlarini harakati .
- 7. Elektrik pechlar**-elektr energiyasida ishlovchi pechlar.
- 8. Elektr yoyi** –elektr qizdirgichlar,elektr tegel, elektr oqim.
- 9. Sanoat pechlari** –sanoatda ishlataladigan barcha pechlar (erituvchi qizdiruvchi, pishiruvchi).
- 10. Ishchi bushlig'i**–(kamerali ,shaxtali ,tunelli).
- 11. Gz harakati** –yongan gazlarning harakatlanishi, issiqlikni uzatilishi .
- 12. Izolyatsion materiallar** – o'tga chidamli materiallar , qoplamlalar
- 13. Regenerativ qurilma** – havoni yongan gazlar hisobiga qizdirib beruvchi qurilmalar.

14. **Marten pechi** – aka –uka Martenlar sharafiga quyilgan ular ixtiro qilgan .
15. **Issiqlikni ishlatalish qurilmasi** –pechdan chiqayotgan gaz issiqligini ishlatalish uchun xizmat qiladi .
16. **So'rish qurilmasi** –yonib bo'lган gazni havoga chiqarish xizmat qiladi .
17. **Havo haydash qurilmasi** –yonilg'i yonish uchun kerak bo'lган havoni yetkazib beradi.
18. **Mexanik jih'ozlar-** pech ichidagi qizdirilayotgan jisimlarni h'arakati uchun xizmat qiladi .
19. **Avtomatik rostlagichlar** – pech ichidagi va tashqarida bo'ladigan jarayonlarni rostlash uchun xizmat qiladi .
20. **Sanoat pechlarining klassifikatsiyasi** – texnologik yo'naliishiga qarab (metalluriya, mashinasozlik, qurilish).
21. **Domna pechining vazifalari** – chuyan eritish uchun xizmat qiladi .
22. **Koks gaz** –toshko'mirni havosiz muhitda qizdirish orqali olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

- 1.Алимбоев А.У. Саноат ва иситиш қозонхоналари. Ташкент.ТашГТУ, 1998-130б.
- 2.Қаландаров Р.Конструкцион материаллар технологияси.Тошкент “Ўқитувчи” 1989й.254б.
- 3.Алимбоев А.У. Юқори ҳароратли техник жараёнлар ва қурилмалар. Ўкув қўлланма. Тошкент давлат техника университети. Тошкент, 2002. 140 б.
- 4.Алимбоев А.У. Юқори ҳароратли техник жараёнларни моделлаш. Ўкув қўлланма.ТошДТУ. 2002 йил.64 б.
- 5.Беляев А.А. Сжигание высокозольных топлив в топках с кипящим слоем промышленных котлов. – М.: МЭИ. 2004 г.
- 6.Основы современной энергетики. Том 1. современная теплоэнергетика. – М.: МЭИ, 2004 г., - 376 с.
- 7.Всероссийскому теплотехническому институту 80 лет. Спец. Выпуск журнала «Теплоэнергетика». 2001 г. – 125 с.

- 8.Под.ред. Седлова А.С. Повышение экологической безопасности ТЭС. Учебное пособие для вузов. – М.: МЭИ. 2001 г. – 370 с.
- 9.Троянкин Ю.В. Проектирование и эксплуатация высокотемпературных технологических установок. – М.: МЭИ. 2002 г. – 324 с.
- 10.Alimbaev A.U.SanoatdagiiKKilamchienergiyamanbalari. О'quvqo'llanmasi. Toshkent, ToshDTU, 1996 , 72 bet.
- 11.Лебедев О. Д., Щукин А. А. Теплоиспользующие установки промышленных предприятий(учебник). М., «Энергия», 2000.
- 12.Чечеткин А. В. Высокотемпературные теплоносители(учебник). М., «Энергия», 2001.
- 13.Забродский С. С. Высокотемпературные установки с псевдоожиженным слоем(учебник). М., «Энергия», 2001.
- 14.Несенчук А.П. Огнетехнические установки и топливоснабжение(учебник). –М.: Высшая школа, 2002.256с.
- 15.Аверин С.И. Расчет на нагревательных печей(учебник). – Харьков.2009.325с.
- 16.Жуковский В.В. Пособие для машинистов и операторов котельной. – СПб.: ЦОТПБСП, 2003. -108 с.
- 17.Jukovskiy V.V. Posobiye dlya mashinistov i operatorov kotelnoy. – SPb.: SOTPBPSP, 2003. -108 s.
- 18.Valchenko N.A., Gurko V.V. Prakticheskoye posobiye po vypolneniyu kursovogo proyekta po kursu «Visokotemperaturniye teplotexnicheskiye prosessi i ustanovki». - GGTU, 2001.
19. Под общей редакцией Е.В. Аметистова. Основы современной энергетики. Современная теплоэнергетика. –М., МЭИ. 2004г. 375с.
20. Дорохов Е.В. Управление качеством в теплоэнергетике. –М., МЭИ. 2003г. 50с.
- 21.Александровский В.Н. Элементы конструкций теплотехнических устройств. –М., МЭИ. 2000г.40с.

- 22.Росляков п .в . Малотоксичные горелочные устройства. –М., МЭИ. 2002г.60с.
- 23.Попов С.К. Разработка и расчет тепловых схем термодинамически идеальных установок. Теория и алгоритмы. –М., МЭИ. 2005г.60с.
24. Амосов А.А., Дубинский Ю.А., Копченова Н.В. Вычислительные методы для инженеров. –М., МЭИ. 2003г.596с.
- 25.Троянкин Ю.В. Проектирования и эксплуатация высокотемпературных технологических установок. –М., МЭИ. 2002г.320с.

INTERNET SAYTLARI

1. www.ziyonet.uz
2. www.twirpx.ru
3. [www. 03-ts.ru](http://www.03-ts.ru)
4. www.aseanenergy.org
5. www.iea.org
6. www.tgv.khstu.ru
7. www.polytech.sfu-kras.ru

MUNDARIJA

K I R I SH.....	5
I-BOB. YUQORI HARORATLI JARAYON HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHА	
1.1.Sanoat pechlari haqida tushunchalar.....	7
1.2. Sanoat pechlarining tasnifi.....	9
1.3. Sanoat pechlarining prinsipial sxemalari.....	11
II - BOB. YOQILG'I BILAN ISHLAYDIGAN PECHLAR	
2.1.Tunelli va shaxtali pechlar.....	16
2.2.Mavhum qaynovchi qatlamlı pechlar. Aylanuvchi barabanlı pechlar.....	20
2.3. Rejali (metodik) va kamerali qizdirish eritish pechlari.....	23
2.4. Metall erituvch marten pechi. Yallig' pechlar.....	28
2.5. Siklonli pishirish va eritishpechi.....	34
III-BOB.YOQILG'IDAN FOYDALANISH USULLARI	
3.1.Yuqori haroratli qurilmlarda yoqilg'idan foydalanishva ularni tejash.....	37

3.2. Energiya manbalarining umumiy tasnifi.....	40
3.3. Organik yoqilg'i va uning tasnifi.....	42
3.4. Tabiiy va sun'iy qattiq yoqilg'i.....	45
3.5. Suyuq va gaz yonilg'isi.....	53
3.6. Yoqilg'i issiqligi va havoning ortiqchalik koeffitsienti.....	66
3.7. Yoqishni yoqish usullari.....	70

IV-BOB. ELEKTRIK PECHLAR

4.1. Elektr energiyasi yordamida qizdirish usullari.....	74
4.2. Qarshilik pechlari. Induksion yuqori chastotali qizdirish.....	75
4.3. Yoqli qizdirish va eritish.....	77

V-BOB.YUQORI HARORATLI JARAYONLARDA BO'LADIGAN

HARAKATLAR

5.1. Elektron - nurli qizdirish va eritish.....	79
5.2. Plazmali qizdirish va eritish.....	81
5.3. Optik qizdirish va eritish.....	83

VI- BOB. JISMGA NURLANISH BILAN ISSIQLIK BERILISHI

6.1. Metalga nurlanish bilan berilgan issiqlik miqdori.....	85
6.2. Domna pechidagi issiqlik almashinushi.....	86
6.3. Issiqliknin domna pechidagi regeneratsiya sxemasi.....	87
6.4. Domnada choyan eritish va uning xususiyatlari.....	88
6.5. Po'latni chig'irlab yoyish jarayoni tavsifi.....	90

VII - BOB. PECHLARDA ISSIQLIK ALMASHUV JARAYONI

7.1. Yuqori haroratli jarayonlarda issiqlik almashuvini tashkil etish.....	96
7.2. Ichki va tashqi issiqlik almashuv.....	100
7.3. YuHQ lardagi issiqlik almashuvining holatlari.....	103
7.4. Pechning ishchi bo'shlig'idagi tashqi issiqlik almashuv.....	105
7.5. Yo'naltirilgan va bilvosita amalga oshiriladigan nurlanishli (radiatsion) issiqlik almashuv.....	106
7.6. Zich (filtrlovchi), yuqoridan tushuvchi va mavhumqaynayotgan material qatlamidagi tashqi issiqlik almashuv.....	108

7.7.Qizigan gazlar resirkulyasiyasi (qayta kiritilishi) va YuHQ larning issiqlik samaradorligini oshirish.....	111
--	-----

VIII-BOB.METALNI QIZDIRISHNING RATSIONAL TEXNOLOGIK ASOSLARI

8.1.Qizdirilayotgan metal ichida bo‘ladigan jarayon.....	115
8.2.Yupqa materiallarni qizdirish. Hajmi katta materiallarni qizdirish.....	117
8.3.Jismda haroratning taqsimlanishi.....	120
8.4.Jismni bir xil haroratda qizdirish.....	121
8.5.Jismni notejis harorat maydonida qizdirish.Jismni o‘zgarmas issiqlik oqimida qizdirish.....	122
8.6.Texnologik chiqindilarning klassifikatsiyasi.....	123

IX-BOB.PECHDAN CHIQAYOTGAN TUTUN GAZLARIDAN FOYDALANISH

9.1.Regenerativ issiqlik almashinuv qurilmalari.G‘ishtli regeneratorlar.....	126
9.2. Keramik (sopol) rekuperatorlar.....	129
9.3.Metaldan tayyorlangan rekuperatorlar. Cho‘yan rekuperatorlar.....	130
9.4. Nurlanishli (radiasion) po'lat rekuperatorlar.....	134
9.5.Bug‘li qozon utilizatorlar.....	139

X- BOB. SANOAT PECHINING ISSIQLIK MUVOZANATI

10.1.YuHQ larning issiqlik balansi (muvozanatlari).....	141
10.2.YuHQ lardagi foydali ish koeffitsientlari.....	144
10.3.YuHQ lardagi issiqlik balansi qismlarini hisoblash.....	146
10.4.Yoqilg‘iinig solishtirshma sarfi va uni kamaytirish usullari.....	151
10.5.Metallurgiya zavodining issiqlik balansi (muvozanati).....	154
10.6.Ayrim sanoat korxonalarinnig issiqlik balansi.....	157

XI-BOB. YUQORI HARORATLI QURILMALARNI MATEMATIK MODELLASH VA LOYIHALASH

11.1 .Asosiy tushunchalar.....	160
11.2. YuHQ lar ishlashini matematik modellash bosqichlari.....	164
11.3. Matematik modellarning tuzilishi.....	166

11.4. YuHQ reaktori matematik modelining asosiy tenglamalari	170
11.5. YuHQ ning ish holatini EHM da optimallash.....	174
11.6. YuHQ ni avtomatlashgirilgan loyihalash tizimi (ALOT).....	179
11.7. YuHQ ALOTining tarkibi va tuzilishi.....	180
11.8. ALOT ishlashini ta'minlovchi tizimlar.....	184
11.9. ALOTni yaratish va rivojlantirish bosqichlari.....	186
ILOVALAR.....	
GLOSSARIY (IZOHLI SO'ZLAR).....	189
FOYDALI MA'LUMOTLAR-MASLAHATLAR.....	190
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	194